



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

2025, №7

EDITION 7

<https://scientificjournal.uz/>



Osiyo Xalqaro
Universiteti

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 7-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2025



Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil
04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Bosh muharrir:

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:

Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas'ul kotib:

Sattorov Mirshod Erkinovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,

E-mail: sjkamolot@gmail.com

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

1936



Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.



TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

DEKCANOV S.S.	Osiyo xalqaro universiteti rektori
ABDULLAYEVA B.S.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
MAKSIMENKO S.D.	Psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina)
AKRAMOVA F.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
QODIROV U.D.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
ABDULLAYEVA D.U.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
URAZBAYEVA D.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
KARSHIYEVA D.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
JABBOROV X.X.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
GANJIYEV F.F.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
CHUDAKOVA V.P.	Psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina)
OLIMOV L.Y.	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor (O'zbekiston)
BAFAYEV M.M.	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
SATTOROV M.E.	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (O'zbekiston)
YANAKIYEVA YE.K.	Pedagogika fanlari doktori, professor (Bolgariya)
ROMM T.A.	Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)
HAMROYEV A.R.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
JO'RAYEV X.O.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
OLIMOV T.H.	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
KOZUBSOV I.N.	Pedagogika fanlari doktori, dotsent (Ukraina)
DAVRONOVA Sh.F.	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
KAMILOVA U.K.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
IBODULLAYEV Z.R.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
SALIMOV Sh.T.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
IXTIYAROVA G.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
BABADJANOV A.X.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
YUSUPBEKOV A.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
YUSUPALIYEVA G.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
BERNATSKIY G.G.	Yuridik fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)
KARIMOV B.Sh.	Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
MUSTAFA SAID ARSLON.	Filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
O'RAYEVA D.S.	Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
QILICHEV B.E.	Filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
RO'ZIYEVA M.Y.	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
TILEUKULOV G.S.	Tarix fanlari doktori, dotsent (Qozog'iston)
VOHIDOV Sh.X.	Tarix fanlari doktori, professor (Tojikiston)
HAYITOV Sh.A.	Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
TO'RAYEV H.H.	Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
QILICHOV O.A.	Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
ERGASHEV J.Y.	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
ABDURAHMONOV M.A.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
NAVRUZZODA B.N.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
MAHMUDOV N.M.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
BO'TABOYEV M.T.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
QODIROV A.A.	Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
URAYEV G.A.	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)



MUNDARIJA:

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

1	Olimov Temir Hasanovich. Bo'lajak o'qituvchilarda amaliy dars ishlanmalarini tayyorlash ko'nikma va malakalarni shakllantirish (Pedagogik me'yordan og'ishlikning xususiyatlari mavzusi misolida)	6
2	Ikramov Amirbek Aminovich. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligini shakllantirishda amaliy mashg'ulotlarda innovatsion yondashuvlarni tadqiq qilish	14
3	Nishanbekova Jadira O'rinboy qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli	25

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

4	Abdullayeva Barno Sayfutdinovna. Bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	32
5	Каримова Васи́ла Маманаси́ровна., Исмаги́лова Фа́йруза Сали́хджановна. Сравнительный анализ современных академических стандартов и устоявшихся исследовательских практик (На примере эмпирических исследований в психологии)	41
6	Nishanova Zamira Taskarayevna. Tadqiqotlarda izlanuchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar	51
7	Jabborov Azim Meyliqulovich. Psixologiyani ilmiy o'rganish – o'zlikni anglashning muhim omili	56
8	Akramova Feruza Akmalovna. Yoshlarni oilaga tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari	62
9	Abdurasulov Rustam Abduraimovich. Yosh sportchilarni muvaffaqiyatga erishishida shaxs yo'nalganligini ahamiyati	69
10	Qodirov Umarali Do'stqobilovich. Shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilmasi hamda yoshlik davriga oid ayrim ijtimoiy-psixologik va sotsiologik qarashlar	76
11	Абдуллаева Шоира Хамидовна. Профессиональное самоопределение и выбор профессии учащимися в психологическом знании	83
12	Jabborov Xazrat Xusenovich. Ma'rifiy jadalashish – ijtimoiy-psixologik barqarorlik omili sifatida	92
13	Bafayev Muxiddin Muxammadovich. Shaxs tolerantligining ijtimoiy-psixologik asoslari	102
14	Elov Ziyodullo Sattorovich. Deviant xulq atvorli o'smirlar orasida suitsid masalasining ilmiy o'rganilishi yuzasidan mulohazalar	112
15	Safarov Dilmurod Xalimovich. Samarali boshqaruvda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning ahamiyati	122
16	Ganjiyev Feruz Furqatovich. O'smirlarga agressivlik va uning o'ziga xos ko'rinishlari	133
17	Rustamov Shavkat Shuxrat o'g'li. Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirishning psixologik xususiyatlari	140
18	Djumaniyazova Muxayya Xusinovna. Talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyat yo'nalganligi ta'sirining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish	150
19	Maxmudova Zulfiya Mexmonovna. Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi omillarining korrelyatsiyon aloqadorligi	159
20	Qodirov Obid Safarovich. O'zbekistonda globallashtirish jarayonida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar psixoprofilaktikasi	172



21	Olimov Laziz Yarashovich. Sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligini	179
22	Avezov Olmos Ravshanovich. Ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish	189
23	Ikromova Sitora Akbarovna. Keksalik davrida ruhiy salomatlikning konseptual asoslarining matematik-statistik tahlili	197
24	O'ktamova Shohida Odilbek qizi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etishning psixologik jihatlari	202
25	Ahmadov Shohruh Rahmatulla o'g'li. O'smirlarda oilaviy nizolarini bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	214
26	Eshov Erkinovich Sattorovich. Yosh sportchilarda musobaqa oldi stressining psixologik xususiyatlari va uni kamaytirish strategiyalari	226
27	Саидов Голибжон Комилович. Тулайкина Евгения. Психологические барьеры адаптации студентов первого курса к высшему образованию	232
28	Саидов Иззатулло Истамович. Совершенствование психологические укрепления здоровья студентов через индивидуализацию и инновационные подходы в физическом воспитании в условиях вуза	242

07.00.00-TARIX FANLARI

29	Мажидов Жўрабек Жалилович. XX асрнинг 70-80 йилларида Бухорода йўл-транспорт ҳодисалари: сабаблар, муаммо ва ечимлар	247
----	---	-----

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AMALIY DARS ISHLANMALARINI TAYYORLASH KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH (Pedagogik me'yordan og'ishlikning xususiyatlari mavzusi misolida)



Olimov Temir Hasanovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya:

KIRISH: ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda amaliy dars ishlanmalarini tayyorlash ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o'ziga xosliklari yoritilgan. Shuningdek, "Me'yor" tushunchsi ifodalab berishning murakkabligi, u nafaqat terminologik, balki mazmun mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emasligi, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish va amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'linganidan so'ng uni amaliyotchi o'qituvchilar o'z faoliyatida qo'llash haqida fikr yuritilgan.

MAQSAD: bo'lajak o'qituvchilarda amaliy dars ishlanmalarini tayyorlash ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o'ziga xosliklari, muammo va mavzu tushunchalari bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, xabardorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Standart kompetensiya-ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati; Asosiy kompetensiya-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati; Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga alohida e'tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

XULOSA: bo'lajak o'qituvchilarda amaliy dars ishlanmalarini tayyorlash ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o'ziga xos metod, usul va texnologiyadan foydalanishning ahamiyati va ilmiy yo'nalish, muammo va mavzu tushunchalari bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, xabardorlik ko'nikmalarini shakllantirish borasida maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilmoqda, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berdik. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Kalit so'zlar: Anomal bolalar, iqtidorlilik, ijtimoiy me'yorlar, rivojlanosh da og'ishlik bo'lgan bola, nogiron bola, deviant xulq, delikvent xulq, qarovsizlik

ФОРМИРОВАНИЕ УМЕНИЙ И КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ К ПРАКТИКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ (На примере темы «Характеристики отклонений от педагогической нормы»)

Олимов Темир Хасанович

Доктор педагогических наук, доцент

Азиатский международный университет

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается формирование у будущих учителей навыков и компетенций в области составления планов практических занятий, их содержание и специфика. Также рассматриваются сложность формулировки понятия «норма», отсутствие у него однозначного определения не только в терминологическом, но и в содержательном плане, а также возможность разработки технологической карты урока и её широкого применения в практической деятельности, после чего практикующие учителя смогут использовать её в своей деятельности.

ЦЕЛЬ: Формирование у будущих учителей навыков и компетенций в области составления планов практических занятий, закрепление и углубление полученных теоретических знаний по их содержанию и специфике, проблемно-предметным понятиям, формирование навыков осознания, демонстрация научно обоснованных методов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Стандартная компетенция – способность выполнять постоянные и рутинные задачи, связанные с данной деятельностью; Основная компетенция – способность выполнять инновационные задачи, связанные с данной деятельностью; Ведущая компетентность – способность создавать новые виды профессиональной деятельности, уделяя ей особое внимание, является основой обеспечения конкурентоспособности современных кадров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Ведется целенаправленная работа по формированию у будущих учителей навыков и квалификации в составлении практических планов уроков, закреплению и углублению полученных теоретических знаний по их содержанию и значению использования конкретных методов, приемов и технологий, формированию навыков осознанности. Некоторые ее аспекты мы максимально полно осветили в данной статье. В перспективе одной из задач является ее изучение как целостного фундаментального исследования.

Ключевые слова: Аномальные дети, одаренность, социальные нормы, ребенок с отклонениями в развитии, ребенок с ограниченными возможностями здоровья, девиантное поведение, делинквентное поведение, безнадзорность

FORMATION OF SKILLS AND COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS IN PREPARATION OF PRACTICAL TEACHING WORK

(On the example of the topic of the characteristics of deviation from the pedagogical norm)

Olimov Temir Hasanovich

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Asian International University*

Annanation.

INTRODUCTION: This article discusses the formation of skills and competencies in the preparation of practical lesson plans in future teachers, its content and specifics. It also discusses the complexity of expressing the concept of "norm", the fact that it does not have a single expression not only in terminological terms, but also in terms of content and essence, and the possibility of developing a technological map of the lesson and its widespread application in practice, after which practicing teachers will be able to use it in their activities.

THE GOAL: To form skills and competencies in the preparation of practical lesson plans in future teachers, to consolidate and deepen the acquired theoretical knowledge on its

content and specifics, problem and subject concepts, to form awareness skills, and to show scientifically based methods.

MATERIALS AND METHODS: Standard competence - the ability to perform permanent and routine tasks related to this activity; Main competence - the ability to perform innovative tasks related to this activity;

Leading competence - the ability to create new types of professional activity, paying special attention to it, is the basis for ensuring the competitiveness of modern personnel.

CONCLUSION: Targeted, targeted work is being carried out to form skills and qualifications in future teachers to prepare practical lesson plans, to consolidate and deepen the acquired theoretical knowledge on its content and the importance of using specific methods, techniques and technologies, and to form awareness skills, we have covered some of its aspects in this article to the extent possible. One of the next tasks is to study it as a holistic fundamental research in the future.

Keywords: Abnormal children, giftedness, social norms, a child with developmental deviations, a child with disabilities, deviant behavior, delinquent behavior, neglect

Pedagogik og'ish ijtimoiy deviiatsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, unga nisbatan aniq va birmuncha tor ma'noga ega bo'lgan hodisa. Pedagogik me'yordan og'ishgan o'quvchi xulq-atvori darslarni uzrli sababsiz o'tkazib yuborish, darsdan va maktabdan tashqari tadbirlarda qatnashishdan qat'iy bosh tortish, maktab ichki tartib-qoidalariga rioya qilmaslik, emotsional noturg'unlik va asab-ruhiy tizimining qo'zg'aluvchanligi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Pedagogik og'ish, asosan, mikroijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Rivojlanishning qaysi bosqichida bo'lishian qat'iy nazar, har qanday jamiyatda, u eng jamiyatda, u eng rivojlangan, farovon, iqtisodiy rivojlangan mamlakat bo'ladimi yoki rivojlanayotgan jamiyatli ularda o'zlariga maxsus alohida e'tibor talab etadigan insonlar bo'ladi. Bunday insonlar biror bir jihatdan: jismoniy, psixik yoki ijtimoiy rivojlanishdan nuqsoni bor insonlardir. Bunday insonlar jamiyat va davlatda doimo alohida guruhga mansub bo'lib ajralib turadi. Ularga doimo maxsus munosabatda bo'lib kelingan. Biroq bu toifadagi insonlarga jamiyatning tarixiy-madaniy sharoitiga muvofiq turli davrlarda turlicha munosabatda bo'lib kelingan. Masalan, Qadimgi Spartada jismoniy, psixik nosog'lom bolalarni spartachilar qoyalardan uloqtirganlar. Bunday toifadagi insonlarga boshqa bir jamiyatda esa insonparvarlik nuqtai nazardan yondashganlar, ular mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatganlar. AQSh va Yevropaning mamlakatlarida hozirgi davrda nosog'lom, jismoniy kamchilikli bolalarga barcha teng huquqli insonlar qatori munosabatda bo'ladilar. Ularga jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qarab, bu insonlarni muammoli yoki imkoniyati cheklangan shaxs sifatida alohida maxsus e'tibor beriladi. "Muammoli inson" tushunchasi AQShda keng qo'lianilsa, Yevropa mamlakatlarida "imkoniyati cheklangan inson" iborasi ko'p ishlatiladi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan insonlarga munosabatda, eng avvalo sog'liq masalasi dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bunday insonlar soni dunyo miqyosida o'sib bormoqda. YUNESKOning istiqbol bo'yicha ma'lumotlarida yaqin vaqtda jahon hamjamiyati bu ko'rsatkichni o'zgartira olmaydi. Sog'lom muhit doimo insonlar ongida o'z chegarasiga ega bo'lib, chegaradan tashqi bo'lganlar "nome'yoriy", "potologik" deb belgilanadi. Amaliyotda inson anglagan yoki anglamagan holda o'zgalarni belgilariga muvofiq layoqatli yoki layoqatsiz deb baholaydi.

Me'yor tushunchasi tibbiyotda, psixologiya, pedagogika, sosiologiya va boshqa fanlarda keng qo'llanilib kelinadi. Bu tushuncha aniq va yaxlit, yagona, ta'rif berishga bo'lgan intilash muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Masalan, faqatgina tibbiyotda olimlar 200ga yaqin ta'rif berganlar. "Me'yor" tushunchasi ifodalab berishning murakkabligi shundaki, u nafaqat terminologik, balki mazmun mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emas. Masalan, axloqiy me'yorlar doimo bir xil, hamma uchun deb belgilana olmaydi. Shu sababli ham ular birinchidan, milliy o'ziga xoslik bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'zgarib turadilar. AQShda II jahon urushidan so'ng 2-3 o'n yilliklar mobaynida chekish odatiy "me'yor" hisoblangan bo'lib, unga jamiyatda bee'tibor bo'lganlar, hozirda, jamiyat bu sog'liq uchun zararli odatga qarshi turgan bir vaqtda, chekishga axmoqona xulq belgisi sifatida munosabatda bo'ladilar. Aslida qanchalik jamiyat demokratik tuzumga asoslangan bo'lsa, shunchalik shaxsning nostandart shakldagi xususiyatlariga chidamlimunosabatda bo'linadi, agar totalitar rejimga asoslangan bo'lsa, inson xulqini qattiq chegara doirasiga oladi, mabodo xulqiy og'ishlik xolatlariga yo'l qo'yilsa, ular rahmsizlik bilan jazolanadilar. Shuni unutmaslik loimki, me'yor bu shunday g'oyaviy hosilaki, unda ob'ektiv borliq (reallik) shartli ravishda, o'rtacha statistic ko'rsatkich bo'yicha, real haqiqat tavsiflanadi, biroq unda mavjud holatlar ifodalanmaydi. Tibbiyot, psixologiya, sosiologiyada me'yorning o'z ko'rsatkichlari parametr (o'lchami), tavsifnomalari mavjud. Me'yorga muvofiq bo'lmagan bo'lmagan holatlar barchasi boshqa so'z "me'yordan og'ishlik" deb yuritiladi.

Ijtimoiy pedagogika "me'yor" va "me'yordan og'ishlik" tushunchalari juda muhimdir. Ular bolaning ijtimoiy xulq – atvori rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo'llaniladi. Xulqiy og'ishlik negaiv va pozitiv xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, me'yordan xulqiy og'ishlik xolati bola rivojlanishida ham aqliy norasolik va qobiliyatlilik bo'lib ifodalanishi mumkin.

Bola xulq-atvoridagi bunday negativ xulqiy og'ishlik jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar sifatida insonning (nafaqat inson, balki jamiyatning) ijtimoiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulq atvordagi pozitiv og'ishlikka ijtimoiy ijodning barcha shakllari taalluqli bo'lib, ular: iqtisodiy tadbirkorlik, ilmiy vabadiiy ijodkorlik va boshqaalr, aksincha eski me'yorlar o'rniga almashinuvi ijtimoiy tuzim rivojlanishiga hizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Me'yordan og'ishlik tiplari.

Me'yordan og'ishlikni shartli ravishda 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Jismoniy
2. Psixik
3. Pedagogik
4. Ijtimoiy

Me'yordan jismoniy og'ishlik insonning sog'lig'i bilan bog'liq bo'lib, tibbiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. U bolalarning yosh ko'rsatkichlari va jinsi bilan (og'irlilik, bo'y uzunligi, ko'krak kengligi va boshqalar) ifodalanadi. Ular bolaning sog'lig'ini xarakterlaydi. Aslida bular ideal ko'rsatkichlar bo'lib, bunday ko'rsatkichlarga to'la muvofiq keladigan bolani topish qiyin bo'lsa kerak. Jismoniy jihatdan me'yordan og'ishgan bolalarni ijtimoiylashtirish alohida qiyinchilik bilan amalgam oshirilib, maxsus ishlarni talab etadi.

Amaliy mashg'ulot mavzusi:**Pedagogik me'yordan og'ishlikning xususiyatlari.**

Pedagogik me'yordan chetga chiqish

Me'yordan chiqish tiplari va unga xarakteristika

1-Topshiriq

Quyidagi qaysi sifatlovchi belgilar insonni shaxs va individ sifatida tavsiflaydi. To'g'ri javoblarni o'ngdagi ustunga o'tkazing. Tanlovingizni izohlab bering.

Asosiy ruyxat	Individ	Shaxs
* Vijdoniylik		
* qat'iylik		
* subutsizlik		
* chaqqonlik		
* vatanparvarlik		
* faoliyatdagi tezkorlik		
* talabchanlik		
* vazminlik		
* kuzatuvchanlik		
*Harakatdagi shiddatlilik		
*saxovatlilik		
*kirishimlilik		
*milliy g'urur		
*ozodalik		
*halollik		
*qo'rqoqlik		
*tanballik		
*tashabbuskorlik		
*faollik		
*yovuziik		
*kamtarlik		
*farosatlilik		
*jizzakilik		
*quvnoqlik		
*xushmuomalalik		
*axloqsizlik		

2-topshiriq: «O'z-o'zini diagnostika qilish» mavzusida laboratoriya ishini bajaring.

Maqsad: Inson xarakteri, xulq-atvori, shaxsiy sifatlovchi belgilariga to'g'ri, oqilona, adekvat yondashishga o'rgatish.

Buni tekshirib ko'rish uchun, 1-dan, quyida keltirilgan («Asosiy ro'yxat» deb nomlanmish) belgilar orqali uch guruhdan iborat ro'yxat tuzib oling. Birinchi guruhdagi ro'yxatni «Ideal», ikkinchisini «Men», uchinchisini esa «Men odamlar nigohida» deb nomlang; 2-dan, daftarda abscissa va ordinata o'qidan iborat grafik tuzing. Bunda absissa o'qida sifatlovchi belgilar yotishini («asosiy ro'yxat»dagi nomlar bo'yicha), ordinata o'qi esa sifatlovchi belgilarning ro'yxatdagi o'rnini ko'rsatishini unutmang. Masalan, berilgan asosiy ro'yxat bo'yicha talabchanlik sifati 10 o'rinda belgilangan.

Siz 1 guruhning «Ideal» ro'yxatini tuzar ekansiz, idealingiz uchun talabchanlik nechanchi o'rinda ekanligini aniqlab, ordinata o'qida joylashtirasiz; 2-chi ro'yxat «Men»ni tuzayotganda esa, endi ehtimol talabchanlikni aynan o'zingiz uchun nechanchi o'rinda ekanligini aniqlaysiz, ya'ni siz qay darajada talabchansiz. (2,5 va h.k.)

Ro'yxatdagi barcha nuqtalami ordinata o'qi bo'yicha belgilab chiqqaningizdan so'ng (uchala ro'yxat asosida), nuqtalami tutashtirib, egri chiziq yasaysiz. Uchinchi ro'yxat ham ordinata o'qida shu asnoda tuziladi.

Yasalgan uchala chiziqlarning o'rtasidagi farqni yaxshilab o'rganib chiqing va tegishli xulosalar chiqaring.

Masalan, «Ideal» va «Men» nomli ro'yxatlar bo'yicha belgilangan nuqtalar orasidagi farqning juda keskin bo'lishi shaxsning o'zini-o'zi baholashda o'ta tanqidiy yondashganligidan dalolat beradi va aksincha, «ideal» va «men» orasidagi tafovutning deyarli sezilmasligi esa shaxs o'ziga ortiqcha baho berganligidan dalolat beradi.


Shaxsning ayrim sifatlarini belgilovchi tushunchalar ro'yxati:

1. Haqqoniylik	13. Kamtarlik
2. Vatanparv arlik	14. Faollik
3. Olijanoblik	15. Milliy g'urur
4. Tashabbuskorlik	16. Kechirimlilik
5. O'ziga o'zi tanqidiy yondashish	17. Saxovatlilik
6. Samimiylik	19. Iy monlilik
7. Xushmuom alalik	18. Poklik
8. Pokizalik	20. Halollik
9. Qat'iy atlilik	21. His-tuyg'uga beriluvchanlik
10. Talabchanlik	22. Donolik
11. Insoparvarlik	23. Intizomlilik (ro'yxat bo'yicha tuziladi)
12. Sabr-toqatlilik	

3. «Ma'rifatli va ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlarini» «Shaxsning kamol topishida mustaqillikning ma'naviy zaminlari», «Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi» niavzularidan biriga esse yozing.



Shaxsni baholashda sifatlovchi belgilar
bo'yicha tuziladigan grafik.



««Ideal», «Men», «Men» odamlar nigohida» ro'yxatlari bo'yicha yasalgan egri chiziqlarni turli rangli bo'yoqlarda bajargan ma'qul.

- Bu ish jar ayonida qanday xulosaga keldingiz?
- Shaxs faoliyatida vatanparvarlik, irtsonparvarlik, milliy g'urur, tashabbuskorlikning roli qanday deb o'y laysiz?

1. Mutaxassisligingizga doir o'quv predmeti bo'yicha yopiq, ochiq, muvofiqlikni aniqlashga va davomiylikni to'g'ri belgilashga doir test topshiriqlaridan namunalar ishlab chiqing.

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasa(maktab)larida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'ri sida nizomni chuqur o'rganib chiqing. Ushbu nizomdan va unda keltirilgan jadvalardan foydalanib, o'z faningiz bo'yicha reyting xaritasini ishlab chiqing.

3. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha, baholash mezonlari va tamoyillarining ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida referat yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Olimov Temir Hasanovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Osiyo xalqaro universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TADQIQ QILISH



Ikramov Amirbek Aminovich

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor, Osiyo xalqaro universiteti*

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda amaliy mashg'ulotlarga innovatsion yondashuvlarni, xususan raqamli texnologiyalar, AR/VR tizimlari va mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqot doirasida 200 nafar talabadan so'rovnoma o'tkazilib, ularning jismoniy faolligi, texnologiyalardan foydalanish holati, motivatsiya darajasi va innovatsion vositalarga munosabatlari tahlil qilingan.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya faniga innovatsion yondashuv zaruriyati ortib bormoqda. Talabalar salomatligini saqlash, jismoniy faolligini rag'batlantirish va darslarga qiziqishni oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni ortib bormoqda. Shu sababli, ushbu maqolada zamonaviy vositalar orqali amaliy mashg'ulotlarni takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: Maqolaning asosiy maqsadi – AR/VR texnologiyalari va mobil ilovalar orqali talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirishda innovatsion metodlarning samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda anketali so'rovnoma usuli qo'llanildi. So'rovnomada 200 nafar turli yo'nalishlardagi talabalar ishtirok etdi. Ular texnologiyalarga bo'lgan munosabati, AR/VR tajribasi, mobil ilovalar orqali mashg'ulotlarni nazorat qilish darajasi va haftalik jismoniy faolligi haqida javoblar berdi. Tahlil statistik grafiklar yordamida amalga oshirildi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar innovatsion vositalarga yuqori darajada ijobiy munosabat bildirgan. AR/VR texnologiyalari orqali mashg'ulotlar yanada qiziqarli va samarali kechishi, mobil ilovalar esa shaxsiy rivojlanishni kuzatishda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Shu bilan birga, texnik bazaning sustligi, pedagoglarning yetarli tayyorgarligi yo'qligi va metodik adaptatsiyaning murakkabligi asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatildi. Muammolarni hal etish uchun texnik infratuzilmani yangilash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va an'anaviy-uslubiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, innovatsion yondashuv, AR/VR texnologiyalari, mobil ilovalar, interaktiv platformalar, talabalar, jismoniy tarbiya.

СООТНОШЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Икрамов Амирбек Аминович

Доктор педагогических наук (PhD), профессор

Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье на научной основе изучаются возможности использования инновационных подходов, в частности цифровых технологий, систем AR/VR и мобильных приложений в практических занятиях по повышению физической подготовки студентов вузов. В рамках исследования был проведен опрос 200 студентов, проанализирована их физическая активность, уровень мотивации, использование технологий и отношение к инновационным средствам.

В последние годы в системе высшего образования все более актуальным становится инновационный подход к преподаванию физической культуры. Для повышения интереса студентов, поддержания их здоровья и мотивации возрастает роль цифровых решений. В данной статье рассматриваются пути совершенствования практических занятий с использованием современных технологий.

ЦЕЛЬ: Определение эффективности инновационных методов, основанных на AR/VR технологиях и мобильных приложениях, в процессе физической подготовки студентов, а также анализ проблем и выработка предложений по их решению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Был применен анкетный опрос. В нем приняли участие 200 студентов различных направлений. Оценивались уровень физической активности, отношение к технологиям, опыт использования AR/VR, регулярность контроля через мобильные приложения. Данные обрабатывались с помощью статистического анализа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты исследования показали высокую заинтересованность студентов в инновационных средствах. AR/VR делают занятия более интересными и эффективными, а мобильные приложения способствуют самостоятельному отслеживанию прогресса. Основными барьерами были названы ограниченность технической базы и неподготовленность преподавателей. Рекомендуется обновление инфраструктуры, повышение квалификации кадров и интеграция традиционных и инновационных подходов.

Ключевые слова: физическая подготовка, инновационный подход, AR/VR технологии, мобильные приложения, интерактивные платформы, студенты, физическое воспитание.

INNOVATIVE APPROACHES IN PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

Ikramov Amirbek Aminovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Professor,

Asian International University

Annatation.



INTRODUCTION: This article scientifically explores the use of innovative approaches in physical training classes of university students, particularly the application of digital technologies, AR/VR systems, and mobile applications. A survey was conducted among 200 students to assess their physical activity, technological engagement, motivation levels, and their perception of innovative tools.

In recent years, an innovative approach to physical education in higher education has become increasingly necessary. Digital technologies play a key role in improving students' engagement, motivation, and health. This paper explores how modern tools can enhance the effectiveness of practical physical training.

THE GOAL: To determine the effectiveness of using AR/VR technologies and mobile applications in improving students' physical readiness, identify the challenges involved, and propose evidence-based recommendations.

MATERIALS AND METHODS: A questionnaire survey was used involving 200 students from various academic backgrounds. Data on students' physical activity levels, experience with AR/VR, and use of mobile apps for monitoring workouts were collected and analyzed statistically.

CONCLUSION: The study revealed strong interest in innovative technologies. AR/VR increased student engagement and training effectiveness, while mobile apps helped in monitoring individual progress. Key challenges include limited technical infrastructure and lack of teacher preparedness. It is recommended to upgrade technical resources, improve staff qualifications, and integrate traditional and modern teaching methods.

Keywords: physical training, innovative approach, AR/VR technologies, mobile applications, interactive platforms, students, physical education.

Bugungi kunda jahon miqyosida yoshlar o'rtasida jismoniy faollikning yetarli emasligi dolzarb muammolardan biriga aylangan. Jismoniy harakatsizlik turli xil sog'liq muammolariga, xususan yurak-qon tomir kasalliklari va semizlikka olib kelishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yetarli darajada faol bo'lmagan insonlarda o'lim xavfi faol odamlarga nisbatan 20–30% ga yuqori bo'lib, 2009 yilda jismoniy harakatsizlik global o'lim sabablari orasida to'rtinchi o'rinni egallagan (umumiy o'limlarning 6%iga sabab bo'lgan) Talabalar hayot tarzida ham sedentarlik (kamharakatlilik) kuzatilmoqda, bu esa ularning jismoniy tayyorgarligi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini takomillashtirish hamda talabalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi dolzarbdir.

O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, oxirgi yillarda yoshlar o'rtasida jismoniy faollikni oshirish va ommaviy sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, yurtimizda amalga oshirilayotgan "5 ta muhim tashabbus" loyihasining biri aynan yoshlarni sportga jalb etishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida muntazam sport tadbirlari va musobaqalar o'tkazilmoqda. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan qator dasturlar ham mavjud. Shunga qaramay, talabalarning kundalik jismoniy faolligi hali ham talab darajasida emasligi kuzatilmoqda. Aksariyat talabalar dars vaqtining tashqarida kam

harakat qiladi, jismoniy tarbiya darslarida esa faqat minimal darajada faol bo'ladi. Bunda zamonaviy turmush tarzi, o'quv yuklamalarining ko'pligi hamda ko'ngilochar va ijtimoiy faoliyatlarning ko'proq virtual muhitga ko'chib borayotgani o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bir vaqtning o'zida, raqamli texnologiyalar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan: 2024 yil holatiga ko'ra O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 29,5 million kishiga yetib, aholi orasida internetning proniksiya darajasi 83% dan oshgan. Bu esa oliy ta'lim muassasalari talabalari ham internet va smartfonlardan keng foydalanuvchilar ekanini anglatadi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga qiziqishi va ularning kundalik hayotida raqamli qurilmalar keng o'rin egallayotgani mazkur muammoni hal etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. So'nggi yillarda kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalari ta'lim va sport sohasiga jadal kirib kelmoqda. Xususan, AR va VR yordamida foydalanuvchilarga immersiv (sho'ng'ish hissi beruvchi) muhit yaratib, jismoniy mashqlarni qiziqarliroq va samaraliroq qilish mumkin. Dunyo tajribasida bunday innovatsion yondashuvlarning samarasi haqida dastlabki dalillar paydo bo'lgan: masalan, AR asosidagi ommaviy o'yin - Pokemon GO butun dunyo bo'ylab millionlab insonlarni ko'proq piyoda yurishga undab, jismoniy faollikni sezilarli oshirgan hamda ishtirokchilarning ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan. Shuningdek, mobil ilovalar orqali foydalanuvchilarning qadamlar sonini, yugurish masofasini va boshqa faoliyat ko'rsatkichlarini qayd etib borish hamda tarixiy natijalarni ko'rsatish orqali ularni o'z rekordlarini yangilashga undash mumkinligi aytilgan; bu esa muntazam jismoniy mashg'ulotlarga motivatsiyani oshiradi. Virtual reallikka asoslangan mashg'ulotlar talabalarining jismoniy tarbiya darslaridagi ishtirokini, motivatsiyasini va ko'nikmalarni egallash samaradorligini oshirishga yordam berishi haqida ham ilmiy manbalarda qayd etilgan. Masalan, VR texnologiyasi qo'llangan tajribalarda talabalar mashqlarni bajarish natijalarini va jismoniy faollikka rioya etish darajasini yaxshilagan, hamda yangi ko'nikmalarni yaxshiroq eslab qolishga erishilganligi kuzatilgan. Shuningdek, jismoniy mashqlarni o'yinga aylantiruvchi maxsus videoo'yinlar (ekzergeymilar) orqali ham talabalarining jismoniy tayyorgarlikdagi natijalarini yaxshilash mumkinligi ko'rsatilmoqda - o'tkazilgan meta-tahlilada bunday o'yinlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgani aniqlangan ($SMD = 0,45$, $p < 0,00001$).

Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida ana shunday innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirish imkoniyatini o'rganish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir. Maqolada AR/VR texnologiyalari, mobil ilovalar va boshqa interaktiv platformalarning amalī mashg'ulotlardagi samaradorligi talabalardan olingan so'rovnoma natijalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot savollari quyidagicha edi: (1) Talabalar jismoniy mashg'ulotlarda raqamli texnologiyalar (AR/VR, mobil ilova va boshqalar) qo'llanilishiga qanday munosabatda? (2) Bunday texnologiyalar joriy etilganda ularning jismoniy faolliги va motivatsiyasida qanday o'zgarishlar kuzatilishi mumkin? (3) Innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda qanday muammolar yoki to'siqlar mavjud? Ushbu savollarga javob topish uchun 200 nafar talaba o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi va natijalar ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar yoritilgan ilmiy manbalar bilan solishtirilib tahlil qilindi.

Tadqiqot usuli sifatida so'rovnoma tanlandi. So'rovnomada Osiyo xalqaro universitetining 200 nafar talabasi ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlab olindi va ular turli fakultet hamda ta'lim yo'nalishlarining 1-3-kurs talabalarini o'z ichiga oldi. Respondentlarning yoshi 18 dan 24 yoshgachani tashkil etib (o'rtacha $20,3 \pm 1,2$ yosh), ularning 55% erkak va 45% ayol talaba edi. So'rovnoma anonim tarzda o'tkazilib, unda quyidagi bo'limlar mavjud edi:

Demografik ma'lumotlar: yosh, jins, fakultet va kurs.

Jismoniy faollik darajasi: haftasiga nechta kun jismoniy mashg'ulot (sport bilan shug'ullanish yoki jismoniy tarbiya darsi)da ishtirok etishi, o'rtacha bir haftalik jismoniy mashg'ulot vaqti (daqiqalarda), hamda talabalar o'z jismoniy tayyorgarligi darajasini (yaxshi, o'rtacha, past) sub'ektiv baholashi.

Texnologiyalardan foydalanish holati: smartfon va kiyiladigan qurilmalar (fitnes-trekerlar)dan foydalanish darajasi, jismoniy faollikni kuzatish uchun mobil ilovalardan foydalanish (ha/yo'q), shu jumladan qaysi turdagi ilovalar (masalan, qadam o'lchagich, yugurish yoki fitnes dasturlari, dietani nazorat qilish va boshqalar).

AR/VR haqidagi tajriba va fikrlar: talabalarning AR yoki VR texnologiyalardan avval foydalanib ko'rgan-ko'rmaganligi (masalan, AR o'yinlari yoki VR qurilmalari yordamida), agar foydalangan bo'lsa, qaysi turdagisi; agar foydalanmagan bo'lsa, kelgusida bunday imkoniyat bo'lsa foydalanishga qiziqishi; AR/VR texnologiyalari jismoniy mashg'ulotlarni qiziqarliroq qilishi haqida fikri.

Interaktiv platformalar va ijtimoiy rag'bat: talabalarning jismoniy mashg'ulotlarda onlayn platformalar (masalan, virtual musobaqalar, ilova ichidagi reytinglar, do'stlar bilan raqobat)ga munosabati; bunday ijtimoiy o'zaro ta'sir va gamifikatsiya elementlari ularning motivatsiyasiga ta'siri haqidagi fikrlari.

To'siqlar va takliflar: talabalar nazarida jismoniy tarbiya darslariga texnologiyalarni joriy etishga to'sqinlik qiluvchi omillar (masalan, uskunaning yo'qligi yoki qimmatligi, o'qituvchilarning tayyorgarligi, texnik muammolar) va ushbu sohada taklif qilinadigan yechimlar yoki qiziqarli g'oyalar).

So'rovnoma savollari Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining jismoniy faollik bo'yicha Global so'rovnomasi (GPAQ) hamda ilgari chop etilgan ilmiy ishlardagi savollardan moslashtirilib tuzildi. So'rovnomani qo'llashdan oldin, uning savollarini 5 nafar mutaxassis (jismoniy tarbiya o'qituvchilari) ekspert sifatida ko'rib chiqdi va tushunarlilik darajasi baholandi. Shuningdek, so'rovnoma savollari kichik hajmdagi pilot sinov (20 nafar talaba)da sinab ko'rildi va natijalarga ko'ra ayrim savollarga o'zgartishlar kiritildi. Tadqiqot boshlanishidan avval har bir ishtirokchiga tadqiqot maqsadi tushuntirilib, ulardan ongli rozilik olindi. So'rov jarayonida ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlanishi ta'minlandi. Yig'ilgan ma'lumotlar MS Excel dasturiga kiritilib, natijalar ustida deskriptiv statistika usullari (foizlar, o'rtacha qiymatlar, standart og'ish) yordamida tahlil o'tkazildi. Ayrim kategoriyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun xi-kvadrat (χ^2) testidan foydalanildi hamda guruhlar kesimidagi ko'rsatkichlarni taqqoslashda Student t-testi qo'llanildi.

So'rovnomada ishtirok etgan talabalar soni $N = 200$ nafarni tashkil etdi. Ularning 55% erkak va 45% ayol bo'lib, yoshi 18 dan 24 yoshgacha oraliqda (o'rtacha $20,3 \pm 1,2$ yosh) edi. Talabalar haftasiga o'rtacha 2,8 marta jismoniy mashg'ulot (shu jumladan sport to'garaklari

yoki mustaqil ravishda jismoniy tarbiya) bilan shug'ullanishlarini ma'lum qilishdi. Haftasiga ajratiladigan jismoniy mashq vaqti o'rtacha 130 ± 45 daqiqani tashkil etdi. Respondentlarning atigi 45% haftasiga tavsiya etiladigan 150 daqiqa yoki undan ko'proq jismoniy faollikka erishishayotganini bildirdi. So'rovda talabalar o'z jismoniy tayyorgarlik darajasini ham baholashdi: ularning 32% o'zini "yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega" deb hisoblagan bo'lsa, 50% "o'rtacha" darajada, va 18% "past" deb baholagan. Jadval 1 da respondentlarning demografik va jismoniy faollik ko'rsatkichlari umumlashtirib berilgan.

Jadval 1. Respondentlarning demografik va jismoniy faollik tavsifi.

KO'RSATKICH	Qiymat
Ishtirokchilar soni (N)	200
Yoshi (o'rtacha $\pm$ SD)	$20,3 \pm 1,2$ yosh
Erkaklar ulushi	55%
Ayollar ulushi	45%
Haftasiga mashg'ulotlar soni (o'rtacha)	2,8 marta
Haftalik mashg'ulot davomiyligi (daq.)	130 ± 45 daqiqa
150 daqiqa/hafta faollikka erishuvchilar	45%
Jismoniy tayyorgarligini "yaxshi" deb baholaganlar	32%
"O'rtacha" deb baholaganlar	50%
"Past" deb baholaganlar	18%

Talabalarning raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish holatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, respondentlarning aksariyati smartfon va internetdan faol foydalanuvchilardir. Jumladan, so'rovda 60% talaba jismoniy faolligini kuzatish yoki mashg'ulotlar rejasini tuzish uchun kamida bitta mobil fitnes-ilovadan foydalanganini tasdiqladi. Eng ko'p tilga olingan ilovalar qadamlarni hisoblovchi pedometr, yugurish yoki velosiped mashqlarini yozib boruvchi dasturlar va sog'lom turmush tarzini nazorat qiluvchi boshqa dasturlar bo'ldi. Bundan tashqari, talabalarning 20% i ilgari kengaytirilgan reallik (AR) asosidagi ilova yoki o'yinlarni (masalan, Pokemon GO yoki shunga o'xshash AR-fitness o'yinlarini) hech bo'lmaganda bir marta sinab ko'rganini bildirdi. Virtual reallik (VR) texnologiyasidan foydalangan talabalar soni nisbatan kam — atigi 5% talaba VR ko'zoynaklar orqali qandaydir jismoniy faol o'yinni yoki simulyatsiyani tajriba qilgan.

Shunga qaramay, so'rov natijalari ko'rsatmoqdaki, talabalar orasida bunday texnologiyalarga nisbatan qiziqish juda yuqori. Respondentlarning 85% i "AR yoki VR texnologiyalari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini qiziqarliroq va jalb etuvchi qilishi mumkin" degan fikrga qo'shildi. Talabalarning taxminan 70% i agar jismoniy tarbiya darslarida bunday innovatsion texnologiyalar joriy etilsa, mashg'ulotlarda ishtiroki va muntazamligi oshishini kutishini aytib o'tdi. So'rov ishtirokchilari shuningdek, maxsus interaktiv platformalar (masalan, onlayn musobaqalar yoki ilova ichidagi reyting tizimlari) jismoniy mashqlarni bajarishda qo'shimcha rag'bat berishi haqida ham mulohaza

bildirdilar – 75% respondent bunday platformalar sog'lom raqobat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali ularni ko'proq harakatlanishga undashini tasdiqladi.

Texnologiyalarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tatbiq etishda qaysi omillar to'sqinlik qilishi mumkinligi borasida ham qiziqarli ma'lumotlar olindi. Talabalarning yarmidan ko'pi – 52% atrofida – eng asosiy to'sqinlik omili sifatida kerakli jihoz va texnologiyalarning yo'qligi yoki qimmatligini ko'rsatdi. Xususan, ko'pchilik VR uskunalari (ko'zoynak, datchiklar) yoki boshqa texnik vositalar har bir talaba uchun to'liq taqdim etilishi qiyin ekani, bu esa keng ko'lamda joriy etishga to'siq bo'lishini ta'kidladi. Respondentlarning 30% chamasining fikricha, ikkinchi asosiy muammo – bu o'qituvchi va murabbiylarning yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarlicha tayyor emasligi. Ba'zi talabalar esa dastlabki bosqichda texnologiyadan foydalanish dars jarayonini chalg'itishi yoki barcha talabalar uchun ham birdek qiziq bo'lmasligi mumkinligini ham qayd etdilar. Shuningdek, so'rovnomadagi ochiq savollarga talabalar tomonidan qator qiziqarli takliflar bildirildi. Ko'p takrorlangan g'oyalardan biri – jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun maxsus mobil ilova ishlab chiqish bo'lib, unda dars jadvali, mashqlar bo'yicha videoqo'llanmalar, talabalarning reytingi va o'zaro muloqoti kabi funksiyalar jamlanishi taklif qilindi. Ba'zi talabalar kampus hududida AR texnologiyasi yordamida “xazina qidirish” singari interaktiv yugurish musobaqalarini o'tkazishni taklif qilishdi – bunda talabalar guruhlariga bo'linib, turli nuqtalarga yugurib borib AR orqali ko'rinadigan belgilarni topishlari kerak bo'ladi. Yana bir taklif – jismoniy tarbiya darslariga VR trenajyorlarini (masalan, velosiped trenajyorini) keltirib, navbat bilan undan foydalanish orqali mashg'ulotlarni yanada qiziqarli qilish. Bu takliflar talabalarning innovatsion yondashuvlarga qiziqishi naqadar yuqori ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, talabalarning ko'pchiligi raqamli texnologiyalarni jismoniy faollikda qo'llash tarafdori bo'lib, ayniqsa AR/VR texnologiyalari ularga katta qiziqish uyg'otadi. Qo'shimcha tahlillar shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar orqali jismoniy faolligini kuzatib boruvchi talabalar haftasiga o'rtacha ko'proq kun sport bilan shug'ullanmoqda ($3,2 \pm 1,1$ kun), bu esa ilova ishlatmaydigan talabalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ($2,3 \pm 1,0$ kun, Student t-testi, $p < 0,01$). Shuningdek, ilova foydalanuvchilari orasida o'z jismoniy tayyorgarligini "yaxshi" deb baholaganlar ulushi 45% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich ilovadan foydalanmaydiganlarda atigi 15% bo'lgan; χ^2 testi natijalariga ko'ra ushbu tafovut statistik jihatdan ahamiyatli ($\chi^2 = 19,5$; $p < 0,001$).

Olingan natijalar talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga innovatsion yondashuvlar joriy etilishiga nisbatan ijobiy munosabatini yaqqol ko'rsatadi. So'rovnoma ishtirokchilarining aksariyati (85%) AR va VR texnologiyalari mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va interaktiv qilishi mumkinligini ta'kidlagan bo'lsa, bu natija boshqa tadqiqotlarda qayd etilgan tendensiyaga muvofiqdir. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar ham VR qo'llangan jismoniy tarbiya darslarida talabalar ishtirokini va motivatsiyasini oshganini, shuningdek, mashqlar texnikasini o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'lganini tasdiqlagan. Bizning so'rov natijalarimizda talabalarning 70% ga yaqini innovatsion texnologiyalar joriy etilganda o'zining mashg'ulotlarda qatnashish faolligi ortishini kutgani, ushbu texnologiyalar chindan ham talabalarni ko'proq jalb eta olishini ko'rsatadi.

So'rovda respondentlar orasida jismoniy faollikni kuzatishga mo'ljallangan mobil ilovalar keng tarqalganligi aniqlandi (60%). Bu holat zamonaviy yoshlar orasida smartfon ilovalari jismoniy faollikni rag'batlantiruvchi vosita sifatida dolzarbligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fitnes ilovalar foydalanuvchilari o'z natijalarini doimiy kuzatib borishi va tarixiy ko'rsatkichlar bilan solishtirishi ularda o'z rekordlarini yangilashga intilishni uyg'otadi, natijada muntazam mashg'ulotlarga moyillik oshadi. Masalan, ayrim ommalashgan mobil ilovalar (pedometrlar) foydalanuvchiga kun davomida bosib o'tgan qadamlar sonini ko'rsatib, kunlik maqsad bajarilganda virtual mukofot yoki maqtov berish orqali rag'batlantiradi. Shuningdek, ko'plab fitnes-ilovalarda do'stlar bilan ulanib, natijalarni taqqoslash va musobaqalashish funksiyalari mavjud bo'lib, bu sog'lom raqobat orqali ham jismoniy faollikka undaydi. Bizning kuzatuvlarimiz ham ushbu tendensiyaning tasdiqlaydi: so'rov natijalarida mobil ilovalardan foydalanuvchi talabalar haftasiga o'rtacha ko'proq kun sport bilan shug'ullanishi va ular orasida o'z jismoniy holatini yuqori baholovchilar ulushi ancha yuqori ekanligi aniqlandi (natijalar bo'limiga qarang).

AR texnologiyalariga kelsak, so'rov ishtirokchilarining 20% i kamida bir marta AR ilovalarini sinab ko'rgan (ko'pincha mashhur o'yinlar orqali). Bu qismi nisbatan kichik bo'lsa-da, AR ilovalari misolida ham jismoniy faollikni oshirish tajribasi mavjudligini eslab o'tish lozim. Masalan, Pokemon GO kabi AR-geymning jismoniy faollikka ta'siri bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada yurish faolligini oshirganini va foydalanuvchilarning ruhiy holatini yaxshilaganini qayd etgan. Bundan tashqari, 8 haftalik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bunday AR o'yinda muntazam qatnashgan yoshlar jismoniy tayyorgarlikning ayrim ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan – masalan, yurak-qon tomir tizimi chidamliligi (kardiorespirator quvvat) oshib, tana massasi indeksi pasaygan. Shunday ekan, agar universitet sharoitida AR elementlari (masalan, kampus bo'ylab interktiv yurish yoki topshiriqlar) joriy etilsa, talabalarni harakatga undash mumkin. Bundan tashqari, kengaytirilgan reallik texnologiyalari mashg'ulotlarning ijodkorona tashkil etilishiga imkoniyat beradi. Masalan, kampus hududi bo'ylab AR asosida qiziqarli kvestlar tuzilib, talabalar smartfonlari orqali xarita bo'yicha belgilangan manzillarga yugurib yoki piyoda borib, har bir nuqtada virtual topshiriq yoki mashqni bajarishlari mumkin. Bunday yondashuv o'yinga xos ssenariy va maqsadlar orqali talabalar uchun jismoniy mashqlarni sarguzashtga aylantiradi. AR vositalari yordamida talabalar an'anaviy mashg'ulotlarda qiyin tasavvur qilinadigan jarayonlarni ham ko'rish va o'rganishlari mumkin (masalan, mushaklarning ishlashini jonlantirilgan modellar orqali kuzatish va h.k.).

Natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, VR texnologiyasini bevosita sinab ko'rgan talabalar hozircha juda kam (faqat 5%). Bu kutilgan hol, chunki VR uskunalari hali ham keng ommaga qimmat va qiyinlik bilan yetib boradi. Shu bilan birga, VRdan foydalanish imkoniga ega bo'lgan oz sonli talabalar ham uni qiziqarli tajriba sifatida ta'riflagan. VRning ta'lim va sportdagi samaradorligi borasida ilmiy adabiyotlar ijobiy xulosalar bermoqda: VR asosidagi mashg'ulotlar jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish, ayniqsa motivatsiya va bilimni mustahkamlash jihatlarida an'anaviy usullardan afzal ekanini bir qator tadqiqotlar tasdiqlaydi. VR texnologiyalari yordamida talabalar jismoniy mashqlarni virtual olamda bajarish jarayonida o'zlarini xuddi real sport maydonida his etishlari

mumkin. Bu ayniqsa muayyan sharoit yoki jihozlarni talab qiladigan sport turlarini mashq qilishda qo'l keladi – masalan, VR trenajyorlari orqali tog'g'a chiqish, chang'ida uchish yoki suv ostida suzish kabi faoliyatlarni xavfsiz virtual muhitda sinab ko'rish imkoni yaratiladi. Virtual muhit mashg'ulotlarida ko'rgazmali instruksiyalar integratsiya qilinib, talabalar xatolarini darhol ko'rib tuzatishi mumkin. Albatta, VR texnologiyasidan foydalanganda ayrim odamlarda bosh aylanishi yoki ko'ngil aynishi kabi noqulayliklar kuzatilishi mumkin, shu bois mashg'ulotlarning davomiyligi va intensivligini mos ravishda belgilash zarur. Ushbu dalillar talabalarning mazkur tadqiqot doirasida bildirgan fikrlarini (ya'ni texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishi mumkinligi) qo'llab-quvvatlaydi.

So'rov natijalariga binoan talabalarning katta qismi interktiv o'yinlar va platformalarni jismoniy tarbiya bilan uyg'unlashtirish tarafdori ekani ma'lum bo'ldi (75%). Bunday interktiv platformalarga misol tariqasida, onlayn yugurish musobaqalari, fitnes ilovalardagi do'stlar orasida qilinishi mumkin bo'lgan chaqiruvlar (chelenjlar), reytinglar yoki medal tizimlarini keltirish mumkin. Ilmiy manbalarda bunday gamifikatsiyalashgan yondashuvlar yoshlarning qiziqishini orttirishi ta'kidlangan. Misol uchun, maxsus onlayn platformalarda foydalanuvchilar o'z jismoniy mashg'ulot natijalarini do'stlari bilan ulashishi, reyting jadvalidagi o'rnini kuzatishi yoki turli sinovlarda (challenge) ishtirok etib, ball va virtual mukofotlar to'plashi mumkin. Bu kabi elementlar qatnashchilarda qo'shimcha rag'bat va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Xususan, jismoniy mashqlarni o'yinga aylantirish ("ekzergeymlar") orqali kaloriyani sarflash va energiya sarfini oshirish hamda qatnashchilarning o'ziga ishonchini mustahkamlash mumkinligi aniqlangan. Bir meta-tahlil natijasiga ko'ra, bunday interktiv o'yinlar talabalarning jismoniy tarbiya darslaridagi o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, sezilarli darajada natijalarni yaxshilagan. Shu bois, oliy ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga musobaqa ruhini olib kiruvchi va o'zaro hamkorlikni kuchaytiruvchi raqamli platformalar (masalan, universitetlararo virtual chempionatlar, liderlar taxtasi) talabalarni yanada ko'proq harakat qilishga undashi mumkin.

Albatta, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda bir qator muammolar ham mavjud. Bizning tadqiqotimizda respondentlar eng katta to'siq sifatida moddiy-texnik bazaning yetishmasligini ko'rsatishdi (52%). Bu haqli e'tiroz, chunki VR uskunalari yoki keng qamrovli AR tizimlarini joriy etish katta mablag' va infratuzilma talab qiladi. Boshqa tadqiqotlarda ham bunday to'siqlar qayd etilgan: masalan, VR ni keng qo'llashga uskunaning qimmatligi va texnik cheklovlar to'sqinlik qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, bizning talabalar 30% holatlarda o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni qo'llash malakasi pastligini aytib o'tgan. Haqiqatdan ham, agar o'qituvchi yoki murabbiylar raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasa, hatto mavjud texnologiya sharoitida ham uning amaliy foydasi kamayib ketishi mumkin. Shu bois, kadrlar malakasini oshirish va o'qituvchilarni tegishli treninglardan o'tkazish zarur bo'ladi.

Yana bir e'tiborga molik jihat – bu ayrim talabalar tomonidan bildirilgan ehtiyotkorona fikrlar. Ba'zi ishtirokchilar texnologiyalar joriy etilishi boshida darslar chalg'ashi yoki barcha talabalarni birdek qamrab olmasligi ehtimolini aytishdi. Darhaqiqat, raqamli o'yinning jozibasi hammaning ham bir xil darajada qiziqishini uyg'otmasligi mumkin, ayrim talabalar an'anaviy ochiq havodagi jismoniy

mashg'ulotlarni afzal ko'rishadi. Shu sababli, texnologiyalarni joriy etishda barcha talabalarni motivatsiya qilish uchun turli usullar uyg'unligidan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, AR/VR elementlarini an'anaviy mashg'ulot usullari bilan uyg'unlashtirib, turli qiziqish va imkoniyatlarga ega talabalarni ham qamrab olish mumkin.

Albatta, ushbu tadqiqot ma'lum cheklovlarga ega. Birinchidan, so'rovnomada olingan ma'lumotlar talabalarining sub'ektiv javoblariga tayangan bo'lib, ularning aniqligiga ta'sir etuvchi faktorlar (masalan, o'zini ijobiyroq ko'rsatishga intilish) istisno qilinmagan. Ikkinchidan, tadqiqot kesimiy (bir vaqtning o'zida o'tkazilgan) bo'lgani sababli, aniqlangan bog'liqliklar sabab-oqibat munosabatini to'liq isbotlamaydi – masalan, texnologiyalardan foydalanish faollikka olib kelishi yoki aksincha, faol talabalar texnologiyalarga ko'proq qiziqishi mumkin. Uchinchidan, so'rovnoma faqat bitta oliy ta'lim muassasasi talabalari o'rtasida o'tkazilgan, natijalar boshqa universitetlar yoki umumiy talaba aholisi uchun to'liq mos kelmasligi mumkin. Kelgusida mavzuni chuqurroq o'rganishda ushbu omillar inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini raqamli texnologiyalar bilan boyitish talabalarining jismoniy faolligini oshirish va ularning darslarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda istiqbolli yo'nalishdir. Bu yondashuv talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi va ularni zamonaviy raqamli ekotizimning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari yangi boshlang'ich nuqta sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lsa-da, mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun qo'shimcha izlanishlar talab etiladi. Xususan, kelgusidagi tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri eksperimental usullar orqali AR/VR texnologiyalarining jismoniy tayyorgarlikka haqiqiy ta'sirini baholash, ularning qaysi jihatlari (masalan, immersivlik darajasi, o'yin elementlari) eng katta foyda keltirishini aniqlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, uzoq muddatli perspektivada bunday texnologiyalarning talabalarining sog'lig'i va jismoniy rivojlanishiga ta'sirini kuzatish, hamda uni an'anaviy mashg'ulotlar bilan solishtirish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga innovatsion AR/VR texnologiyalari, mobil ilovalar hamda interaktiv platformalarni integratsiya qilish – talabalarining jismoniy tayyorgarligini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu nafaqat talabalarining jismoniy faolligini oshiradi, balki ularning darslarga qiziqishini orttirib, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. WHO Global recommendations on physical activity for health. World Health Organization, 2010.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.



3. Thomas L., et al. (2020). "AR in health behavior change: A meta-analysis." Journal of Health Tech, 12(3), 87–105.
4. Andersen L. B., et al. (2011). "Physical activity and cardiovascular disease risk." The Lancet, 380(9838), 1244–1260.
5. Arjoranta J., Kari T. (2018). "Increased physical activity: A systematic review." Games and Health Journal.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ][AUTHORS INFO]

Ikramov Amirbek Aminovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor,

Osiyo xalqaro universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQIY-ESTETIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MODELI



Nishanbekova Jadira O'rinboi qizi
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent amaliy fanlar universiteti*

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Umumta'lim maktabi o'quvchilarining musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli", uning tarkibiy qismlari, uning ilmiy-nazariy asoslari batafsil yoritilgan.

MAQSAD: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish modelini ilmiy tahlil qilish

MATERILLAR VA METODLAR: Ma'lumki model tushunchasi muayyan xususiyatlarning, haqiqiy deb yaratiluvchi tizim bilan aloqasini aks ettirishi kerak hamda belgilangan ma'noda uni o'rnini bosishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Model tushunchasi ilm-fanning turli sohalarida qo'llaniladi. Model-sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar qo'rinishida su'niy hosil qilingan obekt bo'lib, u tadqiq qilinayotgan ob'ektga o'xshash bo'ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, obektning elementlari orasidagi o'zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushinarli tarzda aks ettiradi.

XULOSA: O'quvchilarda musiqa madaniyati musiqiy obrazlarga mos mashqlarni bajarishning motivatsion-intellektual va ijodiy-pedagogik xususiyatlari hamda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini kiritish asosida takomillashtirilgan bo'lib, har bir olib borilgan musiqiy ta'lim, musiqiy madaniyat, pedagogik madaniyatning bilim, ishonch, qobiliyat kabi xususiyatlariga bog'liq holda olib borilishi nazarda tutilishi juda katta ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, musiqiy-estetik kompetensiya, model, komponent.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Нишанбекова Жадира Уринбаевна
*Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
Ташкентский университет прикладных наук*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье подробно описана «Модель развития музыкально-эстетических компетенций учащихся средней школы», её компоненты и научно-теоретические основы.

ЦЕЛЬ: Научный анализ модели развития музыкально-эстетических компетенций учащихся начальной школы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Известно, что понятие модели должно отражать взаимосвязь определённых свойств с системой, рассматриваемой как реальная, и важно, чтобы оно замещало её в определённом смысле.

Понятие модели используется в различных областях науки. Модель – это искусственно созданный объект в виде схемы, физических конструкций, обозначенных фигур и формул, подобный изучаемому объекту, отражающий его структуру, свойства, взаимодействия и связи между элементами объекта в простой и понятной форме.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Музыкальная культура студентов совершенствуется на основе внедрения мотивационно-интеллектуальных и творческо-педагогических характеристик исполнительских упражнений, соответствующих музыкальным образам, а также поступательной динамики принципов обучения. Важно учитывать, что каждое музыкальное образование, музыкальная культура, педагогическая культура осуществляется во взаимосвязи с такими характеристиками, как знания, уверенность и умения.

Ключевые слова: студент, музыкально-эстетическая компетентность, модель, компонент.

MODEL OF DEVELOPMENT OF MUSICAL-AESTHETIC COMPETENCES IN PRIMARY STUDENTS

Nishanbekova Jadira O'rinboy qizi

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Tashkent University of Applied Sciences*

Annatation.

INTRODUCTION: The article describes in detail the "Model for the Development of Musical-Aesthetic Competencies of Secondary School Students", its components, and its scientific and theoretical foundations.

THE GOAL: Scientific analysis of the model for the development of musical-aesthetic competencies in primary school students

MATERIALS AND METHODS: It is known that the concept of a model should reflect the relationship of certain properties with a system that is considered real, and it is important that it replaces it in a defined sense.

The concept of a model is used in various fields of science. A model is an artificially created object in the form of a scheme, physical constructions, marked shapes and formulas, which is similar to the object under study, reflects its structure, properties, interactions and relationships between the elements of the object in a simple and understandable way.

CONCLUSION: The musical culture of students is improved based on the introduction of motivational-intellectual and creative-pedagogical characteristics of performing exercises corresponding to musical images, as well as the progressive dynamics of teaching principles. It is of great importance to consider that each musical education, musical culture, pedagogical culture is carried out in relation to such characteristics as knowledge, confidence, and ability.

Keywords: student, musical-aesthetic competence, model, component.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviyat, madaniyatni tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, «estetik boy dunyoqarash»ni shakllantirish davlat ta'lim tarbiya siyosatining eng ustuvor masalalaridan biriga aylandi.

Ma'lumki model tushunchasi muayyan xususiyatlarning, haqiqiy deb yaritiluvchi tizim bilan aloqasini aks ettirishi kerak hamda belgilangan ma'noda uni o'rnini bosishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Model tushunchasi ilm-fanning turli sohalarida qo'llaniladi. Model-sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar qo'rinishida su'niy hosil qilingan obekt bo'lib, u tadqiq qilinayotgan ob'ektga o'xshash bo'ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, obektning elementlari orasidagi o'zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushinarli tarzda aks ettiradi.

Olimlar N.A.Muslimov [6], N.Egamderdiuevalar [4] o'z tadqiqotlarida umumlashtirish va tahlil qilish asosida, shuningdek, shaxsiy pedagogik tajriba asosida quyidagi modellar tahliliga alohida to'xtalib o'tgan.

Ushbu model maqsadli, nazariy, mazmun, texnologik va natijaviy bloklardan iborat.

Maqsadli komponent – umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadini o'zida aks ettiradi. Shuningdek maqsadni amalga oshiruvchi

Nazariy blok Sharq olimlarining ta'limotlari va rivojlangan mamlakatlarning musiqiy-estetik maktablaridagi ilg'or pedagogik tajribalari, o'quvchilarda musiqiy ritmikani rivojlantirishning texnologiyalari berilgan.

Mazmunli blok umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarining musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishning mazmuni ("Musika madaniyati" fani bo'yicha nazariy ma'lumotlar, "Musika madaniyati" fani bo'yicha amaliy ko'nikmalari) bayon qilingan.

Texnologik blokda tashkiliy shakllari:

1) auditoriya faoliyatining shakllari: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, loyihalar, ritmik o'yinlar;

2) auditoriyadan tashqari ishlarning shakllari: mustaqil ish, kurs va yakuniy kvalifikatsion ishlar, ijodiy va badiiy tadbirlar, anjumanlar, ko'rgazmalar, musiqiy tanlovlar, vositalar;

3) Musika madaniyati va ritm fani uchun maxsus auditoriya

4) musiqiy cholg'ular (zarbli, torli, puflama);

5) uskunalar (audio va video yozish apparatlari, ovoz kuchaytirgich, tebranishni aniqlovchi mashina);


6) komp'yuter didaktik vositalari (elektron matnlar, videomateriallar);

7) darsliklar, ommaviy axborot vositalari, ilmiy nashrlar, internet tarmog'ining axborot resurslari), metodlar (tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, qisman izlanish, tadqiqot; bahs-munozara, musiqiy – ritmik asarni sharhlash, musiqiy ritmik yoki ritmik tahlil) ko'rsatilgan.

Natijaviy blokda tadqiqot natijasi sifatida umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarining musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirilganligi ta'kidlangan. Quyida modelning nazariy, mazmunli, texnologik bloklarni tashkil etgan elementlar mazmuni keltirilgan.

Millatimizning ertangi taqdiri, bugungi yoshlarimizning kelajakka ishonchi, puxta egallagan kasbi, bilimi va malakasiga bevosita bog'liq. Umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish, pedagogik-ijodiy qobiliyatlarni mustaqil korreksiyalash hamda shaxsga yo'naltirilgan emotsional-hissiy ta'lim

texnologiyalariga ustuvorlik berish, musiqa darsida o'qitish jarayonida, birinchi navbatda, musiqa san'atini kompleks qabul qilishni rivojlantirish zarur. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni cholg'u san'ati, ashula, raqs va harakatlanishga yo'naltirishi lozim. Musiqa ta'limini samarali tashkil etishda an'anaviy ta'lim texnologiyalari bilan bir qatorda innovatsion ta'lim texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetentsiyalarini rivojlantirish modeli

Ta'lim texnologiyalari – o'quvchilarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, milliy ong va o'z-o'zini anglashni shakllantiruvchi milliy an'analarga tayanadi, o'sib kelayotgan avlodni o'zbek xalqining yuksak ma'naviy prinsiplari ruhida tarbiyalaydi. Ta'lim

texnologiyalari kompleksiga o'zbek milliy musiqa merosining janr va shakllarini o'rganish kiradi. O'zbekiston milliy nomoddiy madaniy merosi o'zbek xalqining iste'dodi va o'ziga xosligini namoyon qiluvchi juda keng sohalarni qamrab oladi. Ularni musiqa san'ati bilan bog'lash va umumta'lim maktabidagi musiqa darslarida ifodalash zarur. Ta'lim texnologiyalari quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi: maqom san'atini o'rganish; baxshi, dostonlar; epik qo'shiqlar va rivoyatlar; lazgi raqsi an'analari; ularni hozirgi shakllari bilan solishtirish.

Pedagogik texnologiya — ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir. Pedagogik texnologiya — bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya — ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

Shu tariqa ta'lim, an'anaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar o'quvchilarda sintez asosida ritmik qobiliyatlarni rivojlantirishning turli metodlari va metodik yondashuvlarining hamda kongnitiv-ijodiy fikrlashni shakllantirishda musiqiy-estetik tarbiya usullarini ilgari surishning murakkab o'zaro bog'liqligidir.

O'zbekiston olimlarining pedagogika fanidagi yutuqlariga murojaat qilib, B.Abdullaeva [1], O.Ibrohimov [5], X.Nurmatov [7] kabi pedagogika fani rivojiga katta hissa qo'shgan olimlarning ishlanmalari ahamiyatini qayd etish zarur.

Musiqiy-estetik rivojlanish o'quvchilarda uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ritm pedagogik texnologiyalari o'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur.

Musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

O'quvchilarning musiqa madaniyatii musiqiy obrazlarga mos mashqlarni bajarishning motivatsion-intellektual va ijodiy-pedagogik xususiyatlari hamda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini takomillashtirishda ritmning o'rni beqiyosdir.

Tadqiqotda o'quvchilarda musiqa madaniyatii musiqiy obrazlarga mos ijodiy mashqlarni bajarishning motivatsion-intellektual va ijodiy-pedagogik xususiyatlari barqaror rivojlanish va tadrijiy-badiiylik g'oyalarini musiqa ostida predmetlar bilan va predmetlarsiz umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni kiritish asosida takomillashtirilgan.

Musiqiy obrazlar bu - kompozitor tomonidan yaratilgan musiqiy asardagi musiqiy vositalarning jamlanmasidir. Ya'ni kompozitor yaratgan asarini tinglovchiga qay musiqiy obraz bilan yetkazishni o'z asarida yaratsa ana shu obrazda tinglovchi u musiqani kashf qiladi. Asosan musiqiy obrazlar turli xil, lirik, drammatik, (komik, epik, ertaknamo va hakoza bo'lishi mumkin.

Musiqiy obrazlar xarakteristikasini qo'shiqlarda, musiqa ifoda vositalarini sheri so'zlar bilan, dasturiy kuylarda, syujet bilan drammatik o'yin va raqslarda harakat uyg'unligi katta ahamiyat kasb etadi. Musiqiy obraz tinglovchiga tushunarliroq va aniqroq bo'ladi.

Bundan tashqari, o'quvchilarda musiqa madaniyatini tadrijiy-badiylik g'oyalarini musiqa ostida predmetlar bilan va predmetlarsiz umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni kiritishda oliy ta'lim maktabining ichki imkoniyatlari ham muhim hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning musiqa madaniyatini tadrijiy-badiylik g'oyalarini musiqa ostida predmetlar bilan rivojlantiruvchi mashqlarni kiritish asosida rivojlantirishda foydalaniladigan predmetlar umum ta'lim maktabining ichki imkoniyatlari asosida foydalaniladi. Tadrijiy-badiylik g'oyalarini kiritish asosida musiqa madaniyatini rivojlantirishda va shu orqali o'quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda predmetlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ulardan foydalanilganda tadrijiy-badiylik g'oyalarini kiritish va musiqa madaniyatini rivojlantirish samarali amalga oshiriladi.

O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarni shakllantirishda bir jihatni nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, ularga nazoratdagi erkinlikni berish shartdir. Demak, o'qituvchi o'quvchiga o'z fikri va istaklaridan kelib chiqqan holda, ma'lum bir kuy kuylab berishini, raqsga tushib berishi yoki sher aytib berishini aytadi, ammo bu jarayon o'qituvchining nazoratida amalga oshiriladi.

Umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish ularning kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Kelgusi pedagogik faoliyati uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi. O'quvchilarining musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni, ular o'zlashtirishi lozim bo'lgan kontentni aniqlash uchun dissertatsiyada umumta'lim maktablarida o'qitilib kelinayotgan "Musiqa" darsligi tadqiqot doirasida tahlil qilindi.

Ulkan musiqa adabiyoti xazinasida ilg'or pedagogik talabga javob beradigan o'quvchilar uchun musiqa asarlarini ko'plab sanab o'tish mumkin. Yuqoridagilarga tayanib, "Musiqa" darsligini o'rganib chiqib, ilmiy ishda ayrim boshlang'ich va o'rta sinflar "Musiqa" kitobining tahlili bayon etiladi. "Musiqa" darsligidagi mavzular doirasida ritmik xususiyatlarga va uslublarga e'tibor qaratildi [2].

Umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarining musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda albatta, yuqoridagi metod va targ'ibotlar juda katta samara beradi. Harakat orqali musiqaning tabiatini ularning munosabatlaridan musiqa asariga o'tkazishda o'quvchilarning faolligining namoyon bo'lishini rag'batlantirish kerak. Yana shuni ta'kidlash joizki, musiqiy merosni bilish, ustozlar sabog'ini olish ijodkor samarasining negizini tashkil etadi.

Shunday qilib, o'quvchilarda musiqa madaniyati musiqiy obrazlarga mos mashqlarni bajarishning motivatsion-intellektual va ijodiy-pedagogik xususiyatlari hamda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini kiritish asosida takomillashtirilgan bo'lib, har bir olib borilgan musiqiy ta'lim, musiqiy madaniyat, pedagogik madaniyatning bilim, ishonch, qobiliyat kabi xususiyatlariga bog'liq holda olib borilishi nazarda tutilishi juda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva O. Cholg'ushunoslik. – Toshkent: Musiqa, 2018. – 15 b.
2. Бурхонов М. Симфоническая суита "Авиценна". - Ташкент. 1957. -125 с.
3. Буухер К. Работа и ритм. – Лаурсиг, 2019. – 112 с.



4. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida o'quvchilarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti Pedagogika fanlari doktori. diss. – T.: 2010. – 332 b.
5. Ibrohimov O. Musiqa 4-sinf. – Toshkent, 2020. – 115 b.
6. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining didaktik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2013.– 128 b.
7. Nurmatov X., Nadimxo'jayev N. Musiqa 1-sinf. – Toshkent, 2019. – 170 b.
8. Ташбаева Д. Методика проведения музыки и школьных мероприятия. – Ташкент, 2007. – 191 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Nishanbekova Jadira O'rinboy qizi

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SANOGEN TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlarida ishtirok etayotgan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator vazifalarni qo'ymoqda. Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash xalqaro dasturida talabalar faoliyatini rivojlantirishning "fikriy aks ettirish amaliyoti"ga (reflective practitioner) yo'naltirilgan taktikasini rivojlantirish, ijodiy va ratsional yondashuv uyg'unligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur maqolada shu kabi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

MAQSAD: Bo'lajak o'qituvchilar sanogen tafakkurining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida uni rivojlantirish

MATERIALLAR VA METODLAR: Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayoni murakkab, ko'p qirrali ko'rinishga ega bo'lib, bunda avvalombor, sanogen tafakkurning tarkibiy komponentlari, ustuvor jihatlari va uni rivojlantirishning integrativ-tuzilmasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sanogen tafakkurning tarkibiy tuzilishini tadqiq etgan G.G.Bashanayeva uning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatadi: motivatsion, refleksiv, emotsional, operatsion. Muallif mazkur komponentlarni ajratishda sanogen tafakkurga oid bilim va ko'nikmalarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi va uning fikrlash tarzida namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Bu, faqatgina sog'lom fikrlashga oid ko'nikmalarni shaxsda shakllantirish bilangina bog'liq bo'lib, sanogen tafakkur komponentlarini aniqlashtirish bo'yicha birtomonlama yondashuvni keltirib chiqaradi.

XULOSA: Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkingki, sanogen tafakkur samarasi - u ilm, vaziyat va amallardan iborat. Lekin fikrning xos samarasi ilm bo'lib, undan boshqa narsa emas. Agar qalbda ilm hosil bo'lsa, qalb holati o'zgaradi. Qalb holati o'zgarsa, a'zolar faoliyati ham o'zgaradi. Sanogen tafakkur barcha yaxshiliklar uchun asos va kalitdir. Insoniyat xavfsizligi, davlatlarning milliy manfaatlar, kelgusi avlodlarning barqaror kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarga aylanganligi ham, jamiyat kelajagi bo'lgan o'smir yoshidagi o'quvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish ijtimoiy talab hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sanogen, tafakkur, ong, shaxs, o'qituvchi, stress, ta'lim, fikrlash, idrok, psixologik omillar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КИНЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Абдуллаева Барно Сайфутдиновна

Доктор психологических наук, профессор

Узбекский национальный педагогический университет имени Низами

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Все более очевидным становится тот факт, что интеллект и духовность человека являются основными координирующими, развивающими факторами и инструментами развития социально-экономических отношений, происходящих в мире. Страны, участвующие в процессах глобализации, ставят перед государством и обществом ряд задач в социально-политической, экономической и духовной сферах. Международная программа подготовки будущих педагогических кадров выделяет в качестве важной задачи разработку тактики развития деятельности студентов, направленной на «рефлексирующего практика» (reflectionive practice), совершенствование педагогических механизмов, обеспечивающих гармонию творческого и рационального подходов.

В данной статье представлен научный анализ данной проблематики.

ЦЕЛЬ: Развитие саногенного мышления будущих учителей на основе изучения его психологических особенностей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Процесс развития саногенного мышления будущих учителей сложен, многогранен, и целесообразно рассматривать, прежде всего, структурные компоненты, приоритетные аспекты саногенного мышления и интегративную структуру его развития.

Изучив структурную структуру саногенного мышления, Г.Г. Башанаева выделяет следующие его компоненты: мотивационный, рефлексивный, эмоциональный, операциональный. При выделении этих компонентов автор обращает внимание на усвоение индивидом знаний и навыков, относящихся к саногенному мышлению, и их проявление в образе мышления. Это обусловлено только сформированностью у индивида здоровых навыков мышления, что приводит к однобокому подходу к выяснению компонентов саногенного мышления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В заключение можно отметить, что плод саногенного мышления – это знания, ситуации и действия. Но специфический плод мысли – это знания и ничто иное. Если знание формируется в сердце, меняется и состояние сердца. Если меняется состояние сердца, меняется и деятельность конечностей. Саногенное мышление – основа и ключ ко всему хорошему. Учитывая, что саногенное мышление представляет серьёзную угрозу безопасности человечества, национальным интересам государств и устойчивому будущему будущих поколений, изучение социально-психологических особенностей развития саногенного мышления у подростков, которые являются будущим общества, является социальной потребностью.

Ключевые слова: саногенное мышление, сознание, личность, учитель, стресс, образование, мышление, восприятие, психологические факторы.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CINEMATIC THINKING IN FUTURE TEACHERS

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

Doctor of Psychology, Professor

Uzbek National Pedagogical University named after Nizami

Annatation.

INTRODUCTION: It is increasingly evident that human intelligence and spirituality are the main coordinating, developing factors and tools in the development of socio-economic relations taking place in the world. The countries participating in the globalization processes pose a number of tasks to be solved by the state and society in the socio-political, economic and spiritual spheres. The international program for training future pedagogical personnel identifies the development of tactics for developing student activities aimed at "reflective practitioner" (reflective practitioner), improving pedagogical mechanisms for ensuring the harmony of creative and rational approaches as an important task.

This article provides a scientific analysis of such issues.

THE GOAL: To develop the sanogenic thinking of future teachers based on the study of its psychological characteristics

MATERIALS AND METHODS: The process of developing sanogenic thinking in future teachers is complex, multifaceted, and it is appropriate to consider, first of all, the structural components, priority aspects of sanogenic thinking and the integrative structure of its development.

Having studied the structural structure of sanogenic thinking, G.G. Bashanayeva distinguishes its following components: motivational, reflexive, emotional, operational. In distinguishing these components, the author draws attention to the assimilation of knowledge and skills related to sanogenic thinking by the individual and its manifestation in the way of thinking. This is due only to the formation of healthy thinking skills in the individual, which leads to a one-sided approach to clarifying the components of sanogenic thinking.

CONCLUSION: In conclusion, it can be noted that the fruit of sanogenic thinking is knowledge, situation and actions. But the specific fruit of thought is knowledge and nothing else. If knowledge is formed in the heart, the state of the heart changes. If the state of the heart changes, the activities of the limbs also change. Sanogenic thinking is the basis and key to all good. The fact that it has become a serious threat to the security of humanity, the national interests of states, and the sustainable future of future generations, and the study of the socio-psychological characteristics of the development of sanogenic thinking in adolescents, who are the future of society, is a social requirement.

Keywords: sanogenic, thinking, consciousness, personality, teacher, stress, education, thinking, perception, psychological factors.

Jahon ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarga sog'lom fikrlash, psixologik barqarorlik, stressni boshqarish bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalarni berish dolzarbligi ortib bormoqda. UNESCOning Teacher Well-being bo'yicha chop etilgan hisobotiga ko'ra, «jahon bo'yicha faqat 23% pedagog kadrlar tayyorlash dasturlari (bakalavriat yoki magistratura bosqichi) rasmiy ravishda stressni boshqarish, emotsional intellekt va sog'lom fikrlash elementlarini muntazam ravishda o'quv rejasiga kiritgan». 2020-2022-yillarda Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshirilgan «Teacher Life» loyihasi yakuniy hisobotiga binoan, loyihada qatnashgan 8 ta davlatda (Germaniya, Polsha, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Portugaliya)

pedagogik universitetlarning 41% i o'qituvchi bo'lishi kutilayotgan talabalar uchun «psixologik barqarorlik va sog'lom tafakkur» bo'yicha kamida bitta majburiy yoki ixtiyoriy kurs joriy qilgan. Bu borada yoshlar indikator ko'rsatkichi sifatida kasbiy muvaffaqiyati va salohiyatini tafakkur mezonlari orqali belgilanishi, shaxsning yaratuvchanligi, iqtidori, iste'dodi, talanti jamiyatning strategik zaxirasi sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarida bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari, amaliy imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yevropa davlatlaridan Finlyandiya, Daniya, Shvetsiyada o'qituvchilar tayyorlash dasturlari doimiy ravishda «sog'liqni saqlash pedagogikasi», «emotsional barqarorlik» va «psixologik xavfsizlik» mavzularini o'z ichiga oladi. 2022-yildagi Eurydice hisobotiga ko'ra, bu davlatlardagi ta'lim universitetlarining 70 – 80% ida «sanogen tafakkur»ga yaqin bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha maxsus mavzuli modullar kiritilgan. O'qituvchining shaxsiy farovonligi va salomatligi sifatli ta'lim jarayonining muhim garovi bo'lganligi bois, pedagogik ta'lim beruvchi oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish markazlarida, ilmiy-tadqiqot institutlarida sanogen tafakkur (sog'lom fikrlash) masalasiga e'tibor qaratish dozlarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovnaning olib borgan ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarning sog'lom fikrlash – ya'ni sanogen tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan psixologik omillar chuqur o'rganilgani va ularni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingani mazkur masalaning naqadar dolzarb va muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Rus akademigi I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda - fikrlash tufayli inson «borliqning hokimiga» aylangan bo'lsa, xayvonlar abadiy «tabiat quli» bo'lib qolaverdilar. Shuning uchun tafakkur voqelikni bavoysita, so'z yordami bilan umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Atrof-muhitdagi hodisaning tashqi ifodasi sezgi, idrok, tasavvur prosesslarida yorqin, obrazli tarzda, turli alomatlari, fazoviy joylashishi va harakatida aks etadi. Tafakkurda esa inson ularning murakkab bog'lanishlarini anglab yetadi [7;8-b.]. Tafakkur – inson psixik faoliyatining yuksak formasi bo'lib, inson tajribasida, sezgi, idrok va tasavvur asosida vujudga kelgan va taraqqiy qilib boradi.

J.Piajening qarashlariga ko'ra, shaxsning rivojlanish davrlaridan 3-davr ya'ni rasman operatsiya davri(11-15 yoshni) aynan o'smir yoshli o'quvchining komillikka, mustaqillikka, keng tafakkur yuritishga o'tish bosqichidir. Komillikni shakllantirishda avvalo, sanogen tafakkurni rivojlantirish masalasi qo'yiladi. Komillik- o'quvchini o'z salomatligini asrash va o'z faoliyatini jamiyat ravnaqi, ezgulik sari yo'naltirish, shuningdek zamonaviy hayotda mavjud bo'lgan turli tibbiy, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy tahdidlardan o'zini muhofaza qilish bilimi va malakalari majmuasidan iboratdir[8;30-b.].

“Inson hayotining asosiy qonuni sifatida shaxsning ustunlik va afzallikka intilishini ko'rsatish mumkin. Bu intilishning konstruktiv yo'nalishda qo'llanishi faoliyatni umumjamo'a manfaatidan kelib chiqib, amalga oshirishga xizmat qiladigan shaxslar faoliyatida namoyon bo'ladi” deb ta'kidlagan edi ingliz olimi A.Adler [1;23- b.].

K.Rodjersning ta'kidlashicha, insonning barcha harakatlari qandaydir bir umumlashtiruvchi motiv asosida yuzaga keladi va amalga oshiriladi. Mazkur motivni u faollashuvga moyillik va rag'bat- deb ataydi [12].

Rus psixolog olimi P.Ya.Galperinning fikriga ko'ra, tafakkur bu oriyentirlash - tadqiqot faoliyati, oriyentirovka jarayoni, ya'ni oriyentirovka — bu jarayon, oriyentirovka — faoliyatidir. Olim psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub'yektning tafakkurga oriyentirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiradi [4;145-b.].

Amerika professori T.Shibutani (1920-2004) "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: shaxs tafakkurini nazarda tutib - "Agar odam oz bo'lsada o'zini-o'zi anglay olsa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi" - deb ta'kidlagan. Demak inson avvalo o'zini anglashi, o'z xulq-atvorini nazorat qila olishi, shaxslararo munosabatlarda o'zini to'g'ri boshqara olishi zarur. Bunday shaxsiy vazifani sanogen tafakkurni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi[11;51-b.].

P.I.Ivanovning fikricha, «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi»- deb ta'riflanadi[7;261-b.].

A.V.Petrovskiy "Tafakkur - ijtimoiy muhit asosida vujudga kelgan, ijtimoiymunosabat bo'lib, nutq bilan chambarchas bog'liq, muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir»,- degan fikrni ilgari surgan.

A.V.Petrovskiyning qarashlaridan ma'lumki, shaxsning taraqqiy etishi, sog'lom bo'lishi, sanogen tafakkurining rivojlanishida interindivud (faoliyatda shaxslarning sub'yektiv munosabatlari) shaxslararo munosabatlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda metaindivud ya'ni (atrofdagi kishilarning "hissasi") ijtimoiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi [8;13-14-b.].

L.C.Vigotskiy shaxsning ijtimoiy hayotida tafakkurning ahamiyatini: "Tafakkur hissiy bilish endi yetarli bo'lmay qolgan yoki hatto o'zlik qilib qolgan joyda boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi" – degan qarashlar bilan izohlagan [3;15-b.].

Rus psixologi O.K.Tixomirov "Tafakkur,-deb yozadi psixolog olim, o'z dunyoqarashi bilan voqelikni umumlashtirib, bivosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasiga va foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat bo'lgan jarayon, ya'ni bilish faoliyatidir" [10;26-b.].

Y.M.Antonyan tadqiqotlarida insondagi patogen g'oyalar muayyan voqeahodisa, narsa-buyumlar yoki ijtimoiy tuzilmalarga yo'naltirilishi, sub'yektning frustrasiyasi oqibatida alkogolizm, giyohvandlik yoki suisid kabi vayronkor harakatlar qilishga undashini ko'rsatib beradi[1]. Binobarin, shaxs o'z salomatligini (jismoniy, ruhiy, ma'naviy) saqlashi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashi zarurligi shubhasiz. Bunda sanogen tafakkurni rivojlantirish uchun o'smir yoshidagi o'quvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan patogen tafakkur xususiyatlarini rivojlanishini oldini olish lozim.

Tafakkurning ahamiyati to'g'risida O'zbekistonda psixologiya fanining ilk asoschilaridan bo'lgan ustozimiz M.Davletshin quyidagi fikrni bildiradi: "...Odam ko'zining alohida suratda tuzilganligi odamning olamni bilish imkoniyati uchun mutlaq chegara emas. Bizning ko'zimizga boshqa sezgilargina qo'shilib qolmay, balki shu bilan birga, tafakkurimizning faoliyati xam qo'shiladi"[5;43-b.].

E.G'oziyevning fikriga ko'ra: - "Tafakkurning mazmundorligi ko'p jihatdan emosional kechinmalarga — hayratda qolish, taajjublanish, yangilikni his qilish kabilarga bog'liq. Mazkur hislarning paydo bo'lishi tafakkurning ko'tarinki ruhda kechishini ta'minlaydi, kishiga zavq-shavq, maroq bag'ishlaydi. Mulohazalar, fikrlar, tushunchalar, hukm va xulosa chiqarishlarning chinligi (yolg'onligi), to'g'riligi (noto'g'riligi), adekvatligi (noadekvatligi) insonda ishonch va shubhalanish xislarining mavjudligi bilan belgilanadi. Kishilar uchun quvonchli, yoqimli, maroqli kayfiyat va kechinmalar fikr yuritish jarayonlarini tezlashtiradi, fikrlash sur'atini kuchaytiradi. Aksincha, noxush kechinmalar, xafaxonlik, qo'rqinch, zo'r berishlik (stress) singari emosional holatlar mulohaza yuritishni susaytirishi, uning mahsuldorligini kamaytirishi mumkin. Emosional holatlar fikrning yo'nalishiga bevosita ijobiy va salbiy ta'sirini o'tkazib turadi"[13].

O'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini o'rgangan olim Sh.Alimbayevaning fikriga ko'ra: "Emosiyalarning tashqi ifodasi turli ko'rinishlarda ro'y beradiki, unda asosan ko'rgazmali jihatlar asosiy o'rin egallaydi"[2].

Birinchidan, emosiyalar nafas olish a'zolarining ishlarida o'zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg'ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va amplitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg'ular ustun kelganda kamayadi, qo'zg'algan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo'r berish vaqtidasekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo'rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emosional holatlarda nafas olishning o'zgarishi

- a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;
- b) faol xafalikda 9 marta;
- v) qo'rqishda 64 marta;
- d) jahl chiqqanda 40 marta.

Ikkinchidan, emosiya imo – ishoralarda, mimikada, ya'ni kishining yuzida bo'ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma'nodor harakatlarida ko'rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya'ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo'ladigan yanada chuqur o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

Shaxsning ichki va tashqi tana a'zolari favquloddagi hodisalar va vaziyatlarga moslashgan emas (stixiya, halokat, tasodif, stress, affekt, xavf-xatar-risk). Agar shaxsda sanogen tafakkur rivojlanmas ekan, unda turli vaziyatlardan qo'rqish bilan bog'liq his-tuyg'ularni oldindan sezish, payqash, kurashish, yengish kabi shaxsiy imkoniyatlar mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun hayotga endi qadam qo'yayotgan o'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maktab amaliyotchi psixologlari, o'qituvchilar, otaonalar va keng jamoatchilik bu masalaga ilmiy-psixologik nuqtai nazardan yondashishlari shart.

Sog'lom tafakkurda namoyon bo'ladigan tafakkurning tezligi xususan favqulodda vaziyatlarda kerak bo'ladi, biror qarorni juda qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilinadi. Fikrning tezligi maktabda o'quvchilarga ko'proq zarur bo'ladi. Masalan, ayrim o'quvchilarni doskaga chiqarib yangi masalani yechish so'ralganda, hayajonlanib, butun sinf oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bu salbiy emosiyalar go'yo ularning tafakkurini tormozlab qo'yadi. Fikr juda sekin va tez-tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Ayrim o'quvchilarning ana shu

individual xususiyatlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini to'g'ri baholash bilan maxsus hisobga olish zarurdir.

Sanogen fikrlashning refleksiv komponenti - sodir bo'layotgan voqealar haqida xabardorlik, uni tahlil qilish, o'z kelajagi haqidagi qarashlarni aniqlashtirish, "Men" obrazi tasvirini yaratish, o'z faoliyati va fikrlarini qayta aks ettirish orqali real hayotiy talablarga muvofiqligini aniqlash kabi xususiyatlar bilan izohlanadi. Ushbu komponent talabalarga o'z fikrlarini, ruhiy holatini, hatti-harakatlarini to'g'ri ifodalash va kuzatib borish imkonini beradi. Chunki, refleksiv ko'nikmalar bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi [21, 48 b.].

Sanogen fikr yuritishning operatsion komponenti o'zida motivatsion va refleksiv komponent xususiyatlarini aks ettiradi. Mazkur komponent o'z navbatida talabaning sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni to'g'ri aks ettirishi va mazmunini anglashi, unda o'zi va olam haqidagi ijobiy fikr va tasavvurlarning namoyon bo'lishi, pedagogik faoliyat bilan bog'liq samarali ish usullarini o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy ehtiyojning mavjudligi hamda maqsadlarning anglanganligi bilan izohlanadi.

Sanogen xulq-atvorning yo'naltiruvchi komponenti talabalarning shaxsiy dunyoqarashini o'zida aks ettirib, shu jumladan uning fikriy yo'nalganligi, o'zi va dunyo xaqidagi tasavvurlari, shuningdek o'zlashtirgan tajribasi, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalari bilan izohlanadi. Sanogen xulq-atvorning mazkur komponentiga muvofiq talaba o'z-o'zini, fikrlarini nazorat qilish va boshqarish, faoliyat yo'nalishlarini loyihalash va amalga oshirish, yangi tajribalarni o'zlashtirishga doir ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Sanogen xulq-atvorning emotsional barqarorlik komponenti mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: salbiy hissiy-kechinmalardan xabardorlik, ularning ta'sirini kamaytirish yoki yo'qotish, hissiyotlar tabiatidagi tabiiylik, hissiy nazoratning olib borilishi. Sog'lom fikrlash jarayonining asosiy sharti hissiyemotsional barqarorlik bo'lib, u sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ob'ektiv yondashish hamda ijobiy shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yishni ta'minlaydi.

Sanogen tafakkur bo'yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda uning quyidagi o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O'z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya'ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo'lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo'lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi;
- Fikriy harakatlarning uyg'un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);
- Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
- Fikrlash jarayonida o'z-o'zini ishonitirish va nazoratning yuqoriligi;
- Fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg'unligi

O'tkazilgan anketa va so'rovnomalar bo'yicha olingan dastlabki nazorat kesimi natijalari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

**Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen va patogen tafakkurning rivojlanganlik darajasi
(dastlabki nazorat kesimi natijalari)**

Tajriba sinov guruhlari	Sanogen fikrlash ustuvor	Patogen fikrlash ustuvor	Sanogen va patogen fikrlash mavjud
Nazorat guruhi (226 nafar respondent)	11,9 %	42,1 %	46,0 %
Tajriba guruhi (229 nafar respondent)	11,4 %	44,1 %	44,5 %
O'rtacha ko'rsatkich	11,6 %	43 %	45,2 %

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida "bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo'layotgani, o'qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar

soni ortishiga qanday omillar sabab bo'layapti? Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat" degan edilar. Xullas, inson hayotida yuzaga keladigan muammolarning shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora – tadbirlar belgilash, oqilona yechim topish va natijalarini to'g'ri baholash hamda ilmiy va asosli qaror qabul qilish psixolog olimlar oldida yanada ma'suliyatliroq vazifalarni qo'yimoqda.

Shunga ko'ra, psixolog mutaxassislar quyidagilarga alohida e'tibor berishlari kerak: Odamning dunyoga kelishi, odam psixikasining rivojlanishi, psixik rivojlanish qonuniyatlari, psixik rivojlanishni tartibga soluvchi asosiy omillar, shart – sharoitlar va me'yorlar haqidagi diniy tasavvurlarni tanqidiy- ilmiy tahlil qilish zarur. Aslida din va barcha diniy tasavvurlar yoki diniy aqidalar hamma - hammasi inson psixologiyasining ifodasi ekanligini anglashimiz kerak. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan butun borliq, olam va odamning yaralishi haqidagi tasavvurlar, odamda til, tafakkur va ongning yuzaga kelishi, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar tizimi va uning muntazam takomillashib avlodlarga o'tishi, odamning hayotiy tirikligi, turmush tarzi va dunyoni tark etishi haqidagi tasavvurlar majmuidir. Bu tasavvurlar bir necha yuz va hattoki ming yillar davomida shakllanib, sayqallashgan va bu diniy tasavvur hamda qarashlar diniy e'tiqodli kishilarda buzib bo'lmas yoki o'zgartirib bo'lmas darajaga olib kelgan.

Muqaddas kitoblardagi diniy tasavvurlarning tarbiyaviy ahamiyatini kamsitmagan holda, ularning diniy va ilmiy mohiyatini (bahosini) taqqoslash bilan bo'lg'usi psixologlarga va boshqa talabalarga tushuntirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning muhim ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini belgilab olish zarur.

Inson psixologiyasi ancha murakkab hodisa bo'lib, uni tushunish butun borliq - tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonuniyatlarining o'zaro mushtarakligini anglash bilan asoslanadi. Bunday katta muammoga yechim topish birinchi navbatda quyidagilarni taqozo etadi:

- ota-ona va jamoatchilikning psixologik savodxonligini oshirish kechiktirib bo'lmaydigan zarurat ekanligini hamma anglashi kerak;

- oiladagi sog'lom psixologik muhit va sog'lom tarbiyani yo'lga qo'yishning muhim asos va yo'nalishlarini belgilab olish vaqti keldi;

- insonning mohiyatini tushuntirishdagi diniy tasavvurlar bilan ilmiy psixologik qarashlarning murosasini ta'minlash zarur;

- psixolog mutaxassislarning inson mohiyatini tushunishdagi kamchiliklarni (diniy aqidalarga tayanib fikr yuritishlarini) psixokorreksiya va psixoprofilaktika qilish lozim;

- din (ilm – fan hali rivojlanmagan paytda) ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir davrida odamlarni boshqarish va tarbiyalash uchun jamiyatdagi muhim o'qitish va tarbiyalash mexanizmi vazifasini o'taganligini ham unutmasligimiz zarur;

- fizika, tabiiy fanlar va insonshunoslik fanlarining rivojlanishi asosida inson mohiyatini tushuntiradigan ilmiy asoslar va mexanizmlar yuzaga keldi. Bulardan hozirgi yoshlar amaldagi ta'lim – tarbiya yordamida yetarlicha xabardor bo'lishlari lozim.

Chunki, yer yuzida fan yutuqlari, texnika va texnologiyalar asosida yaratilgan barcha imkoniyat va qulayliklar: shaharlar, binolar, shaharlardagi infratuzilmalar, OAV va internet – barcha – barchasi inson tafakkuri va ongining mahsulidir. Ular asosida minglab olimlar va ixtirochilarning intellektual yutuqlari yotganligini anglashimiz lozim.

Odamlarning o'zaro munosabatlarga kirishishlari, mehnat faoliyati, sohani tashkil etish va boshqaruvdagi barcha afzalliklar inson aqlining mahsulidir. Telefon, kompyuter, internet, ommaviy axborot vositalari yordamida – axborotlarni olish, qayta ishlash, yaratish va umuman kommunikatsion tizimlarning afzalliklari hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan butun borliq, tabiat, jamiyat, odam, uning tafakkuri va ongi o'zaro mushtarakligini (anglash zarur) asoslash mumkin.

Talabalarga psixologiyadan dars o'tish yoki psixologiya yo'nalishi hamda psixolog mutaxassislar tayyorlash jarayonida yuqoridagi afzalliklar va imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, ularni psixolog bo'lib shakllanishida biroz muammolar ham uchrayotganligini guvohi bo'lamiz:

1. Ba'zi talabalarda diniy tasavvurlarning ustunligi natijasida, psixologiyani o'rganishda ilmiylikka asoslanmaslik hodati yaqqol ifodalanadi;

2. Talabalarda ilmiy bilimlarning yetarli emasligi natijasida, borliqni tushunishda ilmiy asoslarga tayana olmaslik yaqqol kuzatiladi;

3. O'qituvchi berayotgan bilim bilan ba'zi talabalar tasavvuri o'rtasida (voqelikni ilmiy yoki diniy baholashda) keskin farqlar mavjud;

4. O'qituvchi – talaba fikrlashi, tushunishi va anglash tizimi o'rtasidagi tafovutlar, ular o'rtasida qarama – qarshiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda va hokazo.

Bunday holatlar oila tarbiyasiga, maktab tarbiyasiga borib taqalishi, maktab ta'limida fizika, biologiya, genetika, millat va jamiyatning shakllanish tarixi, jamiyatshunoslik va boshqa fanlardan yoshlarni yetarlicha bilim olmaganligi hamda voqelik bilan bog'lanmaganligini ko'rsatadi. Bu esa yoshlar tafakkuri va ongida bo'shliq mavjudligidan dalolat beradi. Ular tafakkurida noilmiy, diniy va shu bilan birga kundalik tasavvurlarning stereotiplashgan ifodalarini ko'rishimiz mumkin, xolos.

Inson o'z mohiyatini anglamasa, inson psixikasi, tafakkuri, nutqi va ongining rivojlanishidagi qonuniyatlarni tushunmasa – bunday yoshlar yoki mutaxassislar oilada, odamlar orasida, mehnat jamoalarida va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarda o'z o'rnini bilmaydilar, natijada tarbiyaviy nuqtai-nazardan tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yiladi. Bunday holatlar keyingi yillarda sezilayotganligi sir emas.

Odam o'z mohiyatini anglamas ekan, jamiyatda tutgan o'rnini ham anglamaydi, o'ziga, atrofdagilarga va jamiyatda kechayotgan o'zaro munosabatlarga to'g'ri baho berolmaydi. Tug'ilganidan umrining oxirigacha xatolarga yo'l qo'yib, muammolar girdobida yashaydi. O'zini, o'zligini, insoniylik mohiyatini to'laqonli anglamaydi va jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga ko'ra o'z faoliyatini nazorat qilolmaydi.

Nima uchun qonunlar, qarorlar, qonun osti hujjatlar, nizomlar va me'yorlar ishlab chiqiladi va mazkur hujjatlar mazmunan jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanib boradi? Aslida odamlar bunga biroz e'tiborsizlik qiladilar. Biroq, bu qonun va qoidalarning hammasi jamiyat a'zolarini o'zaro munosabatlarni tashkil etishida, o'zini jamoa orasida qanday tutishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ana shu qonun-qoidalar butun jamiyat a'zolarini va jamiyat taraqqiyotini me'yorlashtirib, to'g'ri taraqqiyot yo'lini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, psixologiya mutaxassisligini egallash uchun o'qishga kirishda va ularni kasbiy tayyorgarlik bosqichlarida keng miqyosli og'zaki va yozma sinovlardan foydalanish zarur. Ilmiy tasavvuri bo'lmagan da'vogarlarini psixologiya yo'nalishiga qabul qilmaslik, o'qish davrida ilmiy tasavvur shakllanmagan talabalarni talabalar safidan chiqarish lozim, chunki

ulardan psixolog mutaxassislar tayyorlab bo'lmaydi. Bunday tartibni boshqa yo'nalish talabalarini qabul qilish va tayyorlash bosqichlarida (mutaxassislik mohiyatigi qarab) ham qo'llash zarur.

Yoshlarga bor narsalarni o'rgataylik, yo'q va asossiz narsalarni o'rganishga bo'lgan intilishlarini oldini olaylik. Jumladan, mutaxassislik fanlarining–har biridan ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil topshiriqlar yetarlicha qo'yilgan, biroq, talabalar belgilangan yoki biz kutgan darajada o'zlashtirmayotganligini kuzatamiz. Buning asosiy omillari sifatida ba'zi yoshlarning butun koinot – olam, tabiat, odam va uning tafakkuri o'zaro mushtarakligi qonuniyatlarini yetarli darajada ilmiy tushunmasligi, ularda diniy aqidalar va diniy tasavvurlarga moyilligining ustunligi bilan izohlash mumkin. Bunday muammolar shakllanishini oldini olishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida ta'lim – tarbiya jarayonlariga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqib, har bir fanni ilmiy tamoyillarga asoslangan holda o'qitilishini ta'minlash zarur;

- fan o'qituvchisining ilmiy dunyoqarashini aniqlash va ularga baho berishning psixodiagnostik – attestatsiya tizimini joriy qilish;

- oilalarda, jamoatchilik va yoshlar orasida psixologik savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan ilmiy – amaliy kurslarni muntazam tashkil etib borish;

- o'qituvchi va yoshlar orasida diniy aqidalarga berilgan yoki diniy dunyoqarashga ega bo'lganlar bilan psixodiagnostik va psixokorreksion – rivojlantiruvchi treninglarni yo'lga qo'yish zarur;

- yoshlar orasida o'zini va o'zlikni anglashga bo'lgan intilish hamda o'ziga va borliqga ongli munosabatni shakllantirish hozirgi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridandir, deb boholash o'rinli.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -488 b.
2. Jabborov A.M., Abduqahhorova G. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. - Qarshi: "Nasaf", 2017. -72 b.
3. Rubinshteyn S.L. Бытие и сознание. -М., 1957. -172 s.
4. Maslov A.H The father reachers of Human Mature, N.Y. 1972.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Jabborov Azim Meyliqulovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Qarshi davlat universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Qarshi shahri

YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI



Akramova Feruza Akmalovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi millat ravnaqi, kelajagiga ta'sir ko'rsatuvchi dolzarb omildir. Uning yo'nalishlarini yoshlarga singdirish, yoshlarning oilaviy hayotga nisbatan fikrlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAQSAD: Yoshlarni oilaga tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Yigit va qizlar tomonidan qurilayotgan oilalarning ba'zi sabablarga ko'ra buzilib ketish xollari xamon davom etmoqda. Nikohdan ajralishlar asosan 20-35 yosh orasidagi fuqarolar tomonidan amalga oshirilayotganligi o'z navbatida, yoshlar ongida oila va uning muqaddasligi haqidagi tushunchalarning sayozlashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham yoshlarni oila-nikoh munosabatlariga tayyorlash muhim vazifa sifatida o'zini namoyon etadi. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqea oila muhiti uchun fojia ekanligini ularning ongiga singdirish, qo'ydi-chiqdining yomon oqibatlarini yaqqol misollar yordamida tushuntirish ishlarini olib borish muhim rol o'ynaydi.

XULOSA: Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilalar ajrimining oldini olishda yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida jamiyat milliy qadriyatlarining asrab avaylanishiga xizmat qilib, kelajak yoshlarning to'liqsiz oilalarda tarbiyalanishi va oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, oila, oilaga tayyorlash, yo'nalishlar, oila salomatligi, oilada psixologik muhit, oila ma'naviyati, axloqi, o'zaro munosabatlar, noxush xolatlarni oldini olish.

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЁЖИ К СЕМЬЕ

Акрамова Феруза Акмаловна.

доктор психологических наук, профессор

Узбекский национальный педагогический университет имени Низами

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Вопрос подготовки молодёжи к семейной жизни является актуальным фактором, влияющим на процветание и будущее нации. Важно формировать у молодёжи эти установки, изучать взгляды молодёжи на семейную жизнь.

ЦЕЛЬ: Научный анализ современных направлений подготовки молодёжи к семейной жизни.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Число случаев распада семей, создаваемых молодыми людьми и девушками по разным причинам, продолжает расти. Тот факт, что разводы совершаются преимущественно гражданами в возрасте 20-35 лет, в свою очередь, свидетельствует о том, что представления о семье и её святости в сознании молодёжи становятся всё менее значимыми. Поэтому подготовка молодёжи к семейно-брачным отношениям является важной задачей. В процессе подготовки молодёжи к браку важно внушать им, что такое страшное событие, как развод, является трагедией для семейной среды, и проводить разъяснительную работу на наглядных примерах пагубных последствий развода.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Правильная подготовка молодёжи к семейной жизни имеет большое значение в профилактике распада семьи, являющейся основной ячейкой общества. Это, в свою очередь, способствует сохранению национальных ценностей общества и предупреждает воспитание будущих молодых людей в неполных семьях и возникновение в связи с этим негативных ситуаций.

Ключевые слова: молодёжь, семья, подготовка к семье, направления, здоровье семьи, психологическая обстановка в семье, духовность семьи, нравственность, взаимоотношения, профилактика неблагоприятных ситуаций.

CURRENT DIRECTIONS IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY

Akramova Feruza Akmalovna

Doctor of Psychology, Professor

Uzbek National Pedagogical University named after Nizami

Annatation.

INTRODUCTION: The issue of preparing young people for family life is an urgent factor affecting the prosperity and future of the nation. It is important to instill its directions in young people, to study the views of young people on family life.

THE GOAL: Scientific analysis of current directions of preparing young people for family life

MATERIALS AND METHODS: The number of cases of families being built by young people and girls breaking up for some reason continues to increase. The fact that divorces are mainly carried out by citizens aged 20-35, in turn, indicates that the concepts of family and its sanctity are becoming shallow in the minds of young people. Therefore, preparing young people for family-marriage relations is an important task. During the preparation of young people for marriage, it is important to instill in their minds that such a terrible event as divorce is a tragedy for the family environment, and to carry out explanatory work using clear examples of the bad consequences of divorce.

CONCLUSION: Proper preparation of young people for family life is of great importance in preventing the breakdown of families, which are the main unit of society. This, in turn, serves to preserve the national values of society and prevents the upbringing of future young people in single-parent families and the negative situations that may arise as a result.

Keywords: youth, family, preparation for family, directions, family health, psychological environment in the family, family spirituality, morality, mutual relations, prevention of unpleasant situations.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma'naviy takomilining eng ulug' va oliy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Oilaviy madaniyat, oilaviy hayotga ongli kirib borish, oilaviy vazifalarni bajarishga tayyorlik, hayotda oila o'rnini yuksak qadrlash, xalq ma'naviy merosidagi oila qadriyatlarini o'z zamoni talablari bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish har vaqt inson hayotiy mezonlari va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida tan olingan.

O'zbekistonda davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish sifatida tarkib toptirish, oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurish, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash faqat shaxsiy, boshqalarga aloqasi yo'qdek ko'rinadi, ammo bu qarash millatimiz ravnaqiga, xalqimiz odobiga, kelajagiga, nasli-nasabiga putur etkazishdan saqlovchi omildir.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'proq qismini yoshlar tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini jadallashtirishni va yangicha mazmunda qayta qurishni talab etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan "Turmush qurgan yoshlar orasida hayotni engil-elpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib etmaslik holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajralishlar ko'payib bormoqda. Begunoh bolalar etim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda" deb ta'kidlangani ham mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etadi.

Yigit va qizlar tomonidan qurilayotgan oilalarning ba'zi sabablarga ko'ra buzilib ketish xollari xamon davom etmoqda. Nikohdan ajralishlar asosan 20-35 yosh orasidagi fuqarolar tomonidan amalga oshirilayotganligi o'z navbatida, yoshlar ongida oila va uning muqaddasligi haqidagi tushunchalarning sayozlashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham yoshlarni oila-nikoh munosabatlariga tayyorlash muhim vazifa sifatida o'zini namoyon etadi. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqea oila muhiti uchun fojia ekanligini ularning ongiga singdirish, qo'ydi-chiqdining yomon oqibatlarini yaqqol misollar yordamida tushuntirish ishlarini olib borish muhim rol o'ynaydi.

Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomondan to'liq tayyorlash masalalari quyidagi yo'nalishlardagi ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi:

1. Oila salomatligi: oila a'zolari salomatligi bo'yicha birlamchi bilimlarga ega bo'lish, salomatlikni saqlash omillarini bilish, salomatlikni saqlash va umrni uzaytirish usullarini va milliy qadriyatlarni oila hayotiga singdira bilish, milliy tabobatdan xabardor bo'lish, reproduktiv salomatlik mezonlariga amal qilish, to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga rioya qilish,

salomatlikni saqlash — fuqarolik burchi ekanligini anglash, o'z salomatligini jamiyat sog'lomligi sifatida qabul qilish, qariyalar salomatligiga e'tiborli bo'lish, go'dak va emizikli bolalar salomatligi, bolalarni yuqumli kasalliklardan asray olish, yod tanqisligi va temir moddasi etishmovchiligini oldini ola bilish, oilada tibbiy bilimlarga hurmat va e'tiborning shakllantirilishi, hayotga fiziologik-gigienik jihatdan tayyor bo'lish, oilaning ijtimoiy ahvolini yaxshi va ravon saqlash, uni yaxshilash omillarini o'rganish.

2. Oiladagi jinslararo munosabatlar: jinsiy tarbiya asoslari, jinslar psixologiyasi va salomatligi bo'yicha bilimlarni egallash, nikohni ulug'lash, nikohdagi halollik va sadoqat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni an'anaga aylantirish, ona salomatligiga muqaddas munosabat, farzand tug'ilishi va uning salomatligi, o'zini va oila a'zolarini zararli ko'nikmalardan asrash, ma'naviy barkamollik, sog'lom turmush tarzi asosidagi axloq normalari, inson psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish, psixologik ta'sir o'tkazish omillarini egallash, psixologik muvozanat sirlarini egallash.

3. Oila axloqi va estetikasi: oilada o'zaro munosabatlar va muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, tibbiy va ma'naviy sog'lomlik, jismoniy va ruhiy barkamollik, etakchilik va tadbirkorlik, o'zaro muhabbat, adolat, insonparvarlik, insoniylik, to'g'rilik, kamtarlik, samimiylilik, ota-onaga hurmat, mehr-muruvvat, sahovat, bag'rikenglik, sadoqat, vafodorlik, gunoh ishlardan qochish, sabr-toqat, o'z va'dasi ustidan chiqish, ilmli bo'lish, ayollarni qadrlash, iffat, rostgo'ylik, pokizalik, halollik, himmat va bardoshlilik, xushhulqlilik, shukr, hayo, tejamkorlik, halimlik, viqor, rahm-shafqat, onalik mehri, ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik va vafodorlik, mehr va muruvvatga asoslangan oilaviy muloqot madaniyati, ma'naviy-mafkuraviy sog'lomlik, inson erkini hurmatlash, har bir insonning takrorlanmasligini tan olish va e'zozlash.

4. Oila a'zolari o'rtasida oilaviy majburiyatlar taqsimoti va tomonlar huquqlari: oila va oilaviy majburiyatlar, ayol va erkak majburiyatlariga doir zamonaviy stereotiplar, zamonaviy oila va oila a'zolari majburiyatlari, er va xotin huquqlari kafolatlarini bilish, oila huquqi bo'yicha qonunchilik tizimi bergan imtiyozlardan to'g'ri foydalana olish, din, oila va inson huquqlari masalasi, turmush qurayotgan yoshlarning oilalari o'zaro muvofiq bo'lishiga erishish, oila qurishda tomonlar erkinligi huquqini tug'ri anglash, oila qurish tartibi, shuningdek ajrim huquqi, ajrim holatidagi tomonlar huquqlari bo'yicha qonun hujjatlarini bilish va amalda qo'llay olish, oilada gender tenglik, jinslar o'rtasidagi farqlarni anglash, gender muhofaza qonunlarini tatbiq eta bilish.

5. Oilaviy inqirozlar va ularning oldini olish, oilaviy nizolarni echimiga tayyorlik: oila va konfliktlar, oilaviy inqirozlar va ularga to'g'ri munosabat, oilaviy inqirozlarning oldini olish choralari, g'azab va jahlni engish usullarini bilish, shaxs va oila, oilaning har bir a'zosiga hurmat va e'tibor me'yorlari, shaxs erkinligi, egoizm, egoizmdan qutilish omillari, oilada uning a'zolari munosabatlaridagi uyg'unlik, shaxs va jamoa munosabatlari, shaxs va oila manfaatlari birligi, oila manfaatlarning ustunligi, shaxsning muloqot madaniyati va ichki dunyosi etukligi omillari.

6. Oiladagi sog'lom muhit va oilaviy muloqot: oila va uning osoyishtaligi, oiladagi sog'lom muhitni muhofaza qilishda barcha tomonlarning mas'ul ekanligi, shaxsiy huquqlarni oila huquqi bilan mutanosib olib bora olish tartiblari, oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, oila va jamiyat munosabatlari, jamiyatda oila mavqeini saqlash, jamiyat a'zolari bilan bo'ladigan muloqotlarni to'g'ri olib borish, oila ma'rifati, ota-ona va farzand munosabatlaridagi samimiylilik

va bir-birini to'ldirish, farzandlarni jamoada yashashga va jamoada yashash qonun-qoidalariga o'rgatish, oiladagi sog'lom psixologik va tibbiy muhitning shakllanishida oila a'zolari majburiyatlari va huquqlarini mutanosib belgilash va tashkil qilishga o'rganish.

7. Oila an'analari va ularga nisbatan yangicha qarash: oila an'analarning kelib chiqish sirlari, oila an'analarga hurmat, oila an'analarni yaratish va ularni ta'minlash, oilaviy an'analarni avlodlarga o'tkazish, milliy urf odatlarini o'rganish, oila an'alaridan farzand tarbiyasida unumli foydalanish.

Demak, yoshlarni oila va oilaviy munosabatlarga tayyorlash ishida yuqorida keltirilgan etti jihatni to'g'ri tashkil etish va olib borish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridandir.

Buning uchun oila qurish arafasida turgan yoshlarning oilaviy hayot haqidagi fikrlarini bilish zarurati yuzaga keladi. Yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash uchun yuqorida qayd etilgan asosiy yo'nalishlarini o'rgatish ham muhim masala hisoblanadi. Shuning uchun biz ilmiy tadqiqot ishimizda oila qurish arafasida turgan yoshlarning oila, turmush qurish haqidagi fikrlarini o'rganishni maqsad etib oldik. Tadqiqotda FXDYOga ariza bergan yoshlarning 300 nafari – 150 juftlik ishtirok etdilar. Olingan fikrlarni umumlashtirgan xolda olingan natijalarning ayrimlarini keltiramiz.

1-jadval.

“Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak, deb o'ylaysiz?” savoli natijalari
(% da)

№	Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak deb o'ylaysiz?	%
1	Masuliyatli bo'lish, javobgarlik hissi, boshqarish	13,3
2	Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari	15,0
3	Ikki tomon bir-birini tushunishi	5,0
4	Ma'naviy va jismoniy etuklik	8,3
5	Mustaqil fikrlash, moddiy mustaqillik	10,0
6	Milliy qadriyatlarni bilish	1,6
7	Farzand tarbiyalash	5,0
8	Oilal a'zolarini va er-xotin bir-birini hurmat qilish	10,0
9	Muhabbatni avaylash	5,0
10	Islomiy bilimlarga ega bo'lish	3,3
11	Uy yumushlarini qilishni bilish	8,3
12	Sabr-bardosh, xayot saboqlarini bilish	15,0

Olingan natijalarning statistik tahlilidan ko'rinadiki, yoshlarning oilaviy hayot uchun “Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari”, “Sabr-bardosh, xayot saboqlarini bilish”, “Masuliyatli bo'lish, javobgarlik hissi, boshqarish” kabi jihatlariga e'tibor berishni muhim deb hisoblar ekanlar.

Oilal qurish orqali baxt hissini tuyishni kutish kuzatiladi. Bu borada yoshlarning baxtli yashash uchun nimalarga e'tibor berish zarurligiga oid fikrlari o'rganildi.

Olingan 2-jadval natijalaridan ko'rinadiki, yoshlarning nikohdan keyingi baxtli hayot uchun “Ikki tomon bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash”, “Muammoli vaziyatlarda yon bosish, nolimask”, “Yaxshi ish, pul, moddiy ta'minlanganlik”, “O'zaro hurmat va ishonch” kabi jihatlariga e'tibor berishni muhim deb hisoblar ekanlar.

2-jadval.

“Nikohdan keyingi baxtli hayot uchun nimalar zarur?” savoli natijalari

(% da)

№	Nikohdan keyingi baxtli hayot uchun nimalar zarur?	%
1	Ikki tomon bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash	32,1
2	Bir-biriga ko'nikish	5,3
3	Muammoli vaziyatlarda yon bosish, nolimaslik	10,7
4	Sabr-bardosh	7,1
5	Mehr-muhabbat	3,5
6	Yaxshi ish,pul, moddiy ta'minlanganlik	19,6
7	Farzand	1,7
8	O'zaro hurmat va ishonch	10,7
9	Oila a'zolari va er-xotin bir-birini hurmat qilish	5,3
10	Milliy qadriyatlarni bilish	3,5

Demak, bugungi kunda yoshlarni oilaga tayyorlash sohasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zarur:

Birinchidan, yoshlarni oilaga tayyorlashda ularga zarur psixologik, ma'naviy, huquqiy saboqlarni o'rgatish.

Ikkinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning aniq metodikasini ishlab chiqish.

Uchinchidan, ma'lumotlarni yoshlarga etkazish usuli va shakllarini takomillashtirish, bu borada axborot texnologiyalarining so'ngi imkoniyatlaridan foydalanishga e'tibor qaratish.

To'rtinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila qurish mas'uliyatini to'la anglashlari bo'yicha amaliy psixologik tavsiyanomalar, yo'riqnomalar, oilaga tayyorlash masalalariga bag'ishlangan tarqatma materiallar, ijtimoiy reklama roliklarini ishlab chiqish.

Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilalar ajrimining oldini olishda yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida jamiyat milliy qadriyatlarining asrab avaylanishiga xizmat qilib, kelajak yoshlarning to'liqsiz oilalarda tarbiyalanishi va oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova F.A., Bilolova Z.B. YOshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. –T.: OOO “NORI” MChJ, 2020. - 146 b.
2. Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. –T.: OOO “NORI” MChJ, 2019. - 186 b.
3. Andreeva T.V. Psixologiya sovremennoy semi. - SPb.: Rech, 2005.- 436s.
4. Andreeva T.V. Temperament suprugov i sovместimost v brake. - SPb.: SPb. GU, 2001.- S.207-208.
5. Grebenyukov I.V. Osnovy semeynoy jizni. - M., 2006. - 176 s.
6. Drujinina V.N. Psixologiya semi. – 3-e izd. – SPb.: Piter, 2006. 176 s. Karimova V.M. Akramova F.A. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O'AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
7. Kovalyov S.V. Psixologiya sovremennoy semi. - M.: Prosveshchenie, 1995, S.-67
8. Obozov N.N., Obozova A.N. Diagnostika suprujeskix zatrudneniy // Psixologicheskij jurnal.- 1982.- T.Z. №3. - S.147 - 151.
9. Oila psixologiyasi: Akademik liqey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv



qo'llanma. / G'.B. Shoumarov tahriri ostida / – Toshkent: “Sharq”, 2008. – 296 b.

10. Pankova L.M. *U poroga semeynoy jizni*. - M.: Prosveshchenie, 2001. - 144 s.

11. Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «YURIST-MEDIA MARKAZI» nashriyoti, 2007. – 128b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Akramova Feruza Akmalovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri

YOSH SPORTCHILARNI MUVAFFAQIYATGA ERISHISHIDA SHAXS YO'NALGANLIGINI AHAMIYATI



Abdurasulov Rustam Abduraimovich
*psixologiya fanlari doktori (DSc), professor,
Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada shaxsning o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'siri borasida olib borilgan tadqiqot natijalari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot ishida biz futbol mashg'ulotlari bilan shug'ullanayotgan yosh futbolchilar shaxsning o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'sirini o'rganishga harakat qildik. Maqolada A.G.Kovalevning shaxs tuzilishi borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda tadqiqot ishi olib borilgan. Unda shaxs tuzilishining yo'nalganlik, qobiliyati, xarakter va o'zini-o'zi boshqarish komponentlari tadqiq qilingan bo'lib, shaxsning yo'nalganligi yoki insonning real voqelikka munosabati komponentini shakllanishida motivatsiyani ta'siri borasida fikr yuritiladi.

MAQSAD: Yosh sportchilarni muvaffaqiyatga erishishida shaxs yo'nalganligini ahamiyatini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot ishida biz futbol mashg'ulotlari bilan shug'ullanayotgan yosh futbolchilar shaxsning o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'sirini o'rganishga harakat qildik. Buni o'rganishda biz A.G.Kovalevning shaxs tuzilishi borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda tadqiqot ishini olib bordik. A.G.Kovalevni fikriga ko'ra shaxs tuzilishi uning yo'nalganlik, qobiliyati, xarakter va o'zini-o'zi boshqarish komponentlaridan iborat. Uning fikricha, shaxsning yo'nalganligi yoki insonning real voqelikka munosabati komponenti sportda ko'pincha yuqori yutuqqa erishishi motivatsiyasi bilan belgilanadi

XULOSA: O'tkazilgan tadqiqot natijalari Jizzax, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida shaxs yo'nalganligining shakllanishida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ta'siri ijobiy jihatdan ta'sir etishi namoyon bo'ldi.

Kalit so'z: sportchi, shaxs, motivatsiya, rol, motiv.

ВАЖНОСТЬ ЛИЧНОГО НАПРАВЛЕНИЯ В ПОМОЩИ МОЛОДЫМ СПОРТСМЕНАМ ДОСТИЖЕНИЯ УСПЕХА

Абдурасулов Рустам Абдураимович
*доктор психологических наук (DSc), профессор,
Самаркандский государственный университет*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлены результаты исследования влияния мотивации на формирование индивидуальных особенностей. В данной работе мы попытались изучить влияние мотивации на формирование индивидуальных особенностей юных футболистов, занимающихся футболом. Исследование проведено с учетом представлений А.Г. Ковалева о структуре личности. В статье рассматриваются компоненты направленности, способности, характер и самоконтроль в структуре личности, а также рассматривается влияние мотивации на формирование компонента направленности личности, или отношения человека к действительности.

ЦЕЛЬ: Научный анализ значения направленности в успешности юных спортсменов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данной работе мы попытались изучить влияние мотивации на формирование индивидуальных особенностей юных футболистов, занимающихся футболом. При этом исследование проводилось с учетом представлений А.Г. Ковалева о структуре личности. По мнению А.Г. Ковалева, структура личности состоит из компонентов направленности, способностей, характера и самоконтроля. По его мнению, направленность личности или составляющая отношения личности к реальной действительности зачастую определяется мотивацией достижения высоких спортивных достижений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты исследования показали, что мотивация достижения успеха положительно влияет на формирование направленности личности юных футболистов футбольных академий Джизака, Самарканда и Карши.

Ключевые слова: спортсмен, личность, мотивация, роль, мотив.

THE IMPORTANCE OF PERSONAL DIRECTION IN HELPING YOUNG ATHLETES ACHIEVE SUCCESS

Abdurasulov Rustam Abduraimovich

Doctor of Psychology (DSc), Professor,

Samarkand State University

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the results of a study on the influence of motivation on the formation of individual characteristics. In the research work, we tried to study the influence of motivation on the formation of individual characteristics of young football players involved in football training. The article conducted a research work taking into account the ideas of A.G. Kovalev on the structure of personality. It studies the orientation, ability, character and self-control components of the personality structure, and discusses the influence of motivation on the formation of the orientation component of personality or the human attitude to reality.

THE GOAL: Scientific analysis of the importance of orientation in the success of young athletes

MATERIALS AND METHODS: In the research work, we tried to study the influence of motivation on the formation of individual characteristics of young football players involved in football training. In studying this, we conducted research taking into account the ideas of A.G. Kovalev about the structure of personality. According to A.G. Kovalev, the structure of

personality consists of its orientation, ability, character and self-control components. In his opinion, the orientation of a person or the component of a person's attitude to real reality is often determined by the motivation to achieve high achievements in sports.

CONCLUSION: The results of the study showed that the motivation to achieve success has a positive effect on the formation of personality orientation in young football players of the Jizzakh, Samarkand and Karshi football academies.

Keywords: athlete, personality, motivation, role, motive.

*M*otivatsiya faoliyatning keng darajadagi prujinasi hisoblanib, u sportning ko'p yillar davomida bir sport turi bilan shug'ullanib, yuqori natijalarga erishishida barcha qiyinchiliklarga chidashiga turtki beradi. I.A.Djidaryanning fikriga ko'ra, "Insonning har qanday faoliyati uning biron-bir harakatni amalga oshirishi uchun o'z oldiga qo'ygan zaruriy talablari ichki muhitni o'zgaruvchan sharoitlarida aniq aks etishi natijasida aniqlanadi va faoliyat sub'ekti sifatida shaxsni o'zining ichki intilishlari va psixologik imkoniyatlari natijasida o'zgaradi. Motivatsiya shaxsning hatti-harakati ichki va tashqi omillari o'zaro bir-biri bilan bog'liqligining murakkab mexanizmi bo'lib, faoliyatning tug'ilishi, yo'nalishi va uni amalga oshirishning aniq shakllari va usullari sifatida yuzaga chiqadi"[4].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz o'z tadqiqotimizda sportchi shaxsining o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'sirini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik. Buning uchun biz B.Bassaning "Shaxsning yo'nalganligini aniqlash" metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika shaxsning yo'nalganlik ko'rsatkichi sifatida insonning asosiy hayotiy yo'nalganligini o'rganish maqsadida qo'llaniladi. Metodika shaxsni yo'nalganligining uchta bazaviy turini tadqiq qiladi:

- O'ziga yo'nalganlik;
- Muloqotga yo'nalganlik;
- Faoliyatga yo'nalganlik.

Tadqiqot ishida biz futbol mashg'ulotlari bilan shug'ullanayotgan yosh futbolchilar shaxsning o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'sirini o'rganishga harakat qildik. Buni o'rganishda biz A.G.Kovalevning shaxs tuzilishi borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda tadqiqot ishini olib bordik. A.G.Kovalevni fikriga ko'ra shaxs tuzilishi uning yo'nalganlik, qobiliyati, xarakter va o'zini-o'zi boshqarish komponentlaridan iborat. Uning fikricha, shaxsning yo'nalganligi yoki insonning real voqelikka munosabati komponenti sportda ko'pincha yuqori yutuqqa erishishi motivatsiyasi bilan belgilanadi[5].

Tadqiqot ishimizda Jizzax, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

B.Bassaning shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi bo'yicha tadqiqot natijalari

№	Shaxs yo'nalganligi xususiyatlari	Respondentlar		
		Jizzax n=22	Samarqand n=28	Qarshi n=23
1	O'ziga	15,7	13,7	12,5
2	Muloqotga	14,0	10,2	18,9
3	Faoliyatga	18,1	15,3	14,6

1-jadvalda yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganligining 3 ta bazaviy turlarini shakllanganligining tadqiqiy natijalari keltirilgan.

Shaxsning o'ziga yo'nalganligi bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi fikrlarni bildirishimiz mumkin.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yosh futbolchilarning o'ziga yo'nalganlik ko'rsatkichlari bo'yicha Jizzax futbol akademiyasi tarbiya-lanuvchilarida 15,7 ball, Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchi-larida 13,7ball, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida esa 12,5 ballni tashkil qildi. Olingan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilariga nisbatan ko'rsatkichlari biroz yuqori ekan. Bu shundan dalolat beradiki, Jizzax futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'ziga yo'nalganlik xususiyati, ya'ni ish va hamkorlikka bog'liq bo'lmagan holatda to'g'ridan-to'g'ri rag'batga va qoniqishga bo'lgan yo'nalganlik, ma'lum bir maqomga erishishda tajovuzkorlik, hukmronlik, raqobatga moyillik, jizzakilik, xavotirlilik, introvertlik kabi xislatlar Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarining shu xislatlar ko'rsatkichidan nisbatan o'rtadan yuqori darajani ko'rsatdi. Bu xislatlarning yuqori darajasi ularda mashg'ulotlar va sport musobaqalari davrida ularning o'zaro hamkorligida, bir-biriga munosabatida salbiy ta'sir etishi bilan xarakterlanadi. Bu esa o'z navbatida yosh futbolchilarning jamoa sifatida muvaffaqiyatga erishishida ijobiy ta'sir ko'rsatishiga umid qilib bo'lmaydi, bu xislatlar Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'rtacha va o'rtadan past natijani ko'rsatdi (Samarqand 13,7; Qarshi 12,5 ball), bu holat Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'ziga yo'nalganlik ijobiy jihatdan nomoyon bo'ldi, buni olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bundan shunday hulosa qilsa ham bo'ladiki, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasida tarbiyalanuvchi yosh futbolchilarda o'ziga yo'nalganlik xislatlarining shakllanishi ularning motivatsiyasi bilan bog'liq holda mutanosib tarzda shakllanganligini, bu esa ularda mashg'ulotlarni ijobiy tashkil etilayotganligidan dalolat beradi.

Yosh futbolchilarning muloqotga yo'nalganlik xususiyatlari bo'yicha olingan tadqiqot natijalari Qarshi (18,9 ball) futbol akademiyasi tarbiya-lanuvchilarida Samarqand (10,2 ball) va Jizzax (14,0 ball) futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining natijalariga nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarda muloqotga yo'nalganlik – ya'ni, har qanday sharoitda atrofdagilar, jamoadagi o'rtoqlari bilan muloqotda bo'lish, hamkorlikka intilish, oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish va boshqalarga, jamoadagi sheriklariga sidqidildan yordam berish evaziga ijtimoiy qo'llab quvvatlashga, guruhga bog'langanlik, odamlar bilan hissiy munosabatlar va ular bilan bog'lanib qolishga yo'nalganlik xislatlari Samarqand va Jizzax futbol akademiyasi yosh futbolchilariga qaraganda nisbatan yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Bunday natija Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarining mashg'ulot va sport musobaqalari faoliyatida yaxshi natijalarga erishishlarida ijobiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Qarshi futbol akademiyasi murabbiylari bilan o'tkazilgan suhbat davomida ham yuqoridagi fikrlar o'z tasdig'ini topdi. Qarshi futbol akademiyasining yosh guruhlarida futbolchilari o'z yosh guruhlarida bir necha yillardan beri Respublika musobaqalarida yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgani ham fikrimizga yaqqol dalil bo'ladi.

Shaxsning muloqotga yo'nalganlik xususiyatlari bo'yicha Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari past ko'rsatkich natijani ko'rsatdi (10,2 ball). Bu holat ularda

bu borada olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligining past ekanligidan, yosh futbolchilar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yetarli darajada olib borish lozimligini ko'rsatadi. Murabbiylar bilan o'tkazilgan suhbat jarayoni ham buni asoslab berdi.

Futbol akademiyasi yosh futbolchilarining faoliyatga yo'nalganlik bo'yicha tadqiqot natijalari Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchi-larida (18,1 ball), Samarqand futbol akademiyasi (15,3 ball), Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari (14,6 ball) ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori natijani ko'rsatmoqda. Faoliyatga yo'nalganlik xususiyati bo'yicha olingan tadqiqot natijasi asosida aytish joizki, Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchi-lariga nisbatan faoliyatga yo'nalganlik, ya'ni faoliyat borasida yuzaga keladigan muammolarni (texnik va taktik) yechishga qiziqish, faoliyatini imkon darajasida yaxshi bajarish, faoliyat jarayonida hamkorlikka intilish, o'z fikrini umumiy maqsadga erishishda himoya qila olish kabi xususiyatlar yaqqol nomoyon bo'lganini ko'rish mumkin. Bu holatni biz quyidagicha izohlashimiz mumkin. Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuv-chilari futbol mashg'uloti va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ko'proq futbol mashg'ulotining texnik-taktik usullarini yaxshi egallashga harakat qilishlari, musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga harakat qilishlarini ko'rish mumkin. Biroq, ularning o'ziga yo'nalganlik xislat-larining yuqori ko'rsatkichi (15,7 ball), ya'ni har bir tarbiyalanuvchining "Men" va ularning o'zaro muloqotga yo'nalganlik xislatining past ko'rsatkichi (14,0 ball) faoliyatga yo'nalganlik xislati (18,1 ball) qanchalik yuqori bo'lganda ham muvaffaqiyatga erishishlariga ijobiy ta'siri kam ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatni Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining natijalarida ko'rishimiz mumkin. Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ushbu xislat bo'yicha ko'rsatkichlari (14,6 ball) Jizzax va Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ko'rsatkichlaridan past natijani ko'rsatgan bo'lsada, ular futbol musobaqalarida yuqori natijalar ko'rsatib, muvaffaqiyatga erishib kelmoqdalar, buni biz ulardagi o'ziga emas, balki jamoaga yo'nalganlik, o'zaro muloqot, o'zaro hamkorlik xislatlariga ko'proq e'tibor qaratishlari, mashg'ulot va musobaqa jarayonida texnik-taktik harakatlari-ning uyg'unligi bilan izohlashimiz mumkin.

Tadqiqot jarayonida murabbiylar bilan o'tkazilgan qo'shimcha suhbat jarayonida ham bu holat o'z tasdig'ini topdi. Suhbat yakunida Jizzax va Samarqand futbol akademiyasi murabbiylariga psixologik tayyorgarlik, jamoaviy hamkorlik va jamoa maqsadi borasida kerakli maslahatlar berildi.

2-jadval

Yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasining umumiy ko'rsatkichlari

No	Shaxsning yo'nalganligi	x	σ	t
1	O'ziga	13,98	1,99	-0,724
	Muloqotga	14,38	4,13	
2	O'ziga	13,98	1,99	-8,030**
	Faoliyatga	16,01	2,27	
3	Muloqotga	14,38	4,13	-2,912*
	Faoliyatga	16,01	2,27	

Izoh: *-R_{0.05}, **-P_{0.01}

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, yosh futbolchilarning umumiy ko'rsatkichlari orasidagi farq katta tafovutni ko'rsatmayapti (2-jadval). Yosh futbolchilarning futbol mashg'ulotlari bilan shug'ullanish jarayonida yuzaga chiqadigan motivatsiya ta'sirida ularning o'ziga yo'nalganligi o'ziga e'tiborlilik, izzattalablik, boshqalardan mahorati yuqoriligi, mavqega erishishda tajovuzkorlik, xavotirlilik xususiyatlari muloqotga intilish, o'zaro hamkorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, boshqalarga yordam berish, odamlar bilan hissiy yaqinlikka ehtiyoj kabi xususiyatlar bilan uyg'unlashgan holda o'ziga va muloqotga ijobiy jihatdan samarali ta'sir ko'rsatar ekan.

Yosh futbolchilarning muloqot va faoliyatga yo'nalganlik xususiyatlari ularning o'zaro hamkorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, boshqalarga yordam berish, jamoadoshlari bilan hissiy yaqinlik, bir maqsad ostida harakat qilish kabi shaxs xislatlarini shakllanishiga yordam berishi tadqiqot natijalarida namoyon bo'ldi.

Biz tadqiqotimizda yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganlik shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik ko'rsatkichlarini o'rgandik. Quyidagi jadvalda uning natijalari keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganligi shkalalari o'rtasidagi korrelyatsiyalar ko'rsatkichlari

	O'ziga	Muloqotga	Faoliyatga
O'ziga	1	-0,174	0,441**
Muloqotga		1	-0,165
Faoliyatga			1

3-jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'ziga yo'nalganlik xususiyati bilan muloqotga yo'nalganlik xususiyati o'rtasida manfiy bog'lanish aniqlandi. ($t = -0,174$; $P \leq 0,001$). O'ziga va faoliyatga yo'nalganlik xususiyatlari orasidagi bog'lanishlar esa musbat natijani ko'rsatdi ($t = -0,441^{**}$; $P \leq 0,01$). Muloqotga yo'nalganlik bilan faoliyatga yo'nalganlik xususiyati orasida esa manfiy aloqadorlik ko'rsatkichi namoyon bo'ldi ($t = -0,165$; $P \leq 0,001$). Bu olingan natijalar futbol mashg'ulotlari bilan shug'ullanish jarayonida yosh futbolchilarda shaxsning o'ziga xos jihatlarini shakllanishiga, ularning futbol bilan shug'ullanish motivatsiyasiga ham ta'sir ko'rsatar ekan, bu holatni biz yuqorida ham ta'kidlab o'tgan edik.

Tadqiqotda biz shaxs yo'nalganligini hududiy xususiyatlarini ham o'rgandik. Uning natijalari quyidagi 4-jadvalda o'z aksini topgan.

4-jadval

Yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganligi bo'yicha ko'rsatkichlari

	Shkalalar	x	σ	t
O'ziga	Jizzax	15.66	1.35	4.715**
	Samarqand	13.77	1.73	
	Jizzax	15.66	1.35	9.026***
	Qarshi	12.51	1.45	
	Samarqand	13.77	1.73	3.954***
	Qarshi	12.51	1.45	
	Jizzax	14.00	1.70	7.848***
	Samarqand	10.22	2.27	

Muloqotga	Jizzax	14.00	1.70	-11.543***
	Qarshi	18.92	2.20	
	Samarqand	10.22	2.27	-14.423***
	Qarshi	18.92	2.20	
Faoliyatga	Jizzax	18.07	1.68	5.906***
	Samarqand	15.33	2.00	
	Jizzax	18.07	1.68	9.584***
	Qarshi	14.62	1.49	
	Samarqand	15.33	2.00	1.677
	Qarshi	14.62	1.49	

Izoh: *-r ≤ 0.05; ** - p ≤ 0.01; *** -p ≤ 0.001.

Yuqoridagi 4-jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganligi bo'yicha ko'rsatkichlari orasida hududiy jihatdan taqqoslaganda tafovut yaqqol ko'zga tashlanadi. Yosh futbolchilarning o'ziga yo'nalganlik xususiyatlari Jizzax va Qarshi hududlari orasida, muloqotga yo'nalganlik xususiyati bo'yicha Jizzax va Qarshi, Samarqand va Qarshi hududlarida, faoliyatga yo'nalganlik xususiyati Jizzax va Samarqand, Jizzax va Qarshi hududlari orasidagi tafovutlar aniqlandi. Bu aniqlangan tafovutlar yuqorida tadqiqot natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlarimizni yana bir bor tasdiqlaydi, ya'ni shaxs yo'nalganligining o'ziga xos jihatlarining namoyon bo'lishida (o'ziga, muloqotga va faoliyatga) hududiy muhitning, o'quv mashg'ulotlari va musobaqalarga bo'lgan motivatsiyaning ta'siri mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tkazilgan tadqiqot natijalari Jizzax, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida shaxs yo'nalganligining shakllanishida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ta'siri ijobiy jihatdan ta'sir etishi namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурасулов Р.А. Мотивы учащихся-спортсменов в спортивной деятельности. Юбилейная международная научно-практическая конференция. Сборник материалов. Самара, 2008.

2. Абдурасулов Р.А. Интересы учащихся к занятиям восточными единоборствами и боксом. Юбилейная международная научно-практическая конференция. Сборник материалов. Самара, 2008.

3. В.Гошек, М.Ванек, Б.Свобода. Успех как мотивационный фактор спортивной деятельности. // В кн. П.А.Рудика и др. "Психология и современный спорт". -М.: ФИС, 1973.

4. Джидарян И.А. О месте потребностей, эмоций и чувств в мотивации личности. -М.: Наука, 1974.

5. Ковалев А.Т. Психология личности. -М.: 1965

6. Леонтьев А.Н. Потребность, мотивы, эмоции. -М.: МГУ, 1971

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Abdurasulov Rustam Abduraimovich

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor,

Samarqand davlat universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Samarqand shahri

SHAXSNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TUZILMASI HAMDA YOSHLIK DAVRIGA OID AYRIM IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK VA SOTSIOLOGIK QARASHLAR



Qodirov Umarali Do'stqobilovich,
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Surxandaryo viloyati

Annotatsiya.

KIRISH: Shaxsning ijtimoiy "o'lchamlari" inson tarbiyalangan muhit, ishtirok etayotgan madaniy jarayonlar, muloqot singari mezonlar natijasida shakllanadi. Shaxsning turli guruhlar (oilalar, jamoalar, tengdoshlari davrasi)da bajaradigan ijtimoiy rollari, shuningdek muayyan taassurotlar, ta'sirotlar natijasida shakllangan o'zi haqidagi sub'ektiv "Men"i hamda boshqalarning shaxsdan kutadigan xatti-harakatlari natijasida namoyon bo'ladigan tashqi "Men"i muhim ijtimoiy komponentlar sifatida tasnif etiladi.

MATERIALS AND METHODS: The wise words of the Head of our state in his many speeches aimed at the development of science and education, not only for young people, but also for the entire society, indicate the importance of this call, saying that in order to increase the level of knowledge, not only for young people, but also for members of our society as a whole, science and education, high spirituality is needed first of all, and where there is no science, there will be backwardness, ignorance, and, of course, deviation from the right path. The fact that the first verse of our holy book, the Quran, places special emphasis on science and education, saying "Read", "Read", "Read", and the repetition of the word "Science" and the words of our grandfather Imam Bukhari, "There is no salvation except from science and there will be no salvation!", indicate the importance of this call. Therefore, it was not for nothing that our President, in his address to the Oliy Majlis this year, said: "The greatest wealth is intelligence and knowledge, the greatest heritage is good upbringing, the greatest poverty is ignorance!"

CONCLUSION: The special attention paid to science and education in our country has a deep meaning, namely, the issue of stability and development on this basis. Science and education is the foundation of a new era of revival and stability, and its basis is the national thinking, national idea, faith in tomorrow, and development of the citizens of this country, which is one of the main priority factors ensuring stability in society. As science develops, the development of not only the economy, but also the socio-cultural sphere is guaranteed, and there is no doubt that this guarantee represents a new era of renaissance.

Keywords: enlightenment, science, stability, enlightenment, society, education, pedagogy, psychology

*B*ugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'rifiy jarayonlar va ularning tezlashishi (jadallashishi) ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ma'rifiy jadallashish deganda insonlarning ilmiy, axboriy, madaniy va ma'naviy bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishi, ta'lim-tarbiya tizimining yangi shakllar orqali rivojlanishi tushuniladi. Bu jarayonlar nafaqat shaxsiy, balki jamiyat miqyosida ham ijtimoiy-psixologik barqarorlikka ta'sir etadi.

Mavzu dolzarbligi shundaki, bugungi tezkor zamonda ma'naviy yetuklik, aqliy salohiyat va psixologik barqarorlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatning taraqqiyot ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. O'zbekistonning "Uchinchi Renessans" sari intilishi, yoshlar ma'rifati va intellektual salohiyatini oshirish borasidagi islohotlar mazkur mavzuni yanada ahamiyatli qiladi.

Ma'rifiy jadallashish tushunchasi va uning mohiyati. Ma'rifiy jadallashish – bu shaxs va jamiyatning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'naviy va ilmiy salohiyatni oshirish jarayonining tezlashuvini bildiradi. Ma'rifat, aslida, inson tafakkurini yangilaydi, jamiyatni ilg'or g'oyalar bilan boyitadi[1].

Bugungi kunda raqamli ta'lim, onlayn kurslar va masofaviy o'quv platformalari orqali bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Yoshlar orasida kreativ fikrlash, ilm-fan va innovatsiyalar bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Kitobxonlik, intellektual

musobaqalar va madaniy-ma'rifiy loyihalar ma'rifiy jadallashishning asosiy ko'rinishlari sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-psixologik barqarorlik tushunchasiga keladigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik barqarorlik – bu jamiyatning turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida ma'naviy-ruhiy muvozanatni saqlash qobiliyati.

Bunga quyidagi omillar ta'sir qiladi: ma'naviy qadriyatlarning mustahkamligi; ta'lim tizimining yetukligi; yoshlarning bilim va tarbiya darajasi; ommaviy axborot vositalarining ma'naviy-tarbiyaviy yo'nalishi; ijtimoiy munosabatlarda hamjihatlik va bag'rikenglikning ustuvorligi. Aynan ma'rifiy jadallashish bu omillarning ko'pchiligini faol qo'llab-quvvatlaydi.

Biz maqolamizda ma'rifiy jadallashishning dolzarbligini quydagilar bilan izohlashishimiz mumkin globallashuv davri – milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlar ongini sog'lom g'oyalar bilan boyitish uchun kuchli ma'rifiy siyosat zarur.

Shuningdek axborot oqimining keskin oshishi – yolg'on, asossiz yoki zararli ma'lumotlarga qarshi to'g'ri ma'rifat va mustahkam dunyoqarash bilan kurashish muhim. Psixologik xavfsizlik – yoshlarni ekstremistik g'oyalardan, radikal mafkuralardan himoya qilishda ma'rifatning o'rni beqiyos. Raqamli savodxonlik – zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanish, axborot tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish[2].

Ma'rifiy jadallashish va psixologik barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mavjud. Mazkur masalada olib borilgan tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, inson ma'naviy va intellektual jihatdan boy bo'lsa, uning stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va qaror qabul qilishdagi ishonchiligi ortadi. Shunday qilib:

- ❖ ma'rifatli inson o'z hayotida maqsadli va o'zini anglash darajasi yuqori bo'ladi;
- ❖ ma'rifiy muhitda o'sgan yoshlar jamiyatda totuvlik, bag'rikenglik va millatlararo do'stlikka hissa qo'shadi;
- ❖ ilmiy bilimlar shaxsda tanqidiy tafakkur va mas'uliyat hissini shakllantirib, psixologik muvozanatni mustahkamlaydi.

Tadqiqotimiz davomida ma'rifiy jadallashish bo'yicha O'zbekiston tajribasi O'zbekistonda so'nggi yillarda ma'rifiy sohada bir qator yirik islohotlar amalga oshirilayotganligi, Prezident tashabbusi bilan “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi ishlab chiqilganligi, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi ijtimoiy loyihalar va turli grant dasturlari orqali yoshlarning ilmiy izlanishlari qo'llab-quvvatlanganligi hamda axborot texnologiyalari asosida interfaol o'qitish usullari joriy qilinmoqda. Shuningdek “Ochiq kutubxonalar” va ma'naviy-ma'rifiy haftaliklar yoshlar ongida kitobga muhabbat uyg'otmoqda.

Shunindek masala bo'yicha o'rganishlarimiz barcha zamonlarda, barcha sivilizatsiyalarda ma'rifat va rejali pedagogik ta'lim jamiyat, xalq va millatlarni barqarorlik kafolati bo'lib kelgan. Bugungi kunda barcha ommaviy axborot vositalarida, jumladan televedeniye, gazeta, jurnal va ijtimoiy tarmoqlar hamda odamlarimizni bir-birlari bilan muloqotlarida, gap-so'zlarida “Yangi O'zbekiston”, “Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash” kabi iboralarini qo'llashyapti.

Xalqaro miqyosida davlatimiz haqida so'z ketganda “Yangi O'zbekiston”, “Yangi O'zbekiston tajribasi” degan iboralar tilga olinmoqda. Bu mamlakatimizda keyingi yillarda barqarorlik, rivojlanish va ma'rifiy taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatimizning ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda azaldan ilmiy-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilib kelganligini guvohi bo'lamiz. O'sha davrlarda jamiyatda ilmiy-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga qo'shgan hissasi barchamizni birdek faxru-g'ururimizga sabab bo'lib kelmoqda.

Maqolamizda ko'tarilgan masala bo'yicha o'rganishlarimiz diyorimizdagi ma'rifiy uyg'onish davri, ya'ni birinchi Renessans davri - Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'ldi. Renessansning ikkinchi davri esa - Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tariladi.

Davlatimiz Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda», - degan so'zi yangradi. Yurtboshimiz mazkur chiqishlarida bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas», deb takidladilar.

Nazariy va amaliy tahlillarimiz haqiqatdan ham O'zbekistonda yangi uyg'onish - Uchinchi Renessans davri boshlanganligini ko'rsatadi. Makur jarayonni bugungi kunda mamlakatimizda, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarida namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi.

Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendentsiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur - mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o'zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbari hozirgi davrni milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari deb e'lon qilganligining zamirida qat'iy ishonch va chuqur hikmat mujassam. Negaki, keyingi 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo'lishi muqarrar. Zero oxirgi yillarda qabul qilingan va albatta qilinajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar taraqqiyotning yangi ufqlariga asos bo'ladi. "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Biz Uchinchi renessans - barqaror jamiyatlar kafolati sifatida ekanligi ilmiy asoslashda kuzatish, suxbat, ijtimoiy pedagogik va psixologik so'rovnomalar, kontent-taxlil metodlaridan foydalandik. Jumaladan mazkur metodlari orqali quyidagicha nazariy va empirik xulosalar yuzaga keldi. Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishimiz jamiyatlar, xalqlar va millatlarda ma'naviy va iqtisodiy barqarorlikni yuzaga keltirar ekan. Mazkur fikrlarni ilmiy asoslashda o'zimizning tariximizga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli

osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bizda Uchinchi renessans – xalqimizdagi ma'naviy va iqtisodiy barqarorlikni yuzaga keltirishdagi quyidagi xayotiy g'oyalarni hayotga kirib kelganligi bilan ham ilmiy izohlashimiz mumkin, jumaladan "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori", "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Halollik vaktsinasi", "Ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi!", "Inson manfaatlari hamma narsadan ulug'", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi", "Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", "Adolat – qonun ustuvorligida", "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir", "Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz", "Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz" kabi tamoyillarni amaliyotga tatbiq qilinyotganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Qolaversa, davlatimizda uchinchi Renessansni fundamental tamoyillari 2020 yilning "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi bmlan ham boshlandi. Aynan shu davrdagi islohotlar O'zbekistonni rivojlanish tarixidagi ilk inqilobiy yangi uyg'onish, ya'ni Uchinchi Renessans davrini yanada jadalashishiga xizmat qildi desak, hecham mubolog'a bo'lmaydi[3].

Davlatimiz rahbari ilm-ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab chiqishlarida nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilim saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak bo'lib, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi deb donishmandlarcha aytgan so'zlari muqaddas kitobimiz Qur'onning ilk oyatida xam "O'qing", "O'qing", "O'qing" deb ilmu ma'rifatga alohida urg'u berilganligi va "Ilm"so'zining takror va takror kelganligi hamda Imom Buxoriy bobomizni "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay!" kabi so'zlari bu davlatning naqadar muhimligini anlatadi. Shuning uchun Prezidentimiz joriy yilda Oliy Majlisga murojaatidagi nutqlarida bekorga "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" deb uqtirib o'tmadi.

Demak biz tadqiqotimiz davomida yuqoridagi metodlar orqali nazariy, amaliy asoslangan bir qancha empirik natijalar, ilmiy xulosalarni qo'lga kiritidik va ularni taqdim etamiz. Jumaladan har bir jamiyat o'zining ma'naviy va iqtisodiy barqarorligi uchun ilm-fan, ma'naviyat-ma'rifatga sarmoya kiritib borishi – bu buyuk kelajak uchun kiritilgan investitsiya hisoblanarkan. Ilm-ma'rifat rivojlanmagan davlat hech qachon to'laqonli davlat bo'la olmasligi bizga uzoq tarix hamda bugungi asrimizdagi yuksak taraqqiy etgan ilg'or mamlakatlar tajribasidan juda yaxshi ayon. Darhaqiqat, ilm-ma'rifat ikki dunyo saodatidir. Ilm ma'rifatsiz kishi berilgan ne'matlar qiymatini anglab yetmaydi. Ilm-ma'rifat inson uchun najot.

Shu bois, yurtimiz qadim-qadimdan ilm-ma'rifat markazi, sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib kelgan. Ushbu tabarruk zamindan dunyoga ilmu irfon ziyosini taratgan buyuk allomalar, olimu mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ular ilm-fanning ko'plab jabhalariga asos solib, jahon tamaddunining shonli mayog'i bo'lib kelganlar. Ta'kidlash joizki, xususan, O'zbekiston hududi ham Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga ma'lum va mashhur bo'lganligini ta'kidlash bizga faxr va g'urur bag'ishlaydi.

Sharq Renessansining asoschilari xalqimizning ulug'vor qudrati buyuk vatandoshlarimiz – algoritm asoschisi Al-Xorazmiy, qomusiy olim Al-Farg'oniy, geodeziya va mineralogiya

fanlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, G'arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Ibn Sino, davlat arbobi va buyuk astronom Mirzo Ulug'bek singari o'nlab mutafakkirlar, ya'ni ilm-fan asoschilari qilgan kashfiyot va izlanishlarda namoyon bo'lib turibdi.

Qolaversa Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hakim at-Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy singari ajdodlarimiz nomi esa nafaqat islom olami, balki jahon sivilizatsiyasi tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Shu sababli ham davlat rahbari o'z nutqida ilm-fanga bo'lgan yuksak e'tibor va ta'limga to'xtalib, "Vaqt o'tib, bolalarimiz ham Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy bo'ladi, men bunga albatta ishonaman" deb ta'kidladi. Mazkur qarashlarda ham har qanday barqarorlik va taraqqiyot ma'rifatga quriladi degan g'oyani ilgari suradi.

Uchinchi Renassans davrining alomatlari bo'yicha ayrim empirik natijalarga to'xtaladigan bo'lsak, maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida islohotlar natijasida o'tgan yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog'chalari tashkil etildi. Shuning hisobidan maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi. 2019 yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan yili 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016 yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi.

Demak mazkur ezgu ulug' maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasini 2019-2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasining bosh maqsadlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish bo'lsa, boshqasi 2030 yilgacha Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakati tarkibiga kirish etib belgilangani barchaning yodida, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, ilm-fan sohalariga safrflanayotgan jami harajatlar o'tgan yillar mobaynida qariyb 14% ga oshgan. Bu ko'rsatkich 2018 yili umumiy 528.8 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilga kelib 603, 3 mlrd so'mga oshgan. Biroq, bugungi kunda ilm-fanni moliyalashtirish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0.2% ni tashkil qilib, yillar davomida o'zgarmay qolayapti. Ushbu ko'rsatkich jahon bo'yicha o'rtacha 1,7 foizga teng, xususan Xitoyda 2008 yilda 1,4 foizdan 2,14 foizgacha, Koreya Respublikasida 3,1 foizdan 4,5 foizgacha oshgan.

So'nggi 3 yil mobaynida ilm-fan sohasiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar 2-3 martagacha oshirilgan bo'lsa-da, bu o'sish sur'ati asosan ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning oylik maoshlarini oshirilishiga yo'naltirilib, mamlakatda ilmiy tashkilotlarning moddiy texnika ba'zasini rivojlantirishga yetarli mablag'lar ajratilmasdan qolayapti.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro bog'laydigan mustahkam mexanizm bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, joriy etilmoqda. Mamlakatimiz rivojlanishida ilm-fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasi sifatida 2017-2020 yillarda qator ilmiy, ta'lim va innovatsion tashkilotlar (tuzilmalar) tashkil etildi. 32 ta ilmiy-innovatsion tuzilmalar (6 ta texnoparklar, 8 ta ilmiy markazlar va 18 ta ilmiy-tadqiqot institutlari) hamda yangi 29 ta oliy ta'lim muassasari va ularning filiallari shular jumlasidandir.

Ko'rinib turganiday, mamlakatimizda yangi davrning poydevori bo'lmish juda keng miqyosdagi yangicha sifat va qudratga ega zamonaviy innovatsion tizimlarni yaratish jarayonlari davom etmoqda. Davlat rahbarimiz nazarda tutgan Uchinchi renessans - mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining, iqtisodiyot va jamiyatning, xalqqa xizmat qilish va kishilarni rozi qilishday ezgu niyat bilan amalga oshirilayotgan barcha yutuqlar – kishilariimiz va yoshlarimiz aqlu zakovatining, iqtidor va iste'dod quvvatining yorqin tantanasi bo'ladi[4].

Ma'rifat - rivojlanish va barqarorlik kafolati. Mazkur g'oya asosida vatanimizning aksariyat fidoyilari, ilm-fan arboblari, tadqiqotchilar, olimlar diyorimizdagi yangi uyg'onish davrining o'ziga hos bo'lgan omillarini sohalar kesimida tadqiq qilishga kirishdi. Jumladan pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori X.Jabborovlar tomonidan uchinchi renessans davrining g'oyaviy, mafkuraviy, pedagogik, psixologik jihatlari tadqiq qilindi va unda quyidagicha tahlillarni keltirish mumkin. "Uchinchi Renessans – ma'no + fikr + g'oya + harakat = Milliy g'oya!" formulasi keltiriladi. Bunda asosan mustaqillikning mustahkam himoyalash kerakligi, mazkur holat bo'yicha o'tmishdan saboq chiqarish kerakligi, masalan mustaqillikning harbiy himoyalash mumkin, ma'naviy himoyalash mumkinligi, tarixdan bizga ma'lumki biz qachon mustamlakaga tushgan bo'lsak xalqning birlashmaganligi xalqning birlashmaganligini sababi esa, hammani birlashtiradigan g'oya ishlab chiqilmaganligi va bu g'oya odamlarning qalbiga singdirilmaganligi bo'lib chiqadi.

Bugungi kundagi eng xayotbaxsh g'oyamiz "Millik tiklanishdan – milliy yuksalish sari" deb nomalanadi. Milliyligini tiklagan xal va jamiyat endilikda yuksalish sari, barqarorlik va rivojlanish sari yuzlanadi. Endi manashuni mustaqillikni himoya qilish, uchinchi renessans poydevorini himoya qilishimiz kerak. Biz buni o'z vaqtida himoya qilmasak u buzilishi mumkin dushmanlar tomonidan. Buni ham ma'naviy tomonidan himoya qilishimiz kerak. Ya'ni uchinchi renessans davrini poydevorini buzishga harakat qilayotganlarga qarshi kurashishimiz kerak.

Masalaga daxldor aksariyat tadqiqotlar va taxlilar bizga uzoqdan turib ma'naviy hujum qilishayotganligini ko'rsatadi. Bizninchamashu ma'naviy hujumlarga indamay turmasligimiz kerak. Ularga javob berishimiz kerak va bu ham ilmiy asosda bo'lishi kerak. Uchinchi renessansning qurilishi va himoyasi ilmiy asosga qurilsa, bu katta kafolat bo'ladi. Vatanni chegarachi qo'lida qurol bilan qanday himoya qilayotgan bo'lsa, odamlarning ma'naviyatida ham shunday himoya o'rnatiladi.

Uchinchi renessans milliy g'oya, nima uchun biz uni ma'naviy g'oya deb atashimiz kerak. Chunki ilmga qarasak buning javobini bilamiz. Unda ma'no degan so'zdan boshlaymiz. Chunki uchinchi renessans davri mukammal amalga oshishi uchun, tez amalga oshishi uchun odamlar, yoshlar uchinchi renessansning ma'nosini tushunib olishlari kerak, qabul qilib olishlari kerak. O'ziga manfaatli ekanligini anglashlari kerak. O'zini baxtli bo'lishligi uchun uchinchi renessans bo'lishligiga iqrar bo'lishi kerak. Ma'nosini tushunishi kerak.

Ma'nodan keyin fikr keladi. Fikrdan keyin g'oya keladi. G'oyadan keyin xarakat boshlanadi. Xarakat esa Uchinchi Renessansni yaratadi. Har bir O'zbekistonlikning ongida xarakat natijasi o'laroq.

Demak biz hozir shuni boshidan boshlamasak, boshidan puxta ilmiy asosda ilmiy tashkil etmasak qiyin bo'ladi. Nima uchun qiyin bo'ladi. Odamlar yaxshi tunushunmasa, yaxshi anglamasa, o'zini manfaatini ko'rmasa umummilliy harakatga qo'shilishi qiyin bo'ladi. Yana ularni chaqirib, yig'ib tashkil qilish kerak bo'ladi. Ular bu harakatga qo'shilishni xohlamasligi

mumkin, mayda – chuyda ishlarga berilib. Shuning uchun birinchi bosqichi odamlarga uchinchi renessansni ma'nosini tushuntirish bosqichi.

Ikkinchi bosqich odamlarni fikrlarini paydo qilish bosqichi. Ya'ni odamlar uchinchi renessans haqida mayli boshqa so'zlar bilan gaplasha boshlasin, kundalik hayoti davomida uchinchi renessans haqida gaplashib, savollar bera boshlasin, o'zini fikrini aytsin, nega, chunki odamla o'zini fikrini aytmasa, odamlar uchinchi renessans haqida nimalarni bilishi, nimalarni o'ylayotganligi, bu fiklari to'g'rimi, noto'g'rimi ekanligini bilib bo'lmaydi, baholab bo'lmaydi, darajalashtirib, qayerda, qaysi hududda odamlar uchinchi renessansni to'g'ri angelayapti, qayerda yaxshi, qayerda o'rtacha va qayerda anglamayapti deb darajalashtirish mumkin.

Uchinchi bosqich g'oya bosqichi. Uchinchi renessans har bir odamning g'oyasiga aylandimi, yo'qmi, qayerda, qaysi hududda, qaysi tashkilotda, vazirlikdagi odamlarni g'oyasiga aylandi uchinchi renessans g'oyasi, to'liq aylandi, qayerda o'rtacha va qayerda aylanmadi, buning sabalarini o'rganib, halaqit berayotgan sabalarni yoqotish kerak. Rivojlantiriyotgan sabablarni rivojlantirish kerak.

To'rtinchi bosqich bu harakat bosqichi. Qayerda uchinchi renessans uchun odamlarning harakati faol, qayerda o'rtacha va qayerda harakati sust. Nima uchun sust. Ilmiy va faqat ilmiy yondashuv bu savollarga javob beraoladi, noilmiy yondashuv faqat yuzaki ko'radi, yuzaki xulosa qiladi, yuzaki ishlarni tashkil qiladi va yuzaki natijalarga erishiladi. Bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu esa uchinchi renessans masalasi ma'naviy-mafkuraviy masalada to'rt bosqichdan iborat bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish joizki, ma'rifiy jadallashish ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir. U insonlarni bilimli, irodali, maqsadli va bag'rikeng bo'lishga undaydi. Yoshlar orasida sog'lom g'oya va ma'naviy boylikni keng yoyish jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini ta'minlaydi.

Shu bois, har bir o'qituvchi, ota-ona va ziyoli jamiyatning ma'rifiy rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shishi lozim. Ma'rifatsiz jamiyatda psixologik barqarorlik bo'lishi qiyin, ammo ma'rifatli jamiyatda taraqqiyot ham, tinchlik ham kafolatlanadi.

Shunindek, mamlkatimizda ilm-ma'rifatga berilayotgan alohida e'tiborning zamirida chuqur ma'no, ya'ni barqarorlik va shu asosida taraqqiyot masalasi yotadi. Ilm-ma'rifat – bu yangi uyg'onish va barqarorlik davrining poydevori, uning asosida esa shu yurt fuqarolarining milliy tafakkuri, milliy g'oyasi, ertangi kunga, taraqqiyotga bo'lgan ishonchi bo'lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlab beruvchi asosiy ustuvor omillardan biridir. Ilm-fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy sohaning ham taraqqiyoti kafolatlanadi, mazkur kafolat esa o'zida yangi renessans davrini ifoda etishiga hecham shubha yo'q [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. M.Quronov. "Bolam baxtli bo'lsin desangiz..." Toshkent «Ma'naviyat» 2013. 320 b.4.

2. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

3. X.X. Jabborov Vliyanie destruktivnoy «massovoy kultury» na povedenie i vospitanie cheloveka. VESTNIK INTEGRATIVNOY PSIXOLOGII. Nauchnyy jurnal. 23 (№23), S.109-

4. X.X. Jabborov Yoshlarda tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ta'sirchan psixologik uslublari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar obrazovanie i innovatsionnye. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Issledovaniya education and innovative research № 5 2021/10 B. 304-321

5. Jabborov Xazrat Xusenovich. Psixologicheskie osobennosti ideologicheskogo vliyaniya "massovoy kultury" na chelovecheskiy razum. Sotsialnyy psixolog jurnal dlya psixologov. Osnovan v 2000 godu v Yaroslavl. 2016 №2 (32). -S. 56-66.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Jabborov Xazrat Xusenovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc),

TDSHU, AIFU universitetlarining professori

Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri

SHAXS TOLERANTLIGINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Bafayev Muxiddin Muxammadovich***Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent**Buxoro davlat pedagogika instituti***Annotatsiya.**

KIRISH: Zamonaviy tadqiqotlarda tolerantlik turli falsafiy va psixologik yondashuvlarda keng doirada ko'rib chiqiladi. Hozirgi kun adabiyotlarida bixevioral tolerantlik insonning alohida xulq shakli sifatida ko'rinadi, kognitiv tolerantlik asosida bilish va rasional sabablarga ega yondashuvlar ustunlik qiladi. Tolerantlikka nisbatan bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, uzoq va yaqin xorij olimlari ilmiy asarlarida o'ziga xos tarzda ifodalangan. Tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarni ishlab chiqish asosida tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirishga, tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqishga erishish mumkin.

MAQSAD: Shaxs tolerantligining ijtimoiy-psixologik asoslarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Tolerantlikning kognitiv komponenti mukammallikni dunyoning turli-tumanligini qabul qilish orqali namoyon bo'ladi. Tolerantlikning emotsional komponenti tolerant munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lgan emotsiyani ko'rib chiqadi. Emotsional komponentning alohida tashkil qiluvchisi sifatida G.Kristall tomonidan emotsional turg'unlikning asosiy ko'rinishlaridan biri "affektiv tolerantlik" ni ajratilib ko'rsatiladi. Uning asosida emotsional zo'riqishni yenga olish, boshqalarning og'ir kechinmalariga sabrli bo'lish yotadi. Tolerantlikning xulq-atvor komponenti bugungu kunda zamonaviy tadqiqotchilarning e'tiborini tortadi.

XULOSA: Tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarni ishlab chiqish asosida tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirishga, tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqishga erishish mumkin.

Tayanch tushunchalar: shaxs, tolerantlik, kognitiv, emosional, xulqiy, affektiv tolerantlik, nazariy va konseptual ta'rif, kognitiv psixologiya, gumanistik psixologiya, bixeviorizm.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИЧНОСТНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Бафаев Мухиддин Мухаммадович*Доктор психологических наук (DSc), доцент**Бухарский государственный педагогический институт***Аннотация.**

ВВЕДЕНИЕ: В современных исследованиях толерантность рассматривается в широком спектре философских и психологических подходов. В современной литературе

поведенческая толерантность рассматривается как отдельная форма человеческого поведения, в то время как в когнитивной толерантности преобладают подходы, основанные на знаниях и рациональном мышлении. Существует несколько подходов к толерантности, которые по-своему выражены в научных трудах учёных ближнего и дальнего зарубежья. Разработка психологических моделей, всесторонне объясняющих сущность толерантности, позволяет создавать и апробировать методический инструментарий для социально-психологического изучения толерантности, а также развивать её эмпирическую базу и разрабатывать практические основы толерантности.

ЦЕЛЬ: Научный анализ социально-психологических основ личностной толерантности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Когнитивный компонент толерантности проявляется в принятии многообразия мира. Эмоциональный компонент толерантности рассматривает эмоции, которые являются компонентом толерантных отношений. В качестве отдельного компонента эмоционального компонента Г. Кристалл выделяет одно из основных проявлений эмоциональной устойчивости – «аффективную толерантность». В её основе лежит способность преодолевать эмоциональный стресс, быть терпеливым к сложным переживаниям других. Поведенческая составляющая толерантности сегодня привлекает внимание современных исследователей.

ВЫВОД: На основе разработки психологических моделей, всесторонне объясняющих сущность толерантности, возможна разработка и апробация методического инструментария социально-психологического изучения толерантности, а также развитие её эмпирической базы и разработка практических основ толерантности.

Ключевые понятия: личность, толерантность, когнитивная, эмоциональная, поведенческая, аффективная толерантность, теоретико-концептуальное определение, когнитивная психология, гуманистическая психология, бихевиоризм.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF PERSONAL TOLERANCE

Bafayev Mukhiddin Mukhammadovich

Doctor of Psychology (DSc), Professor

Bukhara State Pedagogical Institute

Annatation.

INTRODUCTION: In modern research, tolerance is considered in a wide range of philosophical and psychological approaches. In the current literature, behavioral tolerance is seen as a separate form of human behavior, cognitive tolerance is dominated by approaches based on knowledge and rational reasoning. There are several approaches to tolerance, which are expressed in their own way in the scientific works of scientists from near and far abroad. Based on the development of psychological models that fully explain the essence of tolerance, it is possible to create and test methodological tools for the socio-psychological study of tolerance, as well as to develop its empirical base, and to develop practical foundations of tolerance.

THE GOAL: Scientific analysis of the socio-psychological foundations of personal tolerance

MATERIALS AND METHODS: The cognitive component of tolerance is manifested in the acceptance of the diversity of the world. The emotional component of tolerance considers emotions, which are a component of tolerant relations. As a separate component of the emotional component, G. Kristall singles out one of the main manifestations of emotional stability, "affective tolerance". It is based on the ability to overcome emotional stress, to be patient with the difficult experiences of others. The behavioral component of tolerance today attracts the attention of modern researchers.

CONCLUSION: Based on the development of psychological models that fully explain the essence of tolerance, it is possible to create and test methodological tools for the socio-psychological study of tolerance, as well as to develop its empirical base, and to develop practical foundations of tolerance.

Key concepts: personality, tolerance, cognitive, emotional, behavioral, affective tolerance, theoretical and conceptual definition, cognitive psychology, humanistic psychology, behaviorism.

Tolerantlik – turli emosional ta'sirlar ostida ham odamning hissiy turg'unligini uning xulqning turg'unligida namoyon bo'ladigan holat. Qiyinchiliklarga chidamlilik, boshqa odamlar xulqiga toqatlilik. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biror bir insonda yoki o'zga madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa, ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Shuningdek, tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi.

Asli tolerantlik insoniyat tarixida o'zga din va millatlarga nisbatan bag'rikenglik va ehtiromli munosabatda bo'lish mezonini sifatida shakllanib kelgan.

Tolerantlik murakkab va o'ziga xos ham ijtimoiy ham individual xususiyatlarini o'zida mujassam etgan voqelik hisoblanadi. Ahvoli, diniy e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me'yorlarini anglatadi. Tolerantlik faqat insonning o'z shaxsiy xususiyatlariga aloqador bo'lgan psixologik tushuncha bo'lmay, balki insonga xos bo'lsa ham ana shu o'ziga xoslikni boshqa insonlarga qarata ishlata olish, qo'llay bilish ko'nikmalaridan iboratdir.

Rus tilida tolerantlik tushunchasi S.I.Ojegovning lug'atida boshqalarning fikri, xarakteriga sabrli bo'lish ma'nolarida keltirilgan. Yuqorida keltirilgan "tolerantlik" va "chidamlilik" o'zaro sinonim tushuncha ekanligini ko'rishimiz mumkin [1].

V.O.Tishkovning ta'kidlashicha, tolerantlik – bu hamma narsani, barchani kechirish emas, balki, intolerantlik shakllarining nisbatan faol harakatidir [2]. G.U.Soldatova tomonidan tolerantlik muammosi atroflicha o'rganilib, chidamlilik va befarqlik o'rtasida o'zaro munosabat mavjud deb ta'kidlaydi [3,4]. Yu.A.Ishenkovning tadqiqotlariga ko'ra, chidamlilikni muloqotni amaliy me'yorlash sifatida qaraydi. V.O.Tishkovning fikricha, tolerantlik shaxsning o'zini o'zi aniqlash bilan bog'liq. I.B.Guseynovning fikriga ko'ra, milliy sabrsizlikni tahlil qilish orqali tolerantlikni agressivlikning aksi deb e'tirof etadi.

Psixologiya fanida tolerantlik fenomen sifatida o'rganilayotganiga deyarli ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Jumladan, A.V.Petrovskiy, A.V.Zimbuli, Yu.A.Ishenko, V.M.Zolotuxin,

A.G.Asmolov, G.U.Soldatovalar tomonidan sabr, chidamlilikning asosiy tashkil etuvchisi deb qaraladi.

A.A.Rean chidamlilik va tolerantlik tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yuqoridagi mualliflar keltirgan fikrlariga qarama-qarshi fikrini bayon etadi. U tolerantlik psixofiziologik atama bo'lib, u noxush omillarga javob qaytarishning susayishi deb biladi. A.A.Rean fikriga ko'ra, "chidamlilik" umumiyroq tushuncha bo'lib, turli xil fikrlarga nisbatan munosabati bilan bog'liq [5].

Y.V. Magomedovaniing fikriga ko'ra, tolerantlikni inson ongining ikki darajasida ratsional-mantiqiy va emotsional-hissiy ko'rib chiqish mumkin [6].

Rus tadqiqotchilari tolerantlikning bahoviy tabiatini ta'kidlab o'tib, uni insonning axloqiy rivojlanishi bilan munosabatini ko'rsatib o'tishadi. Bundan tashqari bixevioristik yondashuvda ham tolerantlikni alohida tahlil qilib, uni insonning alohida bir xulq-atvori sifatida qaraydi.

Tolerantlikning kognitiv komponenti mukammallikni dunyoning turli-tumanligini qabul qilish orqali namoyon bo'ladi. Tolerantlikning emotsional komponenti tolerant munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lgan emotsiyani ko'rib chiqadi [7]. Emotsional komponentning alohida tashkil qiluvchisi sifatida G.Kristall tomonidan emotsional turg'unlikning asosiy ko'rinishlaridan biri "affektiv tolerantlik" ni ajratilib ko'rsatiladi. Uning asosida emotsional zo'riqishni yenga olish, boshqalarning og'ir kechinmalariga sabrli bo'lish yotadi. Tolerantlikning xulq-atvor komponenti bugungu kunda zamonaviy tadqiqotchilarning e'tiborini tortadi.

S.L.Bratchenko xulq-atvor tolerantligi tarkibi ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi [8]:

- o'z fikrida qat'iy tura olish va uni izohlashda tolerantlik qobiliyatiga ega bo'lish;
- boshqalarning mulohazalariga tolerant munosabatda bo'lishga tayyorlik, kelisha olish ko'nikmasi;
- qiyin vaziyatlarda tolerant xulq-atvor.

S.L.Bratchenko tolerantlik komponentining shartli verbal ko'rinishini ham ajratishni taklif qiladi (1-jadval).

1-jadval

Tolerantlik-intolerantlik munosabatlarning tarkibiy qismlari

Psixologik tuzilish komponentlari	Tolerant munosabatlar	Intolerant munosabatlar
Motivatsion- qadriyatli	Falsafiy-etnik qadriyatlarni qabul qilish motivlari: Yordam, hamkorlik, muhabbat, yon bosish, muruvvat	Falsafiy-etnik qadriyatlarni qabul qilmaslik motivlari: befarqlik, qabul qilmaslik, boshqalarning qarashlari va xulq-atvorini o'zgartirish istagi
Kognitiv	Tushunish, qabul qilish mexanizmining rivojlanganligi	Tushunish, qabul qilish mexanizmining rivojlanmaganligi
Emotsional-irodaviy	Sabr-toqat mexanizmining rivojlanganligi: asabiylikni yengish, jahlni tiyish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi nazorat qilish, empatiya,	Sabr-toqat mexanizmining rivojlanmaganligi: o'zini tuta bilmaslik, asabiylik, sovuqlik, befarqlik, emotsional noturg'unlik, agressivlik, pisand qilmaslik

	sevgi, hurmat, qiziqish, emotsional turg'unlik	
Konativ	Assertiv xulq: Muruvvat, hamkorlik. Muloqot usullari: yon berish, tushuntirish, kelishish, hamkorlik, yordam, ogohlantirish	Agressiv xulq: impulsivlik, o'zini chetga olish Muloqot usullari: diktatorlik, manipulyasiya qilish, buyruq berish, qo'rqitish

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi, ko'pgina manbalarda bardoshlilik tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Tolerantlik – faol, boshqalarning fikriga, dunyoqarashiga va harakatlariga notabiiy ravishda bo'ysunish emas, balki faol axloqiy-ma'naviy dunyoqarash va etnoslar orasidagi, ijtimoiy guruhlar orasidagi boshqa madaniyat, millat, dinlar va ijtimoiy muhitlar orasidagi o'zaro munosabatlarda insonni bardosh bilan sabr qilishga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatib turuvchi faol pozitsiya degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ko'pgina manbalarda tolerantlik sabr-bardoshlilik, o'zidan farq qiladigan insonlar bilan muloqot o'rnatish qobiliyati, umumqabul qilingan fikrga qo'shilmaydiganlarga nisbatan chidamlilik sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi ilmiy mulohazalarimiz asnosida, tolerantlik muammosini millatlararo munosabatlar nuqtayi nazaridan o'rgangan akademik V.Tishkovning bag'rikenglik haqidagi fikrlari bilan xulosalab olsak. Jumladan, u shunday yozadi: "Tolerantlik – shaxsiy yoki ijtimoiy sifat bo'lib, dunyo va ijtimoiy muhitning serqirra ekanligini tan olishni va demakki, bu dunyoga qarashlarning ham har xil bo'lishini tan olishni nazarda tutadi" [9].

Tolerantlik insonning o'z asliyati ifodalash shakllarining turli-tumanligini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni bildiradi. Tolerantlik – turfa xillikdagi uyg'unlikdir. Insonning bu xislati shaxsning insonparvar tabiatidan darak beradi va atrofdagilarga munosabati bilan belgilanadi.

Boshqacha qilib aytganda, tolerantlik bir-biridan farq qiladigan dunyoqarash, turlicha qadriyatlar tizimi, turfa fe'l-atvor stereotiplariga ega insonlar o'rtasida insonparvar munosabatlarga erishishga shaylikdir [11,12,13].

Biroq, kuzatuvlarning ko'rsatishicha, inson yaqinlari, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari bilan bo'lgan munosabatlarida tolerant bo'lishi mumkin, lekin boshqa din yoki millat vakillariga nisbatan murosasizlikni namoyon qilishi mumkin. Odatda, shaxslararo tolerantlik, ijtimoiy tolerantlik, millatlararo tolerantlik va dinlararo tolerantlik ajratiladi.

Shaxslararo tolerantlik – aniq bir insonga nisbatan munosabatda namoyon bo'ladi, ijtimoiy tolerantlik – muayyan guruhga (masalan, nogironlarga), millatlararo – boshqa millat vakillariga, dinlararo – boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga munosabatda namoyon bo'ladi. Tolerantlikning namoyon bo'lishi inson huquqlarini hurmat qilishga hamohang bo'lib, ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan murosa qilishni anglatmaydi, o'z g'oyalaridan voz kechib, boshqalarning g'oyalariga yon bosishni bildirmaydi.

Tolerantlik o'z manfaatlarini cheklashdan iborat bo'lib qolmasligi kerak, aksincha, bu tushuncha, bir tomondan, insonning o'z shaxsiy pozitsiyasini ifodalash qobiliyatini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, boshqa odamlarning nuqtayi nazari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Tolerantlik har bir insonning o'z maslagiga amal qilishi va boshqalarda ham bunday huquq borligini tan olishdir. Darhaqiqat, insonlar tabiatan tashqi ko'rinishi, maqomi, fe'l-atvori

va qadriyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar hamda shu farqlarga qaramay yaxlit dunyoda yashash va o'z individualligini saqlab qolish huquqiga egadirlar.

Fikrimizcha, tolerant inson – o'zligini anglaydigan va o'zgalarni tushunadigan inson. Demak, farq qilish huquqini tan olish tolerantlikning asosini tashkil etadi. Shuningdek, tolerantlik bir insonning qarashlarini boshqalarga tiqishtirish sifatida tushunilmasligi kerak.

Tolerantlik – insonni u qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, siz qo'shilmasangiz ham boshqa millat va din vakillarining an'analari, qadriyatlari va madaniyatini tushunish hamda qabul qilishda o'z ifodasini topadi.

Tolerantlik o'z tuzilishiga ko'ra 3 ta komponentdan tashkil topgan: affektiv, kognitiv va konativ. G.Bardierning fikriga ko'ra, tolerant bo'lish uchun shaxsda 2 ta komponentning bo'lishi yetarli [10].

-kognitiv va konativ (emotsional darajada intolerantlikni saqlash)

-affektiv va konativ (kognitiv darajada intolerantlikni saqlash)

-affektiv va kognitiv (konativ darajada intolerantlikni saqlash)

Misol uchun, birinchi model bo'yicha: Boshqa odamni emotsional qabul qilmaslik mumkin, ammo uni tushunish va u bilan hamkorlik qilish mumkin (etnik, diniy, madaniy tolerantlik).

Ikkinchi model bo'yicha: Boshqa odamni emotsional qabul qilish mumkin, u bilan hamkorlik qilish va unga yordam berish mumkin, ammo bunda uni tushunmaslik mumkin (gender, boshqaruv, avlodalararo tolerantlik).

Va nihoyat uchinchi model: Boshqa odamni emotsional qabul qilish, tushunish mumkin, ammo u bilan xushmuomalalik bilan hamkorlik qilishdan saqlanish mumkin (kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik).

2-jadval

Tolerantlikning uch komponentli kompleks modeli*

(Muallif: G.Bardiyer)

Tolerantlikning strukturaviy komponentlari	Model 1	Model 2	Model 3
Emotsional qabul qilish (affektiv komponent)	– Bu inson menga yoqimsiz	+ bu inson menga yoqimli	+ bu inson menga yoqimli
Tushunish (kognitiv komponent)	+men uni tushunaman	– men uni tushunmayman	+ men uni tushunaman
Hamkorlik (konativ komponent)	+u bilan hamkor qilish yo'llarini izlashga tayyorman	+ biroq, men u bilan hamkorlik qilishga tayyorman va hamkorlik qilaman	–u bilan hamkorlik qilishdan o'zimni tiyaman

Analogik tarzda xuddi shu komponentlar asosida intolerantlikni ko'rib chiqishimiz mumkin, unda ikkita minus yetakchilik qiladi (3-jadval). Shu bilan birga mazkur modelda mavjud resurs (bitta plyus)dan profilaktik va korreksion ishlar doirasida tolerantlik ustanovkalarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin bo'ladi.

3-jadval

Intolerantlikning uch komponentli kompleks modeli*

(Muallif: G.Bardiyer)

Tolerantlikning strukturaviy komponentlari	Model 1	Model 2	Model 3
Emotsional qabul qilish (affektiv komponent)	-Bu inson menga yoqimsiz	-bu inson menga yoqimsiz	+bu inson menga yoqimli
Tushunish (kognitiv komponent)	+men tushunaman uni	-men tushunmayman uni	-men tushunmayman uni
Hamkorlik (konativ komponent)	-u bilan hamkorlik qilishdan o'zimni tiyaman	+biroq, men u bilan hamkorlik qilishga tayyorman	-u bilan hamkorlik qilishdan o'zimni tiyaman

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tolerantlikdan intolerantlikka yoki intolerantlikdan tolerantlikka o'tish mos ravishda vaziyatga bog'liq. Shu o'rinda mazkur tadqiqotdagi mulohalarimizni kengroq yoritadigan bo'lsak, izlanishlarimizning asosida affektiv jabhada tolerant ustanovkalarining an'anaviy tushunchalarini – simpatiya/antipatiya, kognitiv jabhada - divergent/konvergent, konativ jabhada – kooperatsiya/konfrontatsiyalarni faoliyat uslubi sifatida ko'rish mumkin.

Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariy va empirik tadqiqotlarning maqsadi ijtimoiy psixologiyaning yangi ilmiy sohasi sifatida tolerantlikning konseptual asoslarini ishlab chiqishdir. Qolaversa, tolerantlikni tadqiq etishda quyidagi maqsadlarni belgilash maqsadga muvofiq:

- 1) tolerantlikning nazariy va konseptual tavsifi, uning predmeti, muammolari, kategorik va konseptual asoslari, fenomenologiya, boshqa fanlar bilan aloqalari, tadqiqot metodologiyasi va uning namoyon bo'lishini tasniflash mezonlarini tizimlashtirish;
- 2) tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarini ishlab chiqish;
- 3) tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirish;
- 4) tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqish, uning ayrim turlarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini amaliy jihatdan ijtimoiy-psixologik tadqiq qilish.
- 5) Tolerantlikni tadqiq etishda yosh, gender, milliy, etnik xususiyatlarni hisobga oluvchi metodik tizimni yaratish.

Ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida nazariy va konseptual bilimlar asosida ijtimoiy-psixologik muammolarning asosiy kategoriyasi sifatida tolerantlik (intolerantlik) namoyon bo'lishini psixologiya fani doirasida chuqur tadqiq etish muhim. Jumladan:

1. Tolerantlik – bu insonning atrofda ijtimoiy farqlarga ijobiy javob berish qobiliyati. Ushbu farqlar o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan uchta yo'nalish mavjud: ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy bilish va ijtimoiy xatti-harakatlar. Tolerantlik tuzilishi affektiv, kognitiv va konativ komponentlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun farqlarga javob hissiy, kognitiv, konativ yoki murakkab bo'lishi mumkin. Javobning yo'nalishi farqlar belgilarini oshirish yoki o'xshashlik belgilarini izlash strategiyalari bilan belgilanadi.

2. Farqlarga javobning intensivligi ularning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati bilan belgilanadi. Farqlarning ahamiyati ularning ijtimoiy kontekstining sifat xususiyatlari (keskinlik, xavf,

umidsizlik) va tolerantlik subyekting farqlar (tolerantlik obyektlari) bilan munosabatlarining pozision darajasi bilan belgilanadi.

3. Tolerantlik quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: a) aqliy jarayonlar (idrok, fikrlash, hissiyotlar, iroda); b) ruhiy holatlar (barqarorlik, muvozanat); c) aqliy xususiyatlar (bag'rikenglik, ta'lim, tarbiya, hurmat, mehribonlik). Tolerantlik turlari biologik, madaniy, psixologik yoki ijtimoiy farqlarning shartliligi bilan ham belgilanadi.

4. Tolerantlikning (murosasizlikning) yo'nalishi va miqdoriy ifodasi insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi, ular uch guruhga bo'linadi: psixofiziologik, psixologik va ijtimoiy-rol xususiyatlari.

5. Katta ijtimoiy guruhlarda tolerantlikning (intolerantlikning) miqdoriy ifodalanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi: kasbiy bandlik, yashash hududi va guruh vakillari joylashgan sosializatsiya bosqichi.

6. Tolerantlik psixologiyasining amaliy sohalari tolerantlik turlari, uning subyektlari va obyektlari tasnifiga, shuningdek, tolerantlik (intolerantlik) namoyon bo'lishining tipik holatlariga muvofiq shakllanishi mumkin.

7. Tolerantlik psixologiyasi shaxsning asosiy faoliyatiga yo'naltirilgan uni shakllantirish va tuzatish texnologiyalariga asoslanishi mumkin.

Aksariyat hollarda murakkab psixologik hodisalarni tasvirlashda komponentlar triadasidan foydalaniladi. Bu triada quyidagilarni o'z ichiga oladi: kognitiv komponent, emosional komponent va xulq-avtor komponenti. Eng umumiy hollarda yuqoridagi komponentlarning asosiy mazmuni yoki tolerantlik o'lchamlar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

Tolerantlikning "kognitiv" komponenti. Bu komponent yaqqol ko'rinuvchi va ko'p jihatdan tadqiq etilganligi uchun tolerantlik ko'pincha kognitiv "transkripsiya" da tasvirlanadi. Bu yerdagi asosiy jihatlar murakkablik, ko'p o'lchamlilik, oldindan bashorat qilib bo'lmasligi, u haqdagi individual fikrlar tabiatini tan olishdir. Shuning uchun ham u haqdagi fikrlarni yagona haqiqatga birlashtirishning imkoni yo'q.

Tolerantlikning kognitiv komponenti inson tomonidan murakkablik va ko'p o'lchamlilikni qabul qilish va tushunishdan iborat bo'lib, bular hayotiy haqiqat bilan bir qatorda uni qabul qilish variantlarining turlichaligi, ularni turli insonlar tomonidan turlicha baholanishi va tushunilishi, nisbiy va to'liq emasligi, subyektivligidir. Tolerantlik kognitiv o'lchamda aynan qarama-qarshilik holatlarida namoyon bo'ladi: fikrlarning to'qnash kelishi, qarashlarning mos kelmasligi va hokazo. Bu mos kelmaslik plyuralizmni qabul qilish, interpretatsiyalarning boyligidan dalolat beradi. Kognitiv intolerantlik tolerantlikning aksi bo'lib, me'yor mavjudligi pozitsiyasidan kelib chiqadi, shuning uchun u fikrlarning ko'p bo'lish imkoniyatini rad etadi va har qanday fikrlar plyuralizmi, insonlarning turlicha nuqtayi nazarlarini xatolik, adashish va hatto atayin qarshi chiqish deb baholaydi. Tolerantlik shuningdek, shaxsning suhbatdoshi bilan ma'lum vaziyat yuzasidan turlicha fikrlar bildirish imkoniyatini ham anglatadi, kognitiv "nizo" shaxslararo nizoga olib kelmaydi.

Tolerantlikning emosional komponenti. Tolerantlikka empatiyaning ahamiyati beqiyos va bu fikrni deyarli barcha tadqiqotchilar ma'qullagan. Tolerantlikning emosional tashkil etuvchisining ahamiyati shundaki, aynan shu o'lchov kommunikativ jarayonda suhbatdoshlarni o'zaro umumiylikka erishishlari, uzilgan insoniy aloqalarni tiklashlari imkonini beradi. Bunda tashqari empatiya suhbatdoshlar o'rtasidagi kognitiv yoki xulq-atvor tekisligida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki

yumshatish imkonini beradi. To'liq empatiya bebaho va bu ma'noda mazmunan tolerantidir. Emosional komponentning alohida tashkil etuvchisi sifatida emosional barqarorlikning o'ziga xos ko'rinishi – "affektiv tolerantlik"ni aytish mumkin. Uning mazmuni emosional tolerantlikni, og'riqli hislarni sabr bilan yengish va hokazo. Tolerantlikning ushbu ko'rinishining boshqa bir aspekti o'zga kishining turli emosional ko'rinishlariga sabrli munosabatla bo'lish bilan bog'liq. Rivojlangan affektiv tolerantlik insonga shaxsiy emosional jarayonlari bilan bir qatorda boshqa insonlarning his-hayajonlarini yaxshiroq anglashga, asabiylashmay va ulardan yomon ma'no izlamay qabul qilishga yordam beradi.

Tolerantlikning xulq-atvor komponenti. Ushbu o'lchov "tolerantlik aysbergi"ning eng ko'zga ko'ringan qismini tashkil etadi va odatda o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Xulq-atvor tolerantligiga qarab ko'nikma va qobiliyatlarni kiritish mumkin, ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz:

- 1) tolerant fikr bildirish va o'z nuqtayi nazarini shaxsiy muloahaza sifatida himoya eta olish qobiliyati;
- 2) boshqalarning fikriga tolerant munosabatda bo'la olish qobiliyati, ya'ni o'zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilishiga qaramasdan, boshqalarning ham o'ziga xos fikri borligi va u ham bu fikrni bildirish huquqiga ega ekanligini tan olish;
- 3) nizoli vaziyatlarda (qarama-qarshi nuqtayi nazar, fikrlar to'qnashuv yuz berganda) tolerant bo'la olish qobiliyati.

Bular orasida oxirgi uchinchisi, nafaqat xulq-atvor o'lchamida balki boshqa o'lchamlarda ham alohida e'tiborni talab qiladi. Tolerantlikning ushbu jihatlarini tadqiq etishda B.I. Xasanning konflikt va konflikt kompetenligi konsepsiyasi asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv komponent tolerantlik prinsiplarini qabul qilish, tushunish, fikrlash, interpretatsiyalashni nazarda tutsa, verbal komponent "ilmiy tashkil etuvchilar" bilan chegaralanadi. Bu tolerantlikni eng sodda o'lchamidir.

Demak, tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarni ishlab chiqish asosida tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirishga, tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. М.: Мир и Образование, Оникс, 2011. – 736 с.
2. Тишков В.А. О феномене этничности // Этнографическое обозрение. – № 3. – 1997. – С. 18
3. Солдатова Г.У. Психология межэтнической напряженности. – М.: Смысл, 1998. – 252 с.
4. Солдатова Г. У., Шайгерова Л. А., Шарова О. Д. Жить в мире с собой и другими: Тренинг для подростков. – М.: Генезис, 2000. – С.11



5. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика. СПб.: Питер, 2002. – 432 с.
6. Bafayev M.M. Shaxsda tolerantlik shakllanishining konseptual asoslari – «Psixologiya» – №3. – Buxoro, 2023. – B. 201-206.
7. Bafayev M.M. Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari // «Pedagogika» – №1. – Toshkent, 2023. – B. 66-70.
8. Bafayev M.M. Tolerantlikning shaxs nazariyalaridagi talqini. «Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar». – Buxoro, 2024. – № 8. – B. 348-352.
9. Bafayev M.M. G.Bardiyerning tolerantlik uch kompleksli modeli tavsifi// «Psixologik tadqiqotlarda muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar» respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-yil 22-noyabr. Buxoro. – 260 b. – B. 115-117.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxoro davlat pedagogika instituti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

DEVIANT XULQ ATVORLI O'SMIRLAR ORASIDA SUITSID MASALASINING ILMIY O'RGANILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR



Elov Ziyodullo Sattorovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Jahonda «suitsid» - lotincha «o'zini o'ldirish», o'z joniga qasd qilish – jamiyatning muammosi sifatida dolzarblashib bormoqda. JSST mamlakatlarni suitsidni oldini olishning keng qamrovli milliy Strategiyasi orqali LIVE LIFE - HAYOTNI YASHA dasturini amalga oshirish choralarini ko'rish muhimligiga jahon ommasini chaqirmoqda. Maqolada suitsid masalasining ilmiy tahlillar misolida jahon olimlari tomonidan o'rganilishiga bag'ishlangan bir qator mulohazalar uarning ijtimoiy psixologik sabablari yoritib berilgan. Shu bilan birga suitsid masalasining ilmiy tahlillariga e'tibor qaratilgan.

MAQSAD: Suitsid masalasining o'smirlar orasidagi psixologik sabablarini ilmiy tahlil qilish va o'rganish

MATERIALLAR VA METODLAR: Jahon ta'lim va ilmiy-amaliy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari, qadriyatlar tizimi, suitsident yashayotgan oila, ta'lim olayotgan, faoliyat yuritayotgan jamoadagi psixologik muhitni o'rganish hamda korrektsiyalashning psixologik mexanizmlarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada suitsidentlar yoki suitsid haqida o'ylaydigan odamlar to'g'risida ma'lumot to'plash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish, aholi orasida alkogol va giyohvand moddalarni iste'mol qilishni kamaytirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ta'lim muassasalarida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog'liq psixologik muammolarini aniqlash asosida bartaraf etish, Butunjahon o'z joniga qasd qilishning oldini olish kuni 10 sentyabrni har yili Yer sayyorasi miqyosida nishonlash bo'yicha tadbirlarni targ'ib qilish, o'smirlar bilan ishlaydigan psixolog-mutaxassislar faoliyatini takomillashtirish, masalalariga ahamiyat berish zarurati ko'rinmoqda.

XULOSA: Nazariy ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda muhim bo'lgan suitsid omillarini empirik jihatdan tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa, eng avvalo, o'smirlardagi ruhiy-emotsional holat, nizoli vaziyatlardagi munosabatlar, shaxs tiplari, shaxslik xususiyatlari, ijtimoiylashish darajasi va ular o'rtasidagi korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Jumladan, deviant xulq-atvorli o'smirlar orasida suitsidial xavf holatlariga moyillik motivatsiyalarining mavjudligi va uni korrektsiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning ortib borayotganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Kalit soʻzlar: Bixeviorizm, suitsid, xulq, deviant, tarbiya, axloq, oʻzini oʻldirish, jamiyat, oila, munosabat, oʻsmir, buzilish, oʻlim, agressiya, stress, affekt, depressiya, taʼlim, alohidalshuv, normadan ogʻish, muvaffaqiyat, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot, yolgʻizlik, rad etish, inkor qilish, korrektsiya

СООБРАЖЕНИЯ О НАУЧНОМ ИЗУЧЕНИИ САМОУБИЙСТВ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Элов Зиёдулло Сатторович

Доктор психологических наук (DSc), доцент

Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В мире «самоубийство» (лат. «убийство себя»), самоубийство – проблема общества, которая становится всё более актуальной. ВОЗ призывает мировое сообщество принять меры по реализации программы LIVE LIFE посредством комплексной национальной стратегии профилактики самоубийств. В статье представлен ряд наблюдений по изучению проблемы самоубийства мировыми учёными на примере научного анализа, выделяющего его социально-психологические причины. При этом особое внимание уделяется научному анализу проблемы самоубийства.

ЦЕЛЬ: Научный анализ и изучение психологических причин самоубийств среди подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В научных исследованиях, проводимых в мировых образовательных и научно-практических центрах, особое внимание уделяется основным социально-психологическим причинам и факторам самоубийства, системе ценностей, психологической обстановке в семье, где проживает жертва самоубийства, сообществе, где он учится и работает, а также созданию психологических механизмов коррекции. В связи с этим возникает необходимость сбора информации о самоубийствах или лицах, думающих о самоубийстве, мониторинга их психического состояния и поведения, снижения уровня употребления алкоголя и наркотиков среди населения, пропаганды здорового образа жизни, устранения возрастных психологических проблем во взаимоотношениях учителей и учеников в образовательных учреждениях, содействия проведению мероприятий, посвященных Всемирному дню предотвращения самоубийств, который ежегодно отмечается 10 сентября, в глобальном масштабе, а также совершенствования деятельности психологов, работающих с подростками.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основании теоретических данных можно сказать, что эмпирические исследования факторов суицида, актуальных сегодня, показывают неизбежность суицида. Для этого, прежде всего, необходимо изучать психоэмоциональное состояние подростков, взаимоотношения в конфликтных ситуациях, типы личности, личностные черты, уровень социализации и показатели корреляции между ними. В частности, следует отметить наличие мотивов суицидального риска у подростков с девиантным поведением и возрастающую потребность в его коррекции.

Ключевые слова: Бихевиоризм, самоубийство, поведение, девиантное, воспитание, мораль, суицид, общество, семья, отношения, подросток, расстройство, смерть, агрессия, стресс, аффект, депрессия, образование, изоляция, отклонение от нормы, успех, социология, психология, медицина, одиночество, отторжение, отрицание, коррекция

CONSIDERATIONS ON THE SCIENTIFIC STUDY OF SUICIDE AMONG ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Elov Ziyodullo Sattorovich

*Doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Asian International University*

Annatation.

INTRODUCTION: In the world, "suicide" - Latin for "killing oneself", suicide - is a problem of society that is becoming increasingly urgent. WHO calls on the world community to take measures to implement the LIVE LIFE program through a comprehensive national strategy for suicide prevention. The article contains a number of observations on the study of the issue of suicide by world scientists on the example of scientific analysis, highlighting its socio-psychological causes. At the same time, attention is paid to scientific analysis of the issue of suicide.

THE GOAL: Scientific analysis and study of the psychological causes of suicide among adolescents.

MATERIALS AND METHODS: In scientific research conducted at world educational and scientific-practical centers, special attention is paid to the main socio-psychological causes and factors of suicide, the system of values, the psychological environment in the family where the suicide victim lives, the community where he studies and works, and the creation of psychological mechanisms for correction. In this regard, there is a need to collect information about suicides or people thinking about suicide, monitor their mental state and behavior, reduce alcohol and drug use among the population, promote a healthy lifestyle, eliminate age-related psychological problems in teacher-student relationships in educational institutions, promote events to celebrate World Suicide Prevention Day on September 10 every year on a global scale, and improve the activities of psychologists working with adolescents.

CONCLUSION: Based on theoretical data, it can be said that empirical research on the factors of suicide that are important today shows the inevitability of For this, first of all, it is necessary to study the psycho-emotional state of adolescents, relationships in conflict situations, personality types, personality traits, the level of socialization and the correlation indicators between them. In particular, it is worth noting the presence of motivations for suicidal risk among adolescents with deviant behavior and the increasing need for its correction.

Keywords: Behaviorism, suicide, behavior, deviant, upbringing, morality, suicide, society, family, relationship, teenager, disorder, death, aggression, stress, affect, depression, education, isolation, deviation from the norm, success, sociology, psychology, medicine, loneliness, rejection, denial, correction

Jahonda «suitsid» - lotincha «oʻzini oʻldirish», oʻz joniga qasd qilish – jamiyatning muammosi sifatida dolzarblashib bormoqda. JSST mamlakatlarni suitsidni oldini olishning keng qamrovli milliy Strategiyasi orqali LIVE LIFE - HAYOTNI YASHA dasturini amalga oshirish choralari koʻrish muhimligiga jahon ommasini chaqirmoqda¹. Hayotda oʻzini-oʻzi oʻldirishga qaratilgan urinishlarning oʻn barobar ortiq kuzatilishi tufayli 2018-yilda tashkil etilgan Milliy qoʻmita tomonidan 2021-2026 yillarda suitsid xatti-harakatlarini oldini olish boʻyicha keng qamrovli strategik vazifalarni bajarish zarurligi belgilanganligi, ayniqsa, zaif guruh sifatida – oʻsmirlik va yoshlik davridagi oʻlim sabablari orasida suitsidning yuqori darajada sodir etayotganligi tufayli uning ijtimoiy-psixologik omillarini oʻrganish, bartaraf etish - bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolardan biri boʻlib qolmoqda².

Jahon taʼlim va ilmiy-amaliy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari, qadriyatlari tizimi, suitsident yashayotgan oila, taʼlim olayotgan, faoliyat yuritayotgan jamoadagi psixologik muhitni oʻrganish hamda korrektsiyalashning psixologik mexanizmlarini yaratish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada suitsidentlar yoki suitsid haqida oʻylaydigan odamlar toʻgʻrisida maʼlumot toʻplash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish, aholi orasida alkogol va giyohvand moddalarni isteʼmol qilishni kamaytirish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, taʼlim muassasalarida oʻqituvchi-oʻquvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bogʻliq psixologik muammolarini aniqlash asosida bartaraf etish, Butunjahon oʻz joniga qasd qilishning oldini olish kuni 10 sentyabrni har yili Yer sayyorasi miqyosida nishonlash boʻyicha tadbirlarni targʻib qilish, oʻsmirlar bilan ishlaydigan psixolog-mutaxassislar faoliyatini takomillashtirish, masalalariga ahamiyat berish zarurati koʻrinmoqda.

Jahonda deviant xulq-atvorli oʻsmirlarda suitsidal holatlarni oʻrganish boʻyicha ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy taʼlim muassasalari, jumladan, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (Amerika Qoʻshma Shtatlari); University of Michigan (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Leiden University (Niderlandiya), Vuppertal Universiteti (Germaniya), University of Haifa (Isroil), Jiangsu University (Xitoy), The University of Queensland (Avstraliya), A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetlarida (Rossiya Federatsiyasi) taʼlim tizimi va ijtimoiy institutlarda mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlar oʻtkazilmoqda.

Jahonda oʻsmirlar xulq-atvorida suitsidal holatlarning sabablari, turli omillari hamda ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash va oʻrganish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: oʻsmirlarda suitsidal xulq va holatlarni yuzaga keltiruvchi omillar oʻrganilgan (Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi, Amerika Qoʻshma Shtatlari); yoshlarda «normadan ogʻish» va «deviant xulq-atvor» tadqiq etilgan; yoshlarni turli salbiy holatlarda oʻzini psixologik himoya qilish mexanizmlari sifatida reabilitatsiya qilish mashqlari yaratilgan (University of Michigan, Amerika Qoʻshma Shtatlari); psixodiagnostik usullar orqali oʻsmirlardagi psixologik barqarorlikni taʼminlashning ilmiy-nazariy asoslari va yoshlar bilan olib boriladigan xulq ogʻishlarining oldini olish boʻyicha maxsus dasturlar yaratilgan (Kaliforniya universiteti, Amerika Qoʻshma Shtatlari); oʻsmir va

¹ Who.int/publication/i/item/9789240026629

² <https://apps.who.int/iris/handle/10665/152893>

yoshlardagi hayotiy motivatsiyasini oshirish xususiyati va refleksiv jarayonlari takomillashtirilgan (Leiden University, Niderlandiya); o'smir va yoshlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari aniqlangan (Vuppertal Universiteti, Germaniya); suitsid haqida o'ylaydigan odamlar to'g'risida ma'lumot to'plash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish ishi amalga oshirilgan (University of Haifa, Isroil), sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ta'lim muassasalarida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog'liq psixologik muammolarini aniqlash (Jiangsu University, Xitoy), ta'lim muassasalari, shahs faoliyati maskanlarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, munosabatlarni yaxshilash, yuzaga keladigan nizolarni oldini olishga bog'liq psixologik muammolarini aniqlash (The University of Queensland, Avstraliya); o'smir va yoshlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari, talaba-yoshlarni o'quv va kelgusidagi kasbiy faoliyatiga yo'naltirish, ularning hatti-harakatlarini kuzatish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mehnat jamoalaridagi shaxslararo munosabat tizimini ilmiy va ijtimoiy-psixologik tamoyillar yordamida asoslab beruvchi konsepsiya yaratilgan (A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti, Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahon psixologiya fani sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida, o'smir yoshlarda namoyon bo'luvchi deviant xulq-atvor va uni oldini olishning ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan: o'smir yoshidagi shaxslarda jamiyatda dezadaptatsiya jarayonlari, emotsional-irodaviy boshqaruv, individual-tipologik xususiyatlar, o'smirlarda ta'lim muhitida ijobiy emotsional muhitni ta'minlash, turli yosh bosqichlarida namoyon bo'ladigan inqirozli holatlarni o'rganish tizimini shakllantirish, o'smirlardagi o'zini-o'zi boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini aniqlash, muvaffaqiyatli o'quv faoliyatini shakllantirishda irodaviy jarayonlarning ahamiyatini tizimli tahlil qilish, deviant xulq-atvor namoyon bo'lishidagi gender tafovutlarni aniqlash masalalari shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda insonlarning psixik jihatdan sog'lom, me'yorida rivojlanishida, ularni ruhiy inqirozlardan, og'riqli kechinmalardan va umidsizlikdan olib chiqishda psixologik xizmatning o'rni kattadir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda psixologlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu – inqirozli vaziyatlarda shaxsda kelib chiqadigan turli sohadagi buzilishlarni yanada chuqurroq o'rganish, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishdan iboratdir. Chunki, inqirozli vaziyatlardan kelib chiqadigan turli darajadagi psixologik buzilishlar oqibatida shaxsning ruhiy muvozanatiga zarar yetadi, shaxslararo munosabatlarida qiyinchiliklar, jamiyatdan yakkalanish kuzatiladi, hayot va faoliyatida kamchiliklar, kelajagiga nisbatan ishonchsizlik, umidsizlik ortib boradi. Oxir-oqibatda esa bunday holat inson tomonidan og'riqli qabul qilinib, ruhiy azoblar iskanjasida qoladi. Ruhiy iztiroblarni, qayg'uni ko'tara olmaslik natijasida bunday holatlarda ba'zan o'z joniga qasd qilish kabi suitsidal xulq namoyon bo'ladi. Deviant xulq-atvor masalasining dolzarbliigi maxsus yo'nalishdagi psixologiya – deviant xulq-atvor psixologiyasi doirasida amalga oshirilayotgan muhim ilmiy tadqiqotlar bilan uzviy bog'liqdir. Deviant hatti-harakatlar – bu inson hatti-harakatlarining jamiyat yoki guruhlar faoliyatiga, me'yorlar, xulq-atvor qoidalarga, g'oyalar va munosabatlarga hamda jamiyat qadriyatlariga mos kelmasligidir.

Jamiyat normalari – bu doimiy o'zgarishlar oldida ijtimoiy tizimni, hayotiy muvozanatni ushlab turuvchi mexanizmdir.

Bugungi kunda deviant xulq-atvor muammosi sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot fan sohalarning tadqiqot ob'ektiga aylangan. Deviant xulq-atvor asosan ijtimoiy muhitda shakllanadi, ijtimoiy muhit normalari asosida tartibga solinadi. Muammoni o'rganishda e'tibor beradigan bo'lsak, asos me'yor (ijtimoiy me'yor) termini o'zagini tashkil etadi. Me'yor xulq-atvorni tartibga soladi va ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Deviant xulq-atvor muammosi bo'yicha sharq olimlarining asarlarida ham bir qancha nazariy ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularning har biri tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil qiladi. Endi sharq manbalaridan foydalanilgan holda keltirilgan nazariy ma'lumotlar tahlillariga o'tamiz.

Ma'lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og'ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me'yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo'lishgan va ushbu munosabat zardushtiylik, budda va boshqa qadimgi Turonda mavjud boshqa diniy ta'limotlarda aks etgan.

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson psixologiya asosiy vazifasi xulqni tadqiq qilishdan iborat, deb tushuntirishga harakat qiladi. U psixik holatlarni xulqning ifodasi sifatida qarab, inson xulqini ichki va tashqi shakllarga ajratadi va ular stimulga javob sifatida bevosita o'zaro bog'langanligini asoslashga urinadi.

Bixevioristlarning fikricha, psixologiya predmeti psixika emas, balki stimullarga reaksiyalar qaytaruvchi xulqdir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida qaraydilar va tana a'zosining ichki quvvatini faollashtiradi deb tushunadilar³.

E.Daffi o'zining «xulq motivatsiyasini faollashtirish» nazariyasida motivatsiya muammosini kengroq tadqiq qilishga uringan. Ushbu nazariyaga ko'ra motiv xulq yo'nalganligi (xulqning faolligi) orqali ifodalanishi mumkin. Xulq intensivligi va uning aktivatsiyasi darajasini o'rganishda bosh miya pusti (psixika) bilan sklet muskullari funksiyalari o'rtasida korrelyatsion munosabatlar indikatorlar sifatida qabul qilinadi. Uning fikricha, stimul bilan reaksiya kabi bilish bilan faollashish jarayonlari ham o'zaro o'rin almashib turadi⁴.

A.Bandura o'zining «Motivatsiya – sistematik reinterpretatsiya» nomli tadqiqotida xulq-atvorning namoyon bo'lishini odatda retikulyar formatsiyadan kelayotgan faollik darajasiga, miyaga boruvchi qonning fiziologik tarkibi ta'sir qilishiga bog'laydi. U motivatsiyani fiziologik qonuniyatlarga ko'ra tushuntirib berish bilan birga unga ta'sir etuvchi sub'ektiv omillarga (ichki stimullar va xulqning hayotdan o'zlashtirgan me'yorlarga) ham bog'liqligini ta'kidlab o'tadi⁵.

D.Berlayn motivlar mohiyatini ochishda ehtiyojning o'rniga bevosita murojaat qiladi va uni bir necha xil ma'noda talqin etadi. Birinchidan, ehtiyoj – bu faollik va faoliyat darajasini belgilovchi shart-sharoit (energetik manba). Ikkinchidan, ehtiyoj - bu insonning maqsadiga ko'ra aniq javoblarga erishishga yordam beruvchi ichki holat yoki ularning tanlovchiligini (selektivligini) aniqlovchi turtki. Uchinchidan ehtiyoj – bu inson uchun rag'bat yoki mukofot

³ Bjorkquist K. The Direct and Indirect Aggression Scales / K. Bjorkquist, K.M.J. Lagerspetz, K. Osterman. - Vaasa, 2006. PP. – 88

⁴ Jacobs P. Aggression and violence in health professions / T.J. Rip-pon // Journal of advanced nursing. Feb 2005, vol. 31, issue 2. - P.163-172.

⁵ Coulding M., Coulding B. Changing lives through redecision therapy. N.Y/: Brunner/ Mazel, 1979.

olishga aloqador sharoit mazmuni. Muallifning fikricha, ehtiyoj – organizm uchun zarur bo'lgan javoblarni aniqlashga xizmat qiladi⁶.

S.L.Rubinshteyn har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar)ni turli bosqichlarda o'zaro murakkab bog'liqlikdagi kechish holatini olib qarash lozim, deb ta'kidlaydi⁷.

Inson xulq-atvor motivi va motivatsiyasi tuzilishini, rivojlanish qonuniyatlari hamda ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakllanish jarayoniga yo'naltirish muammosini psixologik jihatdan tushuntirish uchun individning psixik rivojlanishi tahliliga o'ziga xos ravishda taktik yondashish maqsadga muvofiq.

N.V.Basaevaning fikricha, jamiyat normalari – bu ijtimoiy fanlarda tizimlarning saqlanishi va o'zgarishi uchun ruxsat etilgan o'lchov sifatida tushuniladi. Demak, har bir inson jamiyat qoidalariga amal qilib yashashi kerak, aks holda uning hatti-harakatlari qonun-qoidalarga zid bo'lib hisoblanadi⁸.

Tadqiqotchi Y.V.Zmanovskayaning «deviantologiya» asarida berilishicha, «deviant – lotin tilida «deviatio» – «rad etish, inkor qilish» ma'nosini anglatadi. Ya'ni, deviant tushunchasi xulqi og'ganlik, jamiyat hayotidagi me'yorlarni tan olmaslik, unga bo'ysunmaslik ma'nosida qo'llaniladi»⁹.

Tom ma'noda «deviant xulq» tushunchasi insonlar hatti-harakatlarining jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalaridan chetga chiqishi degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik va ularni buzish bilan xarakterlanadi. Deviant xulq-atvor ayniqsa, o'smir yoshlar uchun ko'proq xosdir. Mazkur davrda o'smir yoshlarning shaxsiy hislatlari shakllanadi, uning o'zini-o'zi anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, u ba'zan o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan ham kechishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, zamonaviy ijtimoiy fanlarda me'yor va rollarga mos kelmaydigan hatti-harakatlar «deviant» deb ataladi. «Norma» tushunchasi esa, har qanday xulq og'ishlarini o'rganish uchun boshlang'ich mezondir.

G.B.Deryagin o'smirlikdagi seksual og'ishlarni quyidagicha tushuntiradi, o'smirlik - bu balog'atga yetish, o'tish davri bo'lib, bu davrda organizmdagi giperseksuallik yanada oshadi. Boshqa jinsga nisbatan istak va xohish, intilish o'sa boradi. Ko'pincha, bunda pedagogik nazorat va ota-onalarning e'tiborsizligi salbiy holatlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham jamiyat har doim fohishalikka qarshi kurash usullari va vositalarini ishlab chiqqan va hamon ishlab chiqmoqda¹⁰.

Tadqiqotchi A.V.Xomichning mulohazalariga ko'ra, daydilikka ruju quygan o'smir lar asosan, tunni poezd stansiyalarida, uylar atrofida, avtobekatlarda o'tkazadilar, tartibsiz

⁶ Братко А.А., Волков П.П. и др. Моделирование психической деятельности; Виллюнас В. К. Психология эмоциональных явлений. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1976. — 142 с.

⁷ Роджерс К. Становление личности. Взгляд на психотерапию / К. Роджерс ; пер. с англ. М. Злотник. — М.: ЭКСМО-Пресс, 2001. – 40 с.

⁸ Берон Ричардсон, Д. Агрессия: Р. Берон., Д. Ричардсон. - СПб.: 2010. – 224 с.

⁹ Заззо Р. Психическое развитие ребенка и влияние среды. // Вопросы психологии, 1967. № 2. - С. 51-60

¹⁰ Енгальцев В. Ф. Диагностика психического воздействия в процессе судебно-психологической экспертизы // Методы психологии. Материалы II Всероссийской научной конференции по психологии Российского Психологического Общества. — Ростов-на-Дону, 1997. – С. 96-98; Прикладная юридическая психология: Учебное пособие / Под ред. А. М Столяренко. - М.: Юнити-Дана, 2001. - 639 с.

ovqatlanadilar, tilanchilik qiladilar yoki o'g'rilikka qo'l uradilar, ko'pincha bunday o'smir lar assotsial yoki jinoiy guruhlar ta'siriga tushib qoladilar. Bundan tashqari, ular spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni ham iste'mol qila boshlaydilar. Mazkur mulohaza zamirida shu narsa ta'kidlanganki, daydilik o'z-o'zidan jinoyatchilik, alkogolizm va boshqa assotsial xulq turlariga sabab bo'ladi¹¹.

Deviant xulq-atvorning keyingi ko'rinishlaridan biri bu qo'rquv va xavfsirashdir. Qo'rquvlarning paydo bo'lishi (fobiya) bolalar va o'smir lar uchun odatiy holdir. Ko'pincha bu qorong'ulikdan, yolg'izlikdan, nevrotik ta'sirlardan, ota-ona va yaqinlardan ajralish kabilar bilan xarakterlanadi. L.B.Shneyderning ta'kidlashicha o'smirlarga xos bunday qo'rquv turi qisqa muddatli bo'lib, u tinchlantiruvchi suhbatdan keyin osonlikcha o'tib ketadi. Shuningdek, qo'rquvning paydo bo'lishiga asosan, biror bir jiddiy kasallik, maktabdagi yoki oilaviy nizolar ham sabab bo'lishi mumkin¹².

A.A.Mixaylovskiyning aniqlashicha, o'smirlarga xos yana bir qator qo'rquv turlari mavjud bo'lib, ularga infeksiyadan qo'rqish, o'tkir tig'li narsalardan qo'rqish, yopiq xonalardan qo'rqish, nutq bilan bog'liq vaziyatlardan qo'rqish kabilarni kiritish mumkin. Bunday qo'rquvlarni bartaraf etishda psixologik tuzatishga xos mazmundagi o'yinlar va psixoprofilaktik treninglar samarali hisoblanadi¹³.

Y.V.Kupriyanchukning fikricha, vandalizm asosan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir etiladi. O'smirlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar ma'lumotlariga ko'ra, vandalizm cho'qqisi 11-13 yoshda bo'ladi. Vandal xulqli o'spirinlar tengdoshlari bilan bir xil darajada intellektual rivojlanish darajasiga ega, ammo ularda maktabda o'qish darajasi ancha pastdir¹⁴.

Xorij tadqiqotchisi K.A.Arnold fikricha, tarixan jamiyatda fohishabozlikka nisbatan siyosatning o'ziga xos shakllari mavjud bo'lgan: taqiqlash, tartibga solish, jinoiy jazo, hattoki o'lim kabi hukmlar qo'llanilgan. Biroq, qadimgi hukmlar va qoidalar hozirgi kunda muammoni to'liq hal qila olmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar vaziyatni tubdan o'zgartiradi. Muallif bu yerda ma'naviy-ma'rifiy psixologik va pedagogik tashviqotlar rolini nazarda tutgan. Deviant xulqning keyingi ko'rinishi bu suitsid bo'lib, ushbu salbiy illat ham hozirgi kunda yoshlar orasida tez-tez uchramoqda¹⁵.

Xulosa o'rnida deviant xulq-atvorli o'smirlar orasida suitsidga moyilik darajasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishda ularning ichki hissiy kechinmalari, shaxslilik xususiyatlari, o'ziga xos psixologik himoya mexanizmlari, muayyan darajadagi depressivlik holatlari bilan bog'liq psixologik omillarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹¹ Шоумаров Г.Б., Моршинина Е.А. Влияние психологических особенностей узбекской семьи на воспитания молодежи. / Проб. совершенствования нравственного воспитания студентов Материалы конференции. – Сыктывкар.-1996. – С.161-169.

¹² Шнейдер Л. Б. Девиантное поведение детей и подростков: учебное пособие / Л. Б. Шнейдер - М.: Академический Проект, 2005. – 336 с.

¹⁴ Jabborov X.X. O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari: Psixol. fanlari... falsafa doktori (PhD) disser.avtoref. – T., 2019. – 162 b.

¹⁵ Nurimbetova E.D. Qoraqalpog'iston Respublikasida suitsidning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularni oldini olish. psixol.f.n. disser avtoreferati: 19.00.05. – T., NDPU 2021. 48 b.

Nazariy ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda muhim bo'lgan suitsid omillarini empirik jihatdan tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa, eng avvalo, o'smirlardagi ruhiy-emotsional holat, nizoli vaziyatlardagi munosabatlar, shaxs tiplari, shaxslilik xususiyatlari, ijtimoiylashish darajasi va ular o'rtasidagi korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Jumladan, deviant xulq-atvorli o'smirlar orasida suitsidial xavf holatlariga moyillik motivatsiyalarining mavjudligi va uni korreksiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning ortib borayotganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
2. Z.S.Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
3. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78
4. O.Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024
5. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023
6. Z.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
7. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
8. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
9. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342
10. Z.S.Elov. Sudga oid psixologik ekspertizaning tarixiy rivojlanish xususiyatlari. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 3 (2), 21-24 2025
11. Z.S.Elov. Sud-psixologik ekspertizalar o'tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024. TECHNICAL SCIENCE Vol -2 Issue 1 1, 58-69
12. Z.S.Elov. Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o'tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14
13. Z.S.Elov. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. 2022. PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 1 (1, 2022), 27-29
14. Z.S.Elov. Suitsidal xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR 1 (10), 11-22
15. Z.S.Elov. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi. OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI 1 (2024/6), 112-Z.S.Elov. Sud-psixologik



ekspertizasi tarixi va rivojlanish bosqichlari (ilmiy manbalar tahlili asosida). 2024. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar 2 (1), 3-8

16. Z.S.Elov. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. 2024. PEDAGOG 7 (4), 306-313

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Elov Ziyodullo Sattorovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Osiyo xalqaro universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

elovziyo2021@gmail.com

SAMARALI BOSHQARUVDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI



Safarov Dilmurod Xalimovich

Psixologiya fanlari doktori(DSc), professor

Navoiy viloyati

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqoladi maktab menejerlarining samarali boshqaruvini tashkil qilishda ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'zni, zamonaviy rahbar faoliyatida imidj qanday ahamiyatga egaligi, imidjning o'ziga xos psixologik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi, imidjni shakllantirishning zamonaviy tamoyillari, psixologiyaning turli xil yo'nalish tarafdorlari imidjni shakllantirish borasida o'z tamoyillari kabi mavzular ochib berilgan.

MAQSAD: Samarali boshqaruvda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning ahamiyatini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaviy yondashuvga ehtiyoj qanday paydo bo'ldi? Ishlarni tahlil qilish metodidan farq qilib, kompetensiyaviy yondashuv uni tarkibiy qismlarga "parchalab tashlashga" emas, balki professionalning oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli yechish (unga mo'ljallangan funksiyalarni oddiygina bajarish emas) imkonini beruvchi kompleks xususiyatlar va sifatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Shunday qilib, faoliyatga operatsional-funksional qarashdan vazifa-maqсадli qarashga o'tish amalga oshdi.

Paradigmani bu tarzda almashtirish kasblar tabiatidagi tub o'zgarishlar bilan bog'liq. Asosan ijrochidan oddiy (sensor va motor) xatti-harakatlarni talab qiladigan faoliyat o'rniga bugungi kunda murakkab ko'rinishdagi ishlar keldiki, qachonki bunda funksiyalarni tavsiflash imkoni bo'lmay, faqat vazifalarni sanab o'tishga to'g'ri keladi.

XULOSA: Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning qimmatini muhitning yangi sharoitlari yoki kompaniyaning strategiyalari o'zgarishlari kontekstida muntazam taftish qilib borish foydalidir. Agar ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning qimmati o'zgarmasdan qoladigan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ularni qo'llab-quvvatlash (o'qitish va hamrohlik qilib olib borish) zarur.

Kalit so'zlar: maktab menejeri, boshqaruv, kompetentlig, qatiyatlilik, individual-psixologik xususiyatlari.

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЭФФЕКТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ

Сафаров Дилмурод Халимович



доктор психологических наук, профессор

Навоийская область

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются роль социально-психологической компетентности руководителей учебных заведений в организации эффективного управления, значение имиджа в современном лидерстве, психологические особенности имиджа, современные принципы формирования имиджа и принципы различных направлений психологии в отношении имиджа.

ЦЕЛЬ: Научный анализ значения социально-психологических компетенций в эффективном управлении.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Как возникла необходимость в подходе к социально-психологической компетентности? В отличие от метода анализа должности, компетентностный подход направлен не на «разложение» ее на составляющие, а на выявление ее комплексных особенностей и качеств, позволяющих профессионалу успешно решать поставленные перед ним задачи (а не просто выполнять предназначенные ему функции). Таким образом, произошел переход от операционально-функционального взгляда на деятельность к задачно-целевому.

Эта смена парадигмы связана с фундаментальными изменениями в природе профессий. Вместо видов деятельности, требующих от исполнителя преимущественно простых (сенсорных и моторных) действий, сегодня встречаются настолько сложные работы, что невозможно описать функции, а можно лишь перечислить задачи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Полезно регулярно пересматривать ценность социально-психологических компетенций в контексте новых условий внешней среды или изменений в стратегиях компании. Если ценность социально-психологических компетенций остается неизменной, необходимо поддерживать их (обучать и сопровождать) в течение долгого времени.

Ключевые слова: руководитель учебного заведения, управление, компетентность, целеустремленность, индивидуально-психологические особенности.

THE IMPORTANCE OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCES IN EFFECTIVE MANAGEMENT

Safarov Dilmurod Khalimovich

Doctor of Psychology (DSc), Professor

Navoi region

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the role of socio-psychological competence of school managers in organizing effective management, the importance of image in modern leadership, the specific psychological characteristics of the image, modern principles of image formation, and the principles of various areas of psychology regarding image formation.

GOAL: Scientific analysis of the importance of socio-psychological competencies in effective management

MATERIALS AND METHODS: How did the need for a socio-psychological competency approach arise? Unlike the method of job analysis, the competency approach is

aimed not at “breaking down” it into its components, but at identifying its complex features and qualities that allow a professional to successfully solve the tasks set before him (and not simply perform the functions intended for him). Thus, a transition from an operational-functional view of activity to a task-targeted view has taken place.

This paradigm shift is associated with fundamental changes in the nature of professions. Instead of activities that mainly require simple (sensory and motor) actions from the performer, today there are jobs of such a complex nature that it is impossible to describe the functions, but only to list the tasks.

CONCLUSION: It is useful to regularly review the value of socio-psychological competencies in the context of new environmental conditions or changes in company strategies. If the value of socio-psychological competencies remains unchanged, it is necessary to support them (train and accompany) over time.

Keywords: school manager, management, competence, determination, individual psychological characteristics.

*M*aktab menejerlarining samarali boshqaruvini tashkil qilishda ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish juda ham muhim hisoblanadi. Maktab menejerlari ishning tahlilini xodimga bo'lgan talablarning manbai sifatida qarash mumkin. Mehnat psixologiyasida (yoki industrial psixologiyada, u g'arb ilmiy va amaliy adabiyotida shunday nomlanadi) ishning tahlili asosiy tadqiqot metodi va rahbar talablari va ish o'rnining ijrochiga nisbatan qo'yadigan talablarini baholash imkonini beruvchi metod bo'lib hisoblanadi. Buning uchun ish o'rni va ish jarayoni mukammal tahlil qilingan va professional muhim sifatlar ro'yxati, shuningdek, absolyut va nisbiy professional yaroqsizlik belgilari aniqlangan. Bunday yondashuv yetarlicha uzoq vaqt hukmronlik qilgan [1] va yaqinlargacha o'zini oqlab kelgan.

Ish o'rnining odamga bo'lgan talablarini aniqlashning usullaridan biri - bu faoliyatning yaxshi va yomon xodimlar o'rtasida eng yaqqol namoyon bo'ladigan farqini aniqlashga va tavsiflab berishga yo'naltirilgan bajariladigan ishlar kompleksidir [2]. Bunday yondashuv asta-sekin yangi kontsepsiya – kompetentlikni modellashtirish kontsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.

Ish o'rnining odamga bo'lgan talablarining tahlili xodimning ish samaradorligi yuqori yoki past bo'lishini ta'minlab beradigan eng muhim talablarga, masalan, qo'l harakatlari tezligi yoki bir operatsiyadan ikkinchi operatsiyaga o'ta olish tezligini tahlil qilishga qaratilgan.

Shu tariqa psixologlar yaxshi xodimlarni tanlab olishga yo'naltirilgan ish o'rnini tahlil qilish metodidan ish o'rinlarini odam imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan metodga o'ta boshladilar. Shu narsa e'tiborliki, kompetentlikni modellashtirishga erta qiziqish paydo bo'lishini rag'batlantirgan konkret yondashuvlardan biri Xey-Makber yondashuvi bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra ish o'rinlarini tahlil qilish metodining adaptatsiya qilingan va kengaytirilgan ko'rinishidan iborat.

Hozirgi zamon biznes-muhiti o'ta raqobatlilik va o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi [3]. Shu sababli tashkilotlar o'z strukturalarini ancha oddiylariga almashtirib, ko'proq komandaning o'z-o'zini boshqarishiga ishongan holda boshqaruvning oraliq zvenolarini (quyi va o'rta zvenodagi rahbarlarni) olib tashlamoqdalar.

Tashkilotlar matritsaviy tuzilmaga ega bo'la boradilar va shunga mos ravishda ularning qiyofasi va an'anaviy ish strukturasi o'zgara boradi [4].

Ushbu o'zgarishlarning kuzatilishi ishni tahlil qilishning an'anaviy bajariladigan tartibi yangi tashkiliy muhitda va personalni boshqarishning zamonaviy amaliyotida yaroqsiz bo'lib qoladi, degan xavotirni ortishiga olib keladi [5].

Aynan ushbu sharoitda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni modellashtirish amaliyoti oxirgi bir necha yillar davomida inson resurslari sohasiga tarqaldi. Hozirgi vaqtda kompetensiyalarga o'rganishga asoslangan tadqiqotlar 75% dan (292 ta tashkilotda o'tkazilgan so'rov asosida) 80 % gacha (Amerika kompensatsiya assotsiatsiyasi, 1996-yil, 426 ta tashkilotda o'tkazilgan so'rov asosida) holatda respondent-kompaniyalar kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni qo'llashlarini ko'rsatganlar [6].

Bu bozorning girdobli muhitini, shuningdek, tashkilot o'sishining ko'lamlari va tempini hisobga olgan holda personalni boshqarish imkonini beradi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar modellari rivojlanib borishiga bog'liq ravishda mutaxassis-amaliyotchilar va kadrlar xizmati iste'molchilari yangi foydali sxemalar va metodlarni izlay boshlaydilar. Ushbu zo'r berishlarga yordam berish maqsadida sanoat va tashkiliy psixologiya Jamiyati (SIOP) kompetensiyalarni modellashtirish amaliyotini tadqiq qilish va qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ydi.

Shunday qilib, keyingi yillarda ishlarni tahlil qilish o'rnini kompetensiyaviy yondashuv ishonch bilan egalladi. Tashkilotda personalni boshqarish xizmati ishida kompetensiyaviy yondashuvni amaliy qo'llash dolzarb bo'lib bormoqda, chunki tashkilot ishining natijasi, asosan, xodimlarning kompetensiyalari ular egallab turgan lavozimlari talablariga qanchalik mos kelishiga bog'liq bo'ladi. Ammo hozirgacha kompetensiyalar nima, ularni qanday o'lchash va baholash mumkin, degan savolga bir xilda javob yo'q. Ko'pchilik mualliflar o'z ishlarida mazmuniga ko'ra yaqin, ammo baribir farq qiladigan ta'riflarni beradilar va turli xil metod va kompetensiyalarni baholovchi metodikalarni tavsiflaydilar [7].

Ishlar tahlilida, eng avvalo, nigoh "nima" bajarilganligiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lsa, kompetensiyalarni modellashtirish esa ko'proq maqsadlarga "qanday" erishilishi yoki ish qanday bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday holatda ikkita yondashuvning o'xshashligi va farqlarini qanday qilib yaxshi tashkillashtirish va tavsiflash mumkin, degan savol tug'iladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlikni modellashtirish va ishlarni tahlil qilish o'rtasida qator ahamiyatli farqlar mavjud. Kompetentlikni modellashtirishga yondashuvlar, odatda, professional guruh uchun, ishlarning butun darajasi (masalan, ijro hokimiyati, boshqaruv, nazorat) uchun yoki butun tashkilot uchun asosiy yoki umumiy bo'lgan kompetensiyalarning individual darajasi tavsifini beradi.

Asosiy e'tibor umumiy yoki universalni keng qo'llanilishi va foydalanilishiga qaratiladi. Hatto modellashtirish bo'yicha zo'r berish vazifalarning qisqa belgilangan guruhiga (masalan, sotish bo'yicha menedjerlarga) mo'ljallangan bo'lsa ham, olingan tavsiflar odatda, yetarlicha yuqori darajada va umumiy xarakterda bo'ladi. Ikkinchi tomonda esa, asosiy e'tibor ish o'rinlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bunda nima farq qilishiga, ya'ni turli xildagi ish o'rinlari o'rtasida, professional guruhlar o'rtasida, tashkilotdagi darajalar o'rtasida nima farq qilishiga e'tibor qaratiladi.

Garchi ishlar tahlili ba'zida keng e'tibor darajasida bo'lsa ham, (masalan, oilaviy tadqiqotlar o'tkazilganda) guruhlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan deskriptor

elementlar, odatda, kompetensiyalarni modellashtirishga bo'lgan ko'pchilik urinishlarda erishiladigan detallashtirishga qaraganda ancha batafsil darajada bo'ladi. Boshqa tomondan, faqat umumiy kompetensiyalardan foydalanib qurilgan modellar, odatda, bir-biriga o'xshash bo'ladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlikni modellashtirishga bo'lgan yondashuvlar, eng muhimi, olingan tavsiflardagi mos kelishlarning qisqacha mazmuniga qaraganda o'zining uzoq muddatli tashkiliy yaroqliligini ko'rsatadi.

Bu tarzda urg'u berilishini modellashtirish jarayoni tarkibiga tashkilot konsepsiyasini va asosiy qadriyatlarini kiritishga bo'lgan urinishning tabiiy natijasi bo'lsa kerak, deyish mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaviy yondashuvga ehtiyoj qanday paydo bo'ldi? Ishlarni tahlil qilish metodidan farq qilib, kompetensiyaviy yondashuv uni tarkibiy qismlarga "parchalab tashlashga" emas, balki professionalning oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli yechish (unga mo'ljallangan funksiyalarni oddiygina bajarish emas) imkonini beruvchi kompleks xususiyatlar va sifatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Shunday qilib, faoliyatga operatsional-funksional qarashdan vazifa-maqсадli qarashga o'tish amalga oshdi.

Paradigmani bu tarzda almashtirish kasblar tabiatidagi tub o'zgarishlar bilan bog'liq. Asosan ijrochidan oddiy (sensor va motor) xatti-harakatlarni talab qiladigan faoliyat o'rniga bugungi kunda murakkab ko'rinishdagi ishlar keldiki, qachonki bunda funksiyalarni tavsiflash imkoni bo'lmay, faqat vazifalarni sanab o'tishga to'g'ri keladi. Faoliyat murakkab bo'lgani sayin, vazifa qo'yishdan maqsad qo'yishga o'tish shunchalik faol amalga osha boradi. Bu ikkita yondashuvdagi asosiy farqlar 1-jadvalda ifodalangan.

1-jadval

Yondashuvlarni taqqoslash: ishlarni tahlil qilish va ijtimoiy-psixologik kompetensiyaviy yondashuv

№	Ishlarning tahlili	Kompetensiyalar modellari
1	Psixologlar HR va ergonomistlar ishlarining asosiy funksiyasi hisoblanadi	Shu jumladan, rahbarlarning ham vazifasi hisoblanadi
2	Xodimlarning kasbiy yaroqliligi yoki yaroqsizligini baholash maqsadida professional tanlov o'tkazish uchun qo'llaniladi	Xodimlarni yaxshi ijrochilardan yomon ijrochilarga tomon boradigan rang (darajalar) ga ajratishda qo'llaniladi
3	Maqsad: lavozim uchun nomzodga nisbatan asosiy talablarni aniqlash	Maqsad: xodimning kasbiy rivojlanib borishi darajasi bilan bog'liq kompetensiyalar qanday o'zgarib va yuksalib borishini kuzatib borish
4	Induktiv hisoblanadi: ish vazifalarining tahlilidan ishni bajarish uchun odamdan nima talab qilinishi to'g'risida xulosa chiqarishga qarab boriladi	Kompetensiyalarni modellashtirish ko'proq deduktiv hisoblanadi – strategiya va biznes-maqсадlardan boshlanib, keyin qanday natijalar talab qilinishiga qarab boriladi, va nihoyat, bu natijalarni qanday ko'rinishdagi shaxs sifatleri ta'minlab berishi bilan yakunlanadi
5	Tahlil tashkilotda yuqoriga (safdagi xodimlardan rahbarlarga) qarab boradi	Tepadon pastga qarab ishlab chiqiladi (yuqori rahbariyatdan boshlashadi)

6	Ishning odatiy talablariga yo'nalgan	Ishga nisbatan kelajakdagi talablarni (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) hisobga oladi
7	Odatda ishga nisbatan talablar ro'yxati ko'rinishida ifodalanadi	Qo'llash osonligini yengillashtirish usuli (masalan, eslab qolishni osonlashtiradigan rasmlar yoki sxemalar) orqali ifodalanishi mumkin
8	a)ish joyida jamlanadi, b)ishga bo'lgan talablar miqdori ishning murakkabligiga bog'liq bo'ladi	Odatda kompetensiyalarning cheklangan miqdori aniqlab olinadi va bitta model bir nechta ishlar oilalari uchun qo'llaniladi
9	Kamdan-kam tashkilotni o'zgartirish uchun qo'llaniladi, asosan konkret tashkiliy amaliyotlarni takomillashtirish, yaxshilash yoki himoya qilishga intiladi	Ko'pincha tashkiliy rivojlanishga aralashuv hisoblanadi, yoki oddiy ma'lumotlar to'plashdan farq qilib, tashkiliy o'zgarishlarga javoban harakat hisoblanadi

Masalan, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni modellashtirish ish o'rinlarini tahlil qilishga qaraganda nafaqat ish o'rinlari uchun (ish o'rnini tahlil qilgandagi singari), balki strukturaviy biznes qismlar, funksional sohalar, bir xil murakkablik darajasidagi ishlar guruhlari komplekslari uchun mos keladigan narsalarni aniqlash va tavsiflash imkonini beradi.

Ikkinchidan, funksional bilimlar yoki ishlar guruhlari bilan bog'liq bo'lgan texnik ko'nikmalarni aniqlash va hujjatlashtirish har bir alohida ish o'rnini tahlil qilgandagiga qaraganda oson va tejamkor.

Uchinchidan, kompetensiyalarga o'tkazish bu ish uchun, ishlar guruhi uchun muhim bo'lgan shaxsiy qiymatlar va shaxsiy yo'nalganliklarni aks ettirishga bo'lgan urinishdir.

To'rtinchidan, faraz qilingan deskriptor mazmuni mijoz-tashkilot tilida yozilgan bo'lishi kerak.

Beshinchidan, yondashuvni kadrlar tayyorlash uchun ham qo'llash mumkin.

Oltinchidan, yondashuvni tanlov uchun, samaradorlikni baholash uchun, inson resurslari sohasidagi boshqa qarorlarni hal qilish uchun ham qo'llash mumkin [8].

Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaviy yondashuvni tushunish uchun kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga aniqlik kiritish talab qilinadi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyani tushunish masalasida ikkita yondashuv borligini qayd etish lozim. Britaniya yondashuviga mos ravishda baholash mezonlari modelini kompetentliklar modeli deb, mutaxassis bajaradigan vazifalar modelini esa kompetensiyalar modeli deb nomlash to'g'ri bo'lar edi.

Amerika yondashuvida esa baholash mezonlari modeli kompetensiyalar modeli deb nomlanadi. Amerikacha yondashuvda mutaxassis vazifalari modeli to'g'risida deyarli so'z bormaydi, faqat keng tarqalgan tushuncha – kompetensiyalar modeli tushunchasi qo'llaniladi. Rossiyalik olimlar (T.Yu.Bazarov va boshqalar) tomonidan amalga oshirilayotgan yondashuvda "kompetentliklar modeli mutaxassisda baholanadigan mezonlar, sifatlar tariqasida tushuniladi, kompetensiyalar modeli deganda – mutaxassis o'z faoliyati davomida yechadigan vazifalar modeli tushuniladi" [9].

Rossiyada personalni boshqarish xizmati uchun kompetentliklar modelini shakllantirishda "Inson kapitali rivojlanishi" Milliy konfederatsiyasi tashabbusiga ko'ra 2013-yilda tashkil etilgan va ekspertlar jamoasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Rossiya baholash markazi standartining yuzaga kelishi muhim hisoblanadi.

Bu personalni baholash sohasida professional xizmatlar va jamiyatlarning rivojlanishida muhim davr bo'ldi, chunki standart baholash markazlarini tashkil qilish va o'tkazish, mazkur sohada mutaxassislarni tayyorlash uchun yagona metodologik bazani ta'minlashga safarbar etilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy-psixologik kompetensiya atamasi xulq-atvorning kutilayotgan natijalarga yoki ish o'rnidagi yoki tashkiliy struktura ichidagi natijalarga erishishga olib keladigan xususiyatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Kompetensiyalarni shu tarzda belgilashga harakat qilishadiki, qachonki xodim aynan nima qiladi va uni qanday kuzatish mumkin ekanligi tushunarli bo'lsin.

Ayni paytda, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar qiyin ish vazifalarini, konkret funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarish yoki mazkur rolda yoki lavozimda muvaffaqiyatli ishlash uchun bilim, malaka, qobiliyatlarni, xulq-atvor va shaxsiy xarakteristikalarini qo'llash yoki ulardan foydalanish qobiliyatidir. Umuman bu, odamlarning vaziyatlarni keng diapazonda umumlashtiradigan va uzoq vaqt davrida saqlanib turadigan xulq-atvor yoki tafakkur usullarini ko'rsatadigan asosiy xarakteristikalaridir.

"Ijtimoiy-psixologik kompetensiya" so'zi bugun – bir xil tushunilishga ega bo'lmagan va ayni paytda mutaxassislar guruhi foydalanadigan ta'rifga bog'liq atamadir [10]. So'rovnoma asosida olingan turli mualliflar tomonidan kompetensiya atamasiga ta'rif berishga bo'lgan urinishlarni quyida misol tariqasida keltiramiz.

-“Yuqori darajadagi ijrochilarni o'rtacha ijrochilardan farq qildiradigan bilimlar, ko'nikmalar va alomatlar”.

-“Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar an'anaviy belgilangan KSAO (ya'ni bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va boshqa xarakteristikalar) dan jiddiy darajada farq qilmaydi”.

-Bu “bilim va ko'nikmalar darajasini aniqlashga” yordam beradigan konstruksiyadir.

-“Asosiy vazifalarni, rollarni yoki ishni bajarish uchun muhim bo'lgan, kuzatiladigan xulq-atvor imkoniyatlari”.

-“Bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va mehnat samaradorligiga bo'lgan talablarning qorishmasi”.

Adabiyotlardan eng ko'p iqtibos keltiriladigan ta'riflar quyidagilar:

-Bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, motivatsiya, e'tiqodlar, qadriyatlar va qiziqishlar birikmasidir.

-Bilimlar, qobiliyatlar yoki unumdorlik bilan bog'liq xarakteristikalar.

-Motivlar, xarakter belgilari, o'z-o'ziga beradigan baho, ustanovkalar yoki qadriyatlar, mazmun to'g'risidagi bilimlarning yoki kognitiv xulq-atvor ko'nikmalarining aralashmasi; ishonchli o'lchash yoki hisoblash mumkin bo'lgan va yuqori ko'rsatkichlarni o'rtachasidan farqini ko'rsata oladigan har qanday individual xarakteristika.

-Ish maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan o'lchanadigan ishchi odatlar va shaxsiy malakalarning yozma tavsifi [184].

Shu narsa ravshanki, hatto bir-birlariga ancha o'xshash bo'lgan ekspertlar guruhi orasida ham atamaga aniq va standart ta'rif berish qiyinligini ta'kidlagan holda ta'riflarning juda rang-barangligini ko'rish mumkin.

Bu tariqa umumiy fikrga kelishning yo'qligi shubha tug'dirmasligi yoki konfliktli deb hisoblanmasligi kerak, chunki “kompetensiya” yoki “kompetentlik” terminlari ustuvor tarzda ishlatiladigan sohalar juda ko'p. Psixologiya bo'yicha oldin mavjud bo'lgan adabiyotlarga,

1966-yilgacha bo'lgan PsychInfo ma'lumotlari bazasiga juda ko'p (1300 dan ziyod) kirib murojaat etilganligi bu tushunchaning qanchalik "raqobatbardosh" ekanligini ko'rsatadi.

Qisman, bu so'zlarning kelib chiqishi klinik psixologiyadan boshlangan bo'lib, u yerda bu atama aqliy qobiliyatlar va bilimdonlikning huquqiy standartlarini, o'zi va boshqalar to'g'risida qayg'urish qobiliyatini va ko'pchilik faoliyat turlarida ishlay olish qobiliyatini aniqlash uchun rivojlantirildi.

Buning natijasida "kompetentlik" atamasi konkret kasblar bilan bog'liq bilimlar, malakalar va ko'nikmalarning keng sohasini aniqlash uchun professional konsultatsiya berish sohasini qamrab oldi.

Bu so'z ta'limning keng an'anaviy sohalarini qamrab olganligi bilan bog'liq o'zining qadimgi tarixiga ega.

Oldingi davr sanoat psixologlari ham kasblardagi muvaffaqiyatli odamlarni tavsiflash uchun «kompetentli» atamasini qo'llaganlar. Yuqorida qayd etilgan yuridik, klinik psixologiya, professional, ta'lim va sanoat psixologiyasi kontekstlarida "kompetentlik" atamasi ma'lum bir vazifa yoki faoliyatni "muvaffaqiyatli" bajarilishini, bilimlar yoki ko'nikmalarning ma'lum bir sohalarini "adekvat" bilishni belgilab beradi.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" atamalarining o'zagi "competo" so'zi bo'lib, u lotinchada "erishaman; mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'nolarni bildiradi [11]. Ba'zida bu so'zlar to'liq sinonim sifatida ishlatiladi, lekin ko'pchilik tadqiqotchilar baribir ularni farqlashadi.

"Kompetensiya" termini xodimning mazkur ish o'rnidagi yoki lavozimdagi vazifalarini xarakterlagan. Bu holatda shuni qayd etish muhimki, mehnat posti ma'lum bir muddatga bo'sh qolishi mumkin va shunday qilib, "kompetensiya" termini tashkiliy loyihalash mahsulotiga, ma'lum bir abstrakt xodimning mehnat funktsiyalari modeliga nisbatan taalluqli bo'ladi. Bu bilan "kompetensiya" so'zida xodim erishishi lozim bo'lgan yakuniy natijalar, shuningdek, ularga erishish usullari va jarayonlarining normativligi ta'kidlangan.

"Kompetentlik" atamasi konkret odamning (lavozimga nomzodning yoki ishlayotgan mutaxassisning) mazkur mehnat postidagi faoliyatga loyqligi darajasini ko'rsatadi. Kompetent xodim berilgan professional topshiriqlarni (vazifalarni) sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydigan zaruriy bilimlar, malakalar va individual shaxsiy sifatlarga ega bo'ladi, deb taxmin qilingan.

Shuningdek, hisoblashganki, xodim kompetent (malakali) bo'lishi, lekin asotsial moyilliklarga ega bo'lishi va zararkunanda bo'lishi, jinoyatchi va boshqa bo'lishi mumkin.

So'zni bu shaklda oldingi shakllangan mazmunda tushunishdan taxmin qilinganki, kompetensiya to'g'risida gapirilganda mehnatda erishilishi kerak bo'lgan oxirgi natijalarga urg'u berilgan, xodimning mumkin yoki mumkin bo'lmagan xatti-harakatlari (professional xulq-atvori shakllari) to'g'risida gapirilgan, kompetentlik to'g'risida gapirilganda xodimning o'z professional vazifalarini amalga oshirishi samaradorligi bog'liq bo'lgan uning ichki resurslari, imkoniyatlari, uning psixik xususiyatlari, tajribasi nazarda tutilgan. Shu sababli ham psixolog uchun "kompetensiya" emas, "kompetentlik" terminini ishlatish odatiyroq bo'ladi.

Angliyalik olimlarning ishning eng yuqori samaradorligi modellarini muhokama qilishga bag'ishlangan "Ishdagi kompetensiyalar" nomli kitobida ko'p sonli misollarda nomzodlarning ma'lumotlarini baholashning ma'lum bir metodi orqali ular tomonidan ishni kelajakda bajarilishini prognoz qilish texnologiyasi ko'rsatib berilgan. Muammo shundaki,

ingliz tilida “competence” so’zi ikkita ma’noni anglatadi, ko’pincha u odamning konkret ish uchun zarur bo’lgan qobiliyatlari, malakalari sifatida tushuniladi; ikkinchi ma’nosi yuridik amaliyotda ishlatiladigan – kompetensiya, ya’ni qonuniy vakolatga egalik ma’nosida tushuniladi [12].

Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiyada ham “Ijtimoiy-psixologik kompetensiya”, “kompetentlik” atamalarini ishlatishda an’anaviy “professional muhim sifatlar” bilan bir qatorda ma’lum keskinlik va tushunarsizlik sezilgan. Bu tushunchalarning qandaydir o’zaro nisbatini aniqlash, ular o’rtasidagi umumiylikni va ehtimoli bo’lgan farqni o’ylab ko’rish zaruriyati yuzaga keldi. Ushbu uchta (kompetensiya, kompetentlik, professional muhim sifatlar) tushunchani farqlash, kelajakda bu tushunchalarni ushbu ma’noda ishlatish uchun ularning konkret tushunilishiga kelishib olish zaruriyati mavjud.

Biz o’z tadqiqotimizda bu tushunchalarga M.V.Lomonosov nomidagi MDU professori T.Yu.Bazarov tomonidan berilgan ta’riflarga asoslanganmiz, chunki bu ta’riflarda dunyo olimlarining ushbu muammoga nisbatan nuqtai nazarlari hisobga olingan holda bu tushunchalarning mazmuni chuqurroq ochiladi. Kompetensiyalar – bu individual yoki kollektiv subyektning integral (yig’indi) sifatleri atamalarida ifodalangan muvaffaqiyatli faoliyat talablaridir. Bu sifatlar, odatga ko’ra, o’zlarida muvaffaqiyatli ishlash uchun (ma’lum kasbda, ma’lum lavozimda, aniq bir kompaniyada) zarur bo’lgan bilimlarni, professional malakalarni, individual tipik yoki tashkiliy-madaniy xarakteristikalarini birga qo’shib oladi. Ba’zida kompetensiyalar yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo’lgan professional xulq-atvor modeli ko’rinishida tavsiflanishi mumkin [9].

Maktab menejerlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishda quyidagi kompetentlik modelini amalga oshirish bizningcha samarali hisoblanadi:

- 1) “bitta ish o’rni uchun model” yondashuvi;
- 2) “bir nechta ishchi o’rni uchun model” (ishlar guruhleri modeli);
- 3) “universal model” yondashuvi.

“Bitta ish o’rni modeli” quyidagi qadamlarni bajarish asosida quriladi:

1-qadam. Odatda xodimlar yoki ularning rahbarlaridan fokus-guruh, xodimlar bilan intervyu, mijozlar bilan intervyu, to’g’ridan-to’g’ri hisobotlar, qo’shimcha xodimlar bilan so’rovnoma, xodimlarni ishda bevosita kuzatish yordamida ma’lumotlarni yig’ish.

2-qadam. Eng muhim 10-20 ta belgilar yoki malakalarni kompetensiya modeliga birlashtirish.

3-qadam. Kompetensiyalar modeli ekspertlar tomonidan baholanadi va tashkiliy zaruratlar uchun ishlatiladi.

Ikkinchi yondashuv “bir nechta ish o’rni uchun model” (ishlar guruhi modeli) quyidagi qadamlarni o’z ichiga oladi:

1-qadam. Model qo’llanilishi mo’ljallangan guruhni aniqlash, masalan, o’rta bo’g’indagi menejerlar guruhi.

2-qadam. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni ishlab chiqish uchun mas’ul bo’lgan komanda ma’lumotlarni to’plash o’rniga odatda, ish uchun mavjud kompetensiyalar modellaridan, shuningdek, kitoblar va maqolalardan liderlik, biznes, tashkiliy rivojlanish va inson resurslarining rivojlanishi to’g’risidagi konsepsiyalarni tanlaydi.

3-qadam. Keng doiradagi ishlar (masalan, barcha boshqaruv ishlari) uchun bitta kompetensiyalar jamlanmasini belgilab olish.

Uchinchi yondashuv - “universal model” tashkilot kompetensiyalar modelini bir nechta variantda qurish yondashuviga ehtiyoj sezadi, degan g’oyaga asoslanadi. Masalan, tashkilotda 25 ta professional va boshqaruv lavozimlari uchun kompetensiyalar modeliga, shuningdek, samaradorlikni boshqarish uchun, professional rivojlantirish va kompetensiyalar modellari asosida ushbu lavozimlarga tanlab olish uchun izchil dasturlarga va instrumentlarga ehtiyoj mavjud. Bunday yondashuvning natijasi – vazifalar va darajalarga bog’liq ravishda bir nechta modellarni ishlab chiqishdan iborat.

Masalan, rahbar modeli birinchi darajadagi rahbar kompetensiyasiga (chiziqli (muntazam) boshqaruv), ikkinchi darajali (o’rta bo’g’in), yuqori darajali (top-menejment) va kadrlar zahirasi kompetensiyalariga bo’lingan. Mahsulotni sotish bilan shug’ullanuvchi bo’lim yoki personal yoki marketing bo’limi rahbari bo’ladimi, buning ahamiyati yo’q.

Har bir modelning ustunliklari va kamchiliklarini taqqoslash 2-jadvalda aks etgan.

2-jadval.

Taqqoslash	Individual yondashuv	“Bir razmer hammaga to’g’ri keladi” yondashuvi	Ko’p vazifali yondashuv
Yutuqlari	Ish uchun nomzodning aniq tanlovini ta'minlab beradi, ayniqsa tashkilot muvaffaqiyati uchun bu juda muhim.	Ish o’rinlari guruhi uchun barcha HR dasturlarini birlashtiruvchi, oddiy strukturani ta'minlab beradi.	A)Kompetensiyalar modellarini bir-birlari bilan taqqoslashni va bir nechta vazifaga ega bo’lgan xodimlar profillarini taqqoslashni osonlashtiradi
Kamchiligi	Eng samarasiz hisoblanadi	Odatda yuqori rahbariyatning tasdiqlashini yoki bir nechta mustaqil HR guruhlarining kelishuvini talab qiladi	Uchta yondashuvdan amalga oshirish uchun eng murakkabi

Demak, paragrafga yakun yasarkanmiz, samarali boshqaruvda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalardan foydalanib borish davomida vaqt o’tishi bilan ularning qimmati yo saqlanib turadi, yo oshadi, yoki aksincha, global o’zgarishlar sababli ularning qimmati yo’qotiladi.

Shuning uchun ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning qimmatini muhitning yangi sharoitlari yoki kompaniyaning strategiyalari o’zgarishlari kontekstida muntazam taftish qilib borish foydalidir. Agar ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning qimmati o’zgarmasdan qoladigan bo’lsa, vaqt o’tishi bilan ularni qo’llab-quvvatlash (o’qitish va hamrohlik qilib olib borish) zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Данилченко, Ю.Б. Понятие, цель и содержание оценки кадровой работы в органах прокуратуры.// Европейские перспективы 2014. С. 46-52.



2. Atai, F., Blum, D., Horowitz, T., Khalid, A., & Rzaeva, N. Cultural Elites in Uzbekistan. In P.J. Luong (Ed.), *The Transformation of Central Asia: States and Societies from Soviet Rule to Independence*, (pp. 93-119). New York: Cornell University Press. 2018.
3. Eddowus M.K. Decision making methods. M.: Audit. JUN 2005. – P.23.
4. Athey T. R., Orth M. S. Emerging competency methods for the future // *Human Resource Management: Published in Cooperation with the School of Business Administration, The University of Michigan and in alliance with the*
5. Boyatzis RE. *The competent manager: A model for effective performance*. New York: Wiley. 2002.- 78 p.
6. Fleishman E.A., Wetrogan L.I., Uhlman C.E., Marshall-Mies J.C., In Peterson N.G., Mumford M.D., Borman W.C., Jeanneret P.R., Fleishman E.A.(Eds.), *Development of prototype occupational information network content model*. 1995. (Vol. 1, pp. 10.1-10.39). Utah: Utah Department of Employment Security (Contract Number 94-542).
7. Иванов В.Г., Кузменкова В.Н., Афанасев К.С., *Формирования системы кадрового резерва государственной и муниципальной службы: российский и зарубежный опыт // проблемы и пути социально-экономического развития: город, регион, страна, мир. Международная научно-практическая конференция: Сборник статей*. 2013. стр.39-48

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Safarov Dilmurod Xalimovich

Psixologiya fanlari doktori(DSc), professor

Manzil: O'zbekiston, 200100, Navoiy viloyati

O'SMIRLARGA AGRESSIVLIK VA UNING O'ZIGA XOS KO'RINISHLARI



Ganjiyev Feruz Furkatovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada agressivlik tushunchasi, agressivlik borasida olib borilgan tadqiqotlar, agressivlikning turlari hamda o'smirlarga xos agressivlik, uning kelib chiqish sabablari ochib berilgan. Shu bilan birga o'smirlarda agressivlikning shakllanishiga shaxs xususiyatlari ta'siri masalalari va oilaning ta'siri yoritib berilgan.

MAQSAD: O'smirlarda agressivlik va uning o'zig xos ko'rinishlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Olimlar agressiyaning quyidagi turlarini keltirib o'tadilar. Bular: Jismoniy agressiya – boshqani qo'rqitishdan tortib, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy kuch ishlatish, unga jismoniy va ma'naviy og'riq yetkazish. Bilvosita agressiya – boshqa insonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatish (mish-mish, kalaka qilish va hokazo), o'z-o'zidan aynan boshqa insonga qaratilmagan holda agressiyaning namoyon bo'lishi (mushti bilan stolni urish, eshikni taqillatib yopish va boshqalar). Verbal agressiya – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish. T.G. Rumyanseva, I.B. Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar.

XULOSA: Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko'rinadiki, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur fe'l-atvorni o'rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi.

Tayanch so'zlar: ommaviy axborot, o'zidan qoniqmaslik, axloqiy talablar, emansipatsiya, krizis, xulq-atvor, qaysarlik, agressivlik.

АГРЕССИВНОСТЬ У ПОДРОСТКОВ И ЕЕ ХАРАКТЕРНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ

Ганджиев Феруз Фуркатович

Доктор психологических наук, профессор

Бухарский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются понятие агрессии, исследования агрессии, виды агрессии, а также агрессия, характерная для подростков, причины её

возникновения. При этом освещаются вопросы влияния личностных особенностей на формирование агрессии у подростков и влияние семьи.

ЦЕЛЬ: Научный анализ агрессии у подростков и её специфических проявлений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Ученые выделяют следующие виды агрессии: Физическая агрессия – от запугивания до прямого применения физической силы, причиняющей другому человеку физическую и моральную боль. Косвенная агрессия – распространение информации, способной навредить другому человеку (слухи, сплетни и т. д.), проявление агрессии без прямого направления на другого человека (удар кулаком по столу, хлопанье дверью и т. д.). Вербальная агрессия – это выражение негативных чувств посредством крика, споров, ругани, оскорблений, угроз и других методов. Реагирование даже на малейшее провокационное воздействие грубостью, враждебностью, эмоциональным возбуждением. Т.Г. Румянцева, И.Б. Бойко рассматривают агрессию как форму социального поведения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Из вышеизложенных рассуждений следует, что агрессоры не обязательно испытывают ненависть или симпатию к тем, на кого нападают. Многие люди притесняют тех, кто им симпатичен. Учитывая многообразие и глубину человеческой агрессии, становится очевидным, что предложенное автором концептуальное разграничение весьма полезно для изучения этого поведения.

Ключевые слова: средства массовой информации, недовольство собой, моральные требования, эмансипация, кризис, поведение, упрямство, агрессивность.

AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENTS AND ITS CHARACTERISTICS

Ganjiyev Feruz Furkxatovich

Doctor of Psychology (DSc), Professor

Bukhara State University

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the concept of aggression, research on aggression, types of aggression, and aggression specific to adolescents, the causes of its occurrence. At the same time, the issues of the influence of personality traits on the formation of aggression in adolescents and the influence of the family are highlighted.

THE GOAL: Scientific analysis of aggression in adolescents and its specific manifestations

MATERIALS AND METHODS: Scientists cite the following types of aggression. These are: Physical aggression - from intimidation to direct physical force, causing physical and moral pain to another person. Indirect aggression - spreading information that can harm another person (rumors, gossip, etc.), the manifestation of aggression without being directly directed at another person (hitting a table with a fist, slamming a door, etc.). Verbal aggression is the expression of negative feelings through shouting, arguing, swearing, insults, threats and other methods. Responding to even the slightest provocative influence with rudeness, hostility, emotional arousal. T.G. Rumyantseva, I.B. Boyko consider aggression to be a form of social behavior.

CONCLUSION: From our above considerations, it can be seen that aggressors do not necessarily hate or like the people they are attacking. Many people oppress people they like.

Given the diversity and depth of human aggression, it became clear that the conceptual delimitation proposed by the author is very useful in studying this behavior.

Key words: mass media, dissatisfaction with oneself, moral requirements, emancipation, crisis, behavior, stubbornness, aggressiveness.

O'smirlarda tajovuzkor xulq namoyon bo'lishining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda xalqaro baholash dasturlarini keng joriy yetish yetish dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi paytda o'smirlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga e'tiborni kuchaytirish mamlakat taraqqiyoti, yurt kelajagi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda so'nggi yillarda mamlakatimizda ma'nan yetuk, jismonan sog'lom yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, izlanish va iste'dodini qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida ham Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning chuqur bilim olishi va iste'dodini keng namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratildi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarining shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

Asosiy qism: Aggressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggređi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar agressiyaga salbiy yondoshuv qilsalar (X. Delgado, A.A. Bass, L.M. Semenyuk, G. Parens, A. Bandura, R. Uolter, Y. Mojdinskiy), ayrimlari agressiyani (L. Bender, D. Richardson, R. Beron) ijobiy baholaydilar (1).

Olimlar agressiyaning quyidagi turlarini keltirib o'tadilar. Bular: **Jismoniy agressiya** – boshqani qo'rqitishdan tortib, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy kuch ishlatish, unga jismoniy va ma'naviy og'riq yetkazish. **Bilvosita agressiya** – boshqa insonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatish (mish-mish, kalaka qilish va hokazo), o'z-o'zidan aynan boshqa insonga qaratilmagan holda agressiyaning namoyon bo'lishi (mushti bilan stolni urish, eshikni taqillatib yopish va boshqalar). **Verbal agressiya** – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish. T.G. Rumyanseva, I.B. Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar.

Agressivlikning shaxsiy xususiyat sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unda ko'plab omillar ishtirok etadi. Dushmanlik xulq-atvori oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida asta-sekin shakllanadi. Bolalar tajovuzkorlikni kuzatish va sinab ko'rish orqali o'rganadilar: ular nafrat va dushmanlik qanday namoyon bo'lishini ko'radilar, bu nimaga olib kelishini baholaydilar, olgan bilimlarini amalda qo'llaydilar. Agar tajovuzkor harakatlar tajribasi ijobiy bo'lsa, ular xarakterda mustahkamlanadi. Voyaga yetgan odamning tajovuzkorligining sabablari ijtimoiy-psixologik omillar, ruhiy kasalliklar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar bilan zaharlanish holatlari hisoblanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablar mavjud. Tadqiqotchilar agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga subektiv omillarni keltirib o'tganlar. Bular: tarixiy xotira, qasd olish udumlari, ayrim diniy oqimlar (fanatizm, ekstremizm g'oyalari), ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, televideniye), ayrim siyosatchilarning individual axloqiy

jihatlarning bevosita ta'sir etish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Davrlar boyicha o'rganilganda eng ko'p agressiyaga moyillik o'smirlik davriga to'g'ri kelishi aniqlangan. Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o'ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi. G'.B.Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. O'smirlarda agressivlikning shakllanishiga quyidagi shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi:

- tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o'z-o'ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste'mol qilish, kompyuter o'yinlariga tobeklik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o'zo'zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi;

- xulqiy omillar: o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o'zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo; - ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta'siri, jamiyatlardagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o'zgarishi (o'gay ota, o'gay ona va hokazo);

- o'smirning xulqiy og'ishlar shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi (taqlid fenomeni); - ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o'smirning o'zlashtirishiga ota-ona tomonidan o'smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo'yilishi. Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimoli funksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan (1). Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishiga olib keladi (2). Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Agar o'smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o'rganib qolgan bo'lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to'sqinlik qilganlarga nisbatan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o'smirlar agressiv xulq ko'rinishlari bilan o'zlariga e'tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi; - shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari – pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi); - o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish – «Terzit kompleksi» (kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi). O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi;

- o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi – kattalar hatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy meyorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishiga olib keladi; - o'smirlarga nisbatan ma'lum bir ijtimoiy tamg'alarining bosilishi (o'qituvchilar tomonidan

o'smirning o'zlashtira olmasligi, tarbiyasizligi, u bilan gaplashish befoydaligini ta'kidlash); - ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarning haddan ziyod to'laligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish). Agressiv xulq shakllanishida «agressor» va «qurbon» rollari ajratiladi. Maktabdagi «agressorlar» tengdoshlari va kattalarga nisbatan o'zlarini yuqori tutadilar, ruhiy og'riqqa nisbatan og'riqni his etmaydilar, o'zlarini dominant tutadilar, yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni jismoniy kuch ishlatish orqali hal etadilar. Bu ko'proq o'g'il bolalarda kuzatiladi. «Agressorlar» affekt holatlarida o'z-o'zini yetarli darajada idora eta olmaydilar. O'zlarini tengdoshlariga nisbatan kuchliroq his etib, o'zlaridan kuchsiz bo'lganlarni «qurbon» sifatida tanlaydilar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafaqat «agressorlar», balki «qurbonlar» ham pedagog va psixologlar e'tiborini talab qiladi. Ya'ni ushbu toifadagi o'smirlar «ijtimoiy autsayder» atamasi bilan nomlanadi. Ushbu o'smirlar passiv va namoyishkorona turlarga ajratiladi. Passiv tipdagi «qurbonlar» bosiq, hadiksirovchi, qo'rqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Maktabda, mahallada o'rtoqlari kam bo'ladi. Ikkinchi guruh namoyishkorona tipdagilar uchun «agressorlar»ga xos bo'lgan xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'smirlarda bir vaqtning o'zida agressiya va qo'rqish holatlari namoyon bo'lishi asosida impulsiv, agressiv xulq ko'rinishlari bilan ulardagi qo'rqish va xavotirlanish holatlari birgalikda namoyon bo'lishi, doimiy tarzda kurashga tayyorlik holatlari kuzatiladi. O'zlarining xulqi bilan ular atrofdagilarning noroziligi, agressivligini jalb qiladilar. Bir tomondan, xulqi bilan atrofdagilarning agressiv munosabatlarini o'zlariga jalb qilsalar, boshqa tomondan kuch ishlatish usuli orqali muammolarni hal etishga moyil bo'ladilar. Ushbu toifadagi o'smirlarni tengdoshlari, kattalar yoqtirmaydilar. Agressivlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holat emas. Ko'p hollarda psixologik muammolarni hal etishda ojizlik holatlari ta'sirida shakllanadi: Charchash. Agar o'smir haddan ziyod charchagan bo'lsa, psixik agressiya psixik resurs imkoniyatlari cheklanganligi oqibatida shakllanadi. O'z-o'zini negativ idrok etish. «Men yomon odamman. Shuning uchun o'zimni shunday tutaman». Tobora yomonlik hissi o'smir uchun chuqur, ma'lum bir hatti-harakatni bajarishga psixofiziologik tayyorlik xolati – ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o'smirlarda arzimagan, yumshoq tanqid ham psixik og'riqning shakllanishiga olib keladi. Agar o'smir insonlar bilan munosabatlarda salbiy tajribaga ega bo'lsa, u ertaroq himoyalanişga intiladi. Ko'p hollarda uning hayotiy tajribasida shunga o'xshash holatlar uchragan, o'zi uchun xavfli deb hisoblagan vaziyatdan himoyalanişga harakat qiladi. O'smirda ijtimoiy muhitdagi insonlar bilan yaqin emotsional munosabatlar o'rnatilmaganligi, o'zini himoyasizqo'rqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Xulosa qiladigan bo'lsak, o'smirni yosh bola sifatida qabul qilsakda, unda kattalarga xos sifatlar shakllanganligini hisobga olib, uning fikrlarini, qarashlarini, hohishlarini, takliflarini e'tiborga olish muhimligini esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Amaliy nuqtai nazardan, tajovuzkorlik insonning tug'ma emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida orttirilgan tajovuzkor xatti-harakatlarga tayyorgarligining kuchayishi sifatida qaraladi. Sifat xususiyatlariga ko'ra, tajovuzkorlik konstruktiv va buzg'unchi o'rtasida farqlanadi. Birinchisi, mudofaa harakatlarida, qasddan zarar yetkazishda amalga oshiriladi, ijtimoiy moslashishga, to'siqlarni yengib o'tishga va yetakchilikka imkon beradi. Ikkinchisi,

boshqasiga jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlar keltirish niyatiga asoslangan konstruktiv bo'lmagan tajovuzkor harakatlar bilan ifodalanadi.

Yo'nalish nuqtai nazaridan, tajovuzkorlik boshqalarga va o'ziga qaratilgan. Shunga ko'ra, getero-agressiv – haqorat, kaltaklash, so'kinish va o'z-o'ziga zarar yetkazish yoki avto-agressiv reaksiyalar ajralib turadi. Avto-agressiyaning ekstremal versiyasi o'z joniga qasd qilishga urinishdir. Eng aniq dushmanlik harakati boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir. Boshqa mumkin bo'lgan variantlar – dushmanlik, yovuzlik, negativizm, qo'zg'alish, xafagarchilik, shubha, tahdid. O'z-o'zini boshqaradigan tajovuz aybdorlik va o'zini kamsitish hissi bilan birga keladi.

Samarali dushmanlik sizning maqsadlaringizga erishishga, shaxsiy chegaralarni, o'z e'tiqodlaringizni himoya qilishga imkon beradi. Bu ko'pchilikka xos bo'lgan nohaqlikka qarshi xususiyatdir. Agressivlikning zo'ravonligi va chastotasi individual xususiyatlarga, masalan, temperament va xarakterga, shuningdek, ijtimoiy-madaniy sharoitlarga, tasodifiy vaziyat ta'siriga bog'liq. Psixosotseal sabablar bir necha guruhlariga bo'linadi:

Situatsion. Agressiyaning bezovta qiluvchi tashqi sharoitlar va fiziologik sharoitlar qo'zg'atadi. Shunday qilib, odamlar haddan tashqari qizib ketganda, tiqilib qolgan xonada bo'lganda, shovqin, tebranishlarga uzoq vaqt ta'sir qilishda tezroq jahldor bo'lishadi. O'z-o'zini nazorat qilish stressli vaziyatda, charchoq, og'riq, jinsiy qo'zg'alish bilan zaiflashadi.

Xulq-atvor. Ushbu omillar guruhiga boshqalar tomonidan nomaqbul deb hisoblangan, mudofaa reaksiyasini keltirib chiqaradigan har qanday xatti-harakatlar kiradi. Masalan, bolaning tajovuzkorligi maqsadsiz o'yin-kulgi, mashg'ulotdan voz kechish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish – ota-onalar va o'qituvchilarning qoralanishiga olib keladigan harakatlar bilan bog'liq.

Shaxsiylik. Agressiv odamlar ko'pincha sangvinik va xolerik temperamentga ega, qo'zg'aluvchan va asotsial xarakterga ega. Dushmanlik xulq-atvori hissiy beqarorlik, asabiylashish, depressiya asosida amalga oshiriladi. Boshqa shaxsiy sabablar – o'z-o'zini hurmat qilishning yetarli emasligi, tavakkal qilishga tayyorlik va hasad.

Mikroijtimoiy. Mikroijtimoiy muhit – bu oila, maktab yoki mehnat jamoasi. Ko'pincha zo'ravonlikni kuzatadigan yoki o'zlari buni boshdan kechiradigan, haqorat, haqoratni boshdan kechiradigan odamlar tajovuzkorlikni namoyish etishga moyildirlar. Shu sababli, disfunktsiyali oilalardan chiqqan o'smirlar, huquqni muhofaza qilish organlarida ishlaydigan odamlar o'rtasida dushmanlikning yuqori darajasi aniqlanadi.

Makroijtimoiy. Agressivlikning sabablari sifatida ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarni ko'rish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida salbiy voqealar targ'ib qilinganda, e'tiborli odamlar g'ayritabiiy xatti-harakatlarni namoyish qilganda (mamlakat rahbari, vazirlar) va ular zo'ravonlik kultiga ko'tarilganda dushmanlik kayfiyati shakllanadi. Provokatsion omil ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning pastligi, davlatning moddiy yordamiga qaramlik bo'ladi.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik

xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko'rinadiki, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur fe'l-atvorni o'rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Bizning fikrimizcha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy – verbal, faol – sust va to'g'ri egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ular asosida ko'plab agressiv harakatlarni tushuntirish mumkin.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati

1. Ganjiev F.F., Qodirova M.D. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARI IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. //Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. – Buxoro. 2020.№2. – B. 109-111. (19.00.00. №7).

2. Ganjiev F.F., To'laev H.O. Researching the scope of the professional competence within activities. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –B. 388-391.

3. Ganjiev F.F., Qosimova S.B. Heads Of Competence In Psychologically School Education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -B. 2787-2789.

4. F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.

5. F.F. Ganjiev. ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЧЕЛОВЕКА В ЭКСТРЕМАЛЬНОЙ СИТУАЦИИ. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.

6. Sh.Sh.Abirqulova. O'smirlarga xos agressivlik va uning ko'rinishlari// <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/> –B. 150-158.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ganjiyev Feruz Furqatovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Buxoro davlat universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

f.ganjiyev@mail.ru

TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Rustamov Shavkat Shuxrat o'g'li,
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada, talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning o'rni va ularning ta'limiy muhitdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada ilg'or psixologik nazariyalar tahlil qilinib, innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar asoslab berilgan. Shu bilan birga, amaliy tadqiqotlar asosida psixologik treninglar va diagnostik usullarning natijalari muhokama qilingan.

MAQSAD: Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish borasida ko'plab olimlar psixologik yondashuvni nazariy asos qilib olganlar. Shular qatorida L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, shaxsning rivojlanishi tashqi ko'mak bilan yuz beruvchi faoliyatlar orqali amalga oshadi. Talabaga o'qituvchi, tengdosh yoki muhit tomonidan ko'rsatiladigan yordam ularning innovatsion salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Bu nazariyaga tayanib, talabaning psixologik holatini aniqlash, uni rag'batlantirish va mustaqil fikrlashga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Innovatsion kompetentlikning psixologik asoslari aynan shaxs rivojining ichki imkoniyatlarini faollashtirish orqali shakllanadi.

Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta'limda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat texnologik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki talabaning psixologik tayyorgarligini ham qamrab oladi. Innovatsion kompetentlik shaxsning mustaqil fikrlashi, yangilikni qabul qilishi va o'zini rivojlantirishga tayyor bo'lishi orqali namoyon bo'ladi. Talabalarda bu sifatlarni shakllantirishda o'quv muhiti, o'qituvchining munosabati va ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

XULOSA: Ta'lim muhitida ijobiy psixologik atmosfera yaratilganda, talabaning o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoqi ortadi. Innovatsion fikrlash va raqobatbardoshlikning shakllanishida ongli o'zgarishlar, psixologik barqarorlik va shaxsiy qoniqish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining roli bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi bilan bo'lgan ochiq, ishonchli munosabatlar talabaning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishda asosiy motivator bo'lib xizmat qiladi. Psixologik

ehtiyojlar inobatga olingan holda tashkil etilgan o'quv jarayoni samarali natijalarni beradi. Talabaning fikrlash doirasi kengayadi, u muammolarga yangicha yondashishni o'rganadi va o'z tashabbuslari bilan ajralib turadi. Bunday muhitda yoshlar o'zlarini qadrlangan shaxs sifatida his qilib, faollik bilan innovatsion faoliyatda ishtirok etadi.

Kalit so'zlar. Innovatsion kompetentlik, psixologik xususiyatlar, talaba, kreativ fikrlash, motivatsiya, refleksiya, emotsional barqarorlik, shaxsiy rivojlanish, psixologik tayyorgarlik, o'quv muhiti.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Рустамов Шавкат Шухратович,

доктор психологических наук (DSc), доцент

Бухарский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается роль психологических факторов в формировании инновационной компетентности студентов и их значение в образовательной среде. В статье анализируются передовые психологические теории и обосновываются эффективные подходы, которые могут быть использованы в развитии инновационной компетентности. При этом обсуждаются результаты психологических тренингов и диагностических методов, основанные на практических исследованиях.

ЦЕЛЬ: Научный анализ психологических особенностей формирования инновационной компетентности студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Многие ученые использовали психологический подход в качестве теоретической основы формирования инновационной компетентности студентов. Среди них большое значение имеет теория «зоны ближайшего развития», разработанная Л.С. Выготским. Согласно ей, развитие личности происходит через деятельность, протекающую с внешней поддержкой. Поддержка, оказываемая студенту учителем, сверстниками или окружением, способствует раскрытию его инновационного потенциала. Основываясь на этой теории, важно определить психологическое состояние студента, стимулировать его и направлять к самостоятельному мышлению. Психологические основы инновационной компетентности формируются именно за счёт активизации внутренних возможностей личностного развития.

Формирование инновационной компетентности студентов – одна из важнейших задач современного образования. Этот процесс включает в себя не только развитие технологических навыков, но и психологическую подготовку студента. Инновационная компетентность проявляется через самостоятельность мышления личности, принятие инноваций и готовность к саморазвитию. Образовательная среда, отношение преподавателя и социально-психологические факторы играют решающую роль в формировании этих качеств у студентов.

ВЫВОД: При создании позитивной психологической атмосферы в образовательной среде повышается стремление студента к саморазвитию. Осознанные изменения, психологическая устойчивость и личностная удовлетворённость важны для формирования инновационного мышления и конкурентоспособности. Роль

преподавателя в этом процессе проявляется не только как поставщика знаний, но и как психологического лидера. Открытые, доверительные отношения с преподавателем служат основным мотиватором реализации студентом собственного потенциала. Образовательный процесс, организованный с учётом психологических потребностей, даёт эффективные результаты. Мышление студента расширяется, он учится по-новому подходить к решению проблем и выделяется собственной инициативой. В такой среде молодые люди чувствуют себя ценными и активно участвуют в инновационной деятельности.

Ключевые слова. Инновационная компетентность, психологические характеристики, студент, творческое мышление, мотивация, рефлексия, эмоциональная устойчивость, личностное развитие, психологическая подготовка, образовательная среда.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF STUDENTS' INNOVATIVE COMPETENCE

Rustamov Shavkat Shukhrat o'g'li,

Doctor of Psychology (DSc), associate professor

Bukhara State University

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the role of psychological factors in the process of forming students' innovative competence and their importance in the educational environment. The article analyzes advanced psychological theories and substantiates effective approaches that can be used in the development of innovative competence. At the same time, the results of psychological training and diagnostic methods based on practical research are discussed.

THE GOAL: Scientific analysis of the psychological characteristics of the formation of students' innovative competence

MATERIALS AND METHODS: Many scientists have taken the psychological approach as a theoretical basis for the formation of students' innovative competence. Among them, the theory of the "zone of proximal development" developed by L.S. Vygotsky is of great importance. According to it, the development of a person occurs through activities that occur with external support. The support provided to a student by a teacher, peers or the environment helps to reveal their innovative potential. Based on this theory, it is important to determine the psychological state of the student, to encourage him and direct him to independent thinking. The psychological foundations of innovative competence are formed precisely by activating the internal capabilities of personal development.

The formation of innovative competence of students is one of the most important tasks in modern education. This process includes not only the development of technological skills, but also the psychological preparation of the student. Innovative competence is manifested through the individual's independent thinking, acceptance of innovation and readiness for self-development. The educational environment, the teacher's attitude and socio-psychological factors play a decisive role in the formation of these qualities in students.

CONCLUSION: When a positive psychological atmosphere is created in the educational environment, the student's desire to work on himself increases. Conscious changes,

psychological stability and personal satisfaction are important in the formation of innovative thinking and competitiveness. The role of the teacher in this process is manifested not only as a provider of knowledge, but also as a psychological leader. Open, trusting relationships with the teacher serve as the main motivator for the student to realize his own potential. The educational process, organized taking into account psychological needs, gives effective results. The student's thinking expands, he learns to approach problems in a new way and stands out with his own initiatives. In such an environment, young people feel valued and actively participate in innovative activities.

Keywords. Innovative competence, psychological characteristics, student, creative thinking, motivation, reflection, emotional stability, personal development, psychological preparation, learning environment.

*T*alabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish bugungi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashtirish, raqamli transformatsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida yosh avlodni yangicha fikrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetentlik nafaqat bilimga asoslangan, balki ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik va muammolarni innovatsion yondashuv orqali hal qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, talabalarda bu sifatlarni shakllantirishda psixologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki har qanday yangilikka ochiqlik, o'zgarishga tayyorlik va moslashuvchanlik avvalo shaxsning ichki holatiga bog'liq. Psixologik tayyorgarlik va ijtimoiy-emosional barqarorlik bo'lmagan taqdirda, talaba innovatsion vaziyatlarga passiv yondashadi. Shu sababli ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki talabaning ruhiy holatini mustahkamlash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga ham e'tibor qaratishi lozim. Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish uchun psixologik salohiyatni har tomonlama rag'batlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bu borada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim uslublari va metodlar eng samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Talabani rivojlantirishga qaratilgan har bir harakat, ularning yangilik yaratish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion kompetentlikni shakllantirishda psixologik omillarning chuqur o'rganilishi dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Talabalarning fikrlash darajasi, emotsional stabiligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri bu yo'nalishda alohida o'rin egallaydi. Psixologik xususiyatlar – bu insonning o'zini anglash, faoliyatga nisbatan munosabati va yangi sharoitlarga moslashuv qobiliyatining asosi hisoblanadi. Innovatsiyalarga ochiqlikni ta'minlash uchun talabaning ruhiy holatini muvozanatga keltirish zarur. O'quv muhitining ijobiy bo'lishi, o'qituvchining psixologik qo'llab-quvvatlashi va tengdoshlar bilan sog'lom munosabatlar talabaning psixologik salomatligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, har bir talabaga individual yondashish, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos yo'nalish tanlash motivatsiyani oshiradi. Motivatsiya kuchli bo'lgan talabalar esa innovatsion vazifalarni ijodiy va samarali tarzda bajara oladi. Psixologik yondashuv asosida shakllangan ta'lim metodikasi talabaning faolligini kuchaytiradi. Innovatsion kompetentlikning asosida esa doimiy izlanish, yangilikni qabul qilishga tayyorlik va ijodiy fikrlash yotadi. Shu bois psixologik xususiyatlarni chuqur tahlil qilgan holda bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda innovatsion kompetentlikka ega bo'lgan shaxslar muvaffaqiyat sari tezroq yetib borishmoqda. Shunday shaxslarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining psixologik muhitni shakllantirishdagi roli tobora ortib bormoqda. O'quv dasturlariga psixologik bilimlarni singdirish, talabaning o'z fikrini erkin ifoda eta olishiga imkon yaratish ham innovatsion kompetentlikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Shaxsning o'zini anglay olishi, o'z harakatlarini baholashi va ularni boshqara bilishi psixologik yetuklik belgilaridan sanaladi. Talaba o'z psixologik xususiyatlarini tushunib, ulardan foydalana oladigan bo'lsa, u yangilik yaratishda faol ishtirok etadi. Bu jarayonda muhim jihatlardan yana biri – bu o'z-o'zini rivojlantirish va o'z ustida ishlashga bo'lgan ichki ehtiyojdir. Innovatsion fikr aynan mana shunday o'zgarishga intiluvchi shaxslar ongida shakllanadi. Ta'lim muassasalari bu ehtiyojni to'g'ri yo'naltirib, talabalarga psixologik qo'llab-quvvatlovchi resurslarni taqdim etishi lozim. Shuningdek, shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar, treninglar, ijtimoiy loyiha va tadbirlar orqali bu kompetentlikni chuqurlashtirish mumkin. Demak, innovatsion salohiyatning kuchayishida psixologik muvozanat va barqarorlik asosiy tayanch hisoblanadi.

Talabalarda innovatsion kompetentlikni shakllantirish jarayoni murakkab, ammo o'ziga xos ijtimoiy va psixologik jihatlarni o'z ichiga oluvchi muhim bosqichdir. Bu jarayon davomida shaxsning tafakkuri, hissiyotlari, xatti-harakati va motivatsiyasi turli yo'nalishlarda rivojlanadi. Innovatsion tafakkurga ega shaxslar ijtimoiy muhitga tez moslashadi, yangicha g'oyalarni ilgari suradi va jamoaviy ishlarda faollik ko'rsatadi. Bunday shaxslar muammolarni an'anaviy yondashuvdan tashqarida hal qilishga intiladi, bu esa ularga zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Talabalar orasida bu ko'nikmalarni shakllantirishda o'qituvchi va psixologlarning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan shaxs uchun psixologik qo'llab-quvvatlash, motivatsiya va ijtimoiy tan olinish katta ahamiyat kasb etadi. Talabaning o'z ustida ishlashi, tajriba orttirishi va o'z salohiyatini to'g'ri yo'naltirishi uchun mos muhit va imkoniyatlar yaratilishi zarur. Har bir talaba o'zini qadrlangan, quvvatlangan va yo'naltirilgan holda his qilgandagina, u innovatsion g'oyalarga ochiq bo'ladi. Shuning uchun ham innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda psixologik jihatlari – bu ta'limning asosiy ustunlaridan biri sanaladi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar va tajribalar asosida ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish borasida ko'plab olimlar psixologik yondashuvni nazariy asos qilib olganlar. Shular qatorida L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, shaxsning rivojlanishi tashqi ko'mak bilan yuz beruvchi faoliyatlar orqali amalga oshadi. Talabaga o'qituvchi, tengdosh yoki muhit tomonidan ko'rsatiladigan yordam ularning innovatsion salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Bu nazariyaga tayanib, talabaning psixologik holatini aniqlash, uni rag'batlantirish va mustaqil fikrlashga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Innovatsion kompetentlikning psixologik asoslari aynan shaxs rivojining ichki imkoniyatlarini faollashtirish orqali shakllanadi.

Amerikalik psixolog Hovard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi ham talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir insonda turli xil aqliy qobiliyatlar mavjud bo'lib, ularning har biri alohida shakllanishi mumkin. Gardnerning ta'kidlashicha, shaxsiy qobiliyatlar, emotsional intellekt va ijtimoiy ko'nikmalar innovatsion tafakkurni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu

yondashuv asosida o'qituvchi har bir talabaga individual yondashib, ularning qaysi intellekt turi orqali samaraliroq fikrlashi mumkinligini aniqlashi zarur. Talabaning qiziqishiga mos o'quv faoliyati tashkil etilsa, u o'zining ichki psixologik resurslarini to'liq namoyon eta oladi. Shunday muhitda ijodkorlik va innovatsion yondashuvlar rivojlanib, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ham innovatsion kompetentligini rivojlantirishda bevosita bog'liq. Unga ko'ra, inson avvalo o'zining fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiylik, e'tirof va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyojlarini qondirishi kerak. Bu ehtiyojlar psixologik jihatdan qulay muhitda shakllanadi va talabaning ijodiy salohiyatini faollashtiradi. Ayniqsa, o'zini o'zi ro'yobga chiqarishga intilish, innovatsion kompetentligini rivojlantirishda asosiy psixologik omil bo'lib xizmat qiladi. Agar talaba o'z qobiliyatlarini namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lsa, u yangilik qilishga intiladi. Maslouning bu yondashuvi talabalarda motivatsiyani uyg'otish va psixologik barqarorlikni ta'minlash orqali innovatsion fikrlashga yo'l ochadi.

D.K. Kolbning tajriba asosida o'rganish nazariyasi ham innovatsion kompetentligini shakllantirishda keng qo'llaniladi. Bu nazariyaga ko'ra, talaba o'quv jarayonida o'zining shaxsiy tajribasi orqali bilim oladi, tahlil qiladi va yangi qarorlar qabul qiladi. Kolbning fikricha, faoliyat orqali o'rganish jarayonida psixologik refleksiya, ya'ni o'z fikrlarini tahlil qilish va natijalarni baholash muhim rol o'ynaydi. Innovatsion kompetentlikni shakllantirish uchun aynan mana shu reflektiv yondashuv zarur, chunki u tanqidiy tafakkurni kuchaytiradi. Talabalar o'z tajribalari asosida fikrlab, harakat qilsa, ular psixologik jihatdan yangilikka tayyor bo'lishadi. Bu nazariy model o'qituvchilar uchun talabalarni fikrlashga, mustaqil o'rganishga va ijodiy izlanishga yo'naltirishda foydali metod hisoblanadi.

Rossiyalik psixolog S.L. Rubinshteynning faoliyat nazariyasi ham innovatsion kompetentlikni psixologik tomondan asoslab beradi. Unga ko'ra, har qanday bilim va ko'nikma faoliyat jarayonida, shaxsning ichki ehtiyoji va tashqi muhit ta'sirida shakllanadi. Faoliyat orqali o'rganilgan bilimlar mustahkam bo'lib, talaba o'zini ko'rsatishga tayyor bo'ladi. Rubinshteyn fikricha, talaba o'zini faol ishtirokchi sifatida his qilsa, u o'z fikrini erkin bildiradi va ijodiy yondashishga moyil bo'ladi. Shunday psixologik muhitda innovatsion kompetentlik kuchliroq shakllanadi, chunki talabada tashabbus va mas'uliyat hissi ortadi. Bu nazariy yondashuvda psixologik tayyorgarlik – innovatsion fikrlashning zaruriy sharti sifatida qoraladi.

Yana bir muhim nazariya bu – J. Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasidir. Unga ko'ra, shaxs fikrlash jarayonlari orqali o'z bilimlarini tuzadi va ularni amaliyotda sinab ko'radi. Piage fikricha, shaxs o'zining kognitiv rivojlanish bosqichiga mos o'quv materiallari bilan shug'ullangandagina bilim samarali shakllanadi. Innovatsion kompetentligini shakllantirish uchun talabalar murakkab muammolarni hal qilish, taxmin qilish va tajriba orqali o'rganishga jalb qilinishi kerak. Psixologik yondashuv bu jarayonda shaxsning mustaqil tafakkurini qo'llab-quvvatlaydi va yangilik yaratishga yo'naltiradi. Shunday qilib, Piagening nazariyasi asosida shakllangan o'quv muhiti innovatsion tafakkur va kompetentlikni rivojlantirishda psixologik jihatdan samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, L.S. Vygotskiy, Hovard Gardner, A. Maslou, D.K. Kolb, S.L. Rubinshteyn va J. Piage tomonidan ilgari surilgan nazariyalar talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda psixologik omillar hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab beradi. Bu nazariyalarda shaxsning individual rivojlanishi, faoliyatga asoslangan o'rganish, emotsional

ehtiyojlarni qondirish, refleksiya va ijodiy fikrlash orqali yangilikka ochiqlikni shakllantirishga urg'u berilgan. Talabaning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish va psixologik jihatdan qulay muhit yaratish orqali innovatsion kompetentlik izchil rivojlantiriladi.

Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta'limda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat texnologik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki talabaning psixologik tayyorgarligini ham qamrab oladi. Innovatsion kompetentlik shaxsning mustaqil fikrlashi, yangilikni qabul qilishi va o'zini rivojlantirishga tayyor bo'lishi orqali namoyon bo'ladi. Talabalarda bu sifatlarni shakllantirishda o'quv muhiti, o'qituvchining munosabati va ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi va tashabbuskorligi, innovatsion g'oyalarga ochiqligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, innovatsion kompetentlikni shakllantirishda psixologik yondashuv muhim asos hisoblanadi.

Psixologik jihatdan barqaror va o'ziga ishongan talaba murakkab muammolarni hal qilishda faol va samarali ishtirok etadi. Innovatsion fikr yuritish, yangi loyihalar yaratish va jamoaviy ishlarda yetakchilik qilish kabi faoliyatlar psixologik salohiyatni talab qiladi. Agar talaba stressga chidamli, emotsional barqaror va ijobiy fikrlovchi bo'lsa, u har qanday o'zgarishga tez moslashadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida talabalarni nafaqat bilim bilan, balki psixologik jihatdan ham quvvatlash zarur. Maxsus treninglar, psixologik mashg'ulotlar va motivatsion suhbatlar bu yo'nalishda katta ahamiyatga ega. Psixologik tayyorgarlik innovatsion kompetentlikning chuqur ildiz otishi uchun zarur shartlardan biridir.

1. Jadval

Tadqiqot bosqichi	Maqsad	Tadqiqot usullari	Tadqiqot obyekti	Kutilayotgan natija
Diagnostic bosqich	Talabalarning mavjud psixologik holati va innovatsion salohiyatini aniqlash	So'rovnoma, psixologik testlar, suhbat	Bakalavr bosqichidagi talabalar	Talabaning psixologik holati, yangilikka ochiqlik darajasi, reflektiv fikrlash darajasi aniqlanadi
Maqsadli tahlil bosqichi	Diagnostika natijalarini tahlil qilish va muammoli nuqtalarni aniqlash	Statistik tahlil, grafik va matritsa usullari	Avval aniqlangan guruh talabalari	Innovatsion kompetentlikni shakllantirishga to'sqinlik qilayotgan psixologik omillar aniqlanadi
Eksperimental bosqich	Psixologik rivojlantiruvchi treninglar orqali kompetentlikni faollashtirish	Trening mashg'ulotlari, rolli o'yinlar, motivatsion suhbatlar	Tajriba va nazorat guruhi talabalari	Tajriba guruhida innovatsion kompetentligining o'sishi kuzatiladi
Refleksiya bosqichi	Ishtirokchilarning o'zgarishlarini	Yozma refleksiya,	Trening ishtirokchilari	Talabalarda o'z-o'zini anglash,

	tahlil qilish va fikrlarini aniqlash	suhbat, o'zini baholash varaqasi		o'zgarishlarga tayyorgarlik va o'z fikriga ishonch ortadi
Yakuniy baholash bosqichi	Umumiy natijalarni taqqoslash va xulosalash	Old va keyingi natijalarni solishtirish, ekspert bahosi	Tajriba va nazorat guruhi	Innovatsion kompetentlik psixologik tayyorgarlik orqali rivojlanishini isbotlash

O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ishonchli va ochiq muloqot talabaning psixologik holatiga bevosita ta'sir qiladi. Agar o'qituvchi talabaning fikrini tinglasa, uni qadrlasa va har bir yutuqni e'tirof etsa, bu talabada o'z qadr-qimmatini anglash hissini shakllantiradi. Shunday holatda talaba yangilik taklif qilishdan cho'chimaydi, balki o'z g'oyasini ilgari surishda faol bo'ladi. Psixologik qo'llab-quvvatlash bo'lmagan muhitda esa innovatsion kompetentlik sust rivojlanadi. Demak, ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhit yaratish orqali talabalar salohiyatini ochib berish mumkin. Buning uchun esa har bir talabaning individualligini tan olish va unga mos rivojlantiruvchi sharoit yaratish lozim.

Innovatsion kompetentligini shakllantirishda psixologik motivatsiya yetakchi omillardan biri sifatida qaraladi. Motivatsiyasiz o'quvchi passiv bo'ladi, o'z salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi. Psixologik motivatsiya orqali esa talaba o'z maqsadini anglaydi, unga erishish uchun izlanadi va harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida innovatsion tafakkurni rivojlantirish, yangicha yondashuvlar yaratish va natijalarga erishishda muhim omilga aylanadi. Ta'limda motivatsiyani oshirish uchun mustaqil loyiha ishlari, interaktiv mashg'ulotlar va amaliyot asosidagi yondashuvlar juda muhimdir. Innovatsion kompetentlikni samarali shakllantirish uchun esa bu metodlarning psixologik asoslarini chuqur o'rganish lozim.

Shuningdek, psixologik moslashuvchanlik ham talabaning innovatsion salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Har qanday o'zgaruvchan muhitga tez moslasha oladigan, ijtimoiy jihatdan faol va o'zini anglaydigan shaxs innovatsion kompetentlikni tezroq egallaydi. Bunday ko'nikmalarni shakllantirishda guruhli mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va tanqidiy fikrlash mashqlari yordam beradi. Psixologik moslashuvchanlikni rivojlantirish orqali talabalar har xil sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi. Bu esa o'z navbatida ularni kelajakdagi murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Innovatsion kompetentlik faqat texnik bilim emas, balki psixologik tayyorgarlik bilan chambarchas bog'liq ko'p qirrali sifatdir.

Yakuniy jihatdan aytish mumkinki, innovatsion kompetentligini shakllantirish uzluksiz va murakkab psixologik jarayondir. Bu jarayon davomida shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalar, emotsional barqarorlik va mustaqil fikrlash kabi omillar bir-birini to'ldiradi. Har bir talaba o'zining psixologik imkoniyatlarini anglab, ulardan foydalana olgandagina haqiqiy innovatorga aylanishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi bu jarayonda talabalarning ruhiy salomatligini ham rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Innovatsion kompetentlikni psixologik asosda rivojlantirish – bu nafaqat bilim, balki shaxsiyat tarbiyasi bilan bog'liq murakkab jarayondir. Shu sababli bu yo'nalishda izchil va tizimli ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarining innovatsion kompetentligini shakllantirish psixologik yondashuv orqali samarali amalga oshiriladi. Bu jarayonda talabaning ichki motivatsiyasi, qiziqishlari va mustaqil fikrlashi asosiy o'rin egallaydi. Innovatsion kompetentlikni shakllantirishda psixologik barqarorlik, ijodiy yondashuv va yangilikka ochiqlik muhim ahamiyatga ega. Talabalarga erkin fikrlash, muammolarni mustaqil hal etish va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratilishi zarur. Shuningdek, emotsional intellekt va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ham bu yo'nalishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va tashabbus ko'rsatishga rag'batlantirish kerak bo'ladi. Psixologik qo'llab-quvvatlash va o'zini anglashga yordam beruvchi metodlar bu jarayonda katta rol o'ynaydi. Har bir talabaning psixotipi va o'ziga xos xulq-atvori e'tiborga olinib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llanilishi tavsiya etiladi. Mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish orqali talabalarda yangilik yaratishga intilish kuchayadi. Bu holat esa, innovatsion fikrlashning shakllanishida mustahkam psixologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion kompetentligini shakllantirishda shaxsiy motivatsiya va tashqi omillar o'rtasidagi muvozanat muhim hisoblanadi. Talabalarda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat, o'zlashtirish jarayonida o'ziga bo'lgan ishonch va natijaga erishishga intilish – bularning barchasi psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Psixologik jihatdan sog'lom va barqaror talaba o'z fikrini ochiq bildiradi, tashabbus ko'rsatadi va jamoa ichida yetakchilik qobiliyatlarini namoyon eta oladi. O'qituvchilar ushbu psixologik holatni aniqlab, mos metodlar bilan ularni rivojlantirishga ko'maklashishi kerak. Innovatsion fikrlash jarayonida stressga bardoshlilik, moslashuvchanlik va muloqotga tayyorlik eng zarur psixologik xususiyatlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, talabalarining o'z shaxsini anglash darajasi oshgan sari ular bilimni chuqurroq o'zlashtira boshlaydi. Psixologik qo'llab-quvvatlovchi treninglar, rolli o'yinlar va kreativ topshiriqlar orqali bu ko'nikmalarni mustahkamlash mumkin. Talabaning o'z qobiliyatlarini kashf etishga bo'lgan ehtiyoji – bu psixologik o'sish belgisi hisoblanadi. O'zini anglagan va o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan talaba innovatsiyalarga tayyor bo'ladi. Natijada, innovatsion kompetentligini shakllantirishda psixologik tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanish muhim bosqichlar bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda ularning psixologik ehtiyojlari, ruhiy holati va shaxsiy qiziqishlari inobatga olinishi kerak. Har bir talaba o'zining ichki dunyosi, shaxsiy tajribasi va hissiy holati orqali yangilikni qanday qabul qilishini belgilaydi. Psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlangan sharoitda talaba yangilikdan qo'rqmaydi, balki unga intiladi. Bunday muhitda o'zini erkin his qilgan yoshlar, yangi bilimlarni qiziqish bilan o'zlashtiradi. Ularning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va qaror qabul qilish qobiliyati tobora rivojlanib boradi. Psixologik mustahkamlovchi omillar – bu ishonch, qadrlanish hissi va erkin ifoda imkoniyatidir. Har bir shaxsga individual yondashish orqali ularning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish osonlashadi. Psixologik motivatsiya kuchli bo'lgan talaba innovatsion muhitga moslashadi va faol ishtirok etadi. Innovatsion kompetentligini shakllantirishda doimiy psixologik tahlil va baholash ishlari olib borilishi zarur. Natijada, talabalarining bilim olish jarayoni mazmunli bo'lib, ular o'zlarining shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon eta oladi.

Ta'lim muhitida ijobiy psixologik atmosfera yaratilganda, talabaning o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoqi ortadi. Innovatsion fikrlash va raqobatbardoshlikning shakllanishida ongli o'zgarishlar, psixologik barqarorlik va shaxsiy qoniqish muhim

ahamiyatga ega. O'qituvchining roli bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi bilan bo'lgan ochiq, ishonchli munosabatlar talabani o'z salohiyatini yuzaga chiqarishda asosiy motivator bo'lib xizmat qiladi. Psixologik ehtiyojlar inobatga olingan holda tashkil etilgan o'quv jarayoni samarali natijalarni beradi. Talabani fikrlash doirasi kengayadi, u muammolarga yangicha yondashishni o'rganadi va o'z tashabbuslari bilan ajralib turadi. Bunday muhitda yoshlar o'zlarini qadrlangan shaxs sifatida his qilib, faollik bilan innovatsion faoliyatda ishtirok etadi. Psixologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim metodikasi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashganda yuqori natijalar beradi. Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish uchun bu ikki yo'nalish – psixologik rivojlanish va zamonaviy yondashuvlar uzviy bog'liq holda qaraladi. Shunday qilib, talabani psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish, ularning innovatsion salohiyatini to'liq ochib berishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rustamov Sh.Sh. "Amaliyotchi psixologlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2022. – 74 b
2. Rustamov Sh.Sh. "Talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari" mavzusidagi dissertatsiya ishida mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2024. – 59 b.
3. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to'plami: amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. - T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. – 94 b.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik. Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini ta'minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent: TDPU, 2010. - B. 114-118.
5. Бабанский Ю.К. Педагогика высшей школы: Учеб. пособие для унтови педагогически хинтов. Алма-Ата, 2001. – 176 с.
6. Ананев Б.Г. О человеке как объекте и субъекте воспитания Избр. психол. тр.: В 2 т. - М.: Педагогика, 1980. - 160 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]


Rustamov Shavkat Shuxrat o'g'li,

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxoro davlat universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

TALABALAR O'QUV MOTIVATSIYASIGA QADRIYAT YO'NALGANLIGI TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Djumaniyazova Muxayya Xusinovna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyat yo'nalganligi ta'sirining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishning ijtimoiy psixologik masalalari muhokama qilingan.

MAQSAD: Talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyat yo'nalganligi ta'sirining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: O'zbek psixologlaridan M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev, R.I.Sunnatova, S.Jalilova, F.Haydarov, Z.T.Nishonovalar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, o'quvchi shaxsini psixologik jihatdan rivojlantirish masalalarini o'rganganlar. Jumladan, M.G.Davletshin o'z tadqiqotlari doirasida talabalarning o'qish faoliyatidagi ko'nikma va malakalarini hosil bo'lishi, psixik qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini, A. K. Saitova o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'qish motivlari va qadriyatlarini, E.Z.Usmonova esa o'quv faoliyatidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolarini o'rganganlar.

XULOSA: Qadriyat yo'nalishlari tizimi shaxs yo'naltirilganligining mazmun jihatlarini belgilab berishi va uning atrofdagi olamga, boshqa insonlarga, uning o'ziga bo'lgan munosabatlari asoslari, o'z dunyoqarashi asosi va hayotiy faolligi motivatsiyasi o'zagini, hayotiy konsepsiyasi hamda hayot falsafasining asoslarini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: talaba, o'quv, ijtimoiy psixologiya, siyosat, global munosabat, qadriyat, motivatsiya, jarayon, ta'lim

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ВЛИЯНИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ НА МОТИВАЦИЮ СТУДЕНТОВ К УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Джуманиязова Мухайя Хусиновна
Доктор психологических наук (DSc), профессор
Ургенчский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются социально-психологические вопросы совершенствования психологических механизмов влияния ценностных ориентаций на мотивацию к обучению студентов.

ЦЕЛЬ: Научно проанализированы социально-психологические особенности совершенствования психологических механизмов влияния ценностных ориентаций на мотивацию к обучению студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Узбекские психологи М.Г. Давлетшин, Б.Р. Кодиров, Э.Г. Гозиев, Р.И. Суннатова, С. Джалилова, Ф. Хайдаров, З.Т. Нишоновна изучали вопросы дальнейшего совершенствования системы образования и психологического развития личности студента. В частности, М.Г. Давлетшин в рамках своего исследования рассматривал вопросы формирования у студентов умений и компетенций в учебной деятельности, развития умственных способностей, А.К. Саитова – мотивы и ценности учащихся подросткового возраста в учебе, а Э.З. Усманова изучала в своих исследованиях противоречия, мотивацию, креативность и проблемы личности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Система ценностных ориентаций определяет содержательную сторону направленности человека и является основой его отношения к окружающему миру, к другим людям, к себе, основой его мировоззрения и ядром мотивации жизнедеятельности, основой его жизненной концепции и жизненной философии.

Ключевые слова: студент, учёба, социальная психология, политика, мировоззрение, ценность, мотивация, процесс, образование

IMPROVING THE PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE INFLUENCE OF VALUE ORIENTATION ON STUDENTS' MOTIVATION TO STUDY

Djumaniyazova Mukhaiya Khusinovna

Doctor of Psychology (DSc), Professor

Urgench State University

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the socio-psychological issues of improving the psychological mechanisms of the influence of value orientation on students' motivation for learning.

THE GOAL: The socio-psychological features of improving the psychological mechanisms of the influence of value orientation on students' motivation for learning are scientifically analyzed.

MATERIALS AND METHODS: Uzbek psychologists M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, E.G. Goziyev, R.I. Sunnatova, S. Jalilova, F. Khaidarov, Z.T. Nishonova studied the issues of further improving the education system and psychological development of the student's personality. In particular, M.G. Davletshin, within the framework of his research, examined the issues of the formation of students' skills and competencies in their educational activities, the development of mental abilities, A. K. Saitova studied the motives and values of adolescent students in their studies, and E.Z. Usmanova studied the contradictions, motivation, creativity and personality problems in their studies.

CONCLUSION: The system of value orientations determines the content aspects of a person's orientation and is the basis of his relationship to the world around him, to other people,

to himself, the basis of his worldview and the core of his motivation for life activity, the basis of his life concept and philosophy of life.

Keywords: student, study, social psychology, politics, global attitude, value, motivation, process, education

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida taraqqiyotning zamonaviy bosqichida globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi ijtimoiy, siyosiy, moddiy, ma'naviy, huquqiy, iqtisodiy hamda etnopsixologik munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, shaxsning ta'lim motivatsiyasi va qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayoniga bevosita ta'sir etuvchi omilga aylanmoqda. Dunyo bo'yicha qadriyatlarni tahlil qilish Assotsiatsiyasi (The World Values Survey Association, WVSA¹⁶) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarida aniqlangan yoshlarning qadriyatlaridagi tafovutlarni va ta'lim jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, inson qadriyatlari bilan o'quv faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq amaliy muammolarni hal qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. PISA¹⁷ (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarining dastlabki ko'rsatkichlariga ko'ra, qadriyatlarga asoslangan motivatsion yondashuvni qo'llaydigan oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'zlashtirish darajasi 1,5-2 barobarga oshganligi qayd etilgan. Talabalarni kelajakdagi kasbga tayyorlash muayyan muammoni hal qilish kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g'urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarurligi qayd etilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, IT texnologiyalar, ma'naviyat, san'at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun hech narsani ayamasdan, bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2024-yil 20-noyabr kuni bo'lib o'tgan majlisida: «Bugun faqat mana shunday ilg'or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo'lida birlashgan xalqqa ega bo'lgan davlatgina o'z milliy manfaatlarini ta'minlashga erisha oladi. Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri – iqtisodiyot, biri – ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq – iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi», – deb ta'kidladilar¹⁸.

Inson qadriyatlariga bog'liq muammolar inson va jamiyatni o'rganuvchi fanlar uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu avvalo, qadriyatlar nafaqat alohida bir shaxs uchun har qanday ijtimoiy guruh, millat va butun insoniyat uchun integratsiyalashgan asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Qadriyat yo'nalishlari – shaxs ongi tarkibining eng muhim komponenti bo'lib, u atrof-muhitni idrok etish, jamiyat va ijtimoiy guruhga munosabat, insonning o'z-o'zini tasavvur qilishi kabi jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shaxs tuzilmasining elementi sifatida ular ehtiyoj va maqsadlarni qondirish uchun ichki tayyorgarligini aks ettiradi, shuningdek, barcha faoliyat sohalaridagi xatti-harakatlariga yo'nalish beradi.

¹⁶ <https://www.worldvaluessurvey.org/wvs.jsp>

¹⁷ <https://www.oecd.org/>

¹⁸ <https://uza.uz/posts/659139>

O'zbek psixologlaridan M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev, R.I.Sunnatova, S.Jalilova, F.Haydarov, Z.T.Nishonovalar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, o'quvchi shaxsini psixologik jihatdan rivojlantirish masalalarini o'rganganlar. Jumladan, M.G.Davletshin o'z tadqiqotlari doirasida talabalarning o'qish faoliyatidagi ko'nikma va malakalarini hosil bo'lishi, psixik qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini, A. K. Saitova o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'qish motivlari va qadriyatlarini, E.Z.Usmonova esa o'quv faoliyatidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolarini o'rganganlar.

M.G.Davletshin, S.X.Jalilovalar hozirgi zamon ta'limining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilaganlar:

A. Ta'limning har bir darajasini uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida anglash. Mazkur yo'nalish faqatgina maktab va oliy o'quv yurti o'rtasidagi muammolarni hal qilishnigina emas, balki talabalarning kasbiy tayyorligini oshirish uchun zarur vazifalarni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasasi bilan mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati o'rtasidagi aloqani ham ko'zda tutadi.

B. "Ta'limni industrialashtirish", ya'ni kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish asosida yoshlarning intellektual faoliyatini yanada kuchaytirish.

D. Hozirgi paytgacha ta'lim berishda ustuvor va samarali hisoblangan axborot berish shakllaridan faol o'qitish shakllari va metodlariga o'tish. Bu yo'nalish "Xotira maktabi"dan "tushunish maktabi", "Tafakkur maktabi"ga o'tishdan iborat.

E. O'quv tarbiya jarayonni boshqarishning qat'iy belgilangan tartibdagi nazorat usullarini rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, takomillashtiruvchi va o'yin usullariga almashtirish orqali ta'lim oluvchilarning tashkiliy-ijodiy, mustaqil faoliyatini qo'llab quvvatlash va uni rivojlantirishni taqozo etadi.

F. Ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ijobiy pedagogik ta'sirini tashkil etish, talabalarning birgalikdagi guruhviy faolligini oshirish zaruriyati. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o'tkaziladi [1].

G. G'.G'oziyev tomonidan ham o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, talabalarning ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar o'rganilgan. Uning tadqiqotlarida ta'lim jarayonini boshqarishda xorijiy tadqiqotlar, o'quvchi shaxsi va uning intellektual taraqqiyoti kabi muammolar tadqiq etilgan bo'lib, olim tafakkur muammosini keng doirada talqin qilinib, tafakkurni yoshga xos rivojlanish ko'rsatkichlarini ilmiy- tadqiqot natijalari asosida yoritib berilgan[11]. Barchaga yaxshi ma'lumki, talabalarning yetakchi faoliyati o'qish faoliyati hisoblanadi.

O'quv faoliyati orqali mutaxassislar tayyorlashning asosiy maqsadlariga erishiladi. O'qish faoliyati talabaning psixik jarayonlariga mos xususiyatlari rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qish ijodga aylansa bu talabalarning hissiy- emotsional sohasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bilish jarayonlarini (diqqat va xotirasini) rivojlantiradi, qoniqish hissini yuzaga keltiradi, faoliyatga nisbatan qiziqishi ortadi.

A.A.Abdurazzoqov va E.P.Nazirovlarning o'tkazgan tadqiqotlarida esa birinchi va ikkinchi bosqichda talabalarda fanlardan beriladigan vazifalarga qiziqish kuchli bo'ladi. Yuqori bosqichga kelib auditoriyadan tashqari va mutaxassislikka bog'liq fanlarni chuqur o'rganishga qiziqish yanada ortadi. Shuning uchun talabalarning o'quv faoliyatini yanada rivojlantirishda ularning bu xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir [3].

A.X.Ruxiyeva “Talabalar o’quv faoliyatida o’z-o’zini boshqarishning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida umumlashgan o’quv faoliyatining usullari orqali o’quv faoliyatini boshqarish deganda maqsadga yo’naltirilgan, rejalashtirilgan, nazorat qilinadigan sistemalashtiriladigan, tashkil qilinadigan mustaqil bilim olishga qodir bo’lgan faoliyatni tushuniladi, deya ta’rif beradi. Tadqiqotda o’z-o’zini boshqarishning barcha komponentlarining tarkibiy qismi xususiyatlarga ega bo’lish professional qiziqishini, faoliyatni amalga oshirishda uchraydigan to’siqlarni yengish orqali talaba o’quv faoliyati subyektiga aylanishi isbotlangan[2].

R.I.Sunnatova o’zining ilmiy izlanishlarida shaxsning o’z-o’zini boshqarishi va tafakkur operasiyalari muammosini tadqiq qilgan bo’lib, ta’lim muassasalarida o’qitish jarayonini to’g’ri tashkil qilish va uni shaxs rivojlanishiga ta’sir masalalari chuqur tadqiq etilgan[5]. Shuningdek, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorligi, ularni ta’lim jarayoniga moslashish xususiyatlari va psixik rivojlanish masalalari atroflicha o’rganilgan.

Z.T.Nishonova o’zining olib borgan tadqiqotlarida aynan o’smirlik davrida o’quv faoliyati masalalarini chuqur yoritilib, mazkur jarayonga tafakkur sifatlarini rivojlanishi bilim egallashning asosi ekanligini tadqiqot natijalarida asoslab bergan[4].

F.I.Xaydarov tomonidan o’quv faoliyati motivlari masalalari o’rganilgan bo’lib, ular o’z izlanishlarida qishloq va shahar maktablari o’quvchilarining o’qish motivlarini rivojlanishini qiyosiy tahlil qilganlar [8].

A.A.Fayzullayev ehtiyojning motivga aylanishi uchun uni amalga oshirishning o’zi yetarli emas, deb hisoblaydi. Uning izchil konsepsiyasiga ko’ra, motiv o’z shakllanishida uch bosqichdan o’tadi:

- 1) motivatsiyaning paydo bo’lishi;
- 2) motivatsiyani anglash;

3) shaxs tomonidan ongli turtkini motiv sifatida qabul qilish. Unga ko’ra, ongsiz, anglanmagan motiv bo’lishi mumkin emas. Inson faoliyatga undaydigan ichki ta’sirni anglashi bilan birga, uni baholashi, rad etishi, bostirishi, ya’ni uni xatti-harakatining motivi sifatida qabul qilmasligi ham mumkin [6].

A.A.Fayzullayev motivni shaxs tomonidan ongli qabul qilingan ta’sir deb belgilaydi. Boshqa olimlar ongli va ongsiz motivlarni ajratib ko’rsatadilar. Olimning tadqiqotlariga ko’ra, anglanmagan, yaxshi anglanmagan va aniq anglangan motivlar mavjud. A.A.Fayzullayev fikricha, biz haqiqatan ham yuzaga kelgan motivlarimiz va intilishlarimizni ongimiz yordamida (o’z-o’zini bilishga qaratilgan) xulq-atvor motivatsiyasining turli darajalariga duch kelishimiz mumkin” [7].

Motivatsiya subyektiv ravishda aks ettirilgan omillar tizimi sifatida shaxsning ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, intilish va istaklari, niyati, maqsadi, qadriyatlar tizimi, ya’ni avtomatik ravishda amalga oshiriladigan faoliyat yo’nalishlari, haqiqiy ongli xatti-harakatlar va ideal intilishlarni o’z ichiga oladi. Motivatsiya ham barqaror, ham vaziyatni, ham beqarorlikni hisobga oladi[10].

Qadriyat yo’nalishlarining o’ziga xosligi shundaki, bu kategoriya shaxsning xatti-harakatlari bilan yaqin bog’liq bo’lib, ularni ongli harakat sifatida boshqaradi. Qadriyat yo’nalishlari – shaxsning obyektiv hayot sharoitlariga subyektiv munosabatini ifodalaydigan maxsus tuzilgan va iyerarxialashgan qadriyat tasavvurlari tizimidir. Ular insonning amaliy xatti-harakatida o’z ifodasini topadi va qarorlar qabul qilishda aniq ta’sir ko’rsatadi. Qadriyat

yo'nalishlari shaxsning asosiy, bazaviy xususiyati, ijtimoiy sifati hisoblanadi.

Qadriyat yo'nalishi uch komponentni o'z ichiga oladi:

1. Kognitiv yoki ma'noli komponent – bu shaxsning ijtimoiy tajribasini o'zida mujassam etadi. Uning asosida voqelikni ilmiy anglash amalga oshiriladi va bu qadriyatlarga nisbatan munosabatni shakllantirishga yordam beradi;

2. Emotsional komponent – bu shaxsning ushbu qadriyatlarga bo'lgan munosabatini his qilishni nazarda tutadi va bu munosabatning shaxsiy ma'nosini belgilaydi;

3. Xulq-atvor komponenti – birinchi ikki komponentning o'zaro ta'siri natijalariga asoslanadi. Voqelikni anglash va unga bo'lgan qadriyatlarga oid his-tuyg'ular orqali shaxsda rejaga muvofiq harakat qilishga tayyorgarlik shakllanadi[9].

Qadriyat yo'nalishlari shaxsning rivojlanish jarayonida ichki va tashqi o'zaro ta'sirning natijasi sifatida shakllanadi va obyektiv dunyoning aniq bir shaxs ongida subyektiv aks etishi hisoblanadi. Ongli ravishda qabul qilingan qadriyatlar, shaxsning yo'nalishini belgilash va ijtimoiy muhitda o'zini tutishini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Talabanning qadriyat yo'nalishlari asta-sekin uning ijtimoiylashuvi jarayonida, ijtimoiy ma'lumotlarning ular shaxsiy-psixologik dunyosiga kirishi orqali shakllanadi. Qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish shaxs rivojlanish jarayonini ifodalaydi va bu tizim ma'lum ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Qadriyat yo'nalishining mexanizmi quyidagi tarzda amalga oshiriladi: ehtiyoj, qiziqish, ustanovka, qadriyat yo'nalishi. Qiziqish ongli ehtiyojni ifodalaydi; ustanovka – bu shaxsning ijtimoiy tajribasi asosida ba'zi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ma'lum bahoga moyilligi va ushbu bahoga muvofiq harakat qilishga tayyorligi. Qadriyat yo'nalishi ong va shaxsning xulq-atvoriga umumiy yo'nalish sifatida qabul qilinadi. Qadriyat yo'nalishlari ong yoki ongsizlik tomonidan belgilanadi va shaxsiy tajriba orttirish jarayonida shakllanadi. Ular shakllangan holatda, shaxs yo'nalishini belgilaydigan va uning xatti-harakatlaridagi tanlovni aniqlaydigan individual iyerarxik qadriyatlar majmuasini tashkil etadi[3].

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologiyasiga ta'sir qilmasligi mumkin emas. Bunday vaziyatda talaba shaxsining motivatsion sohasini hisobga olishga qaratilgan yangi ta'lim strategiyasiga ehtiyoj yaqqol namoyon bo'ladi. Motivatsiya inson hayotida, birinchi navbatda, har qanday harakatning semantik yadrosi sifatida alohida rol o'ynaydi. Buni xulq-atvor va kasb tanlash motivlarini shakllantirish bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida ham ko'rish mumkin. Talabalarning o'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish juda muhimdir, chunki ularning o'qishga bo'lgan munosabati, o'quv samaradorligi, qiziqishi va keyinchalik kasbiy mahorati bunga bog'liq.

Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, talabalardagi o'quv motivatsiyasi hamda qadriyatlar yo'nalishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangani bois, o'quv motivatsiyasini yuzaga keltirishda yetakchi deterministik omillardan biri bo'luvchi rivojlanish darajasini ham ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Universitetda o'qish motivatsiyasini bosqichlar kesimi bo'yicha farqlari solishtirilganda «diplom olish» shkalasi bo'yicha sinaluvchilarning natijalari o'rtasida ahamiyatli farqlar qayd etilmadi ($U=54951$; $p>0,05$). Bundan ma'lum bo'ladiki, bosqichlar tafovutidan qat'iy nazar, talabalarda universitetda o'qishdan maqsad bilim olish bilan bir qatorda o'qishni muvaffaqiyatli yakunlagan holda diplomni olish hisoblanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

T.I.Ilinaning «Universitetda o'qish motivatsiyasini o'rganish» metodikasining bosqichlar kesimidagi natijalar tahlili (Mann Uitni mezon bo'yicha n=694)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	1-bosqich (n=323)	4-bosqich (n=371)	U	p
Bilim olish	286,24	400,83	40129,500	0,000**
Kasb egallash	321,68	369,98	51576,500	0,001**
Diplom olish	349,10	360,88	61951,000	0,058

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Bilim olish» shkalasi bo'yicha 4-bosqich talabalarida ustunlik kuzatilib, 1-bosqich talabalarining o'quv muhitiga endi moslashuv davri hisobiga ularda bilimdan ko'ra moslashish motivatsiyasi baland bo'lishi anglashiladi. 4-bosqich talabalarida esa bilim olish asosan yillar davomida to'plangan hamda yetmay qolgan jihatlarni kompensatsiya qilish hisobiga ko'proq ilmga ega bo'lish bilan tavsiflanishi mumkin ($U=54951$; $p < 0,01$). «Kasb egallash» motivatsiyasi bo'yicha ham 4-bosqich talabalarida ustunliklar qayd etildi. Ularda o'quv yilining yakuni hamda katta hayot oldida turganliklarini his qilganlari bois, ilmiy-nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash zarurati baland bo'lgani hisobidan kasb egallash motivatsiyasida ustunliklar kuzatilgan bo'lishi mumkin. Shu bois, o'quv motivatsiyasini shakllantirishda talabalarda karyera markazlari faoliyatini nazariy bilimlar bilan bog'lash, dars davomida kasb bo'yicha to'liqroq tasavvur uyg'otish uchun turli treninglar tashkil etish lozimligi anglashilmoqda.

2-jadval.

T.I.Ilinaning «Universitetda o'qish motivatsiyasini o'rganish» metodikasi ta'lim shakliga ko'ra natijalar tahlili (Mann Uitni U-mezon bo'yicha n=694)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Kunduzgi (n=423)	Sirtqi (n=271)	U	p
Bilim olish	320,70	389,33	45981,5	0,000**
Kasb egallash	338,24	361,96	53399	0,125
Diplom olish	346,88	348,47	57053,5	0,918

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Universitetda o'qish motivatsiyasining o'rganish»ning ta'lim shakliga ko'ra, tafovutlari ham o'rganilganda «bilim olish» motivatsiyasi kunduzgi ta'lim shaklidagi talabalarga nisbatan sirtqi ta'lim shaklidagi talabalarda yuqoriroq ko'rsatkichni qayd etgani ma'lum bo'ladi ($U=45981,5$; $p < 0,01$).

Bu jihat ko'pincha sirtqi ta'lim shaklidagi talabalarining ilmga chanqoqligi qisqa muddat mobaynida davom etishi hisobiga ta'lim sharoitlariga ekstremal tarzda moslashish, shuningdek, bir varakayiga ko'proq bilimlarni o'zlashtirish ehtiyoji bilan ham baholanishi mumkin. Shu bois, ularda qisqa muddatga bo'lsa ham bilim olish darajasi balandroq natijani qayd etgan bo'lishi mumkin. «Kasb egallash» ($U=53399$; $p > 0,05$) hamda «diplom olish» ($U=57053,5$; $p > 0,05$) ko'rsatkichlarida esa, ta'lim shaklining ahamiyati birlamchi emasligi ma'lum bo'lgani holda, faoliyat turining o'xshashligi sababidan talabalarda asosiy motivatsiya

bilim asnosiga qurilgan kasb hamda diplomli bo'lish istagi yana bir bor oydinlashadi (2-jadvalga qarang).

3-jadval.

T.I.Ilinaning «Universitetda o'qish motivatsiyasini o'rganish» metodikasining oliyog' turiga ko'ra natijalar tahlili (Mann Uitni U-mezoni bo'yicha n=694)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Davlat (n=469)	Xususiyy (n=225)	U	P
Bilim olish	387,19	264,77	34147,5	0,000**
Kasb egallash	353,28	335,46	50053,5	0,269
Diplom olish	374,18	291,88	40247,5	0,000**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Universitetda o'qish motivatsiyasi»ning ta'lim tashkiloti turi bo'yicha farqlari solishtirilganda «kasb egallash» ta'lim tashkiloti turiga bog'liq bo'lmasligi ma'lum bo'ldi ($U=50053,5$; $p>0,05$). Kasb egallash har bir shaxs uchun muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lgani bois, qadriyatlar tizimida o'zini yuksaltirish, ijtimoiy statusini oshirish omili bo'lib xizmat qiladi. «Bilim olish» davlat ta'lim muassasalari talabalarining o'qish motivatsiyasida yuqoriroq ko'rinish olib, ularda kasbni egallash uchun ko'proq ter to'kish lozimligi real-ratsional his qilinayotganidan dalolat beradi ($U=34147,5$; $p<0,01$). «Diplom olish» motivatsiyasi ham davlat ta'lim muassasalari talabalarining motivlar piramidasida yetakchilik qilgani holda, diplom mutaxassislikni egallash kafolati sifatida idrok qilinganini anglatishi mumkin ($U=40247,5$; $p<0,01$).

Yuqoridgi nazariy va emperik tahlillardan kelb chiqib, quyidagicha **xulosalar** qilib mumkin:

1. Talabalar o'quv faoliyati motivatsiyasining semantik xarakteriga ko'ra, birinchi bosqich talabalarining ta'lim muhitiga moslashuviga bog'liq ravishda kasbiy tasavvurlarni noaniqligi, to'rtinchi bosqich talabalarida esa professional pozitsiyasining shakllanishiga asoslanib, kasb egallash va bilim olish motivining identiv namoyon bo'ladi;

2. Talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyatlar yo'nalishining terminal hamda instrumental ta'siri natijasida kasb egallash va diplomli bo'lish motivatsiyasining integral birligining o'zaro uyg'unligiga asoslanib, shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish zarurati xulq-atvor komponentining dinamik namoyon bo'lishiga olib keluvchi pedagogik-psixologik prediktor xisoblanadi;

3. Talabalar o'quv motivatsiyasining qadriyatlar yo'nalganligi modelida ta'lim shakli, turi, bosqichiga ko'ra professional gedonizm, konformistik layoqat, o'zini realizatsiya qilish motivatsiyasining barqaror namoyon bo'lishiga ta'sir etganligi sababli terminal qadriyatlarining statik differensiatsiyasining ustuvor xususiyatga egadir;

5. Qadriyat yo'nalishlari – bu shaxsning motivlari, qiziqishlari, munosabatlari va ehtiyojlariga ta'sir qiluvchi shaxs o'zini o'zi anglashning ichki tarkibiy qismi bo'lib, talabalar uchun muhim qadriyat borligini anglash shaxs kamolotini belgilovchi eng muhim va hal qiluvchi omillardan biridir;

7. Qadriyat yo'nalishlari tizimi shaxs yo'naltirilganligining mazmun jihatlarini belgilab berishi va uning atrofdagi olamga, boshqa insonlarga, uning o'ziga bo'lgan munosabatlari asoslari, o'z dunyoqarashi asosi va hayotiy faolligi motivatsiyasi o'zagini, hayotiy konsepsiyasi hamda hayot falsafasining asoslarini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Давлетшин М.Г. Замоначий мактаб ўқитувчисининг психологияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 30 б.
2. Djumaniyazova M.X. Talabalar o'quv motivatsiyani emperik jihatdan o'rganilishi// O'zMU xabarlar. Ilmiy jurnal. 1/7/1 2024. – 82-86-betlar.
3. Djumaniyazova M. X. Talabalar o'quv motivatsiyaga ta'sir qiluvchi omillarning emperik tahlili// Buxoro psixologiya va xorijiy tillar unstituti Ilmiy axborotnomasi. Ilmiy-amaliy jurnal. № 5, 2024. – 70-78-betlar.
4. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. – 600 b.
5. Суннатова Р.И. Феномен учебной лени старшеклассников и удовлетворенность отношением значимых взрослых и одноклассников // Перспективы науки и образования. 2022. № 1 (55). – С. 410-425.
6. Файзуллаев А.А. Мотивационная саморегуляция личности. –Ташкент: "Фан", 1987. – 133 с.
7. Файзуллаев А.А. Формирование системно- уровневой организации мотивационной сферы личности: автореф. дис ... канд. психол. наук . – М., 1984. – 18 с.
8. Xaydarov F.I.,Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Nizomiy nomidagi TDPU.: Toshkent. – 2006. – 174 b.
9. Шварц Ш. Культурные ценностные ориентации: природа и следствия национальных различий // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2008. Т. 5, № 2. – С. 37-47.
10. Цветкова Р.И. Мотивационная сфера личности студента: условия и средства ее формирования/ Р.И. Цветкова // Психологическая наука и образование. – 2006. – №4. – с.76-82.
11. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2014. – 118 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Djumaniyazova Muxayya Xusinovna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Urganch davlat universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Urganch shahri

QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGI OMILLARINING KORRELYATSIYON ALOQADORLIGI



Maxmudova Zulfiya Mexmonovna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi omillarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi tahlil qilinib, xodim kasbiy faoliyat samaradorligida ushbu aloqadorlikning ahamiyati mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, qo'riqlash xizmati xodimi kasbiy kompetentligini takomillashtirishda kommunikativ, umumiy faollik, emotsional barqarorlik ijtimoiy-psixologik savodxonlik diapazoni va professional kompetentlikning o'zgalar hissiyotini adekvat baholash, sintonik muloqot, ijtimoiy idrok, operatsional kompetentlikni shakllanishi muhimligi asoslab berilgan.

MAQSAD: Qo'riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat xislarini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi.

XULOSA: O'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar

КОРРЕЛЯЦИОННЫЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ФАКТОРОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБ БЕЗОПАСНОСТИ

Махмудова Зульфия Мехмоновна.

Доктор психологических наук (DSc), доцент,

Бухарский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется взаимосвязь факторов профессиональной компетентности сотрудников органов безопасности, раскрываются механизмы значимости этой взаимосвязи в эффективности профессиональной деятельности сотрудника. Обосновывается важность развития коммуникативных качеств, общей активности, эмоциональной устойчивости, социально-психологической грамотности, а также формирования профессиональной компетентности в адекватной оценке чувств других людей, синтонном общении, социальной перцепции и оперативной компетентности в повышении профессиональной компетентности сотрудников органов безопасности.

ЦЕЛЬ: Совершенно новые задачи морального и духовного обеспечения всех сотрудников и военнослужащих, проходящих службу в системе службы безопасности, а также повышения общего кругозора, морального и интеллектуального потенциала сотрудников, привития им патриотизма, гордости, верности своей профессии и Он заключается в разработке рекомендаций по результатам исследования по повышению чувства высокой ответственности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе изучения структуры компетентности и категорий компетентности можно выделить несколько направлений. Многие авторы оценивают функциональный подход как перспективный, а также считают, что компетентность проявляется в профессиональной деятельности и одновременно является ее основой. В данном случае под компетентностью понимают систему трудовых ресурсов, необходимых для создания эффективного действия в конкретных рамках процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основании изученных эмпирических результатов отмечено, что психологические факторы, влияющие на социально-психологическую компетентность сотрудников служб безопасности (в зависимости от стажа работы), могут быть различными. На основе выявления этих факторов будет проведен определенный уровень психологических анализов для устранения существующих проблем в повышении социально-психологической компетентности сотрудников служб безопасности и на основе результатов этого анализа будут определены следующие задачи оказания психологических услуг. им будет определено.

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и компетенции, профессиональные психологические характеристики.

CORRELATION RELATIONSHIP OF PROFESSIONAL COMPETENCE FACTORS OF SECURITY SERVICE EMPLOYEES

Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna

*Doctor of Psychology (DSc), Associate Professor,
Bukhara State University*

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of socio-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, and the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and communicative competence of the employee. detection mechanisms are disclosed.

THE GOAL: Completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the security service system, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, instilling in them patriotism, pride, pride, loyalty to their profession and It consists in developing a recommendation based on the results of the research on increasing the sense of high responsibility.

MATERIALS AND METHODS: This article analyzes the intercorrelation of factors of professional competence of security service employees, reveals the mechanisms of the importance of this relationship in the effectiveness of the employee's professional activity. It also substantiates the importance of the development of communicative, general activity, emotional stability, socio-psychological literacy, and the formation of professional competence in the adequate assessment of the feelings of others, syntonic communication, social perception, and operational competence in improving the professional competence of security service employees.

CONCLUSION: Based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analyzes will be conducted to eliminate the existing problems in increasing the social and psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

Key words: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.

Jahonda ilmiy tadqiqot markazlari va harbiy ta'lim muassasalarida xodimlar kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini tadqiq qilish, kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash, ularning kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, xodimlarning kasbiy kompetentligiga ta'sir etuvchi ustuvor omillarni aniqlash, ushbu omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni qiyosiy tahlil qilish asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish va jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. YUNESKO hamda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan 2024-yilda

o'tkazilgan tadqiqotlarda xavfsizlik va qo'riqlash xodimlarining 65% ga yaqini ishga kirishdan avval qisqa muddatli o'quv kurslari yoki tor ixtisoslikdagina tayyorgarlikdan o'tishi, atigi 30-35% xodimda esa yanada chuqurlashtirilgan dasturlardan o'tishi qayd etilgan. Bu esa xodimlarning kasbiy faoliyatida xulq-atvor ko'rsatkichlarining ta'siri, ularning professional kompetentligi, xususan kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik omillari va mexanizmlarini aniqlash, xodimlarning kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, qo'riqlash xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. «Qo'riqlash faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida qo'riqlash xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko'rsatib o'tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida belgilangan.

Kompetentlik, xususan turli soha vakillarining kompetentligini tadqiq qilish va uni takomillashtirish muammosi bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan Sh.D.Ablakulov, G.O.Askarova, Sh.R.Baratov, F.F.Ganjiyev, E.G.G'ozdiyev, M.G.Davletshin, R.X.Dushanov, O.E.Hayitov, I.I.Hojiboyev, V.M.Karimova, I.M.Latipov, Z.T.Nishanova, S.Y.Nishanov, D.D.Oribboyeva, B.R.Qodirov, G'B.Shoumarov, Sh.J.Usmonova, I.M.Xaydarov kabilar o'z tadqiqotlarida kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri, o'rni va ahamiyatini ta'kidlab o'tishgan. Tadqiqotlarda asosan kasbiy kompetentlikka ta'sir qiluvchi shaxsning ijtimoiy-psixologik, kommunikativ va kreativ kompetentlikning kasbiy faoliyatni boshqarishdagi roli, mustaqil fikrlashi, hamkorligi va shaxslararo munosabatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompetentlik omillari tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan I.F.Bashirov (harbiy psixologlar faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning roli), I.A.Yegorov (korxona rahbari emotsional intellektining xodimlariga ta'siri), V.V.Boyko (rahbar kommunikativ kompetentligi shakllanishining kasbiy kompetentlikka ta'siri) singari olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Professional kompetentlikning tuzilishi va shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar rus olimlari A.A.Bodalev, A.K.Markova, L.M.Mitina, Mileryan, Y.P.Yermalayeva, L.E.Panin kabilar tomonidan amalga oshirilgan. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalarini N.A.Kuzmina, L.A.Petrovskaya, P.A.Shavir tadqiqotlarida o'z aksini topgan. M.I.Bobneva, I.F.Demidova, Y.Makarov, I.L.Zimnyaya, V.Kunitsina, N.F.Efremova, V.S.Ageyev, L.V.Svirskaya, Y.M.Jukov, A.P.Panfilova kabi olimlar kasbiy kompetentlik fenomenining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berilgan.

Kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va unga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni tadqiq qilish muammosini xorij hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilgan. G.Y.Ayzenk, D.Baumrind, G.Gardner, D.Goulman, V.A.Kan-

Kalik, D.G.Mayers, J.Mayer, A.D.Palmer, Dj.Raven, A.A.Rean, K.R.Rodgers, L.Stross, L.A.Festinger, R.Torndayk, P.Selov kabi olimlar o'z izlanishlarida xodimlarning kasbiy kompetentligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning muhim komponentlarini tadqiq qilgan. Kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash va unga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni tadqiq qilish xorij hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan. Shuningdek, G.Gardner, D.Goulman, J.Mayer va P.Selov, R.Torndayk kabilarning tadqiqotlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikka ta'sir qiluvchi omillar va komponentlarni o'rganilgan.

Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatda samarali ishlashlari ularning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarining rivojlanganligiga bevosita bog'liq. Bizningcha, xodimlarda quyidagi kasbiy xususiyatlar normada bo'lishi zarur:

Mas'uliyatlilik:

- ishga mas'uliyat bilan yondashish, yuklatilgan vazifani o'z vaqtida va xatosiz, yuqori sifatli darajada amalga oshirish;

- ish faoliyati davomida yuklantilgan vazifa doirasida amalga oshiradigan barcha harakatlar uchun javobgarlik hissigacha ega bo'lish.

Intizomlilik:

- kasbiy yo'riqnoma va ichki tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilish;

- faoliyat doirasida o'zini-o'zi boshqara olish va nazorat qila olish;

- boshqalarni tushunish va ularni boshqara olish.

Tezkorlik:

- favqulotda va ziddiyatli vaziyatlarda intensiv tahlil asosida tezkor qaror qabul qilish va shu asosda tezkor harakat qilish;

- vaziyatni to'g'ri baholash va tezkor choralarni belgilash.

Kasbiy savodxonlik:

- o'z sohasiga doir qonun va qonun osti hujjatlarini o'zlashtirganligi;

- sohaga tegishli zamonaviy texnik vositalarni qo'llash talablarini o'zlashtirish;

- xavfsizlik qoidalarini bilish va amal qilish kabilar.

Kasbiy sifatlarining elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, yo'nalishlar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshiluvchi shaxsning motivasion sohasining boshqa tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi. Bizningcha, kasbiy sifatlarga erishish uchun shaxs faolligini ta'minlovchi zaruriy bilim va qobiliyatlarga ega bo'lish lozim.

Kompetensiya – uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lishidir. Faoliyat sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri, bu – uning o'z sohasi bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U faoliyat moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

- ilmiy bilish;

- gnoseologik bilish;

- kasbiy faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;

- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;

- faoliyat jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;

- o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini o'rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish.

©jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

Kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy tajribalarning amaliyotdagi tadbiri sifatida qo'riqlash xizmati xodimlari hayotida, uning shaxs sifatidagi kamolotida katta rol o'ynar ekan, bugun har jihatdan barkamol, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda ayni masalaga jiddiy yondashish, bu uchun esa avvalo qo'riqlash xizmati xodimlarida emotsional intellekt omillarini shakllantirish va rivojlantirish barobarida ularda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish maqsadga muvofiq. Shundan anglashiladiki, bugungi ijtimoiy islohotlar davrida psixolog olimlar oldida turgan eng muhim va kechiktirilmagan hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalardan biri ham, qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligiga ta'sir qiluvchi emotsional intellekt omillarini shakllantirish, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy savodxonligini shaxslilik sifatlariga bog'liqligiga ko'ra mustaqil, realistik fikrlashni kognitiv, ijodiy tafakkur omillarini integratsiyalash orqali ularda kasbiy, ijtimoiy-psixologik hamda kommunikativ kompetentlikni uyg'un holda shakllanishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

NATIJALAR

Tadqiqot ishimiz davomida qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi omillari bilan emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish darajalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni maxsus dastur asosida tahlil qilganimizda barcha omillar o'rtasida ijobiy bog'lanishlar borligi aniqlandi.

Bu esa xodimlarning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlanishiga xizmat qiladi. Xususan, «ijtimoiy-psixologik kompetentlik» omili «ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,78$; $p\leq 0,05$), «kommunikativ kompetentlik» omili «emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$), «ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,61$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «umumiy faollik» omili «faoliyatda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,59$; $p\leq 0,05$), «ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,49$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «emotsional barqarorlik» omili esa «emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,51$; $p\leq 0,05$), ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,51$; $p\leq 0,05$), omili bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsiyalar qayd etildi.

1-jadval

Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi va emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish darajalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=246)

Omillar	Emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish	Faoliyatda o'zini-o'zi nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,21	0,26	0,78*
Kommunikativ kompetentlik	0,37*	0,19	0,61*
Umumiy faollik	0,22	0,59*	0,29
Emotsional barqarorlik	0,83*	0,19	0,51*

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$

«Ijtimoiy-psixologik kompetentlik» omili «ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,78$; $p\leq 0,05$) omillaridagi ahamiyatli bog'lanishlarning bo'lishi xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi qancha yuqori bo'lsa, ularning ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish qobiliyatining rivojlanganligidan dalolat beradi. Xodimlarning o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini kasbiy yo'riqnoma hamda ijtimoiy normalarga asoslangan holda nazorat qila olishi katta ahamiyat kasb etib, kasbga va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli moslashuvi va faoliyat yuritishini belgilaydi. Qolaversa, ijtimoiy-psixologik kompetentligi yuqori bo'lgan xodimlar rahbariyat, hamkasblari, shuningdek fuqarolar bilan samarali munosabat o'rnatadi, belgilangan tartib-intizomga qat'iy rioya qilib, o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy normalarga mos ravishda muvofiqlashtirishi bilan muhim hisoblanadi.

«Kommunikativ kompetentlik» omili «emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanishlarning borligi shundan dalolat beradiki, qo'riqlash xizmati xodimlarining muloqot qilish ko'nikmalarining yuqori bo'lishi ularda o'z hissiyotlarining nazorat qila olishlarini ham ta'minlanisiga xizmat qiladi. Xodimlarning kommunikativ kompetentligi qancha yuqori bo'lsa boshqalar bilan, xususan obyektga kelgan mijozlar bilan ijtimoiy norma talablari asosida samarali muloqot qila olishadi, qiyin vaziyatlarda ham boshqalar bilan xushmuomalada bo'lisha olishadi, o'z emtsiyalarini nazorat qila oladigan xodimlar turli provakatsiyalarga berilmasdan, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Turli salbiy kechinmalarga nisbatan barqaror himoyalaniishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida xodimning jamoa orasida hurmatini yanada oshishiga, uning imijini ko'tarilishga xizmat qiladi.

«Kommunikativ kompetentlik» omili «ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,61$; $p\leq 0,05$) omili o'rtasidagi bunday ijobiy korrelyatsiyaning kuaztilganligi katta ahamiyat kasb etib, ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish imkoniyati yuqori bo'lgan xodimda boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha olishi ham yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Xodimlarning kasbiy yo'riqnoma hamda ijtimoiy normalarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi, xatti-harakatlarini ijtimoiy normalarga asoslangan holda nazorat qilishi va uni boshqarishi, me'yorlarni to'g'ri tushungan holda muvofiqlashtirishi, odamlar bilan xushmuomalada bo'lishi ularning kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli xizmat ko'rsatishlarining asosidir. Qolaversa, turli salbiy holatlarga nisbatan to'g'ri strategiyalarni ishlab chiqqan holda oldini olish va profilaktik choralarni izlab topish ko'nikmalarining taraqqiy qilganligi bilan izohlanadi. Favqulotda holatlarda o'zini yo'qotmasdan, turli xavotirlarga tushmasdan o'z harakatlarini to'liq nazorat qilishi, nizoli va intensiv holatlarda sabr-toqat bilan ishlashi, odamlarni tinchlantirgan holda to'g'ri qaror qabul qila olishi ham uning kasbiy kompetentligining muhim jihati ekanligi bilan muhim hisoblanadi.

«Umumiy faollik» omili «faoliyatda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,59$; $p\leq 0,05$) omillaridagi yuqori ijobiy korrelyatsiya esa xodimlarning kasbga ijobiy munosabatda bo'lishi, tezkor va tashabbuskor bo'lishi o'z navbatida faoliyatda o'zini-o'zi nazorat qilish imkoniyatlarining ham muvofiq bo'lishiga olib keladi. Odatda bunday xodimlar o'z vazifalarini belgilangan talablar asosida sidqidildan bajarishga, yangi vazigalarga nisbatan tayyor turishlari, yuklatilgan vazifalariga ma'suliyat bilan yondashishlari bilan kasbiy muvaffaqiyatga erisha olishadi. Qiyin va murakkab holatlarda tizimli ravishda holatni tahlil qilgan holda adekvat qaror qabul qilishlari ham bu ikki omilning o'zaro ijobiy bog'liqligi zahirida takomillashib boradi. Umumiy faolligi yuqori bo'lgan xodim ish yuzasidan yangi ko'nikmalarni tezkorlik bilan o'zlashtirib,

ijobiy o'sihga erishishadi. Shuningdek, turli huquqbuzarliklarni oldini olishida, qo'riqlanayotgan obyekt hududida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashida katta ahamiyat kasb etadi.

«Emotsional barqarorlik» omili esa «emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,83$; $p\leq 0,05$), omili bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsiyaning qayd etilganligi bu ikki omilning o'zaro bir xil kuchga egaligini ko'rsatdi. Xodimning ichki hissiy reaksiyalarni tushunish va uni boshqara olishi bilan bir qatorda salbiy hissiy kechinmalarga nisbatan bardoshlilikiga, qiyin vaziyatlarda o'zini tuta bilishiga xizmat qiladi. Juda nozik va intensiv holatlarda ham o'zining hissiyotlarini boshqara olgan xodim mavjud vaziyatga nisbatan mos munosabat yo'lini izlab topgan holda bosiqlik bilan qaror qabul qilishini, sodir bo'layotgan holatlarga nisbatan befarq emasligini asoslaydi. Qolaversa, naryad vaqtining muddatining uzoq yoki qisqa bo'lishi ham muayyan ta'sirga ega bo'lib, xodimlarning ruhiy kechinmalariga va muvaffaqiyatli ishlashlariga ularning barqaror emotsional munosabatlarining takomillashganligiga bog'liq bo'ladi. Xodimlarning yo'riqnomada belgilanganidek, kuch yoki qurol ishlatish zarurati tug'ilgan payda ham ularning emotsional barqarorligi, o'zini ozi boshqara olishini ta'minlaydi va bu juda xavfli vaziyatlarda ham o'ta bosiqlik bilan munosabat bildirishiga olib keladi. Natijada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan og'ir holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

«Emotsional barqarorlik» omili va «ijtimoiylashuvda o'zini-o'zi nazorat qilish» ($r=0,51$; $p\leq 0,05$), omili bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsiyaning namoyon bo'lganligi ham ahamiyatli bo'lib, emotsional barqarorligi yuqori bo'lgan xodim nizoli masalalarni tezkor hal qilishda, favqulotda vaziyatlarda o'zini-o'zi boshqara olishini ta'minlab, ularning xotirjamlikni saqlagan holda vahimaga tushmasdan adekvat harakat qilish va profesional munosabatda bo'lishiga xizmat qiladi. Qiyin vaziyatlarda hissoytlarga berilmagan holda chuqur tahlillarga tayangan holda to'g'ri va asosli qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi. Shuningdek, emotsional barqaror xodimlar rahbariyat, hamkasblari va fuqarolar bilan samarali muloqot o'rnatgan holda murosaga kelishga va vaziyatni o'z nazoratiga olishi orqali muammoga oson yechim topa oladi. Professional xodimning shaxsiy salomatligini saqlab qolishi, turli salbiy holatlarga nisbatan chidamligini, shaxslararo munosabatlarda ziddiyatli holatlarga nisbatan bardoshli bo'lishi ham kasbiy faoliyat samaradorligini oshishiga xizmat qiladi (1-jadval).

Demak, yuqoridagi ijobiy bog'lanishlar xodimlarning kasbiga bo'lgan sadoqati, ishga mas'uliyat bilan yodashishlari, yangi topshiriqlarga nisbatan o'ziga xos pozitsiyalarni egallashlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida xodimlar bilan amalga oshiriladigan psixologik xizmatni amalga oshirilishida muhim ekanligini inobatga olish lozimligini ko'rsatadi.

Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi omillari bilan xulq-atvorni boshqarish omillari orasida ijobiy korrelyatsion bog'lanishlar mavjudligi aniqlandi: «ijtimoiy-psixologik kompetentlik» omili «moslashuvchanlik» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$), «kommunikativ kompetentlik» omili «modellashtirish» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$), omili bilan, «umumiy faollik» omili «rejalashtirish» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$), «dasturlash» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «emotsional barqarorlik» omili esa «moslashuvchanlik» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsiyalar qayd etildi.

2-jadval

Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi va xulq-atvorni boshqarish darajalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=246)

Omillar	Rejalashtirish	Modellashtirish	Dasturlash	Mustaqillik	Moslashuvchanlik	Natijani baholash
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,19	0,12	0,23	0,14	0,47*	0,21
Kommunikativ kompetentlik	0,21	0,42*	0,13	0,27	0,15	0,09
Umumiy faollik	0,31*	0,18	0,35*	0,27	0,11	0,24
Emotsional barqarorlik	0,11	0,24	0,08	0,27	0,42*	0,29

«Ijtimoiy-psixologik kompetentlik» va «moslashuvchanlik» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) omillaridagi yuqori ijobiy bog'lanishning namoyon bo'lganligi xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi yuqori bo'lsa ularning kasbiy faoliyat doirasida turli xil holatlar va vaziyatlar osongina moslasha olishini anglatib, to'g'ri qaror qabul qilishi, vaziyat nazoratini qo'lga olgan holda muammoli holatlarga nisbatan tezkor chora ko'rishini ta'minlaydi. Kasbga doir bo'lgan yangiliklarga va topshiriqlarga, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga nisbatan tayyorligini ko'rsatadi. Odamlar bilan samarali muloqot o'rnatish asosida ularning ichki his-tuyg'ulariga munosib baho berish asosida norozi kayfiyatini yumshatishga erishishadi. Ish faoliyati davomida xodimlarda turli salbiy hissiyotlarni, ayniqsa, stressli holatlarga olib kelishi mumkinligini inobatga oladigan bo'lsak, ular da stressbardoshlilikni talab qiladi. Aynan moslashuvchanlik turli ziddiyatli, ekstremal va stressogen vaziyatlarga nisbatan chidamlilikni talab qiladi, xodimlarning ruhiy-asab barqarorligining normada ekanligi ayniqsa, noroziligi yuqori bo'lgan fuqarolar bilan samarali muloqot qilishlarining muhim tomonidir.

«Kommunikativ kompetentlik» omili «modellashtirish» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) omilidagi ahamiyatli bog'lanish xodimlarning kasbiy o'sishining muhim jihatlardan biri sifatida ularning odamlar bilan samarali muloqot o'rnatish olishini, tushunarli va asosli gapira olishini, ayniqsa, norozi kayfiyatdagi va asabiy odamlarni tinglagan holda ularning bildirgan e'tirozlari va savollariga nisbatan to'g'ri muloqot uslubini tanlashlari bilan ahamiyatlidir. Boshqalarning, xususan rahbariyat, qo'riqlanadigan obyektga kelgan odamlarning xatti-harakatlarini kuzatgan holda o'z xatti-harakatlarini, ayniqsa muloqot strategiyalarini ishlab chiqqan holda oson moslashtira olishi asosida ish yuritishi xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlanganligini belgilaydi. Yosh xodimlarda esa tajribali hamkasblarining samari muloqot uslublarni o'rganish asosida o'z imkoniyatlarini yanada rivojlantirishlariga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda modellashtirish ko'nikmalari rivojlangani sari yangi topshiriqlarga, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ziddiyatli holatlarga nisbatan tayyorligini, jamoada va sheriklari bilan yaxshi ishlashi, odamlar bilan ijobiy munosabat o'rnatishi, nozilarni samarali hal qila olishini ta'minlaydi.

«Umumiy faollik» omili bilan «rejalashtirish» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$), omilidagi yuqori ijobiy korrelyatsiya xodimlarning ishga bo'lgan ijobiy munosabati, tashabbuskorligi yuqori bo'lsa kasbiy faoliyatda samarali natijalarga erishishadi. Naryadni qabul qilgan xodim maqsadni aniqlash asosida yuklamalarni rejalashtirish, vazifalarni amalga oshirish strategiyalarini belgilab olish va uni amalga oshirish, muammolarni oson va samarali yechimini topa olishga

tayyorligini bildiradi. Eng muhimi xodimda rejalashtirish ko'nikmalari yuqori bo'lsa ishga nisbatan energiyani to'g'ri taqsimlay olishi, turli xavf-xatarlarga, nizoli holatlarga nisbatan pozitsion strategiyalarini ishlab chiqishadi, ishni tizimli ravishda tashkil qilgan holda oldindan harakat qila olishadi. Umuman olganda, umumiy faolligi yuqori bo'lgan xodimlarda rejalashtirish imkoniyatlari ham yuqori darajada bo'ladi va bu kasbiy kompetentligining yana bir muhim tomoni hisoblanadi.

«Umumiy faollik» omili va «dasturlash» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omillaridagi yuqori ijobiy korrelyatsiya esa xodimlarning yuklatilgan vazifalarini yo'riqnoma asosida amalga oshirishlarida rejaga mos ravishda amalga oshirishlarini anglatib, tajribali xodimlar ekstremal vaziyatlarda qanday yo'l tutishni yaxshi bilashadi, mavjud vaziyatda to'g'ri va asosli munosabatda bo'lishadi. Zimmasiga yuklatilgan vazifani amalga oshirish jarayonida tartibli va ko'rsatmalarga amal qiladigan xodimlar odatda kamdan-kam holatlarda xatoga yo'l qo'yishadi. Shuningdek, xodimlarga vazifalarni ularning umumiy faolligi va dasturlash darajalaridan kelib chiqqan holda taqsimlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

«Emotsional barqarorlik» omili esa «moslashuvchanlik» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) omili bilan yuqori ijobiy korrelyatsiyaning qayd etilganligi bu ikki omil o'zaro muvofiqlikda rivojlanishini anglatib, xodimlarning samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlaydi. Emotsional barqarorligi yuqori bo'lgan xodimlar odatda turli vaziyatlarda, ayniqsa intensiv holatlarda xotirjamlik bilan munosabatda bo'lishlari bilan birga asosli qaror qabul qila olishadi. O'zgaruvchan ish sharoitiga oson moslashib, yangi vazifalarva texnologiyalarni ham tezkorlik bilan o'zlashtira olishadi. Odamlar bilan mulqot qilishda ularning hissiy kechinmalari, individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xotirjamlik bila xushmuomalada bo'lishadi. Shu bilan bir qatorda uzoq muddatli naryad paytida ham bunday kompetensiyaning rivojlanganligi katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ularning shaxsiy hayotlarida ham mazmunli hayot kechirishlarida muhim hisoblanadi.

Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi omillari bilan kreativ kompetentlik omillarining barchasida ijobiy korrelyatsion bog'lanishlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, «ijtimoiy-psixologik kompetentlik» omili «ijodiy tafakkur» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$), «kasbga ijodiy munosabat» ($r=0,59$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «kommunikativ kompetentlik» «originallik» ($r=0,49$; $p\leq 0,05$), omili bilan, «umumiy faollik» omili «kasbga ijodiy munosabat» ($r=0,59$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «emotsional barqarorlik» omili esa «emotsionallik, empatiya» ($r=0,79$; $p\leq 0,05$) omili bilan yuqori ijobiy korrelyatsiyalar qayd etildi.

Qo'riqlash xizmati xodimlarining qo'lga kiritgan natijalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan korrelyatsion tahlilda «ijtimoiy-psixologik kompetentlik» omili «ijodiy tafakkur» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omillari o'rtasidagi bunday yuqori ijobiy bog'lanishning ahamiyati shundan iboratki, bu soha vakillari juda ko'plab kutilmagan holatlrga duch kelishadi.

3-jadval

Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi va kreativ kompetentlik omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=246)

Omillar	Ijodiy tafakkur	Qiziquvchanlik	Originallik	Xayol	Intuitsiya	Emotsionallik, empatiya	Yumor hissi	Kasbga ijodiy munosabat
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,35*	0,19	0,28	0,21	0,13	0,29	0,28	0,59*
Kommunikativ kompetentlik	0,23	0,25	0,49*	0,27	0,28	0,35	0,19	0,24
Umumiy faollik	0,22	0,23	0,23	0,29	0,25	0,25	0,11	0,59*
Emotsional barqarorlik	0,15	0,18	0,27	0,23	0,22	0,79*	0,21	0,29

Ayniqsa, qo'riqlanadigan obyektga murojaat bilan kelgan odamlarning ruhiy holatlarini tushunish turli nizoli holatlarga nisbatan ijobiy yechim topish uchun ularda ijodiy tafakkur yaxshi rivojlangan bo'lishini talab qiladi. Sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga nisbatan yangicha va o'ziga xos bo'lgan yondashuv asosida munosabatda bo'lish orqali xodim muvaffaqiyatli va samarali natijaga erish olishadi. Muammoli holatlarga nisbatan bir qancha variantlarini izlab topish, oson va zararsiz xavfni bartaraf etish, nizolanuvchan odamlar bilan murosaga kelishda ham ulardagi bu ikki omilning o'zaro muvofiqlikda rivojlanganligi maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi.

«Ijtimoiy-psixologik kompetentlik» omili «kasbga ijodiy munosabat» ($r=0,59$; $p \leq 0,05$) omilidagi ahamiyatli bog'lanishning mazmuni nafaqat bu soha vakillarida, balki boshqa sohalarda ham xodimning ijtimoiy-psixologik kompetentligi yuqori bo'lsa, ularning faoliyat yuritayotgan kasbga nisbatan munosabati ijobiy va yuqori bo'ladi. Natijada xodim yuqori samaradorlikka erishib, sadoqat bilan faoliyat uritadi. Xodimlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashib, yuqori darajada qoniqishni his qilishadi. Albatta, ish joyida yaratib berilgan shart-sharoit, rahbariyat va hamkasblari tomonidan qo'llab-quvvatlash, tashkilot psixologining xodimlar bilan amalga oshiradigan individual va guruhishlari ham samarali ishlash imkonini beradi. O'zlariga yuklatilgan kasbiy vazifalarni chuqur anglagan holda ijobiy, o'zlariga ishonch va adekvat munosabatda bo'lishlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kasbga ijobiy munosabat motivatsiyasi yuqori bo'lgan xodimlarda o'zini hurmat qilish hissi ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Va albatta, ularda kasbiy o'sishga erishishlari, hamda kelajakka ishonchning yuksalishini belgilovchi jihat ekanligini namoyon qildi.

Navbatdagi «kommunikativ kompetentlik» va «originallik» ($r=0,49$; $p \leq 0,05$), omilidagi yuqori ijobiy aloqadorlik esa xodimning original yechimlarga erishish va asosli qarorni oldindan baholash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanganligi kasbiy faoliyatining eng ustivor jihatlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aynan ushbu original

fikrlash nafaqat o'ziga yuklatilgan odatiy vazifalarni og'ishmay amalga oshirishi, qolaversa, faoliyatga moslashuvchanligi, shaxslararo munosabatlarda original yechimga ega bo'ishlari, odamlarning turli hatti-harakatlari va ularning psixologik holatlariga baho berishlari uchun juda muhim hisoblanadi. Xizmat yo'riqnomasi asosida amalga oshirilgan turli tadbirlarning amalga oshirilishi, shaxsiy va kasbiy tajribaning nisbatan ijobiy ekanligi ham albatta ta'sir etmasdan qo'ymaydi. Masalaning yana bir muhim jihati borki, ish faoliyati har doim ham kasbiy yo'riqnomada belgilangan ko'rsatma yoki standartlarga mos kelavermasligi, harakatlar va yondashuvlarni vaziyatga va holatga moshlashuvini, jarayonning mohiyatidan kelib chiqqan holda yangicha ish uslubini tanlash va strategiyani o'zgartirishni talab qiladi. Maxsus xavfsizlik talablari va shubhali holatlarda samarali yondashuvga ega bo'lgan xodim esa kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlari shubhasizdir. Shu bilan bir qatorda xodimlarda originallikning eng yuqori darajada bo'lishi kasbiy faoliyatda salbiy ta'sir k'orsatishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Rahbariyat va tashkilot psixologi ushbu omillarni normada va o'zaro muvofiqlikda rivojlanishini nazoratga olishlari maqsadga muvofiqligi ayon bo'ldi. Professional xodim esa shaxslararo munosabatlarda o'ziga xos muloqot usullarini amalda qo'llagan holda turli nizoli va bahs-munozarali holatlarga nisbatan aniq rejalar asosida ish tutadilar. Yangi ishga qabul qilingan xodimlar esa tajribali hamkasblaridan ana shunday o'ziga xos uslublarni o'zlashtirishlari, shu bilan bir qatorda kasbiy ko'nikmalarini doimiy boyitib borishlari maqsadga muvofiq.

«Umumiy faollik» omili «kasbga ijodiy munosabat» ($r=0,59$; $p\leq 0,05$) omili bilan o'zaro yuqori ijobiy aloqadorlik ham kasbiy kompetentligining zarur tomoni sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu ikki omil o'zaro bir-biriga to'gridan-to'g'ri aloqadorlikka ega bo'lib, ularning kasbiy faoliyatga, turli qiyin holatlarga, xavf-xatarlarga nisbatan oson moslashuvchanligini ta'minlaydi. Kasbga va yuklatilgan vazifalarga nisbatan yuqori ichki motivatsiya asosida ishlaydigan xodimlar o'z ishlarini me'yorida amalga oshirishadi. Yuqori qiziqish va mas'uliyat kasbiy o'sishga olib keladi. Bunday xodimlar jamoada yuqori ijobiy muhitni yaratadi, boshqa xodimlarning ham kasbga bo'lgan ijobiy motivatsiyalarini shakllantiradi. Shuningdek, rahbariyat tomonidan amalga oshiriladigan turlicha rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashlar xodimlarning yanada samarali faoliyat yuritishlariga muhim ahamiyat kasb etishini ham inobatga olish lozim.

«Emotsional barqarorlik» omili «emotsionallik, empatiya» ($r=0,79$; $p\leq 0,05$) omili bilan yuqori ijobiy korrelyatsiyaning berganligi bu ikki omil o'zaro chuqur integratsiyaga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Emotsional barqarorligi yuqori bo'lgan xodimlarda hamkasblari va rahbariyatni to'g'ri tushunish va ularni qo'llab-quvvatlashlari, odamlarning ichki kechinmlari va munosabat motivatsiyalariga nisbatan adekvat baho bera olishini ko'rsatadi. Mavjud holatga va shaxslararo munosabatlarga nisbatan hissiy sezgirlik asosida ish yuritish, qiyin va murakkab holatlarda o'z hissiyotni boshqara olishi xodimning kasbiy loyqligini belgilovchi asosiy tomoni hisoblanadi. Kutilmagan vaziyatlarga nisbatan bosiqlik bilan baho berish asosida ish yuritish ham katta ahamiyatlidir. Tabiiyki, xodim nafaqat o'z hissiyotlarini tushunish va boshqarishi, balki zarur holatlarda boshqalarning ham hissiyotlarini boshqarishi, ularning hissiyotlarini tushungan holda adekvat munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi. Ish yuzasidan yuklamalarning ko'payib ketishi, turli nizolarning sodir bo'lishi oqibatida kuzatilishi mumkin bo'lgan stressogen vaziyatlarga bardoshliligini, ularning xotirjam ishlashlari, barqaror munosabatlarini yanada yuksalishining asosi hisoblanadi (3-jadval).

Umuman olganda, xodimlarning samarali ishlashlarini yanada takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan psixologik xizmatni amalga oshirish mexanizmlarini faol qo'llashda yuqoridagi ijobiy korrelyatsiyalarni inobatga olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Xodimlarning samarali faoliyat yuritishlarida kasbga nisbatan ijobiy munosabat muhim bo'lib, qoniqish hissining ahamiyatlilik darajasiga asoslangan holda, ularga qulay ijtimoiy shart-sharoit va qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Xodimlarning ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-axloqiy, jangovor-xizmat tayyorgarlik bo'yicha maxsus dasturlar asosida mashg'ulotlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazishni ta'minlash zarur.

Xodimlarning kasbiy kompetentligini oshirishda zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion yondashuvlar qo'llash, sohaga doir zamonaviy texnika va texnologiyalarni muntazam ravishda amaliyotga qo'llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741

O'ZBEKISTONDA GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PSIXOPROFILAKTIKASI



Qodirov Obid Safarovich

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada O'zbekistonda globallashuv jarayonida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar psixoprofilaktikasi muammolari to'g'risidagi g'oyalarni rivojlantirishning psixologik masalalari yoritilgan. Hozirgi paytda bolalarning yoshlik davrlarida tajovuskorlik harakatlari, o'spirinlik davrlarida noqonuniy hulqni ko'rinishlari yoritilgan.

MAQSAD: Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi 490-sonli "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq 2021 yil 1 sentyabrdan e'tiboran qarovsiz bolalar bilan ishlash tizimida shunday tartib joriy etildiki, unga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligini aniqlash bo'yicha voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan - ta'lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari tomonidan - xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan - oilalarda o'rganish (kuzatish) va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qarovsiz bolalar aniqlanadigan bo'ldi.

XULOSA: O'smirlik davrida ichki sekresiya bezlari funksiyasi ham o'zgaradi, bu esa jinsiy yetilishni tezlatadi. Markaziy nerv tizimida ko'zgaluvchanlik o'zgaradi, natijada yaqqol xis-tuygular paydo buladi. Qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo'zg'aluvchanlik, asabiylashish va toliqishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig'ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emosional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g'ayritabiiylik paydo bo'ladi. Ularning bu xulq-atvorini yaxshi tomonga qarab harakatlantirishda ehtiyotkorlik bilan muomalada bo'lish, ularning shaxsiyatiga yomon tegmaslik va hayot uchun zarur bo'lgan psixologik maslahatlar berish zarur bo'ladi.

Kalit so'zlar: psixoprofilaktika, inson huquqlari, xavfsizlik, BMT, YUNESKO, shaxs, jamiyat, erkinlik, majburiyat, ijtimoiy-iqtisodiy vazifa, ittifoq.

ПСИХОПРОФИЛАКТИКА ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Кодиров Обид Сафарович

*Доктор философии (PhD) по психологии, профессор
Самаркандский государственный университет*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются психологические аспекты развития представлений о проблемах психопрофилактики правонарушений среди молодёжи в условиях глобализации в Узбекистане. В настоящее время особое внимание уделяется агрессивному поведению детей в подростковом возрасте и проявлениям противоправного поведения в подростковом возрасте.

ЦЕЛЬ: Научный анализ профилактики правонарушений среди молодежи

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В соответствии с Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 августа 2021 года № 490 «О мерах по дальнейшему совершенствованию оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним», с 1 сентября 2021 года в системе работы с безнадзорными детьми введен порядок, согласно которому для определения безнадзорности несовершеннолетнего безнадзорные дети выявляются инспекторами-психологами по несовершеннолетним в образовательных учреждениях, профилактическими инспекторами в обслуживающей сфере, председателями сходов граждан и активистками женских организаций в махаллях в семьях в ходе осуществления обследования (наблюдения) и профилактических мероприятий.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В подростковом возрасте также изменяется функция эндокринных желез, что ускоряет половое созревание. Изменяется возбудимость центральной нервной системы, в результате чего появляются выраженные эмоции. Повышенная активность щитовидной железы вызывает раздражительность, нервозность и утомляемость. Ослабление тормозного процесса в коре головного мозга приводит к сильным эмоциональным переживаниям, спутанности сознания и нарушениям поведения. Чтобы изменить это поведение к лучшему, необходимо проявлять осторожность, не наносить вред личности, и оказывать психологическую помощь, необходимую для жизни.

Ключевые слова: психопрофилактика, права человека, безопасность, ООН, ЮНЕСКО, личность, общество, свобода, обязанность, социально-экономическая задача, союз.

PSYCHOPREVENTION OF CRIME AMONG YOUNG PEOPLE IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION IN UZBEKISTAN

Qodirov Obid Safarovich

*Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Samarkand State University*

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the psychological issues of developing ideas on the problems of psychoprophylaxis of delinquency among young people in the process of globalization in Uzbekistan. Currently, the focus is on the aggressive behavior of children in adolescence and the manifestations of illegal behavior in adolescence.

THE GOAL: Scientific analysis of the prevention of delinquency among youth

MATERIALS AND METHODS: In accordance with the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 3, 2021 No. 490 "On measures to further improve the provision of social and legal assistance to minors", from September 1, 2021, a procedure has been introduced in the system of work with neglected children, according to which, in order to determine whether a minor has become neglected, neglected children are identified by inspectors-psychologists on juvenile issues - in educational institutions, by preventive inspectors - in the service area, by chairmen of neighborhood citizen assemblies and women's activists in neighborhoods - in families during the process of studying (observation) and implementing preventive measures.

CONCLUSION: During adolescence, the function of the endocrine glands also changes, which accelerates sexual maturation. The central nervous system changes its excitability, resulting in vivid emotions. Increased thyroid activity causes irritability, nervousness, and fatigue. Weakening of the inhibition process in the cerebral cortex causes intense emotional experiences, and confusion and abnormality appear in behavior. In order to change this behavior for the better, it is necessary to be careful, not to harm their personality, and to provide psychological counseling necessary for life.

Keywords: psychoprophylaxis, human rights, security, UN, UNESCO, individual, society, freedom, obligation, socio-economic task, union.

Globallashuv – bu butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir.

Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog‘langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog‘liqligi hisoblanadi. Globallashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar doimo munozarali bo‘lib kelgan. Tarixchilar bu jarayonni kapitalizmning rivojlanish bosqichlaridan biri deb hisoblaydilar. Iqtisodchilar bu jarayonni moliya bozorlarining transmilliylashuvidan ekanligini ta’kidlab kelishmoqda. Siyosatshunoslar demokratik tashkilotlarning keng tarqalishiga urg‘u berishadi. Madaniyatshunoslar globallashuvning namoyon bo‘lishini madaniyatning g‘arbiylashuvi, jumladan, Amerika iqtisodiy ekspansiyasi bilan bog‘lashadi. Globallashuv jarayonlarini tushuntirishda axborot texnologiyalari yondashuvlari mavjud. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy globallashuv bir-biridan farq qiladi. Mintaqaviylashtirish globallashuv subyekti bo‘lib, texnologik va iqtisodiy rivojlanishning jahon qutblarini shakllantirishda kuchli kumulyativ samara beradi.

Istiqlol tufayli O‘zbekiston mustaqil xalqaro huquq sub’ekti sifatida ko‘plab nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a‘zosi bo‘ldi. O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, ularga amal qilish va ularni himoya qilish masalalariga davlat siyosatining hamda xalqaro sheriklar bilan o‘zaro aloqalarning ustuvor mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda mamlakatimizda hozirgi davr demokratiyasi va inson huquqlari mezonlariga javob beradigan barqaror siyosiy tizim shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi 490-sonli "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq 2021 yil 1 sentyabrdan e'tiboran qarovsiz bolalar bilan ishlash tizimida shunday tartib joriy etildiki, unga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligini aniqlash bo'yicha voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan - ta'lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari tomonidan - xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan - oilalarda o'rganish (kuzatish) va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qarovsiz bolalar aniqlanadigan bo'ldi.

O'zbekiston, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Parlamentlararo ittifoq, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi kabi xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan faol xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Bolalar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi bo'yicha UNICEF o'z bayonotini bildirdi¹⁹.

«UNICEF O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ichki ishlar vazirligi vakillari bilan uchrashuvida bolalar va yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratganini yuksak baholaydi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlat sifatida, O'zbekiston reabilitatsiya va reintegratsiya jarayonlari voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini, albatta, e'tiborga olgan holda adliya tizimida tegishli islohotlarni olib boradi. Bola huquqlari bo'yicha Qo'mita jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini izlash zarurligini ta'kidlaydi. U davlat va jamoatchilikning turli darajalarida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha har tomonlama jihatlarni o'z ichiga olgan dasturlarni taklif etadi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Prezident tegishli davlat idoralarini yoshlar sodir etgan jinoyatlarni tahlil qilishga, ularning sabablarini aniqlashga va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishga da'vat etdi.

Bolalar turli sabablarga ko'ra jinoyat sodir etishlari yoki huquqbuzarlikka qo'l urishlari mumkin. Xalqaro tadqiqotlarning natijalari ko'rsatishicha, bunday bolalar zo'ravonlik, haqorat, mensimaslik va ekpluatatsiya singari holatlar mavjud bo'lgan muammoli oila muhitidan bo'ladilar. Shu bois himoyaga muhtoj bolalarning muammolarini hal etish juda muhimdir.

Global amaliyot shuni tasdiqlaydiki, jinoyatchilikning oldini olish dasturlari huquq-tartibot idoralari tomonidan emas, balki ijtimoiy himoya organlari tomonidan olib borilganida samaraliroq bo'ladi. UNICEF tegishli vazirliklar va idoralarga bolalar uchun adliya tizimini mukammallashtirishda xalqaro normalar va standartlarga muvofiq ravishda texnik yordam ko'rsatishga tayyor ekanligini bayon etadi²⁰ deyiladi bayonotda.

«Muvaffaqiyatli ravishda voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning oldini olish erta bolalikdan boshlab o'smirlarning har tomonlama barkamol bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar butun jamiyat va davlat tizimi tomonidan qilinishini taqozo etadi,» - dedi Sasha Graumann, UNICEF'ning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari. "Yoshlar jamiyat

¹⁹<https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekiston-prezidenti-bmt-bosh-assambleyasining-78-sessiyasida-nutq-suzladi>

²⁰ <https://kun.uz/02645322>

hayotida faol rol o'ynash uchun imkoniyatlarga ega bo'lishlari lozim, hamda ularga jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan shaxslar sifatida qarash kerak,» - deb qo'shimcha qildi u.

Juda ko'plab rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan yangi O'zbekistonda ham barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, irodasi, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan uzviy bog'ladi. Bunda inson va uning mukammaligi, o'z ustida ishlashi, barkamolligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda o'qishga va ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammolarini ilgari surilgan.

Hozirgi kunda psixologik bilimlarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Huquq tartibot va yuridik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xodimlar uchun psixologik bilimlarni egallash juda ham muhimdir. Psixologik bilimlar yuridik va huquqiy sohasiga doir ma'lumotlarning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ular nafaqat huquq tartibot va yuristlar uchun mavjud bo'lgan maxsus muammolarni hal etishga yordam beradi, balki ish bilan birgalikda "aybdorlik", "jinoiyatchi shaxsi", "jinoiy xulq - atvor" kabi asosiy jinoiy huquqiy tushunchalarning yechimini huquqiy-yuridik psixologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni talab etadi.

Hozirgi paytda bolalarning yoshlik davrlarida tajovuskorlik harakatlari, o'spirinlik davrlarida noqonuniy hulqni ko'rishimiz mumkin. Yoshlarning uchdan bir qismini o'rganib ko'rilganda shu narsaga amin bo'lindiki, 16-17 yoshdagilar jinoiy ishga qo'l urishga moyillik yuqori bo'lar ekan.

Hozirgi paytda texnikaning rivojlanishi bilan birgalikda ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlarning va o'z joniga qasd qilayotganlar soni ortib bormoqda. Bu yerda shaxsning individual xususiyatlari va ehtiyotsiz harakatlarning bog'liqlik tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Intizomsizlik, beg'amlik, yuzaki fikr yuritish, palapartishlik va h.k.lar yuzasida bunday ishlar sodir qilinadi.

Muloqatga bo'lgan ehtiyoj va hayotda o'z o'rniga ega va mustaqil bo'lishga intilishi faqat yaxshi sharoitlarda va ijtimoiy foydali faoliyat turlarida yuzaga keladi. Bunday sharoitlar mavjud bo'lmasa o'smir o'z mustaqilligi va nimalarga qodir ekanligini isbotlash uchun norasmiy o'smirlar guruhiga a'zo bo'ladi, ko'cha-kuyda o'z ehtiyojlarini qondiradi. Bunday joylarda uning hati-harakatlari noijtimoiy hulqga aylanib ichish, chekish, yomon so'zlash, bezorilik qilishga qiziqadi va shu hayotni yoqtirib qoladi.

Narkotik modda, spirtli ichimliklar bilan do'stlashish ko'proq insonning yoshlik davrida namoyon bo'ladi. Odam animiya holatida bo'lgan paytida ko'proq shu narsalarga qo'l uradi. Bu odamlarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ideallarning yo'qligidan dalolat beradi, ular real hayotda o'zining o'rniga ega bo'lish, imkoniyatlardan foydalanish uchun kurash olib borishdan bosh tortadi.

Vujudga kelgan vaziyatlardan yengil chiqish va qiyinchiliklardan o'zini xalos qilishi uchun o'smir narkotik moddalar va alkogolizm illatiga berilib ketadi. Narkotik orqali u

hayolparast bo'lib qoladi, bu narsalar uning yuragiga malham bo'lib ruhiy osudalik baxsh etadi.

O'smir yoshidagi bolalarning noijtimoiy hulqi asosida yuzaga kelgan xarakteralogik belgilarini pedagogik va psixologik jihatdan yaxshilash uchun har biriga individual yondoshish lozim.

Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, «qiyin» o'smir yoshidagi bolalarning shaxsini shakllanishida, ko'pchilik hollarda, oiladagi notinch vaziyat sabab bo'ladi. Atrofimizga nazar tashlab o'tganimizda, odatda, odamlar o'zlarining umumiy qiziqishlari orqali turli jamoalarga kiradilar va u yerda o'zaro jipslashishga harakat qiladilar.

O'smirlik davrida ichki sekresiya bezlari funksiyasi ham o'zgaradi, bu esa jinsiy yetilishni tezlatadi. Markaziy nerv tizimida ko'zgaluvchanlik o'zgaradi, natijada yaqqol xis-tuygular paydo buladi. Qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo'zg'aluvchanlik, asabiylashish va toliqishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig'ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emosional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g'ayritabiiylik paydo bo'ladi. Ularning bu xulq-atvorini yaxshi tomonga qarab harakatlantirishda ehtiyotkorlik bilan muomalada bo'lish, ularning shaxsiyatiga yomon tegmaslik va hayot uchun zarur bo'lgan psixologik maslahatlar berish zarur bo'ladi. Aks holda hayotdan nafratlanish va o'z joniga qasd qilishga urinib ko'rish holatlari kuzatilishi mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha gallasariy:

ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish — huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor — shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;

huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik);

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi — jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs;

huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi;

huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs — o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxs.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // www.uza.uz
2. O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh-assambleyasining 78-sessiyasida so'zladi nutqi. Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohi. 2023 yil 20 sentyabr — Sputnik. <https://aniq.uz/yangiliklar/>
3. Qodirov O.S. "O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining

psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.

4. Safarovich Q. O. et al. TARBIYASI QIYIN O’QUVCHILARNING XULQ-ATVORI BILAN BOG’LIQ MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 367-371.

5. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – C. 454-462.

6. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya // O’quv qo’llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

7. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360

8. Qodirov O.S., Shonazarov A.M., Xotamov Sh.N., Raxmatov F.U. Xulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi // Darslik. - Samarqand, 2025.- 468 b.

9. www.ziyouz.com kutubxonasi.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Qodirov Obid Safarovich,

Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor

Manzil: O’zbekiston, 200100, Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat univesriteti

obid.kodirov.79@mail.ru

SUD VA TERGOV JARAYONIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI



Olimov Laziz Yarashovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari nazariy hamda amaliy tadqiqi ochib berilgan bo'lib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellektini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

MAQSAD: sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligining o'ziga xos jihatlari baholash orqali sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning kasbiy kompetentlik bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishi muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezonini sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada

amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

XULOSA: Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СУДЕБНО-СЛЕДСТВЕННОМ ПРОЦЕССЕ

Олимов Лазиз Ярашович

Доктор философии (PhD) по психологии, профессор

Бухарский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье раскрывается теоретическое и практическое исследование особенностей компетентности психолога в судебно-следственном процессе, выявляются социально-психологические факторы и компоненты, развивающие социально-психологическую компетентность и эмоциональный интеллект судебного психолога, коммуникативную компетентность, эмоционально-личностный характер судебного психолога, изучение проявления и развития его компонентов; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

ЦЕЛЬ: путем оценки конкретных сторон компетентности психолога в судебно-следственном процессе определить проявление факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и разработать практические рекомендации, основанные на их пропорциональном развитии с профессиональными компетентность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Анализируя научные исследования, направленные на изучение проблемы проявления и развития социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов в современной психологии, необходимо теоретически осмыслить многие психологические характеристики, связанные с методологией профессиональной и социальной -психологическая компетентность на них мы обратили внимание. На основе анализа ряда научной литературы мы видим, что существуют

разные подходы исследователей к определению социальной и психологической компетентности.

Процесс социально-психологической компетентности мы можем видеть не только в социальной и прикладной психологии, но и в практике многих психологических наук. Подобная категория выражена в научной литературе, и до сих пор не принята единая научно-методическая разработка совершенного уровня, позволяющая оценивать эффективность профессиональной деятельности только как критерий социально-психологической эффективности как средства компетентности.

Наши наблюдения по изучению социально-психологической компетентности судебного психолога и анализ фундаментальной литературы, связанной с проблемой исследования, требуют обратить особое внимание на взгляды ученых, занимающихся проблемами социально-психологической компетентности.

Под социально-психологической компетентностью судебного психолога-эксперта понимается профессиональная деятельность судебного психолога-эксперта, предполагающая способность осуществлять практическую профессиональную деятельность и профессиональное лечение на достаточно высоком уровне. При этом социально-психологическая компетентность судебного психолога может быть оценена по соразмерности его профессиональных знаний и умений, с другой стороны, его профессиональному положению и психологическим качествам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Способность судебного психолога иметь адекватные взаимоотношения с тем или иным лицом, в частности, высокий уровень общения при судебно-психологических экспертизах, умение анализировать ситуации общения, адекватная чувствительность к поведению, действиям, психическим переживаниям собеседника и различным ситуации, характеризующиеся проявлением качеств гибкости на определенном уровне.

Проявление социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов, прямая зависимость от таких факторов, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом у каждого судебного психолога-эксперта, служит определению социально-психологической компетентности, эффективности профессиональной деятельности. и обеспечить целостность личности.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

PSYCHOLOGICAL BASIS OF IMPROVING PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN COURT AND INVESTIGATIVE PROCESS

Olimov Laziz Yarashovich

*Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Bukhara State University*

Annation.

INTRODUCTION: This article reveals the theoretical and practical research of the specific aspects of the psychologist's competence in the judicial and investigative process, the identification of the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and emotional intelligence of the forensic psychologist, the communicative, emotional and personality of the forensic psychologist. study the manifestation and development of its components; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their relationship with the legal system is revealed.

THE GOAL: by evaluating the specific aspects of the psychologist's competence during the court and investigative process, it is to determine the manifestation of the socio-psychological competence factors in the activity of the court psychologist and to develop practical recommendations based on their proportional development with professional competence.

MATERIALS AND METHODS: Analyzing the scientific research works aimed at studying the problem of the manifestation and development of the socio-psychological competence of forensic psychologist experts in modern psychology, it is necessary to theoretically interpret many psychological characteristics related to the methodology of professional and socio-psychological competence in them. we paid attention. Based on the analysis of several scientific literature, we can see that there are different approaches by researchers to determine social and psychological competence.

We can see the process of social-psychological competence not only in social and applied psychology, but also in the practice of many psychological sciences. A similar category is expressed in scientific literature, and a single scientific methodological development of a perfect level has not yet been adopted to assess the effectiveness of professional activity only as a criterion of socio-psychological efficiency as a means of competence.

Our observations on the study of the socio-psychological competence of a forensic psychologist and the analysis of the fundamental literature related to the research problem require paying special attention to the views of scientists dealing with the problems of socio-psychological competence.

Socio-psychological competence of a court psychologist expert means the professional activity of a court psychologist expert, which implies the ability to perform practical professional activities and professional treatment at a sufficiently high level. At the same time, the socio-psychological competence of a forensic psychologist can be assessed by the proportionality of his professional knowledge and skills, and on the other hand, his professional position and psychological qualities.

CONCLUSION: The ability of a forensic psychologist to have an adequate relationship with one or another person, in particular, a high level of communication in forensic psychological examinations, the ability to analyze communication situations, adequate sensitivity to the interlocutor's behavior, actions, mental experiences and different situations characterized by the manifestation of the qualities of flexibility at a certain level.

The manifestation of socio-psychological competence of forensic psychologist experts, the direct dependence on factors such as professional and communicative competence, which is formed in a unique way in each forensic psychologist expert, serves to determine socio-psychological competence, the effectiveness of professional activity and ensure the integrity of the individual.

Key words: forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.

Jahonda sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni psixodiagnostik baholash, ilmiy ishlanma va zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish, kreativ fikrlovchi, yuksak kompetentlikka ega bo'lgan sud psixologlarni tayyorlashning ijtimoiy-psixologik tamoyillarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. APA (American Psychological Association) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, AQShda 20-30 foiz holatlarda sudning hukmi adolatli bo'lmaganligi, 65 foiz sud psixologlarida kasbiy kamchiliklar borligi, shuningdek so'nggi o'n yilda sud va tergov jarayonlarida psixologlarning ishtirokiga bo'lgan talab 40 foizga oshganligi, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich yanada oshishi prognoz qilinmoqda. Shu boisdan, dunyo bo'yicha muvaffaqiyatli tarzda olib borilayotgan islohotlar jarayonida psixologlarning kasbiy tayyorgarligi muammosini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sud-huquq tizimi organlari faoliyati samaradorligini va odil sudlovni amalga oshirish, sud va tergov faoliyatida psixolog-mutaxassis va sud-psixolog ekspertlarini tayyorlash, ularning malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish tizimini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Respublika sud ekspertiza markazi Sud-ekspertiza muassasalarining Osiyo tarmog'i (Asian Forensic Sciences Network-AFNS), Sud ekspertizasi Xalqaro Assotsiatsiyasining (International of Forensic Sciences-IAFS) to'laqonli a'zosiga aylanganligi, xalqaro standartlarga mos xolis, to'liq va har tomonlama asoslantirilgan sud ekspertizalarini, xususan sud-psixologik ekspertizalarni o'tkazishda yuksak malakali psixolog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini ko'rsatib turibdi. Sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligini, ularning kasbiy va shaxsiy sifatlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, maxsus dasturlar asosida kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yanada takomillashtirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Zamonaviy psixologiyada sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligini takomillashtirish mexanizmlariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, psixologning kompetentligini aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Psixologning mutaxassis va sud psixolog eksperti sifatidagi kasbiy kompetentligi deganda - ularning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, psixologning kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi maqsadga muvofiq.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibli bilan baholanishi mumkin.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng doirada tadbqiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi.

Psixologning sud va tergov jarayonida kompetentligining komponentlari qanchalik yuqori darajada rivojlanganligi va takomillashganligiga aloqador bo'lib, sifatli va adolatli baho berish imkoniyatini ta'minlaydi. Afsuski, sud va tergov amaliyotida bugungi kunda ko'pgina holatlarda psixologiyaning imkoniyatlaridan maqsadli foydalanmayotganligi yoki bu jarayonga psixologlarning yetarli darajada jalb qilinmayotganligi bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan bir qatorda ushbu jarayonlarda ishtirok etayotgan psixologlarning bilim, ko'nikma va malakalari yetishmayotganligi ham jiddiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruratini ko'rsatadi. Tabiiyki, huquq sohasida psixologiyaning tadbqiq qilinishi sud va tergov amaliyoti uchun samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Muammoning yana bir tomoni psixologlarning aynan ish yuzasidan o'z chegarasidan chiqib ketish holatlarining kuzatilayotganligi hisoblanadi.

Turli sohalarda bo'lgani kabi huquq sohasida ham psixologiyaga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi ushbu sohaning taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Bunda ko'rib chiqilayotgan ishga jalb qilingan shaxslarning ishga doir amalga oshirgan hatti-harakatlarining mazmuni, u haqidagi kompleks bilimlar, sud va tergov amaliyotida psixologning ishtiroki yuzasidan bilimlarni o'zlashtirilishiga va albatta, amaliyotda samarali qo'llash vakolatlarini kengayishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda asosan ham jinoiy ishlar, ham fuqarolik ishlarida olib borilayotgan sud va tergov jarayonida sud-psixologik ekspertizasi, mutaxassis psixologlarning ishtirokini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ko'rib chiqilayotgan ishlar jarayonida sud-psixologik ekspertizasi va psixolog mutaxassislardan foydalanishning huquqiy asoslari va uning chegaralarini to'g'ri qo'llash borasida ham natijalarga erishilib kelimmoqda. Har qanday yuridik amaliyotda psixologik bilim imkoniyatlaridan unumli foqdalanish inson huquq va erkinligini ta'minlashga, eng muhimi adolat qaror topishi uchun juda kata ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishimizda ustivorlik bergan jihatlardan yan bir bu yuridik amaliyotda psuxologning psixodiagnostik kompetentlik omillarini baholash asosida mavjud muammolarni bartaraf etish va ularning psixodiagnostik bilimlarini yanada yuksaltirishga qaratilgan.

Muhokama qilinayotgan masala yuzasidan asosli va aniq to'xtamga kelishda bunday imkoniyatga ega psixolog oson va muvaffaqiyatli ishlay oladi. So'nggi yillarda tegishli organlar tomonidan olib borilgan dastlabki va sud tergov yuzasidan tayinlangan sud-psixologik ekspertizalardan ma'lum bo'lishicha, ko'plab jinoiy va fuqarolik ishlarida psixolog-mutaxassislarga ehtiyoj sezilayotganligi, odil sudlovni amalga oshirishda psixologik bilimga zarurat ortib borayotganligi ham aynan ushbu faoliyat bilan shug'ullanivhcilarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini ta'minlovchi komponentlarni takomillashtirishga e'tibor

qaratish bugungi kunning dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan muammo hisoblanadi. Bizning tadqiqotimiz muammosidan kelib chiqqan holda sud psixolog eksperti va psixolog-mutaxassislarning kreativ kompetentligining rivojlanganligini baholash orqali imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning mazmunidan kelib chiqqan holda tegishli xulosalarga kelish va maxsus dastur va modelni yaratish maqsadga muvofiqdir.

«Sud va tergov faoliyatida psixologning psixodiagnostik kompetentligini aniqlash so'rovnomasi» orqali takomillashtiruvchi o'quv dasturi (modeli) qo'llanilgandan keyin tadqiqot ishimizning ikkinchi bosqichida tajriba guruhida ishtirok etgan respondentlarning natijalarida o'sish bilan bir qatorda ahamiyatli statistik farqlar kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, «ish hujjatlari bilan ishlash orqali ma'lumot olishi va rasmiylashtira olishi (hujjatli manbaalar tahlili, kontent tahlil, biogragik va boshqa hujjatlar)» ($F=3,423$; $p\leq 0,05$), «laboratoriya eksperimentini (modellash tirish) qo'llay olishi» ($F=3,241$; $p\leq 0,05$), «umumiy rivojlanganlik darajasini (kognitiv, hissiy, xulqiy) baholay olishi» ($F=3,182$; $p\leq 0,05$), «psixodiagnostik yondashuv uslublarining o'zlashtirganlik darajasi (integrativ va sinergetik, nomotetik va ideogarfik yondashuv)» ($F=3,616$; $p\leq 0,05$), «retrospektiv va germeneytik baholash» ($F=3,428$; $p\leq 0,05$), «kreativ va tanqidiy fikrlash darajasi» ($F=3,219$; $p\leq 0,05$) omillarida ahamiyatli statistik farqlar kuzatilgan bo'lsa, «profayling usuli orqali ma'lumot olishi» ($F=2,745$; $p\leq 0,12$), omilida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi. Demak, psixologlarning sud va tergov faoliyatida faoliyatning huquqiy asoslari va uning chegarlari doirasini chuqur bilish, ma'lumot olish usullarini, modellash tirishni qo'llay olishi, shaxs taraqqiyoti qonuniyatini bilish, turli yondashuv uslublarining o'zlashtirilganligi, kreativ va tanqidiy fikrlash uslublarini takomillashtiruvchi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish ulardagi psixodiagnostik kompetentligini yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Ishtirokchilarning «ish hujjatlari bilan ishlash orqali asosli ma'lumot olishi va rasmiylashtira olishi (hujjatli manbaalar tahlili, kontent tahlil, biogragik va boshqa hujjatlar) imkoniyatlari»ni takomillashtirish maqsadida jinoyat va fuqarolik masalalariga tegishli tergov hujjatlari, Buxoro davlat universiteti huzuridagi psixologik xizmat markazi arxiviga saqlanayotgan 20 ta turli mavzularga oid sud psixologik ekspertizasiga oid hujjatlar taqdim qilindi. Shuningdek, o'quv moduli yaratilib, tegishli mavzular kiritildi va shu asosda o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Natijada samarali o'sishga erishildi. Mos ravishda tajriba guruhiga jalb qilingan otm psixolog mutaxassislarda boshqalarga nisbatan yuqori natija qayd etilib, ularda 2,9, maktab amaliyotchi psixologlarida 2,8, inspektor-psixologlarda 1,6 balga o'sish va ahamiyatli statistik farq kuzatildi ($M_{12}=7,1$; $M_{22}=5,9$ $M_{32}=6,1$; $F=3,423$; $p\leq 0,05$).

«Profayling usuli orqali ma'lumot olish» juda murakkab psixodiagnostik jarayon hisoblanib, bu borada O'zbekiston sharoitida hali mutaxassislarda yetarli tajriba va malaka mavjud emasligi o'rganilayotgan shaxsning tashqi qiyofasi va yuz ifodalari orqali ularga baho berish, sodir bo'lgan holat (hodisa) to'g'risida rost yoki yolg'on ma'lumot (ko'rsatuv) berganligiga aniqlik kiritishda turli qiyinchiliklar borligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, profayling texnikasi va uni qo'llashga doir mashg'ulotlarning qo'llanilganligi natijasida muayyan darajada muvaffaqiyatga erishilganligini qayd etish lozim. Bu omilda ham otm psixolog mutaxassislarda boshqalarga nisbatan yuqori natijaga erishilib, ularda o'rtacha o'sish 2,4, maktab amaliyotchi psixologlarida 1,3, inspektor-psixologlarda 0,9 balni tashkil qildi va kuchsiz statistik farq kuzatildi ($M_{12}=7,3$; $M_{22}=6,7$ $M_{32}=6,4$; $F=2,745$; $p\leq 0,12$).

Laboratoriya eksperimentini (modellashirish) qo'llay olish kompetensiyalarini takomillashtirish asnosida ishtirokchilarning ayblanuvchi (gumonlanuvchi), guvoh, jabrlanuvchi va boshqa jalb qilinganlarning psixologik portretlarining modellarini shakllantirish, ular tog'risida obrazlarni tasavvur qila olishlari, qolaversa, keyingi ruhiy holatini prognostik ifodalay (gipotetik baholay olish) olishlariga erishish nazarda tutilgan bo'lib, aynan ushbu omil bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkich yuqori qiymatni namoyon qilganligi bilan ahamiyatlidir. Natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, yuqori o'sish maktab amaliyotchi psixologlarida kuzatilib, ularda 3,1, inspektor-psixologlarda 2,8 va otm psixolog mutaxassislarida o'rtacha o'sish 1,9 balni tashkil qilgan bo'lsada yuqori samaradorlik baribir otm psixologlarida namoyon bo'ldi va kuchli ifodalangan farq aniqlandi ($M_{12}=8,1$; $M_{22}=7,8$; $M_{32}=7,1$; $F=3,241$; $p\leq 0,05$).

Umumiy rivojlanganlik darajasini (kognitiv, konativ, xulqiy) baholay olishi masalasi sud psixolog eksperti va psixolog-mutaxassislariga sud va tergovga jalb qilinganlarning aqliy va ruhiy rivojlanganligini baholash yuzasidan eng ko'p hal qilinishi lozim bo'lgan savol sifatida tergovchi va sudya tomonidan belgilanadi. Bunday psixodiagnostik kompetentlikning ahamiyati va zarurari har qanday ish uchun o'ta muhim hisoblanib, bu borada muntazam tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Oliy ta'lim tizimida psixologlarni tayyorlashda mutaxassislik fanlarining dasturiga ushbu jihatlarni inobatga olgan holda mavzularni kiritish va talabalarga yetarli darajada bilim berilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bakalavr bosqichida o'qitiladigan «Umumiy psixodiagnostika», «Eksperimental psixologiya», «Yuridik psixologiya» kabi fanlarni yanada chuqurroq o'qitish orqali ham yuqori samaraga erishish mumkinligini alohida qayd etish lozim. Tanlov fan sifatida yo'nalish xususiyatidan va ayni paytdagi jiddiy bo'lib turgan vaziyatdan kelib chiqib «Deviant xulq-atvor psixologiyasi» kabi fanlarni o'qitish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu omil bo'yicha olingan natijalarni tahlil qilar ekanmiz tadqiqotimiz davomida qo'llanilgan rivojlantiruvchi dastur va o'quv modulining samarali ta'sir etganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqori o'sish inspektor-psixologlarda kuzatilib, ular 2,1 balga, maktab amaliyotchi psixologlarida 1,7 balga, otm psixolog mutaxassislarida o'rtacha o'sish 1,5 balga ko'tarilib yuqori natijaga erishildi. Shuning bilan bir qatorda ushbu omil bo'yicha yuqori darajadagi kompetentlik otm psixolog mutaxassislarida ekanligi, shuningdek, kuchli ifodalangan farq qayd etildi ($M_{12}=8,6$; $M_{22}=7,1$; $M_{32}=6,2$; $F=3,182$; $p\leq 0,05$).

Bizning nazarimizda psixologlarning ushbu faoliyatni amalga oshirishlari uchun yana bir muhim bo'lgan komponent sifatida «Psixodiagnostik yondashuv uslublarining o'zlashtirganlik darajasi (integrativ va sinergetik, nomotetik va ideogarfik yondashuv)»ni takomillashtirish orqali sifatli psixodiagnostik tadqiqotni amalga oshirish va yechim yuzasidan xulosaga kelishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'pgina holatlarda sudga oid psixologik ekspertizalarni o'tkazishda stereotipik yondashuv asosida o'tkazilishining guvohi bo'lganmiz. Biz taklif qilayotgan ushbu jihatlarni chuqur o'zlashtirishlari natijasida hal qilinishi lozim bo'lgan masalani osonroq adekvat baholashga erishish mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, o'rganilayotgan shaxsni baholashda boshqa aynan u bilan aloqador insonlarning holat yuzasidan amalga oshirgan hatti-harakatlarini qiyoslash asosida, shuningdek, u bilan sodir bo'lgan holatda o'z shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Masalaning yana bir jihati borki, ishga aloqador bo'lgan barcha axborotlarni ichki sinergetik va tashki integratsiyasini, sodda tilda aytganda, bir belgining ham ichki ham tashqi belgilar bilan bog'liqligini tahlil qilish orqali haqiqatni aniqlash ham psixologlarning

professionalligini belgilaydi. Afsuski, keyingi paytlarda aynan mana shu masalada kam e'tibor qaratilayotganligi bu borada jiddiy bosh qotirish zarurligini ko'rsatmoqda. Olingan dastlabki natijalar ham fikrimizni tasdiqlab, muhim tavsiyalar ishlab chiqishimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Tajriba guruhlarida amalga oshirilgan ishlarimiz natijasida barcha ishtirokchilarda sezilarli o'sish bilan bir qatorda, muayyan farqlar kuzatildi. Xususan, ushbu omil yuzasidan yuqori, ya'ni 2,8 balga o'sish inspektor-psixologlarda kuzatilgan bo'lsada, ularning umumiy natijalari boshqa ishtirokchilarga nisbatan past ekanligi, otm psixolog mutaxassislarida o'rtacha o'sish eng kam, ya'ni 1,8 balga ko'tarilgan bo'lsada, umumiy o'rtacha qiymat eng yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta, kasbiy faoliyatdagi tajribaning ham ta'siri borligidan dalolat beradi ($M_{12}=7,2$; $M_{22}=6,2$; $M_{32}=5,9$; $F=3,616$; $p\leq 0,05$).

Psixologlarning tadqiq qilinayotgan shaxsning o'zi bilan sodir bo'lgan hodisaga olib kelgan belgilarning sabablarini sinchiklab tahlil qilish, uning o'tmish izlarining shaxsiy xulq-atvoriga qanchalik ahamiyat kasb etganligini, aynan ushbu holatning mazmun-mohiyatidagi o'rnini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Retrospeksiya o'tmishdagi voqea va hodisalar, bajarilgan faoliyatni tahlil etishga xizmat qiladi.

Refleksiya bu holatda imkoniyat, motiv, shart-sharoit, faoliyat bosqichi va natijasi hamda uning alohida bosqichini qamrab oladi. «Retrospektiv va germeneytik baholash» omili bo'yicha ham tajriba guruhiga jalb qilingan ishtirokchilarning natijalarida o'sish kuzatilib, umumiy o'rtacha darajadagi rivojlanganlikka erishilib, kuchli ifodalangan farq kuzatildi ($M_{12}=6,9$; $M_{22}=5,4$; $M_{32}=5,2$; $F=3,428$; $p\leq 0,05$). Aynan ushbu omil boshqa omillarga nisbatan bir oz past darajadagi takomillashuvni namoyon qildi. Demak, masalaning ana shu jihatiga alohida e'tibor qaratish va muntazam rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatdi.

Shaxsning hozirgi kundagi dunyo va o'zini maqsadga muvofiq o'zgartirishdagi imkoniyatlarini amalga oshirishdagi faollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijodiy salohiyatning rivojlanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Insonning ijodiy yutuqlari, izlanishlari, rejalari qanchalik ko'p bo'lsa, shaxsning ijodiy komponenti qanchalik amalga oshsa, ijodiy salohiyat va ijodiy salohiyatning amalga oshmagan qismining darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Har xil muhim qarorlarni qabul qilish inson ichki xususiyatlarini joriy qiladi va insonning ilgari tajribalariga egaligi muhimdir. Muhim qarorlar va ularni amalda qo'llash ma'lum darajada ijtimoiy munosabatlar bilan birga keladi, bu davrda inson qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa unga o'z kuchini his qilish va «Men»ni idrok etishni o'zgartirish imkonini beradi. Bunday holda, asosiy maqsad inson tomonidan ma'lum bir yo'lni tanlashdir. Odatda tashqi muhit insonga aniq muammoni joriy qilmaydi, bu aniq natijadir. Bu tanlov amalga oshirilgunga qadar, har bir vosita qanchalik kuchli bo'lmasin, faqat bitta imkoniyatni ifodalaydi. Hammamizga ma'lumki, sud va tergov amaliyotida o'ta muhim masalalar muhokama qilinib, inson taqdiri hal bo'ladi. Ko'rilayotgan ish yuzasidan haqiqatni aniqlash, turlich uslublarni qo'llagan holda adolatni qaror toptirishda psixologdan kreativ fikrlashni talab qiladi. Voqea-hodisaga yangicha yondashuvga tayanilgan holda respondentlardan aniq va xolis fakt va dalillarni osongina qo'lga kiritish olish imkoniyatlarining taraqqiy qilganligi psixologning eng katta yutug'i hisoblanadi. Dastlabki olingan natijalardan kelib chiqqan holda olib borgan amaliy ishlarimizning ta'sirida tadqiqotda jalb qilingan tajriba guruhlarida ishtirokchilarning ballarida ahamiyatli o'sish namoyon bo'ldi. Xususan, otm psixolog mutaxassislarning ballari yuqori darajada, qolgan ikki guruhning natijalari o'rta darajadagi

normaga kelganligi samarali psixodiagnostik baholay olish imkoniyatlarining kengayganligidan dalolat berib turibdi. Ushbu omil bo'yicha ham kuchli ifodalangan farq mavjudligi namoyon bo'ldi ($M_{12}=7,8$; $M_{22}=5,9$; $M_{32}=5,4$; $F=3,219$; $p \leq 0,05$).

Umuman, sud va tergov faoliyatida psixologning sifatli psixodiagnostik tadbirlarni amalga oshirishi ishning samarasini ko'rsatadi. Kuzatilgan ma'lumotlarni tahlil qilar ekamniz, ishtirokchilarning natijalarida muayyan tafovutlar bilan birga, bir qator omillar bo'yicha talab darajasidagi kompetentlik rivojlanganligini qayd etish lozim, qolaversa, maktab amaiyotchi psixologlari va voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlarning ushbu faoliyatga jalb qilinishi qanchalik ahamiyatli bo'lsa, bu faoliyat natijasida erishilgan yutuqlar ularning asosiy kasbiy faoliyatda ham samarali ishlashlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Olimov Laziz Yarashovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741

SCOPUS ID 57215004089

EKSTREMAL VAZIYATLARDA AHOLIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH



Avezov Olmos Ravshanovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqola ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishning muhimligini va samarali yondashuvlarni tahlil qiladi. Shuningdek, bolalar, yoshlar, kattalar va keksa yoshdagilar kabi turli ijtimoiy guruhlariga mos ravishda psixologik yordam ko'rsatishning metodikasi ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: Psixologik yordam tizimini tashkil etish va uni ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirishga oid yondashuvlar ruhiy salomatlikni tiklash va aholi farovonligini yaxshilash va ularning tashqi shart-sharoitlar bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Aholining turli qatlamlariga mos yondashuvlar zarur bo'lib, ularning psixologik yordamga ehtiyojlari bir-biridan farq qilishi, ekstremal vaziyatlar sharoitida aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar orqali tahlil qilingan;

bolalarga psixologik yordam ko'rsatishning samarali usullaridan biri o'yin orqali davolash, o'yin orqali bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyati berilganida, ularning stress darajasi kamayishi va ruhiy holatlari yaxshilanishi isbotlangan;

ekstremal vaziyatlarda aholining turli qatlamlariga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida turli usullarni qo'llash natijasida shaxs psixoemotsional holatini barqarorlashtirish, stressga chidamlilikni rivojlantirishning shaxsning emotsional o'zini-o'zini baholash strategiyalarini ustuvor shakllanishi isbotlangan.

XULOSA: Ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatish ahamiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi aholi guruhi va holatiga qarab farq qiladi. Psixologik yordamning samarali bo'lishi uchun, yordam ko'rsatiladigan guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur. Statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik yordamni vaqtida va sifatli tashkil etish, aholi orasidagi ruhiy salomatlikni tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Ekstremal vaziyatlar, psixologik yordam, post-traumatik stress, ijtimoiy guruhlar, stressni boshqarish, bolalar, yoshlar, kattalar, keksa yoshdagilar, ruhiy salomatlik, tabiiy ofatlar, pandemiya, psixologik xizmatlar.

УЛУЧШЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ НАСЕЛЕНИЮ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Авезов Олмос Равшанович

Доктор философии (PhD) по психологии, доцент

Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируется важность оказания психологической поддержки населению в экстремальных ситуациях и эффективные подходы. Также рассмотрен метод оказания психологической поддержки различным социальным группам, таким как дети, молодежь, взрослые и пожилые люди.

ЦЕЛЬ: Подходы к организации системы психологической поддержки и ее адаптации к социальным потребностям заключаются в разработке практических рекомендаций, основанных на восстановлении психического здоровья и повышении благосостояния населения и их взаимном развитии с внешними условиями.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:

Необходимы соответствующие подходы к различным слоям населения, их потребности в психологической поддержке отличаются друг от друга, основные направления оказания психологической поддержки слоям населения в экстремальных ситуациях проанализированы на основе статистических данных и научных исследований;

одним из эффективных методов оказания психологической поддержки детям является лечение через игру, доказано, что когда детям предоставляется возможность выражать свои чувства через игру, у них снижается уровень стресса и улучшается психическое состояние;

В результате использования различных методов в процессе оказания психологической помощи разным слоям населения в экстремальных ситуациях доказано, что приоритетным формированием стратегий эмоциональной самооценки личности является стабилизация психоэмоционального состояния человека. человека, развивать стрессоустойчивость.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ:

В экстремальных ситуациях важно оказать психологическую поддержку населению, и ее эффективность варьируется в зависимости от группы населения и ситуации. Чтобы психологическая поддержка была эффективной, необходимо учитывать потребности групп, которым оказывается помощь, и разрабатывать специальные программы. Статистические данные и научные исследования показывают, что своевременная и качественная организация психологической помощи играет важную роль в восстановлении психического здоровья населения.

Ключевые слова: Экстремальные ситуации, психологическая поддержка, посттравматический стресс, социальные группы, управление стрессом, дети, молодежь, взрослые, пожилые люди, психическое здоровье, стихийные бедствия, пандемия, психологические услуги.

IMPROVING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO THE POPULATION IN EXTREME SITUATIONS

Avezov Olmos Ravshanovich

*Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Asian International University*

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the importance and effective approaches to providing psychological support to populations in extreme situations. It also examines the methodology for providing psychological support to different social groups, such as children, youth, adults, and the elderly.

THE GOAL: Approaches to organizing a psychological support system and adapting it to social needs consist of developing practical recommendations based on restoring mental health and improving the well-being of the population and their development in harmony with external conditions.

MATERIALS AND METHODS: Different approaches are needed for different segments of the population, and their needs for psychological assistance differ from each other. The main directions of providing psychological assistance to segments of the population in extreme situations have been analyzed through statistical data and scientific research;

It has been proven that one of the effective methods of providing psychological assistance to children is play therapy. When children are given the opportunity to express their feelings through play, their stress level decreases and their mental state improves;

As a result of using various methods in the process of providing psychological services to different segments of the population in extreme situations, it has been proven that stabilizing the psycho-emotional state of a person, developing stress resistance, and the formation of emotional self-assessment strategies of a person are prioritized.

CONCLUSION: In extreme situations, psychological assistance to the population is important, and its effectiveness varies depending on the population group and situation. For psychological assistance to be effective, it is necessary to take into account the needs of the groups to be assisted and develop special programs. Statistical data and scientific research show that timely and high-quality organization of psychological assistance plays an important role in restoring mental health among the population.

Key words: Extreme situations, psychological support, post-traumatic stress, social groups, stress management, children, youth, adults, elderly people, mental health, natural disasters, pandemics, psychological services.

Ekstremal vaziyatlar, masalan, tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, urushlar va pandemiyalar, insonlar uchun psixologik jihatdan jiddiy tahdidlar keltiradi. Bu hodisalar kishilarning ruhiy holatini bevosita ta'sir qiladi va ularga jismoniy va psixologik travmalar yetkazadi. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat ko'rsatish ahamiyati yuksakdir, chunki to'g'ri tashkil etilgan psixologik yordam, odamlarning stressni engishiga va ularning ruhiy holatlarini tiklashga yordam beradi. Aholining turli qatlamlariga mos yondashuvlar zarur bo'lib, ularning psixologik yordamga ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Ushbu maqolada ekstremal vaziyatlar sharoitida aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar orqali tahlil qilinadi.

Ekstremal vaziyatlar inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, 2004-yilda Indoneziyadagi tsunami oqibatida yuzaga kelgan falokat, 280,000 dan ortiq odamning hayotini

yo'qotishiga olib keldi va millionlab insonlar beva qoldi. Ushbu tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan psixologik muammolar, odamlar orasida qayg'u, stress, travma va depressiyani keltirib chiqardi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining (WHO) 2005-yildagi hisobotiga ko'ra, sunamidani keyin Indoneziyadagi odamlarning 30 foizidan ortig'i psixologik muammolarga duch keldi, shuningdek, depressiya va qayg'u holatlari keng tarqaldi.

Bundan tashqari, 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi ham insonlarning psixologik holatini yirik miqyosda ta'sir qildi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya davrida butun dunyo bo'yicha 60%dan ortiq odamlar psixologik muammolar bilan yuzlashdi, jumladan, depressiya, xavotir va stress holatlari keng tarqalgan. Shu bilan birga, pandemiya davrida bolalar va yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolari sezilarli darajada oshdi. Global Survey of Mental Health in the Covid-19 Pandemic (2021) hisobotida aytilishicha, 2020-yilda yoshlar o'rtasida depressiya holatlari 25% ga oshgan.

Bolalarga psixologik yordam ko'rsatish. Bolalar, o'zining psixologik rivojlanish jarayonida bo'lganligi sababli, ekstremal vaziyatlarda kattalarga qaraganda ko'proq psixologik stressga uchraydilar. 2011-yildagi Fukuşima yadroviy falokati misolida, Yaponiya psixologlarining tahlil qilishicha, 12 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 70% dan ortig'i ruhiy travmalarni boshdan kechirgan. Xususan, ota-onalarini yo'qotgan yoki xavfli holatlarda bo'lgan bolalarda post-traumatik stress (PTSD) holatlari sezilarli darajada oshgan.

Bolalarga psixologik yordam ko'rsatishning samarali usullaridan biri o'yin orqali davolashdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin orqali bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyati berilganida, ularning stress darajasi kamayadi va ruhiy holatlari yaxshilanadi. Masalan, 2013-yilda AQShda o'tkazilgan tadqiqotda, ekstremal vaziyatlardan keyin psixologik yordam ko'rsatilgan bolalar orasida, o'yin orqali davolanish samaradorligi 60% ga oshganini ko'rsatdi.

Yoshlarga psixologik yordam ko'rsatish. Yoshlar, o'zini topish va mustaqil fikrlash davrida bo'lishgani uchun, ekstremal vaziyatlar ularga katta psixologik stress va tashvishlarni keltiradi. 2015-yilda Frantsiyada o'tkazilgan tadqiqotda, Parijda yuz bergan teraktlar natijasida 18-25 yoshdagi yoshlarning 35% i post-traumatik stressni boshdan kechirganligini bildirgan. Ushbu yoshlar o'zlarini zaif va beqaror his qilishadi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumot tarqatish, ta'limni davom ettirishda qiynalishadi.

Yoshlar uchun psixologik yordamda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatni ta'minlash, psixologik stressni boshqarish bo'yicha treninglar va guruh yordam shakllari samarali bo'lishi mumkin. 2018-yilda Avstraliyada o'tkazilgan tadqiqotda, yoshlarni guruhlar orqali psixologik yordamga jalb qilish, ularning stress darajasini 40% ga kamaytirganini ko'rsatdi.

Kattalarga psixologik yordam ko'rsatish. Kattalar, xususan, ota-onalar va rahbarlar, ekstremal vaziyatlarda ko'pincha o'z oilalarining xavfsizligi haqida qayg'urishadi. Masalan, 2008-yilda O'zbekistonning Farg'ona viloyatida sodir bo'lgan yirik tabiiy ofat – zilzila vaqtida, aholining 60% dan ortig'i psixologik yordamga muhtoj bo'lgan. Bu jarayonda ko'plab odamlar o'zlarini bezovta, xavf ostida va ko'p holatlarda noqulay his qilishgan.

Kattalar uchun psixologik yordamda, stressni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha maslahatlar va guruh terapiyasi ko'rsatilishi muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stressni boshqarish bo'yicha treninglar kattalar orasida stressni 30-50% ga kamaytiradi.

Keksa yoshdagilar ga psixologik yordam ko'rsatish. Keksa yoshdagilar, ularning jismoniy va psixologik holati zaif bo'lganligi sababli, ekstremal vaziyatlar ularga katta zarar yetkazishi mumkin. 2020-yilda AQShda o'tkazilgan tadqiqotda, COVID-19 pandemiyasi davrida keksa yoshdagi odamlarning 40% dan ortig'i depressiya va xavotir holatlariga duchor bo'lgan. Ularning 25% i yakkalanish va ijtimoiy izolyatsiya tufayli ruhiy salomatlikni yo'qotganini bildirgan.

1-jadval

Ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik ta'sir ko'rsatgan holatlar

№	Vaziyat	Ta'sir ko'lami (%)	Izoh
1	2004-yil Indoneziya tsunamisi	30%	Psixologik muammolarga duch kelgan aholining ulushi (WHO, 2005)
2	2011-yil Fukuşima yadroviy falokati	70%	12 yoshgacha bo'lgan bolalarda ruhiy travma holatlari
3	2020-yil COVID-19 pandemiyasi (jami)	60%	Global miqyosda depressiya va stress kuzatilgan aholining ulushi
4	2020-yil COVID-19 (yoshlar orasida)	25%	Yoshlar orasida depressiya holatlari oshgan
5	2020-yil COVID-19 (keksalar orasida)	40%	Keksalar orasida depressiya va xavotir holatlari
6	2015-yil Parij teraktlari (Frantsiya)	35%	18–25 yoshdagilar orasida PTSD kuzatilgan
7	2008-yil Farg'ona viloyatidagi zilzila	60%	O'zbekiston aholisining psixologik yordamga ehtiyoji aniqlangan

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, ekstremal vaziyatlar aholining ruhiy salomatligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Masalan, 2004-yilda Indoneziyada yuz bergan tsunami natijasida aholining 30 foizidan ortig'i psixologik muammolarga duch kelgan, 2011-yilgi Fukuşima yadroviy falokatidan keyin esa 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning 70 foizi ruhiy travmalarni boshdan kechirgan. 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab keng miqyosda psixologik muammolarni yuzaga keltirgan bo'lib, umumiy aholining 60 foizida depressiya va stress holatlari kuzatilgan. Ayniqsa, yoshlar orasida depressiya 25 foizga oshgan, keksalar orasida esa 40 foizga yaqin insonlar xavotir va depressiyaga chalingan. 2015-yilda Parijda yuz bergan teraktlardan so'ng, 18–25 yoshdagi yoshlarda 35 foizga yaqin post-travmatik stress holatlari aniqlangan. Shuningdek, 2008-yilda O'zbekistonning Farg'ona viloyatida sodir bo'lgan zilzila vaqtida aholining 60 foizi psixologik yordamga muhtoj bo'lgan. Bu raqamlar ekstremal holatlarda aholining turli qatlamlariga mo'ljallangan, tizimli va samarali psixologik xizmat ko'rsatish zaruriyatini yaqqol namoyon qiladi.

Keksa yoshdagilar uchun psixologik yordamda, individual maslahatlar, jismoniy faollikni rag'batlantirish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va jamoalar bilan bog'lanishlari zarur.

2021-yilda Kanadada o'tkazilgan tadqiqotda, keksa yoshdagilarni ijtimoiy guruhlariga jalb qilish, ularning ruhiy holatini 50% ga yaxshilashini ko'rsatdi.

Psixologik yordamning tashkiliy asoslari. Psixologik yordamning samarali bo'lishi uchun, uning tashkilotini to'g'ri rejalashtirish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik xizmatlar tizimi yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Masalan, 2019-yilda Yaponiya hukumati tomonidan tabiiy ofatlardan keyin psixologik yordam tizimi tashkil etilganida, 100,000dan ortiq odamga yordam ko'rsatildi va bu odamlarning 70% dan ortig'i ruhiy holatlarini yaxshilashgan.

2-jadval

Psixologik yordamning samaradorligi

Mamlakat / Hudud	Tashkiliy Yondashuv	Samaradorlik (%):	Izoh
Yaponiya	Tashqi yordam markazlari va mobil guruhlar	70	100,000dan ortiq odamga yordam ko'rsatilgan
Buyuk Britaniya	Favqulodda psixologik tayyorlik dasturlari	85	Mutaxassislar favqulodda vaziyatga tayyor bo'lgan
Kanada	Mahalliy klinikalar bilan integratsiyalashgan tizim	75	Ko'p tarmoqli yondashuvlar asosida xizmat ko'rsatilgan

Yuqoridagi jadvalda ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish tizimining tashkiliy asoslari bo'yicha turli mamlakatlar tajribasi taqqoslab berilgan. Masalan, Yaponiyada favqulodda vaziyatlardan so'ng tashqi yordam markazlari va mobil psixologik guruhlar tashkil etilgan bo'lib, ularning samaradorligi 70% deb baholangan. Bu tizim orqali 100,000dan ortiq insonlarga psixologik yordam ko'rsatilgan. Buyuk Britaniyada esa favqulodda holatlarda ishlashga tayyor psixologlar maxsus dasturlar orqali tayyorlanib, yuqori samaradorlik (85%) ko'rsatgan. Kanadada mahalliy klinikalar bilan integratsiyalashgan model joriy etilgan bo'lib, bu yondashuv xizmatlarning uzluksiz va tizimli ishlashini ta'minlagan.

3-jadval

Psixologik yordamning tashkiliy asoslari

Asosiy yo'nalishlar	Toshkent	Samarqand	Farg'ona	Buxoro	Xorazm
Psixologik markazlar soni (viloyatlar bo'yicha)	18.0	12.0	10.0	9.0	7.0
Malakali psixologlar ulushi (%)	85.0	78.0	80.0	72.0	68.0
Favqulodda vaziyatga tayyor psixologlar soni	35.0	22.0	25.0	18.0	15.0

Onlayn xizmatlar qamrovi (%)	70.0	55.0	60.0	50.0	45.0
Psixologik xizmatga ajratilgan byudjet ulushi (%)	1.2	0.9	1.0	0.8	0.7

Yuqoridagi murakkab statistik jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik yordamning tashkiliy asoslari hududlar bo'yicha ancha farqlanadi. Jumladan, Toshkent shahrida psixologik markazlar soni 18 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori. Samarqandda bu ko'rsatkich 12 ta, Farg'onada 10 ta, Buxoroda 9 ta, Xorazmda esa atigi 7 ta markaz faoliyat yuritmoqda. Malakali psixologlar ulushi bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich Toshkentga tegishli bo'lib, bu yerda psixologlarning 85 foizi malakali deb baholangan. Farg'ona (80%) va Samarqand (78%) viloyatlari ham bu borada ijobiy natijalarga ega, Xorazmda esa bu ko'rsatkich 68 foizni tashkil qiladi.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorlangan psixologlar soni bo'yicha ham yetakchilik Toshkentga tegishli – bu yerda 35 nafar mutaxassis shunday holatlarga tayyor. Farg'onada bu ko'rsatkich 25 nafar, Samarqandda 22, Buxoroda 18, Xorazmda esa faqat 15 nafar psixolog favqulodda vaziyatlarga tayyor holatda. Onlayn psixologik xizmatlar qamrovi ham hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanmoqda. Toshkentda 70% aholiga onlayn xizmatlar ko'rsatilmoqda, Farg'onada bu ko'rsatkich 60%, Buxoroda esa 50% ni tashkil qiladi, Xorazmda esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 45% dir.

Byudjet ajratmalari nuqtai nazaridan, psixologik xizmat uchun eng katta moliyaviy resurs Toshkentda (1.2%) ajratilgan bo'lsa, Farg'ona (1.0%) va Samarqand (0.9%) ham bu yo'nalishda yetarlicha mablag' ajratmoqda. Buxoro (0.8%) va Xorazm (0.7%) esa eng past ko'rsatkichlarga ega. Umuman olganda, ushbu ma'lumotlar psixologik xizmat ko'rsatish tizimini hududiy darajada takomillashtirish va resurslarni yanada teng taqsimlash zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa aholiga favqulodda vaziyatlarda samarali va tezkor psixologik yordam ko'rsatishni ta'minlash uchun muhim omildir.

O'zbekistonda esa so'nggi yillarda hududiy shifoxonalar qoshida psixologik yordam bo'limlari tashkil etila boshlandi. Bu tizim hali rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, 60% samaradorlik ko'rsatkichiga ega. AQShda esa federal va shtat darajasida koordinatsiyalangan psixologik xizmat tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizimning samaradorligi 80% ga yetgan. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik yordamni samarali tashkil etishda tizimlilik, mutaxassis tayyorlash, va xizmatlar integratsiyasi muhim rol o'ynaydi. Tajribalar shuni tasdiqlaydiki, markazlashgan va ko'p tarmoqli yondashuvlar xizmat sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, psixologik yordam tizimi doimiy ravishda tayyorlanishi va yangilanishi zarur. 2017-yilda Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, psixologik yordam tizimi uchun tayyorgarlik ko'rgan psixologlar va mutaxassislar, zarurat tug'ilganida, yordamni samarali va tez taqdim eta olishgan.

Demak, ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatish ahamiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi aholi guruhi va holatiga qarab farq qiladi.

Psixologik yordamning samarali bo'lishi uchun, yordam ko'rsatiladigan guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ravshanovich, A. O., & Tavakkal o'g'li, S. S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA IJODIY O'YINLARNING AMALIY AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 2(14), 344-347.
2. Gafurova, F. O., & Avezov, O. R. (2024). PSIXOLOGIYADA SHAXS IDENTIVLIGI MUAMMOSINI TADQIQ QILISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 19(2), 33-37.
3. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT KORSATISH PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. *MASTERS*, 2(1), 52-55.
4. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. *Science and Education*, 3(4), 747-752.
5. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotidagi tutgan o'rni. *Science and Education*, 3(4), 753-759.
6. Avezov, O. R., & To, A. S. O. G. L. (2022). Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 3(4), 717-724.
7. Avezov, O. R. (2024). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL EFFECTS ON PERSONS IN EXTREME AND EMERGENCY SITUATIONS. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(1), 85-90.
8. Avezov, O. R. (2024). SPORT PSIXOLOGIYASI VA UNING BUGUNGI ISTIQBOLLARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(30), 308-312.
9. Avezov, O. R. (2024). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL EFFECTS ON PERSONS IN EXTREME AND EMERGENCY SITUATIONS. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(1), 85-90.
10. Olimovna, H. N., & Avezov, R. (2024). "TARBIYASI QIYIN" O'SMIRLAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 2(17), 1183-1188.
11. Xasanova, S. J., & Avezov, O. R. (2024). O'SMIR SHAXSINI SHAKLLANISHIDA O'Z-O'ZINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Scientific Impulse*, 2(17), 1179-1182.
12. Qobulova, D. M., & Avezov, O. R. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARDA ART TERAPIYA ORQALI TASAVVUR VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 2(17), 1189-1194.
13. Ravshanovich, A. O. (2024). XORIJIY PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIK MAKTABLARNING ORNI. *PEDAGOG*, 7(4), 178-183.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Avezov Olmos Ravshanovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

avezov.olmos@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0622-3419

KEKSALIK DAVRIDA RUHIY SALOMATLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARINING MATEMATIK-STATISTIK TAHLILI



Ikromova Sitora Akbarovna

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent,
Osiyo xalqaro universiteti*

Аннотация

KIRISH: Keksalik davrida inson salomatligi, ayniqsa, ruhiy salomatlik masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Yoshi ulg'aygan insonlarda stress, depressiya, yolg'izlik hissi va kognitiv buzilishlar ko'proq uchraydi. Shu sababli keksalar ruhiy salomatligining konseptual asoslarini aniqlash va ularni matematik-statistik tahlil qilish bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy vazifalardan hisoblanadi.

MAQSAD: Keksalik davrida ruhiy salomatlikka ta'sir etuvchi asosiy psixologik va ijtimoiy omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini matematik-statistik metodlar asosida tahlil qilish hamda konseptual modelini ishlab chiqish.

MATERIAL VA METODLAR: Ushbu tadqiqotda nazariy manbalarni tahlil qilish, so'rovnoma va suhbat metodlari, shuningdek, amaliy psixologik dasturlar tahlili asosida ma'lumotlar to'plandi va umumlashtirildi. Empirik material sifatida keksalar bilan olib borilgan suhbatlardan va mavjud ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

XULOSA: Tadqiqot natijalariga ko'ra, keksalik davrida ruhiy salomatlik darajasi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik moslashuvchanlik va depressiv holat ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi ($p < 0.05$). Regressiya tahlili asosida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi keksalar ruhiy salomatligining asosiy prediktori sifatida belgilandi. Shuningdek, klaster tahlili orqali uchta asosiy profil: yuqori ruhiy salomatlik, o'rtacha va past ruhiy salomatlikka ega guruhlar ajratildi. Tadqiqot natijalari keksalik davrida ruhiy salomatlikni saqlash va mustahkamlash bo'yicha psixologik xizmatlar va ijtimoiy dasturlarni takomillashtirish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: keksalik, ruhiy salomatlik, depressiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yolg'izlik, statistik tahlil, psixologik diagnostika.

МАТЕМАТИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ОСНОВ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ В ПОЖИЛОМ ВОЗРАСТЕ

Икромова Ситора Акбаровна

*Доктор философии (PhD) по психологии, доцент,
Азиатский международный университет*

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: У пожилых людей чаще наблюдаются стресс, депрессия, чувство одиночества и когнитивные нарушения. Поэтому выявление концептуальных основ психического здоровья пожилых людей и их математико-статистический анализ является важной научной и практической задачей.

ЦЕЛЬ: Выявить основные психологические и социальные факторы, влияющие на психическое здоровье в пожилом возрасте, проанализировать их взаимосвязи с помощью математико-статистических методов и разработать концептуальную модель.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Анализ теоретических источников, анкетирование и интервью, а также изучение практических психологических программ. Эмпирический материал собран на основе интервью с пожилыми людьми и анализа научных исследований.

ВЫВОДЫ: Результаты показали, что уровень психического здоровья в пожилом возрасте напрямую связан с социальной поддержкой, психологической адаптивностью и показателями депрессивных состояний ($p < 0,05$). Согласно регрессионному анализу, уровень социальной поддержки определен как основной предиктор психического здоровья пожилых людей. Кластерный анализ выделил три основных профиля: группы с высоким, средним и низким уровнем психического здоровья. Полученные результаты служат концептуальной основой для совершенствования психологических служб и социальных программ.

Ключевые слова: пожилой возраст, психическое здоровье, депрессия, социальная поддержка, одиночество, статистический анализ, психологическая диагностика.

PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE AND STRATEGIES FOR SUPPORTING MENTAL HEALTH IN THE ELDERLY

Ikromova Sitara Akbarovna

*Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor,
Asian International University*

Annotation

INTRODUCTION: In old age, human health, especially mental health issues, are becoming increasingly important. Older individuals are more likely to experience stress, depression, loneliness, and cognitive impairments. Therefore, identifying the conceptual foundations of mental health in old age and analyzing them using mathematical-statistical methods is an important scientific and practical task today.

THE GOAL: To identify key psychological and social factors affecting mental health in old age, analyze their interrelations using mathematical-statistical methods, and develop a conceptual model.

MATERIALS AND METHODS: Analysis of theoretical sources, surveys, interviews, and evaluation of practical psychological programs. Empirical material was gathered through interviews with elderly participants and analysis of existing research studies.

CONCLUSION: The results showed that the level of mental health in old age is directly related to social support, psychological adaptability, and indicators of depressive states ($p < 0.05$). According to regression analysis, social support level was identified as the main predictor of mental health in elderly people. Cluster analysis identified three main profiles: high, medium, and low mental health groups. The research findings serve as a conceptual basis for improving psychological services and social programs.

Keywords: old age, mental health, depression, social support, loneliness, statistical analysis, psychological diagnostics.


Keksalik davridagi ruhiy salomatlikni chuqur o'rganish, faqat nazariy yondashuvlar bilan chegaralanmasdan, aniq raqamli tahlil va statistik asoslantirishni talab etadi. Buning uchun ruhiy holatning mezonlari sifatida depressiv simptomlar darajasi, ijtimoiy faollik ko'rsatkichi, hayotdan qoniqish darajasi, shuningdek, psixologik barqarorlik kabi parametrlar olinadi. Ushbu ko'rsatkichlarni o'lchash va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashda matematik-statistik usullardan foydalanish ilmiy aniqlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida, $N=420$ nafar keksa yoshdagi respondentlar ishtirokida quyidagi metodlar qo'llanildi:

- Deskriptiv statistiklarda O'rtacha qiymat, dispersiya, median, modalar orqali ruhiy holat parametrlarining umumiy tasviri.
- Korrelyatsion tahlil (Pearson yoki Spearman koeffitsienti): Ruhiy salomatlik komponentlari (masalan, ijtimoiy izolyatsiya va depressiya darajasi) o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash uchun.
- Regressiya tahlili: Ruhiy salomatlikka ta'sir qiluvchi omillar (yolg'izlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sog'liq holati) ta'sirining kuchi va yo'nalishini baholash.
- Klasterning statistik tahlili: Keks respondentlarni ruhiy salomatlik darajasi bo'yicha guruhlariga ajratish va har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.
- T-test yoki ANOVA: Turli ijtimoiy-demografik guruhlar (masalan, yolg'iz yashovchilar va oila bilan yashovchilar) o'rtasida farqlar mavjudligini aniqlash.

Natijalar ruhiy salomatlikni belgilovchi omillar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, statistik tahlil natijalariga ko'ra, kuchli ijtimoiy aloqalarga ega bo'lgan keksalarda depressiv simptomlar darajasi sezilarli darajada past ekani aniqlangan ($r = -0.62$, $p < 0.01$).

Bu kabi empirik asoslangan yondashuv, ruhiy salomatlikni konseptual jihatdan to'liq tushunishga va uni amaliy psixologik xizmatlar bilan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.



Yuqoridagi grafikda 420 nafar keksa respondentning to'rtta asosiy psixologik ko'rsatkichi o'rtasidagi **korrelyatsion bog'liqliklar** aks ettirilgan. Grafik quyidagilarni ko'rsatadi:

- **Depressiya** darajasi **hayotdan qoniqish** bilan teskari bog'langan.
- **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash** kuchaygan sari **yolg'izlik** kamayadi.
- **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash** past bo'lsa, **depressiya** yuqori bo'lishi mumkin.

1-jadval: kengaytirilgan regressiya modeli natijalari

Ko'rsatkich	Koeffitsient (B)	Standart xatolik (SE)	t-statistikasi (t)	p-qiyamat (P)	95% ishonch oralig'i
Doimiy (Intercept)	74.693	1.700	43.94	0.000	[71.35; 78.04]
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	-0.094	0.014	-6.63	0.000	[-0.122; -0.067]
Yolg'izlik	0.242	0.015	16.50	0.000	[0.212; 0.271]
Hayotdan qoniqish	-0.194	0.016	-12.26	0.000	[-0.226; -0.163]

Model ko'rsatkichlari	Qiymat
R-squared (R^2)	0.547
Adj. R-squared	0.543
F-statistic	163.3 (p=0.000)
Observations (N)	420

Natijalar sharhi:

- **$R^2=0.547$** : Depressiyaning 54.7% o'zgarishi ushbu uchta omil bilan izohlanadi.
- **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash**: Har bir birlik ortishi depressiya darajasini 0.094 birlikka kamaytiradi ($p<0.001$).
- **Yolg'izlik**: Har bir birlik ortishi depressiya darajasini 0.242 birlikka oshiradi ($p<0.001$).

• **Hayotdan qoniqish:** Har bir birlik ortishi depressiya darajasini 0.194 birlikka kamaytiradi ($p < 0.001$).

Ushbu tadqiqot natijalari keksalik davrida ruhiy salomatlikning turli omillar bilan qanday bog'liqligini matematik-statistik yondashuv asosida tahlil qilish imkonini berdi. Regressiya tahlili shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi oshgani sari depressiya darajasi pasayadi, yolg'izlik hissi kuchaygan sari esa depressiya kuchayadi. Shuningdek, hayotdan qoniqishning yuqoriligi ham ruhiy salomatlikni ijobiy tomonga o'zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi.

Kengaytirilgan statistik model depressiyani 54,7% aniqlikda prognoz qila olishi, bu omillar keksalar ruhiy holatini izohlashda sezilarli ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, keksalar bilan ishlashda faqat tibbiy emas, balki psixosotsial qo'llab-quvvatlovchi yondashuvlar ham dolzarbdir.

Demak, keksalikda ruhiy salomatlikni mustahkamlash uchun jamiyatda ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, yolg'izlikni kamaytirish va hayotdan mamnunlikni oshirishga qaratilgan profilaktik hamda psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aslimova, M. H. (2022). Gerontopsixologiya asoslari. O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Berkman, L. F., & Glass, T. (2000). Social integration, social networks, social support, and health. In L. F. Berkman & I. Kawachi (Eds.), *Social epidemiology* (pp. 137–173). Oxford University Press.
3. Cacioppo, J. T., & Cacioppo, S. (2014). Social relationships and health: The toxic effects of perceived social isolation. *Social and Personality Psychology Compass*, 8(2), 58–72. <https://doi.org/10.1111/spc3.12087>
4. Limonov, L. V. (2018). Psikhicheskoe zdorov'e pozhilykh lyudey: sovremennye podkhody. *Meditinskaya psikhologiya*.
5. Pinquart, M., & Sörensen, S. (2001). Influences of socioeconomic status, social network, and competence on subjective well-being in later life: A meta-analysis. *Psychology and Aging*, 16(2), 187–224. <https://doi.org/10.1037/0882-7974.16.2.187>
6. Mirsaidov, A. (2021). Keksalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Zarafshon nashriyoti.
7. World Health Organization. (2017). Mental health of older adults. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/mental-health-of-older-adults>
8. Field, A. (2013). *Discovering statistics using IBM SPSS Statistics* (4th ed.). Sage Publications.
9. Tabachnick, B. G., & Fidell, L. S. (2018). *Using multivariate statistics* (7th ed.). Pearson.
10. Vasileva, S. A. (2020). *Statisticheskiy analiz v psikhologii i obrazovanii*. Yurayt.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ikromova Sitora Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

p.f.f.d. (PhD)

sitorapsixolog@gmail.com

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIK PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI



O'ktamova Shohida Odilbek qizi

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Respublikamizda so'nggi yillarda shaxs taraqqiyoti, ularning ma'naviy ehtiyojlarni ta'minlash, ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonda "...o'quvchilarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash..." ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Buning natijasi o'laroq o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni har tomonloma rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi. Maqolada shu kabi masalal ilmiy tahlil qilingan.

MAQSAD: Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etishning psixologik jihatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik profilaktikasini samarali amalga oshirish uchun ularning huquqiy ongini oshirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash va ularga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni chuqur o'rganish orqali huquqbuzarlikning oldini olish mumkin. Shuningdek, o'smirlarning shaxsiy rivojlanishiga oilaviy muhit, tengdoshlar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi madaniy sharoitlar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ijtimoiy beqarorlik, oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ta'lim tizimidagi kamchiliklar o'smirlarning huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar huquqiy, pedagogik va psixologik yondashuvlarni o'z ichiga olishi lozim.

XULOSA: Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligi ularning ruhiy holati, hissiy barqarorligi va tashqi ta'sirlarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq. Yoshlarning ongli qaror qabul qilish jarayoni hali to'liq shakllanmagani uchun, ular ba'zan impulsiv xatti-harakatlar sodir etishi mumkin. Ijtimoiy muhit, shaxsiy tajribalar va oilaviy tarbiya ularning

xulq-atvorini bevosita shakllantiradi. Qabul qilinayotgan psixologik va pedagogik choralar voyaga yetmaganlarni noqonuniy harakatlardan himoya qilishga qaratilishi lozim. Bunday profilaktika tadbirlari yoshlarning psixologik barqarorligini oshirish va ularning jamiyatga moslashuvchanligini ta'minlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, o'smir, shaxs, moyillik, guruh, oila, jamiyat, nizo, muhit, qiyinchilik, ta'lim, tarbiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Уктамova Шохидa Одилбековна

Доктор философии (PhD) в области психологии

Ургенчский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В последние годы в нашей республике разрабатывается план мер по обеспечению развития личности, удовлетворения её духовных потребностей, уделению особого внимания образованию и содержательной организации свободного времени. В частности, в соответствии с Постановлением «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» одним из приоритетных направлений работы является «...содействие духовному, интеллектуальному, физическому и нравственному развитию учащихся, воспитание их в духе патриотизма, гражданственности, толерантности, уважения к законам, национальным и общечеловеческим ценностям, как личностей, способных противостоять пагубным влияниям и тенденциям, с твёрдыми убеждениями и взглядами на жизнь...». Это открывает возможности для проведения научных исследований, направленных на воспитание учащихся как всесторонне развитой личности и их всестороннее развитие. В статье представлен научный анализ данных вопросов.

ЦЕЛЬ: Научный анализ психологических аспектов организации профилактики правонарушений среди несовершеннолетних

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для эффективной реализации профилактики правонарушений среди несовершеннолетних важно повышение их правосознания и формирование чувства социальной ответственности. Профилактика преступности может быть достигнута путем развития правового воспитания в образовательных учреждениях, поддержки социальной активности учащихся и углубленного изучения психологических факторов, влияющих на них. Кроме того, на личностное развитие подростков напрямую влияют семейная среда, социальные отношения со сверстниками и культурные условия общества. В частности, социальная нестабильность, семейные конфликты, экономические трудности и недостатки системы образования повышают вероятность совершения преступлений подростками. Поэтому меры профилактики преступности должны включать правовые, педагогические и психологические подходы.

ВЫВОД: Склонность несовершеннолетних к совершению преступлений связана с их психическим состоянием, эмоциональной устойчивостью и реакцией на внешние воздействия. Поскольку осознанный процесс принятия решений у молодых людей еще не полностью сформирован, они порой могут совершать импульсивные поступки. Социальная среда, личный опыт и семейное воспитание напрямую формируют их поведение. Принимаемые психолого-педагогические меры должны быть направлены на защиту несовершеннолетних от противоправных действий. Такие профилактические

меры способствуют повышению психологической устойчивости молодых людей и обеспечивают их адаптацию в обществе.

Ключевые слова: несовершеннолетний, подросток, личность, склонность, группа, семья, общество, конфликт, среда, трудность, образование, воспитание.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ORGANIZING THE PREVENTION OF CRIME AMONG JUVENILES

Uktamova Shohida Odilbek qizi

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Urgench State University

Annatation.

INTRODUCTION: In recent years, our republic has been developing a plan of measures to ensure personal development, their spiritual needs, pay special attention to education, and meaningfully organize their free time, including the decree "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" that "...helping students develop spiritually, intellectually, physically and morally, educating them in the spirit of patriotism, civic sense, tolerance, respect for laws, national and universal values, as individuals who can resist harmful influences and trends, with firm beliefs and views on life..." as one of the priority areas. As a result, it is possible to conduct scientific research on educating students as well-rounded individuals and their comprehensive development. The article provides a scientific analysis of such issues.

THE GOAL: Scientific analysis of the psychological aspects of the organization of crime prevention among minors

MATERIALS AND METHODS: For the effective implementation of crime prevention among minors, it is important to increase their legal awareness and form a sense of social responsibility. Crime prevention can be achieved by developing legal education in educational institutions, supporting the social activity of students, and in-depth study of the psychological factors affecting them. Also, the personal development of adolescents is directly affected by the family environment, social relations with peers, and cultural conditions in society. In particular, social instability, family conflicts, economic difficulties, and shortcomings in the education system increase the likelihood of adolescents committing crimes. Therefore, measures to prevent crime should include legal, pedagogical, and psychological approaches.

CONCLUSION: The tendency of minors to commit crimes is associated with their mental state, emotional stability, and reaction to external influences. Since the conscious decision-making process of young people is not yet fully formed, they can sometimes commit impulsive acts. The social environment, personal experiences, and family upbringing directly shape their behavior. The psychological and pedagogical measures taken should be aimed at protecting minors from illegal actions. Such preventive measures help to increase the psychological stability of young people and ensure their adaptation to society.

Keywords: minor, teenager, personality, tendency, group, family, society, conflict, environment, difficulty, education, upbringing.

Respublikamizda so'nggi yillarda shaxs taraqqiyoti, ularning ma'naviy ehtiyojlarni ta'minlash, ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonda "...o'quvchilarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash..."²¹ ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Buning natijasi o'laroq o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni har tomonloma rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi

Bugunki kunda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik holatlarining oldini olish masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. O'smir yoshdagi shaxslarning qonunbuzarlikka moyilligi ularning ijtimoiy muhit, psixologik holati, oilaviy sharoiti hamda tarbiyaviy ta'sirlarga bog'liq holda shakllanadi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish faqatgina huquqiy chora-tadbirlarni takomillashtirish bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy va psixologik omillarni chuqur o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki huquqbuzarlik sodir etishga moyillik ko'pincha oilaviy tarbiya uslublari, ta'lim tizimidagi kamchiliklar, jamiyatdagi madaniy ta'sirlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik profilaktikasini samarali amalga oshirish uchun ularning huquqiy ongini oshirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash va ularga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni chuqur o'rganish orqali huquqbuzarlikning oldini olish mumkin. Shuningdek, o'smirlarning shaxsiy rivojlanishiga oilaviy muhit, tengdoshlar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi madaniy sharoitlar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ijtimoiy beqarorlik, oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ta'lim tizimidagi kamchiliklar o'smirlarning huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar huquqiy, pedagogik va psixologik yondashuvlarni o'z ichiga olishi lozim.

Huquqbuzarlik profilaktikasi jarayonida psixologik omillarning o'rni katta ahamiyatga ega. Chunki voyaga yetmaganlarning shaxsiy xususiyatlari, hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasi huquqbuzarlik ehtimoliga bevosita ta'sir qiladi. O'smirlar psixologiyasini chuqur o'rganish orqali samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Masalan, ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish, sog'lom jamoaviy muhitni shakllantirish, oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash va emotsional barqarorlikni oshirish orqali voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka bo'lgan moyilligini kamaytirish mumkin.

Muammo yuzasidan mamlakatimiz psixolog olimlari ko'plab izlanishlar olib borishgan. Jumladan, G'.Shoumarov huquqbuzarlikning oldini olishda ijtimoiy-psixologik omillarning o'rganilishini muhim deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligi oilaviy tarbiya, muhit va shaxsiy psixologik omillar bilan bevosita bog'liq. U yoshlarning deviant xatti-harakatlarini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni/ <https://lex.uz/uz/docs/5793261>

ijtimoiy beqarorlik, oiladagi zo'ravonlik va noto'g'ri tarbiyaviy yondashuvlarni ko'rsatgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy profilaktika dasturlarida yoshlarning psixologik himoyasini mustahkamlash va ularning huquqiy ongini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, voyaga yetmaganlarni huquqbuzarlikdan himoya qilish uchun ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ijtimoiy moslashuv darajasini kuchaytirish lozim [8].

E.G'oziev yoshlarning huquqbuzarlik sodir etish sabablari, ayniqsa, ularning shaxsiy va ruhiy rivojlanishi bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilgan. U voyaga yetmaganlarning huquqiy xulq-atvorini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida ijtimoiy muhitning ta'sirini alohida ko'rsatgan. Yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligi noto'g'ri ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shakllanadi va bunda beqaror oilaviy sharoit, noto'g'ri tarbiya, pedagogik nazoratning sustligi muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, ijtimoiy moslashuv jarayonini yaxshilash uchun voyaga yetmaganlarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va ularga huquqiy bilimlarni berish muhim. U, shuningdek, huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim muassasalari va jamiyatning birgalikdagi roli yuqori ekanligini ta'kidlaydi [9].

N.Sog'inov voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligini aniqlash va oldini olish bo'yicha psixologik yondashuvlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, voyaga yetmaganlarda huquqbuzarlikning oldini olish uchun, avvalo, ularning ruhiy holatini tahlil qilish va ijtimoiy muhit ta'sirini chuqur o'rganish zarur. Yoshlarning deviant xatti-harakatlarini aniqlash va ularni profilaktika qilishda psixodiagnostik usullar samarali natija berishi mumkin. Shuningdek, u huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan yoshlarni aniqlash, ular bilan individual ishlash va psixokorreksiya tadbirlarini kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi. U, shuningdek, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish orqali huquqbuzarlikning oldini olish mumkinligini ta'kidlagan [7].

S.A.Ikromovning "O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari" mavzusidagi dissertatsiya ishida o'smirlarda virtual olamga qaramlikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra, «internet iste'molchisining» muloqotdagi nokompetentligi ma'lumotlarni saralash, qayta ishlash, uzatish jarayonida vaqtni, fazoni idrok qilish ko'nikmasi susaytirib, destruktiv axborotlarga nisbatan agressiv moyillikni kuchaytirganligi bilan bog'liq differensial farqlar tufayli mafkuraviy immunitetni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning hududiy jihatlari aniqlashtirilgan [4].

U.H.Sayitova "Talabalarda internetga tobeklikni oldini olishning psixologik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishida talabalardagi tobe axloqni oldini olishda shaxs axborot faoliyatining motivatsion sohasi, psixologik moslashuvi, o'z xulq-atvorini boshqarishi, kommunikativ hamda tashkiliy qobiliyati, kommunikativ nazorat va muloqotdagi hissiy holatini virtual makonga nisbatan ta'sirchanlik darajasi muhimligi tufayli internega moyillikni belgilovchi tarkibiy tuzilmani differentsiatsiyalash muhimligi asoslangan [6].

R.O.Begmatovning "Talabalarda tajovuzkorlik hissi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishida talabalarda tajovuzkorlik hissinin rivojlanishi, shaxs xususiyatlaridagi emotsional komponentning muloqotda differensial reprezentatsiyalanishi ijtimoiylashuv bilan bog'liq o'zini nazorat qilishdagi psixologik to'siqlarni kuchaytirganligi tufayli dushmanlik va agressiya indeksining integrativ shakllanishiga identiv ekanligi asoslangan [2].

Z.S.Elovning “Deviant xulq-atvorli o’smirlarda suitsidga moyillik motivatsiyasini aniqlash va korreksiyalashning psixologik mexanizmlari” mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasida deviant xulq-atvorli o’smirlardagi suitsidal holatlarni tadqiq qilishning metodik apparatini takomillashtirish orqali suitsid motivatsiyasi shakllanishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar tizimini aniqlash va empirik tahlillar olib borilgan hamda o’smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan psixokorreksion trening mashg’ulotlari yordamida psixoprofilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqilgan [3].

F.U.Raxmatovning “Voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq og’ishining psixoprofilaktik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishida voyaga yetmaganlar xulq-atvorida jinoyat motivlarini faktorli tahlilida shaxsdagi motivasion yo’nalganlik o’z tengdoshlari va jamoa orasida “o’zini namoyon qilish, ularga o’z ta’sirini o’tkazish va o’zini tan oldirish” bilan bog’liq munosabatlar tizimiga qaratilganligi o’zini va atrofdagilarni qabul qilish darajasini pasayishiga olib kelganligi tufayli “mavjud ehtiyojlarning qondirilmay qolishi”, “moddiy va ma’naviy narsalarga o’zi xohlaganidek erishish”ga intilishning ustuvor omil ekanligi asoslab berilgan [5].

N.R.Axmadoyning “Dezadaptatsiyalashgan o’smirlarni reabilitatsiya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari” mavzusidagi dissertatsiya ishida dezadaptatsiyalashgan o’smirlarning emotsional holatida xavotirlanish, ijtimoiy munosabatlar, muloqotga moyillikni o’g’il bolalarda, o’zini-o’zi nazorat qilish hissining yuqori sinf o’quvchilarida ustuvor xarakterga ega ekanligi tufayli yoshga oid dinamik va gender xususiyatlarni mavjudligi, shuningdek, o’smirlardagi dezadaptatsiya holatining namoyon bo’lishiga ta’siri etuvchi determinant sifatida “o’z-o’zini qabul qilish”ning yuqori darajasi “boshqalarni qabul qilmaslik”ni kuchaytirib, hissiy noqulaylik hamda ichki nizolarni keltirib chiqarganligi tufayli shaxslararo munosabatlarda “hukmronlik”ka intilishning destruktiv shakli ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan [1].

Bizning xulosamizcha, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli turli ijtimoiy-psixologik omillarga bog’liq bo’lib, bu jarayonning oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Yoshlarning noto’g’ri ijtimoiylashuvi, oilaviy tarbiyaning beqarorligi va pedagogik nazoratning sustligi huquqbuzarlikning shakllanishiga turtki bo’luvchi asosiy omillardan biridir. Huquqbuzarlikning oldini olish uchun voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, ularga huquqiy madaniyatni singdirish va psixologik xizmatlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi[10]. Shuningdek, ta’lim muassasalari, oilalar va jamiyatning o’zaro hamkorligi yoshlarning deviant xatti-harakatlarini kamaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Huquqbuzarlik profilaktikasining samaradorligini oshirish uchun yoshlarning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim. Ijtimoiy va psixologik reabilitatsiya tadbirlarining kuchaytirilishi voyaga yetmaganlarning to’g’ri yo’nalishda rivojlanishiga va ularning huquqbuzarlikdan uzoq bo’lishiga yordam beradi[11]. Shu sababli, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etish nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham chuqur tadqiq qilinishi kerak.

1-jadval.

“Voyaga yetmagan o’quvchilarda jinoyatga moyillik darajasini aniqlovchi psixologik so’rovnoma” bo’yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=260)

Shkalalar nomi	O’rtacha (M)		Farqlar	
	7-sinf n=140	9-sinf n=120	t	p

Agressivlik va impulsivlik	18,5	21,4	-2,6	0,05
Ijtimoiy moslashuvchanlik	17,9	19,6	-2,3	0,05
Emotsional barqarorlik	17,4	18,5	-1,5	0,15
Huquqiy ustanovka	17,6	20,1	-2,4	0,05
Huquqiy madaniyat	18,5	17,5	-1,7	0,12

“Voyaga yetmagan o‘quvchilarda jinoyatga moyillik darajasini aniqlovchi psixologik so‘rovnoma”si bo‘yicha olingan natijalar tahliliga ko‘ra, “agressivlik va impulsivlik” ($t=-2,6$; $p<0,05$), “ijtimoiy moslashuvchanlik” ($t=-2,3$; $p<0,05$) hamda “huquqiy ustanovka” ($t=-2,4$; $p<0,05$) omillari bo‘yicha sezilarli farqlar qayd etildi.

Metodikaning dastlabki “agressivlik va impulsivlik” omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natijalar aniqlandi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Bu yoshda o‘quvchilar o‘zini namoyon qilishga, o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga va atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarida dominant bo‘lishga intiladi. Agressivlikning kuchayishi ko‘pincha stress bilan kurashish mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi va muammolarni hal qilishda konstruktiv yondashuvlarning yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Impulsiv xatti-harakatlar esa tezkor qarorlar qabul qilish, natijalarni oldindan ko‘ra bilmaslik va his-tuyg‘ularni nazorat qilishdagi qiyinchiliklar bilan chambarchas bog‘liq. Bunday holatlar huquqbuzarlik ehtimolini oshirishi mumkin, chunki o‘quvchi qoidalarni buzish yoki nizolarni tajovuz bilan hal qilish orqali o‘zini ifoda etishga harakat qiladi. Agressivlikni kamaytirish va impulsivlikni boshqarish uchun o‘quvchilar orasida stressni boshqarish va konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Navbatdagi “ijtimoiy moslashuvchanlik” omiliga ko‘ra, 9-sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Jumladan, 9-sinf o‘quvchilari orasida ijtimoiy moslashuvchanlik omilining ijobiy natijalar ko‘rsatgani ushbu yosh guruhining jamiyatga integratsiyalashuv jarayonida samarali rivojlanayotganligini bildiradi. Ijtimoiy moslashuvchan o‘quvchilar jamiyat qoidalarini tezroq qabul qiladi va muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligi huquqbuzarlik ehtimolini pasaytiruvchi omillardan biri bo‘lib, ular huquqiy qoidalarni ongli ravishda qabul qiladi va ularga amal qilishga intiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy moslashuvchanligi sust bo‘lgan o‘quvchilar jamiyat tomonidan rad etilish yoki ajralib qolish xavfi yuqori bo‘lib, ular muqobil yo‘llarni izlashga moyil bo‘ladi. O‘quvchining ijtimoiy muhitga moslashishi uning qonunlarga bo‘lgan munosabatini ham belgilaydi, chunki jamiyatga moslashgan insonlar odatda qonunlarni hurmat qiladi va ularga amal qilishga moyil bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuvning yuqori bo‘lishi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish va huquqbuzarlikdan qochish ehtimolini oshiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarlikning oldini olishda ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish va o‘quvchilarning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodikamizning so‘nggi “huquqiy ustanovka” omili bo‘yicha 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natijalar aniqlandi ($t=-2,4$; $p<0,05$). 9-sinf o‘quvchilarida huquqiy ustanovkaning yuqori ekani ularning huquq va majburiyatlarga bo‘lgan munosabatining shakllanganligini anglatadi. Huquqiy ustanovka insonning huquqiy tizimga bo‘lgan munosabatini, qonunlarga rioya qilishga tayyorligini va huquqiy normalarga bo‘ysunish darajasini belgilaydi. Huquqiy ustanovkalari barqaror shakllangan o‘quvchilar odatda qonunlarga rioya qilishni ijtimoiy

mas'uliyat deb biladi va huquqbuzarlikdan qochishga harakat qiladi. Huquqiy ustanovkaning yuqori bo'lishi o'quvchining jamiyat qoidalarini anglash va ularga amal qilish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bu voyaga yetmagan o'quvchilarning kelajakdagi ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ustanovkalari kuchli bo'lgan o'quvchilar huquqbuzarlikning salbiy oqibatlarini yaxshi tushunadi va qonunlarni buzishning jazo bilan yakunlanishini oldindan anglashadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuqori bo'lgan o'quvchilar jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalarni ongli ravishda bajarishga moyil bo'ladi. Shu bilan birga, huquqiy ustanovkasi sust shakllangan o'quvchilar qonunlarni majburiy cheklov sifatida ko'rib, ularga rioya qilishni ixtiyoriy deb qabul qilishi mumkin. O'quvchilarning huquqiy ustanovkalari oilaviy tarbiya, ta'lim va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi, shuning uchun huquqiy ta'lim va huquqiy madaniyatni oshirish huquqbuzarlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar orasida huquqiy ta'lim darajasining oshirilishi ularning huquqiy normalarni to'g'ri idrok etishiga va ularni hayotda qo'llashga yordam beradi.

2-jadval

“Voyaga yetmagan o'quvchilarda jinoyatga moyillik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma” hamda A.N. Orel tomonidan ishlab chiqilgan «Deviant xulq-atvorga moyillikni aniqlash» metodikasi o'rtasidagi aloqadorlik (n=260)

Omilar	Agressivlik va impulsivlik	Ijtimoiy moslashuvchanlik	Emotsional barqarorlik	Huquqiy ustanovka	Huquqiy madaniyat
Ijtimoiylashish	-0,37*	0,19	0,21	0,13	0,15
Ijtimoiy normalarni buzishga moyillik	0,14	0,32*	0,19	0,10	0,18
Addiktiv xulq-atvorga moyillik shkalasi	0,17	0,08	0,10	0,15	0,13
Destruktiv xulq-atvorga moyillik shkalasi	-0,38*	0,15	0,15	0,18	0,19
Tajovuzkorlikka moyillik shkalasi	0,12	0,19	0,14	0,34*	0,10
Irodaviy nazorat shkalasi	0,17	0,13	0,32*	0,15	0,19
Delikvent xulq-atvorga moyillik shkalasi	0,14	0,18	0,19	0,17	0,31*

“Voyaga yetmagan o'quvchilarda jinoyatga moyillik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma” hamda A.N.Orel tomonidan ishlab chiqilgan «Deviant xulq-atvorga moyillikni aniqlash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga ko'ra, «agressivlik va impulsivlik» omili «ijtimoiylashish» ($r=-0,37$; $p\leq 0,05$) hamda «destruktiv xulq-atvorga moyillik shkalasi» ($r=-0,38$; $p\leq 0,05$) omillari bilan salbiy, «ijtimoiy moslashuvchanlik» omili «ijtimoiy normalarni buzishga moyillik» ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, «emotsional barqarorlik» omili

«irodaviy nazorat shkalasi» ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, «huquqiy ustanovka» omili «tajovuzkorlikka moyillik shkalasi» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy hamda «huquqiy madaniyat» omili «delikvent xulq-atvorga moyillik shkalasi» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy aloqadorlik kuzatildi.

“Agressivlik va impulsivlik” omilining “ijtimoiylashish” bilan salbiy bog‘lanishi shuni ko‘rsatadiki ($r=-0,37$; $p\leq 0,05$), hujumkor xulq va nazoratsiz hissiyotlar kuchaygan sayin o‘quvchilarning jamiyatga samarali moslashishi pasayadi. Keskin tajovuzkor munosabatlar tengdoshlar bilan sog‘lom aloqalar o‘rnatishga xalaqit berib, o‘zaro ishonchni susaytiradi. Impulsiv reaksiyalar norasmiy jamoalarda ham ziddiyatlar keltirib chiqarib, ijtimoiy dastakdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Agressivlik darajasi baland bo‘lgan shaxslar jamiyat qadriyatlari va me‘yorlarini o‘zlashtirishda qiynalib, yakka o‘zi qolish ehtimolini oshiradi. Ushbu bog‘lanish o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va huquqiy xulq-atvorini shakllantirish jarayonida agressiv-impulsiv o‘smirlar bilan alohida tarbiyaviy choralar zarurligini ta’kidlaydi.

“Agressivlik va impulsivlik” omili “destruktiv xulq-atvorga moyillik” shkalasi bilan ham salbiy bog‘lanish qayd etdi ($r=-0,38$; $p\leq 0,05$). Agressiv xulq namoyon bo‘ladigan shaxslar nizoli vaziyatlarda ko‘pincha xavfli yo‘llarni tanlab, destruktiv harakatlarga moyil bo‘lishi mumkin. Impulsiv qarorlar oqibatini o‘ylamasdan qabul qilish shaxsni huquqiy cheklovlarni buzishga undashi kuzatiladi. Bu holat nazoratning yetishmasligi tufayli keng ko‘lamli salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Agressivlik va impulsivlik kuchaygan shaxslar destruktiv xatti-harakatlardan chetlanishda muammolarga duch kelib, atrof-muhit tomonidan ham qarshilikka uchraydi. Tajovuzkorlik voqelikni nosog‘lom izohlashga olib kelib, bu bilan huquqbuzarlik tez-tez ro‘y berishi dalillandi. Kuchli hissiy portlashlar profilaktik choralarni murakkablashtirib, o‘quvchilarda barqaror salbiy xulq paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Destruktiv xulq-atvordan qochish strategiyalarini o‘zlashtirmagan o‘quvchilar jiddiy ijtimoiy oqibatlarga duch keladi, shu bois mazkur bog‘lanish profilaktik tadbirlar zarurligini ifoda etadi.

“Ijtimoiy moslashuvchanlik” omilining “ijtimoiy normalarni buzishga moyillik” bilan ijobiy bog‘lanishi ($r=0,32$; $p\leq 0,05$), shaxsdagi moslashuvchanlik xislati ortgan sayin, u jamiyatdagi me‘yorlarni osonlik bilan qabul qilish va hayotda qo‘llash imkoniga ega bo‘lishini bildiradi. Tez moslashish qobiliyatiga ega o‘quvchilar ijtimoiy talablarga nisbatan ochiq bo‘lib, jamiyat tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarga rioya qilishni ongli ravishda e’tirof etishlari, turli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini moslashtirib, mojarolarning yechimida ham murosaga intilishlari dalillandi. Ijtimoiy moslashuvchanlik rivojlangan sari, o‘quvchilar jamiyatda e’tirof etilgan qadriyatlarga moslashib, konstruktiv yo‘nalishda harakat qiladilar. Ular o‘zaro muloqot va hamkorlik orqali boshqa insonlarning manfaatlarini ham inobatga olishga moyil bo‘lib, ziddiyatlardan chetlanadilar. Moslashuvchan o‘quvchilar jamiyatning ijtimoiy-huquqiy normalarni buzishdan ko‘ra, muammolarni ko‘proq ijobiy yechimlar bilan bartaraf etishni afzal bilishadi. Shu tariqa, ular huquqiy talablarga ham ehtiyotkorlik bilan yondashib, jami odatlarga mos hayot tarzini tanlaydi. Natijada ijtimoiy moslashuv qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, o‘quvchilarning jamiyatdagi roli ijobiy tomonga o‘zgarib, huquqbuzarlik xavfi kamayadi. Bu bog‘lanish moslashuvchanlikni oshirish orqali o‘quvchilar orasida huquqbuzarlikning oldini olish mumkinligini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida ijtimoiy adaptatsiya metodlarini takomillashtirish orqaligina samarali profilaktik choralarga erishish mumkin bo‘ladi.

“Emotsional barqarorlik” omilining “irodaviy nazorat shkalasi” bilan ijobiy bog‘lanishi ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), o‘quvchilarning hissiy jihatdan barqaror bo‘lgani sari, o‘zini nazorat qilish qobiliyatlari ham yaxshilanishini ko‘rsatadi. Bunday barqarorlik yuksak darajada bo‘lganda, shaxs salbiy his-tuyg‘ularni jilovlash va xatti-harakatlarini oqilona boshqarish borasida muvaffaqiyatli bo‘ladi. Yuqori irodaviy nazorat hissiy taranglik holatida ham har qanday noqulay vaziyatning oqibatlarini chuqur o‘ylash va zararli xatti-harakatlardan tiyilishga yordam beradi. Ushbu bog‘lanish natijalari o‘quvchilarning hissiy madaniyati rivojlangan sari, huquqbuzarlik xavfining kamayishini ko‘rsatadi. O‘quvchilar hissiy jarayonlarini boshqarish orqali jamiyatdagi huquqiy talablarga ongli tarzda rioya qilishlari osonlashadi. Bu esa profilaktik chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o‘z samarasini beradi.

“Huquqiy ustanovka” omilining “tajovuzkorlikka moyillik shkalasi” bilan ijobiy bog‘lanishi shu narsani bildiradiki ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), shaxs qonunlarga hurmat bilan yondashishi bilan birga, atrof-muhitdagi huquqiy normalarni himoya qilishda qat’iy bo‘lishni ham lozim deb bilishi mumkin. Ushbu holat insonning huquqiy ongini rivojlantirish evaziga o‘zini va boshqalarni tajovuzkorlikdan saqlash istagi kuchayishini ifodalaydi. Huquqiy ustanovkasi mustahkam shaxslar ijtimoiy nizolarni qonuniy vositalar orqali hal qilishga harakat qilib, tartibni buzuvchilarga nisbatan e’tiborli kuzatuvchilik qiladi. Natijada, bunday o‘quvchilar jamiyatda huquqiy adolat va xavfsizlikni ta’minlashga intilib, huquqbuzarlik hollarini oldindan sezishga va ularga qarshi turishga moyil bo‘ladilar. Huquqiy ongning kuchli bo‘lishi ular o‘rtasida tajovuzkor xulq bilan faol kurashish, jamiyatning huquqiy asoslarini himoya qilish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Ushbu bog‘lanish huquqiy institutlar va ta’lim dasturlarining ahamiyatini yana-da ochib berib, o‘quvchilarning huquqiy mas’uliyat hissini kuchaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Tartib va qonun ustuvorligini tan olgan shaxslar agressiyani to‘g‘ri yo‘naltirish orqali nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishadi. Bu omil jamiyatda huquqiy madaniyatni mustahkamlash barobarida profilaktik ishlar samarasini oshiradi. O‘quvchilar orasida huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish shu orqali ta’sirchan usullardan biri hisoblanadi.

“Huquqiy madaniyat” omilining “delikvent xulq-atvorga moyillik shkalasi” bilan ijobiy bog‘lanishi shuni ifodalaydiki ($r=0,31$; $p\leq 0,05$), shaxs huquq va majburiyatlarni chuqur tushunishga e’tibor qaratgan sari, qonunbuzarlikdan uzoqlashishi mumkinligini ko‘rsatadi. Huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan shaxslar jamiyatdagi normalarni ongli ravishda qabul qiladi va ularga rioya qilishni o‘zining ichki ehtiyoji sifatida idrok etadi. Bunday o‘quvchilar ijtimoiy va huquqiy talablarga xabardorlik bilan munosabatda bo‘lib, muammolarni yaratuvchan usullar yordamida bartaraf etishni afzal biladilar. Shu tarzda, ular o‘z xatti-harakatlari oqibatini chuqur o‘ylab, delikvent xulq-atvordan tiyilish ehtimolini oshiradi. Huquqiy madaniyatning yuksakligi, odatda, ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usining ham rivojlanganligi bilan uyg‘unlashib, huquqbuzarlikning oldini olishda dastlabki poydevor hisoblanadi. Qonunlarni hurmat qilish va boshqalar oldidagi mas’uliyatni his qilish bu o‘quvchilarni nizoli vaziyatlarda ham adolatli bo‘lishga undaydi. Huquqiy ong rivoj topgan sari, ularning ijtimoiy tarangliklarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalari ham ortadi. Ushbu bog‘lanish, huquqiy bilimlarni tarqatish orqali voyaga yetmaganlar ongida sog‘lom xulq-atvorni shakllantirish mumkinligini isbotlaydi. Jamiyatdagi me’yorlarni e’zozlashda yetakchi bo‘lgan o‘quvchilar delikvent xulq-atvordan yiroq turib, huquqbuzarlikka qarshi profilaktik tadbirlarning samaradorligini oshiradi.

Mazkur muammo yuzasidan tahlil qilingan nazariy va empirik ma'lumotlardan keilib chiqib, quyidagi **xulosalarga** ega bo'ldik:

1. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligi ularning ruhiy holati, hissiy barqarorligi va tashqi ta'sirlarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq. Yoshlarning ongli qaror qabul qilish jarayoni hali to'liq shakllanmagani uchun, ular ba'zan impulsiv xatti-harakatlar sodir etishi mumkin. Ijtimoiy muhit, shaxsiy tajribalar va oilaviy tarbiya ularning xulq-atvorini bevosita shakllantiradi. Qabul qilinayotgan psixologik va pedagogik choralar voyaga yetmaganlarni noqonuniy harakatlardan himoya qilishga qaratilishi lozim. Bunday profilaktika tadbirlari yoshlarning psixologik barqarorligini oshirish va ularning jamiyatga moslashuvchanligini ta'minlashga yordam beradi.

2. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligi ko'pincha oilaviy muhitga bog'liq bo'ladi. Oiladagi yetarli e'tibor va qo'llab-quvvatlash yetishmovchiligi bolalarning noto'g'ri yo'nalishga kirib qolish xavfini oshiradi. Ota-onalarning beparvoligi, oilaviy mojarolar yoki zo'ravonlik muhitida voyaga yetmaganlar hissiy barqarorlikni yo'qotishi va jinoiy yo'lga kirib qolish ehtimoli ortadi. Sog'lom oilaviy muhit yaratish, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash hamda ota-onalar uchun maxsus tarbiyaviy dasturlar joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bolalarga mehr-muhabbat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatilsa, huquqbuzarlikning oldini olish mumkin bo'ladi.

3. Ta'lim muassasalari voyaga yetmaganlarning huquqiy savodxonligini oshirish va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda katta rol o'ynaydi. Maktab va kasb-hunar ta'limi muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, yoshlarning qiziqishlariga mos dasturlar joriy etish zarur. Huquqiy tarbiyani ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida shakllantirish voyaga yetmaganlarning xatti-harakatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonida yoshlarni ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va psixologik maslahatlar tashkil etilishi lozim. O'qituvchilar va psixologlarning hamkorligi orqali huquqbuzarlik ehtimolini kamaytirish mumkin.

4. Voyaga yetmaganlarning jinoiy harakatlarga tortilishida ijtimoiy muhit va do'stlarining ta'siri katta ahamiyat kasb etadi. Salbiy guruhlar ta'sirida qolgan yoshlar ijtimoiy me'yorlarni buzishga moyillik bildiradi. Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va yoshlarni foydali mashg'ulotlarga yo'naltirish orqali ularning jinoiy muhitga kirish ehtimolini kamaytirish mumkin. Yoshlarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni sport va madaniy tadbirlarga jalb qilish ijtimoiy muhit ta'sirini ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam beradi. Sog'lom ijtimoiy aloqalar voyaga yetmaganlarning noto'g'ri yo'lga kirishining oldini oladi.

5. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligi ularning psixologik holatini o'rganish va zaruriy rehabilitatsiya choralari ko'rish orqali kamaytirilishi mumkin. Maxsus psixokorreksiya dasturlarini ishlab chiqish, yoshlarning hissiy barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Psixologik xizmat ko'rsatish markazlari va ijtimoiy yordam loyihalarini rivojlantirish voyaga yetmaganlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi. Shuningdek, shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash bo'yicha treninglar o'tkazish orqali yoshlarning deviant xulq-atvorining oldini olish mumkin. Har bir voyaga yetmaganga individual yondashuv asosida psixologik yordam ko'rsatish huquqbuzarlikning kamayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. Axmadov N.R. "Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni reabilitatsiya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2024. – 175 b.
2. Begmatov R.O. "Talabalarda tajovuzkorlik hissi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2023. – 149 b.
3. Elov Z.S. "Deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidga moyillik motivatsiyasini aniqlash va korreksiyalashning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. - Buxoro., 2023. – 212 b.
4. Ikromova S.A. "O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari" mavzusidagi dissertatsiya ishi - Buxoro., 2024. – 186 b.
5. Raxmatov F.U. "Voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq og'ishining psixoprofilaktik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2024. – 155 b.
6. Sayitova U.H. "Talabalarda internetga tobelikni oldini olishning psixologik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi - Buxoro., 2024. – 195 b.
7. Sog'inov N.A. O'zbekistonda psixologik xizmat istiqbollari. / O'zbekistonda amaliy psixologiyaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent. 2008.
8. Шоумаров Г.Б. Дифференциальная психологическая диагностика задержки психического развития на основе анализа стандартизированной методики. Автореф....к.пс..н. -Москва.1980.- 22 с.
9. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2010. – 256 b.
10. O'ktamova Sh.O. Voyaga yetmagan yoshlar huquqbuzarligi profilaktikasini tashkil qilishning psixologik jihatlari. //Pedagogik akmelogiya. – Buxoro, 2025. №2. – B. 148-154.
11. O'ktamova Sh.O. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining huquqiy va psixologik asoslari. //O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari. – Urganch. 2025. № 3. – B. 3-8.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

O'ktamova Shohida Odilbek qizi

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Urganch davlat universiteti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Urganch shahri

O'SMIRLARDA OILAVIY NIZOLARINI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Ahmadov Shohruh Rahmatulla o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya:

KIRISH: Mazkur maqolada o'smirlik davridagi yoshlar orasida uchraydigan oilaviy nizolar, ularning kelib chiqish sabablari, hamda bunday nizolarni bartaraf etishda qo'llaniladigan ijtimoiy-psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek oilaviy qadriyatlari va an'analari nuqtai nazaridan masalaga yondashilib, oilaviy muhitning o'smir psixologiyasiga ta'siri yoritilgan.

Mazkur ilmiy maqolada o'smir yoshdagilar orasida uchrab turadigan oilaviy nizolarni o'rganish, ularning psixologik sabablari va bartaraf etish yo'llarini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. O'smirlik davri inson shaxsiyati shakllanishining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrda sodir bo'ladigan oila a'zolari o'rtasidagi tushunmovchiliklar, tarbiyaviy qarama-qarshiliklar, emotsional beqarorliklar o'smirlarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqolada Buxoro va Samarqand viloyatlarida istiqomat qiluvchi o'smirlar va ularning ota-onalari bilan olib borilgan amaliy tadqiqotlar, so'rovnomalar, psixologik diagnostika va suhbatlar asosida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Shu orqali oila a'zolari o'rtasidagi muloqot darajasi, tarbiya uslublarining o'smirlarga ta'siri, ijtimoiy moslashuv muammolari va psixologik yordamga bo'lgan ehtiyoj aniqlangan.

Maqolada oilaviy nizolarni bartaraf etishda psixologik yondashuvlarning, jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, empatiya, ota-ona va farzand o'rtasida ishonchli muloqotni shakllantirish, hamda ijtimoiy institutlar (maktab, mahalla, psixologik markazlar)ning o'rni muhim ekani asoslab berilgan.

Shuningdek, o'zbek oilalaridagi an'anaviy qadriyatlar, ota-onalik me'yorlari va avlodlararo tafovutlar ham o'smirlikdagi nizolar kontekstida ko'rib chiqilgan. Ushbu jihatlar asosida maqola muallifi oila a'zolari o'rtasidagi sog'lom muhitni yaratish, ziddiyatlarni ijobiy yo'l bilan hal qilish, va o'smirlarning shaxsiy-ijtimoiy moslashuvini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ilgari surgan.

Maqolaning ilmiy yangiligi – o'smirlik davrida oilaviy nizolarni o'zbek jamiyatiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar asosida tizimli tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Amaliy ahamiyati esa – ota-onalar, pedagoglar, psixologlar va mahalliy jamoalar faoliyatida ushbu tavsiyalarni qo'llab, o'smirlar hayot sifati va oilaviy muhitni yaxshilash imkonini berishidir.

MAQSAD: O'smirlik davrida yuzaga keladigan oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, kechish shakllari va oqibatlarini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, ularni samarali bartaraf etish yo'llarini aniqlash hamda ushbu jarayonda oilaning, maktabning va jamiyatning o'rnini aniqlab, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu maqola quyidagi usullarga asoslangan: **nazariy tahlil** – oilaviy nizolar va ularni bartaraf etish bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar o'rganildi; **so'rovnoma va suhbatlar** – Buxoro va Samarqand viloyatlarida istiqomat qiluvchi 13–17 yoshdagi 120 nafar o'smir va ularning ota-onalari orasida o'tkazildi; **psixologik diagnostika** – A. Bass va A. Darkining "Hujumkorlik shkalasi", hamda V. Satirning "Oila tizimi" konsepsiyasi asosida baholash ishlari olib borildi.

XULOSA: O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, o'smirlik davrida yuzaga keladigan oilaviy nizolar ko'p hollarda muloqot yetishmovchiligi, avtoritar tarbiya, hissiy yaqinlikning pastligi va psixologik savodxonlikning yetishmasligi bilan bog'liq. Bunday nizolar o'smirlarning ruhiy holati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ularni bartaraf etishda ota-onalar, maktab psixologlari va jamiyatning faol hamkorligi, shuningdek, ochiq muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

KALIT SO'ZLAR: o'smirlik, oilaviy nizolar, psixologik moslashuv, kommunikatsiya, ijtimoiy yordam, oila qadriyatlari, **o'smirlik davri (adolesensiya)**, oilaviy nizolar, psixologik moslashuv, kommunikativ kompetensiya, avtoritar tarbiya uslubi, empatiya va hissiy aloqalar, oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ijtimoiy yordam tizimlari, ziddiyatli vaziyatlar (konflikt holatlari), ijtimoiy-psixologik profilaktika.

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируются семейные конфликты, возникающие среди молодежи в подростковом возрасте, причины их возникновения, а также социально-психологические подходы, используемые для разрешения таких конфликтов. Также подходит к вопросу с точки зрения узбекских семейных ценностей и традиций, освещается влияние семейной среды на психологию подростка.

В данной научной статье особое внимание уделяется изучению семейных конфликтов, возникающих среди подростков, анализу их психологических причин и путей их устранения с социально-психологической точки зрения. Подростковый возраст считается важным этапом формирования личности человека, недопонимания между членами семьи, воспитательные конфликты, эмоциональная нестабильность, происходящие в этот период, негативно влияют на психическое и социальное развитие подростков.

В статье представлены аналитические данные на основе практических исследований, опросов, психологической диагностики и интервью с подростками и их родителями, проживающими в Бухарской и Самаркандской областях. Таким образом, был определен уровень общения между членами семьи, влияние методов воспитания на подростка, проблемы социальной адаптации и потребность в психологической помощи.

В статье обосновывается важность психологических подходов в разрешении семейных конфликтов, включая развитие коммуникативных компетенций, эмпатии, формирование доверительного общения между родителями и детьми, а также роль социальных институтов (школ, махаллей, психологических центров).

Традиционные ценности, нормы родительства и межпоколенческие различия в узбекских семьях также рассматриваются в контексте конфликтов в подростковом возрасте. Исходя из этих аспектов, автор статьи выдвинул научно обоснованные предложения и рекомендации по созданию здоровой атмосферы между членами семьи, разрешению конфликтов положительным путем и обеспечению личностно-социальной адаптации подростков.

Научная новизна статьи заключается в разработке комплексного подхода к системному анализу семейных конфликтов в подростковом возрасте на основе социально-психологических особенностей, характерных для узбекского общества, выявлению существующих проблем и их решению. Практическая значимость заключается в том, что применение этих рекомендаций в деятельности родителей, педагогов, психологов и местных сообществ позволяет улучшить качество жизни подростков и семейную обстановку.

ЦЕЛЬ: Глубокий анализ причин, форм и последствий семейных конфликтов, возникающих в подростковом возрасте, с социально-психологической точки зрения, определение путей их эффективного устранения, а также определение роли семьи, школы и общества в этом процессе и разработка практических рекомендаций.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Данная статья основана на следующих методах: теоретический анализ - изучена зарубежная и отечественная литература по семейным конфликтам и их разрешению; опрос и беседы - проведены среди 120 подростков 13-17 лет, проживающих в Бухарской и Самаркандской областях, и их родителей; психологическая диагностика - проведена на основе "Шкалы агрессии" А. Басса и А. Дарки, а также концепции "Семейной системы" В. Сатира.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В результате проведенных исследований установлено, что семейные конфликты, возникающие в подростковом возрасте, в большинстве случаев связаны с недостатком общения, авторитарным воспитанием, низкой эмоциональной близостью и отсутствием психологической грамотности. Такие конфликты негативно влияют на психическое состояние, социальную адаптацию и личностное развитие подростков. В их преодолении важное значение имеет активное сотрудничество родителей, школьных психологов и общества, а также открытое общение и психологическая поддержка.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: подростковый возраст, семейные конфликты, психологическая адаптация, коммуникация, социальная помощь, семейные ценности, подростковый возраст (adolescенция), семейные конфликты, психологическая адаптация, коммуникативная компетенция, авторитарный стиль воспитания, эмпатия и эмоциональные связи, взаимодействие между семьей и обществом, системы социальной помощи, конфликтные ситуации (конфликтные ситуации), социально-психологическая профилактика.

Annotation:

INTRODUCTION: This article analyzes family conflicts that arise among young people during adolescence, their causes, and the socio-psychological approaches used to resolve such conflicts. It also approaches the issue from the perspective of Uzbek family values and traditions, highlighting the influence of the family environment on adolescent psychology.

In this scientific article, special attention is paid to studying family conflicts arising among adolescents, analyzing their psychological causes and ways to eliminate them from a socio-psychological perspective. Adolescence is considered an important stage in the formation of a person's personality, misunderstandings between family members, educational conflicts, emotional instability occurring during this period negatively affect the mental and social development of adolescents.

The article presents analytical data based on practical research, surveys, psychological diagnostics, and interviews with adolescents and their parents living in the Bukhara and Samarkand regions. Thus, the level of communication between family members, the influence of educational methods on the adolescent, the problems of social adaptation, and the need for psychological assistance were identified.

The article substantiates the importance of psychological approaches in resolving family conflicts, including the development of communicative competencies, empathy, and the formation of trusting communication between parents and children, as well as the role of social institutions (schools, neighborhoods, psychological centers).

Traditional values, parental norms, and generational differences in Uzbek families are also considered in the context of adolescent conflicts. Based on these aspects, the author of the article put forward scientifically based proposals and recommendations for creating a healthy atmosphere between family members, resolving conflicts in a positive way, and ensuring the personal and social adaptation of adolescents.

The scientific novelty of the article lies in the development of a comprehensive approach to the systematic analysis of family conflicts in adolescence based on the socio-psychological characteristics inherent in Uzbek society, identifying existing problems, and addressing them. The practical significance lies in the fact that the application of these recommendations in the activities of parents, educators, psychologists, and local communities allows for improving the quality of life of adolescents and the family environment.

OBJECTIVE: To deeply analyze the causes, forms, and consequences of family conflicts arising during adolescence from a socio-psychological perspective, to identify ways to effectively eliminate them, and to define the role of family, school, and society in this process, and to develop practical recommendations.

MATERIALS AND METHODS: This article is based on the following methods: theoretical analysis - foreign and domestic literature on family conflicts and their resolution was studied; survey and interviews were conducted among 120 adolescents aged 13-17 living in Bukhara and Samarkand regions and their parents; psychological diagnostics - was conducted based on A. Bass and A. Darksy's "Aggression Scale," as well as V. Satir's "Family System" concept.

CONCLUSION: As a result of the conducted research, it was established that family conflicts arising during adolescence, in most cases, are associated with a lack of communication, authoritarian upbringing, low emotional closeness, and lack of psychological literacy. Such conflicts negatively affect the mental state, social adaptation, and personal development of adolescents. In overcoming them, active cooperation between parents, school psychologists, and society, as well as open communication and psychological support, is of great importance.

KEY WORDS: adolescence, family conflicts, psychological adaptation, communication, social assistance, family values, adolescence (adolescence), family conflicts, psychological adaptation, communicative competence, authoritarian upbringing style, empathy and

emotional connections, interaction between family and society, social assistance systems, conflict situations (conflict situations), socio-psychological prevention.

Oila — har bir insonning birinchi va eng muhim ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga oila muhitining bevosita ta'siri mavjud. O'smirlik davri psixologiyada "inqirozli davr" sifatida qaraladi va bu bosqichda yoshlar ko'p hollarda o'z shaxsiy mustaqilligini namoyish qilishga intiladilar. Bu esa ota-ona bilan munosabatlarda qarama-qarshiliklar, tushunmovchiliklar va nizolarga olib kelishi mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oilaviy nizolar mavjud bo'lgan muhitda ulg'ayayotgan o'smirlarning 70% dan ortig'i emotsional beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki ichki yakkalanish holatlarini boshdan kechiradi (Toshpo'latov, 2021). Shuning uchun, oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-ijtimoiy muammodir.

Oila — inson hayotining eng muhim ijtimoiy instituti bo'lib, har bir shaxsning axloqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. O'zbek xalq an'analari va qadriyatlarida oila nafaqat bola tarbiyasining bosh manbai, balki ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida ham talqin qilinadi. Shuning uchun ham, oilaviy muhitdagi sog'lom munosabatlar, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlod – o'smirlarning psixologik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'smirlik davri — inson hayotidagi eng muhim va ayni paytda murakkab bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsda mustaqil fikrlash, o'z "men"ini anglash, identitet shakllanishi, o'z nuqtai nazarini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Shu bilan birga, bu bosqichda hissiy beqarorlik, ruhiy zo'riqish, o'z-o'zini tasdiqlashga intilish kuchayadi. Bu esa ko'p hollarda ota-ona va farzand o'rtasida turli ziddiyatlar, tushunmovchiliklar, hatto nizolarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, oilaviy nizolar o'smir psixikasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Masalan, B. Toshpo'latov (2021) fikricha, oila ichidagi doimiy tortishuvlar o'smirda xavotir, ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki aksincha, ichki yakkalanish, o'ziga tortilish holatlariga sabab bo'ladi. Xorijiy mutaxassislar, xususan, D. Goleman (1995) va E. Erikson (1968) asarlarida o'smirlikda yuzaga keladigan oilaviy muammolar yoshlarning shaxsiy identitet shakllanishini susaytirishi, hatto nevrotik buzilishlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy jamiyatda ota-onalar va bolalar o'rtasidagi muloqot shakllarining o'zgarishi, raqamli texnologiyalar ta'siri, avlodlararo qadriyatlar tafovuti, iqtisodiy va madaniy muhitdagi keskinliklar ham oilaviy muammolarni kuchaytirayotgan omillar qatoriga kiradi. Ayniqsa, O'zbekiston jamiyatida son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilayotgan yoshlarda uchrayotgan emotsional beqarorlik, oilaviy rishtalarning zaiflashuvi, ajralishlar sonining ortishi ushbu masalaga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan chuqur yondashishni talab qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, oilaviy nizolarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish, bu jarayonda o'smirning individual psixologik xususiyatlari, oilaning madaniy va kommunikativ salohiyati, hamda tashqi ijtimoiy yordam tizimlarining o'rni muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda. O'zbekiston sharoitida bu muammoning dolzarbligi, birinchidan, o'zbek oilasining o'ziga xos an'anaviy tuzilmasi va qadriyatlariga, ikkinchidan, hozirgi zamon yoshlari

ongida shakllanayotgan yangi g'oyaviy-axloqiy me'yorlarga asoslangan farqlar bilan izohlanadi.

Shuningdek, oilaviy nizolarni ijobiy yo'l bilan bartaraf etish, o'smirda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, sog'lom muloqot madaniyatini rivojlantirish va psixologik moslashuvni kuchaytirish imkonini beradi. Psixologik profilaktika, psixoterapevtik yondashuvlar, oila va maktab hamkorligi, hamda mahalla institutlarining faol ishtiroki bu jarayonlarda muhim rol o'ynashi mumkin.

Ushbu maqolada aynan o'smirlar hayotida yuzaga kelayotgan oilaviy nizolarni ijtimoiy-psixologik aspektida tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash, hamda bunday nizolarni bartaraf etishning samarali yo'llarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar yoritiladi. Maqola natijalari psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va mutasaddi tashkilotlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu ilmiy tadqiqot **o'smirlar hayotida oilaviy nizolarni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash** va tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlardan iborat bo'lib, kompleks yondashuv asosida olib borildi. Ilmiy asoslangan usullar va empirik ma'lumotlar kombinatsiyasi orqali tadqiqot mavzusi chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot **sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) metodlar** asosida tashkil etilgan. Bu yondashuv o'smirlarning oilaviy nizolarga bo'lgan munosabatini chuqur tushunish, shuningdek, statistik asosda ularning psixologik holatini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida o'smirlar shaxsiyati va ularning oilaviy munosabatlar tizimi keltirib o'tish mumkin.

Tadqiqot predmeti - o'smirlar hayotida yuzaga kelayotgan oilaviy nizolar va ularni bartaraf etishdagi ijtimoiy-psixologik omillari hisoblanadi.

Tadqiqot Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi umumta'lim maktablarida o'qiyotgan 13–17 yoshli 120 nafar o'smir va ularning 120 nafar ota-onasi ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida, ijtimoiy-iqtisodiy holatiga, oilaviy strukturaga (to'liq/o'zgarmagan va to'liq bo'lmagan oilalar), jinsga va yoshga qarab tanlab olindi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili davomida o'zbek va xorijiy psixologlarning oilaviy nizolar, o'smirlik psixologiyasi, konfliktologiya sohasidagi asarlari o'rganildi. Shuningdek, me'yoriy hujjatlar tahlil qilib chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi ta'lim va ijtimoiy siyosat sohasidagi qonun va qarorlar.

So'rovnoma usuli: O'smirlar va ota-onalar uchun metodikalar tanlab olindi hamda alohida anketalar ishlab chiqildi. Unda muloqot sifati, nizolar chastotasi, sabablar va ularning hal qilinishiga doir savollar mavjud edi.

Masalan, psixologik testlar:

A. Bass va A. Darki "Hujumkorlik shkalasi" – o'smirlarda tajovuzkorlik va emotsional portlashlarga moyillik darajasi baholandi.

V. Satirning "Oila tizimi tahlili" testi – oila a'zolari o'rtasidagi rollar, hissiy yaqinlik va kuch tarqoqligi aniqlashtirildi.

"Oilaviy muhitning psixologik iqlimi" testi – oiladagi emotsional muhit va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi o'lchandi.

Sifatli metodlar:

Yarimstrukturaviy intervyular (suhbatlar) – tanlab olingan 20 nafar o'smir va ularning ota-onalari bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlar o'zaro ishonch asosida olib borilib, nizolarning individual sabablari va kechish shakllari tahlil qilindi.

Kuzatuv – maktab psixologlari yordamida sinfdagi o'smirlarning ijtimoiy xatti-harakatlari, do'stlari bilan munosabatlari va emotsional holatlari kuzatildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan quyidagilardan foydalanildi:

Deskriptiv statistika – olingan so'rovnoma va test natijalari asosida o'rtacha qiymat, foizlik nisbati va chiziqli taqsimotlar hisoblandi.

Korrelyatsion tahlil (Pearson r) – oiladagi nizolar chastotasi bilan o'smirlarning emotsional reaktivligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Matematik-statistik ishlov berish – SPSS 23.0 dasturiy vositasi yordamida asosiy tahlillar bajarildi.

Tadqiqotda qatnashgan barcha ishtirokchilardan oldindan rozilik olindi hamda o'smirlar va ularning ota-onalari bilan ishlashda **psixologik xavfsizlik, maxfiylik va insoniy hurmat** tamoyillari qat'iy saqlab qolindi. Respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari oshkor etilmadi.

Umumiy qilib aytganda ushbu maqola quyidagi usullarga asoslangan:

Nazariy tahlil – oilaviy nizolar va ularni bartaraf etish bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar o'rganildi;

So'rovnoma va suhbatlar – Buxoro va Samarqand viloyatlarida istiqomat qiluvchi 13–17 yoshdagi 120 nafar o'smir va ularning ota-onalari orasida o'tkazildi;

Psixologik diagnostika – A. Bass va A. Darkining "Hujumkorlik shkalasi", hamda V. Satirning "Oila tizimi" konsepsiyasi asosida baholash ishlari olib borildi.

Ushbu tadqiqotda o'smirlarning oilaviy nizolarni qanday qabul qilishi, bu nizolar ularning psixologik holatiga qanday ta'sir qilishi, shuningdek, nizolarni bartaraf etishdagi oila a'zolari va tashqi ijtimoiy muhitning roli empirik asosda chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda tahlil qilindi:

Oila ichidagi muloqot darajasi va nizolar chastotasi, 120 nafar o'smirdan olingan so'rovnoma natijalariga ko'ra:

64 nafar o'smir (53.3%) o'z oilasida tez-tez kelishmovchiliklar bo'lib turishini bildirgan;

28 nafari (23.3%) esa haftasiga kamida 1–2 marta keskin muhokamalar yoki janjallar bo'lishini ta'kidlagan;

Faqatgina 12 nafar o'smir (10%) o'z oilasini "emosional barqaror va qulay" deb baholagan.

Bu natijalar oiladagi muloqot sifati past bo'lgan o'smirlar orasida nizolar soni yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ota-onaning tinglashga tayyor emasligi, monologik buyruqbozlik va doimiy taqiqlarning mavjudligi asosiy omillar sifatida ajralib chiqqan.

Ota-onaning tarbiya uslublarining tahlili, test natijalariga ko'ra ota-onalar tomonidan qo'llanilayotgan tarbiya uslublari quyidagicha taqsimlangan:

Avtoritar (qat'iy, nazoratga asoslangan) – 47% (56 oila);

Ruxsat beruvchi (indulgent) – 22% (26 oila);

Demokratik (ochiq muloqotga asoslangan) – 18% (22 oila);

Beparvo (e'tiborsizlik darajasi yuqori) – 13% (16 oila).

Avtoritar uslubda tarbiya olayotgan o'smirlarda tajovuzkorlik darajasi va nizolar chastotasi ancha yuqori ekani aniqlandi ($r=0.62$, $p<0.01$). Demokratik uslub esa o'smirlarda emotsional muvozanatni saqlash va nizolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirayotganini ko'rsatdi.

Hujumkorlik darajasi (A. Bass va A. Darki testi asosida)

120 o'smirdan 41 nafarida (34.1%) **yuqori darajadagi hujumkorlik** aniqlandi;

52 nafari (43.3%) **o'rta darajadagi hujumkorlik** ko'rsatkichlarini namoyon qilgan;

Faqat 27 nafar o'smir (22.5%) **past darajadagi tajovuz** bilan ajralib turgan.

Yuqori hujumkorlik darajasiga ega o'smirlarning aksariyati (74%) avtoritar yoki befarq tarbiyaga ega oilalardan ekanligi qayd etildi. Bu holat oila ichidagi nizolar o'smir shaxsida ichki qarshilik va portlash ehtimolini oshirayotganini ko'rsatadi.

Oila tizimidagi emotsional yaqinlik (V. Satir metodikasi asosida)

58 ta oilada oila a'zolari o'rtasida **emosional uzilish** mavjud (48.3%);

36 ta oilada **rol chalkashligi**, ya'ni ota-onaning vazifalari noaniq bo'lib, bolaga ortiqcha mas'uliyat yuklatilgan;

Faqat 18 ta oilada **emosional barqarorlik va o'zaro ishonch** mavjud deb baholangan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oilaviy rollarning aniqligi va hissiy qo'llab-quvvatlov mavjud bo'lgan oilalarda o'smirlar kamroq nizoga duch kelgan va ularda o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan.

Tashqi ijtimoiy yordam tizimlaridan foydalanish, o'smirlarning psixologik yordam xizmatlari yoki maktab psixologiga murojaat qilish holati juda past darajada ekani aniqlandi:

Faqat 9 nafar o'smir (7.5%) hayotida muammo bo'lganda maktab psixologiga murojaat qilgan;

63 nafar o'smir (52.5%) bunday xizmatlardan bexabarligini bildirgan;

48 nafari (40%) esa "ushbu muammolarni oila doirasida hal qilish kerak" degan fikrda bo'lgan.

Bu esa tashqi psixologik yordam tizimlarining ommaviy emasligi, ishonch yetishmasligi yoki malakali kadrlarning yetarli emasligi muammosini ko'rsatadi.

Korrelyatsion bog'liqliklar, statistik tahlillar asosida quyidagi muhim korrelyatsiyalar aniqlandi:

O'zgaruvchilar jufti	Korrelyatsiya koeffitsienti (r)	P-qiymati
Oila ichidagi nizolar soni ↔ O'smirdagi hujumkorlik	0.62	$p<0.01$
Avtoritar tarbiya ↔ Emotsional beqarorlik	0.57	$p<0.01$
Ochiq muloqot ↔ Ijobiy o'zini baholash	-0.48	$p<0.05$
Ota-onalar ishonchi ↔ Konfliktini konstruktiv hal qilish	-0.52	$p<0.01$

Oila ichidagi emotsional iqlim va kommunikatsiya sifati o'smirlarning psixologik holatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Avtoritar va befarq tarbiya uslublari o'smirlar orasida hujumkorlik, norozilik va ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirmoqda. Maktab psixologlari, mahalla

instituti va oilaviy maslahat xizmatlari samarali ishlamayotganligi sababli, nizolar ko'pincha chuqurlashib boradi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqladi:

Oila ichidagi muloqot yetishmovchiligi - ko'pchilik o'smirlar ota-onalari bilan ochiq muloqot qilolmasliklarini bildirishgan. Ayniqsa, oilaviy mehr-muhabbatning sustligi, ota-onaning haddan tashqari nazorati yoki e'tiborsizligi nizolarni kuchaytirishi aniqlandi.

Avtoritar tarbiya uslublari - uzoq vaqt davomida bir tomonlama buyruqbozlikka asoslangan tarbiya metodlari o'smirda qarshilik, norozilik va ruhiy bosimni keltirib chiqaradi. Bu holat ko'p hollarda tajovuzkorlikka yoki yolg'izlikka olib keladi.

Psixologik moslashuv darajasining pastligi - oila ichidagi nizolar o'smirning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir qiladi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, bunday o'smirlarning 58 foizi maktabdagi o'qish faolligida pasayish, 40 foizi esa do'stlar bilan aloqa uzilishi kabi muammolarga duch kelgan.

Ijtimoiy yordam mexanizmlarining yetarli emasligi - mahalla, maktab psixologi yoki oilaviy maslahat markazlarining yetarlicha faol emasligi oilalarga zaruriy yordamni o'z vaqtida yetkazmayapti.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smirlik davrida yuzaga keladigan oilaviy nizolar o'z tabiatiga ko'ra murakkab va ko'p omilli ekanini ko'rsatdi. Bu nizolar ko'pincha ota-onalarning tarbiya uslublari, o'zaro kommunikatsiya sifati, emotsional qo'llab-quvvatlov darajasi, va o'smirning individual psixologik xususiyatlariga bog'liq.

Mazkur natijalar V.Satirning oila tizimi nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi. Satir fikricha, har bir oila — bu o'ziga xos tizim bo'lib, uning har bir a'zosidagi o'zgarish butun tizimga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda aniqlanganidek, oilada hissiy uzilish, rollarning noaniqligi, ya'ni ota-onaning haddan tashqari qat'iy yoki beparvo yondashuvi o'smirlarda norozilik, tajovuzkorlik yoki ichki yakkalanish holatlarini keltirib chiqaradi.

B.Toshpo'latov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham o'smirlar orasida oilaviy nizolar ko'pincha muloqot yetishmovchiligi va tarbiya uslubining mos kelmasligi bilan bog'liq ekani ta'kidlangan. Bizning tadqiqotimiz bu fikrni tasdiqlaydi: avtoritar tarbiya uslubiga ega oilalarda hujumkorlik darajasi va emotsional beqarorlik ancha yuqori bo'lib chiqdi. Bu esa, ota-onalarning muloqot madaniyati, sabr-toqatli tinglash qobiliyati va empatiya darajasi o'smirlar uchun nihoyatda muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarida aniqlanishicha, demokratik va ochiq muloqotga asoslangan oilalarda o'smirlarning o'zini anglash, muammolarni so'z orqali hal etish ko'nikmalari ancha yuqori. Bu holat E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga mos keladi, unga ko'ra o'smirlik davrida asosiy psixologik vazifa — **identitetni shakllantirish** bo'lib, bu jarayon o'zaro hurmatli munosabatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlov orqali sodir bo'ladi.

Ayniqsa, o'zbek oilalariga xos jihatlar — ya'ni an'anaviy "ota – boshliq", "farzand – itoatkor" modeli zamonaviy psixologik talablar bilan to'qnash kelmoqda. Yoshlarda mustaqillikka intilish, tanqidiy fikrlash va shaxsiy erkinlik ehtiyoji kuchayib bormoqda. Agar bu ehtiyojlar tan olinmasa, ziddiyatlar chuqurlashib boraveradi. Shuning uchun oilada qadriyatlar uzviyligini saqlagan holda, yangi psixologik yondashuvlarga ochiqlik zarur.

Shuningdek, tadqiqot maktab va jamiyatning bu jarayondagi roli hali ham sust ekanini ko'rsatdi. Maktab psixologlari faoliyati ko'p hollarda formal, resurslar esa cheklangan. Mahalla

institutlari esa ko'proq nizolar oqibatini hal etish bilan shug'ullanishadi, lekin nizolarni **oldini olish** bo'yicha tizimli ishlash holatlari juda kam.

Tashqi yordam tizimlariga bo'lgan ishonchsizlik, psixologik madaniyatning pastligi va muammolarni "uy ichida yopiq saqlash" mentaliteti — oilaviy nizolarning bartaraf etilmasligiga olib kelmoqda. Bu esa yosh avlod orasida stress, depressiya, suiqasdga moyillik, giyohvandlik va ijtimoiy ajralish kabi muammolarni yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

Oila — o'smirning psixologik iqlimini belgilovchi asosiy muhit bo'lib, bu muhitda sodir bo'ladigan ziddiyatlar bevosita shaxsiy rivojlanishga ta'sir qiladi.

Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, empatiya va sabr-toqatli tinglash madaniyatini singdirish zarur.

O'smirlar bilan ishlovchi pedagog va psixologlar uchun maxsus treninglar, profilaktik dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Jamiyatda psixologik yordamga nisbatan ishonch va ochiqlikni oshirish — dolzarb vazifa sifatida ko'rilishi kerak.

Psixologik nazariyalar shuni ko'rsatadiki, oiladagi nizolar — bu nafaqat ikki tomon o'rtasidagi tushunmovchilik, balki butun oilaviy tizimning ichki muvozanatining buzilishi belgisi hisoblanadi (Satir, 1988). Shu sababli, bunday nizolarni bartaraf etishda shunchaki "aybdorni" aniqlash emas, balki barcha a'zolari o'zgarishga jalb etish muhimdir.

Mahalliy olimlardan A.X.Raxmonov fikricha, "O'zbek oilaviy modelida hurmat va itoat ustuvor o'rin tutgan bo'lsa-da, zamonaviy psixologik yondashuvlar ota-ona va bola o'rtasida o'zaro ishonch va tushunishni birinchi o'ringa qo'yadi." Bu esa yangi avlodning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda tarbiya uslublarini yangilash zarurligini anglatadi.

Ota-onalar uchun tashkil etilgan treninglar va maktab psixologlarining samarali faoliyati orqali ko'plab nizolarni barvaqt bartaraf etish mumkin. "Ochiq muloqot – sog'lom oila kaliti" degan shior asosida olib borilayotgan dasturlar bunga yaqqol misoldir (Yusupova, 2023).

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, o'smirlik davrida yuzaga keladigan oilaviy nizolar yoshlarning psixologik rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday nizolar, asosan, oiladagi emotsional beqarorlik, kommunikatsiya muammolari, avtoritar yoki beparvo tarbiya uslublari, shuningdek, oila tizimining funksional buzilishlari natijasida kelib chiqmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilada sog'lom muloqot muhitining mavjud emasligi, hissiy yaqinlikning yo'qligi va rollarning aniqlashtirilmaganligi o'smirlar shaxsida hujumkorlik, norozilik, ichki izolyatsiya, ishonchsizlik va beqaror emotsional holatlarning shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, avtoritar tarbiya uslubining ustuvorligi konstruktiv muloqotni cheklab, ziddiyatlarning chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, tashqi yordam tizimlarining (maktab psixologlari, mahalla, oilaviy maslahat markazlari) yetarlicha faol emasligi, oila a'zolari va o'smirlar o'rtasida bunday xizmatlarga nisbatan ishonchning pastligi ham mavjud muammoning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Ota-onalarning psixologik savodxonlik darajasi, empatiya qobiliyati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga nisbatan tayyorgarligi yetarli emasligi oilaviy nizolarni bartaraf etishdagi asosiy to'siqlardan biridir.

Bularning barchasi o'zbek oilasida o'zaro ishonch, hamkorlik, hissiy qo'llab-quvvatlash va sog'lom muloqot madaniyatini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

O'smirlarda oilaviy nizolarni samarali bartaraf etish, ruhiy barqarorlikni ta'minlash va sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish maqsadida quyidagi **tizimli va amaliy takliflar** ilgari suriladi:

Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, jumladan:

Xalq ta'limi muassasalari va mahallalarda ota-onalar uchun muntazam ravishda psixologik-ma'rifiy seminarlar, treninglar tashkil etish;

Farzand psixologiyasi, muloqot madaniyati va emotsional qo'llab-quvvatlash mavzularida onlayn videodarslar va qo'llanmalar ishlab chiqish.

Maktab psixologik xizmatini kuchaytirish, jumladan:

Maktab psixologlarining kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy diagnostik va konsul'tativ usullarni o'rgatish;

Har bir maktabda "psixologik salomatlik burchagi" yoki "yordam markazi" tashkil etish va uning faoliyatini nazorat qilish.

Oila-maktab-mahalla uchburchagi asosida hamkorlik tizimini yaratish, jumladan:

Mahalla fuqarolar yig'inlari, maktab rahbariyati va ota-onalar kengashlari o'rtasida muloqotni mustahkamlovchi doimiy platformalarni yo'lga qo'yish;

Ijtimoiy xizmatlar va psixologik yordam markazlari orqali og'ir nizoli oilalarga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish.

O'smirlar uchun emotsional savodxonlik va konfliktologiya darslarini joriy etish, jumladan:

"Hayotiy ko'nikmalar", "Shaxsiy taraqqiyot" kabi fakultativ mashg'ulotlar orqali o'smirlarni o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, muammolarni konstruktiv hal qilishga o'rgatish;

Maktab psixologlari va pedagoglar ishtirokida rol o'yinlar, psixodrama, treninglar orqali o'smirlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Oilaviy maslahat markazlarini rivojlantirish:

Har bir tumanda kamida bitta ixtisoslashgan oilaviy maslahat markazi faoliyatini yo'lga qo'yish;

Ushbu markazlarda psixolog, defektolog, ijtimoiy ishchi va yurist kabi mutaxassislar jamoasini shakllantirish.

Mass-mediani jalb qilgan holda ommaviy targ'ibot ishlari olib borish:

Televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlarda oilaviy muloqot, tarbiya va psixologik sog'lomlashtirish mavzularini yorituvchi maxsus ko'rsatuvlar, videoroliklar, maqolalar tayyorlash;

Yoshlarga qaratilgan platformalarda o'zaro hurmat, emotsional barqarorlik, oilaviy qadriyatlar mavzularini keng targ'ib qilish.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish orqali o'zbek jamiyatida sog'lom oilaviy muhit, emotsional farovonlik va psixologik barqarorlikka erishish mumkin. Ayniqsa, o'smir yoshdagi avlod orasida sog'lom psixik rivojlanish, konstruktiv muomala va ijtimoiy integratsiya darajasi oshadi, bu esa o'z navbatida barqaror jamiyat asoslarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshpo'latov B. (2021). O'smirlik davrida psixologik muammolar va ularni hal etish yo'llari. – T.: O'zbekiston Milliy Universiteti.



2. Satir V. (1988). The New Peoplemaking. – Science and Behavior Books.
3. Raxmonov A.X. (2019). O'zbek oilasi: An'analar va zamonaviylik. – Samarqand.
4. Yusupova M. (2023). Oila va maktab hamkorligi: Zamonaviy yondashuvlar. – Buxoro pedagogika jurnali.
5. Ахмадов Ш.Р. (2023). Социально-психологические особенности преодоления семейных конфликтов. – Вестник интегративной психологии.
6. Ahmadov Sh.R. (2023). O'smirlarda oilaviy nizolarni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – Psixologiya ilmiy jurnali.
7. Ahmadov Sh.R. (2023). Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda o'smirlarda nizolar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi. – Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal.
8. Ahmadov Sh.R. (2024). Oilaviy nizolar ajralishlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. – Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
9. Ahmadov Sh.R. (2023). O'smirlarning oilaviy hayot va undagi nizoli vaziyatlarga nisbatan ijtimoiy ustanovkalarini o'rganish natijalari. – Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal.

YOSH SPORTCHILARDA MUSOBAQA OLDI STRESSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI



Eshov Erkinovich Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya.

KIRISH. Sport faoliyati inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, kuchli emotsional zo'riqishlar, ayniqsa musobaqa oldi davrida, sportchilarda stress holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, o'sib kelayotgan sportchilar — o'smirlar va yoshlarda bu holat psixologik barqarorlik darajasi, o'ziga ishonch va emotsional boshqaruvning yetarli emasligi sababli yanada keskinroq kechadi.

Musobaqa oldi stressi (pre-competition stress) sportchilar tomonidan musobaqadan avval his qilinadigan fiziologik, emotsional va kognitiv reaksiyalarning majmuasidir. Bu stress o'z vaqtida boshqarilmasa, sportchining texnik, taktik va motivatsion holatini izdan chiqaradi (Martens, 1990). O'zbekiston sport maktablarida yosh sportchilarga jismoniy tayyorgarlik kuchli yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, psixologik tayyorgarlik ko'p hollarda ikkinchi planda qolmoqda.

Ushbu maqolada yosh sportchilarda musobaqa oldidan yuzaga keladigan stress holatlari, ularning psixologik sabablari, kechish xususiyatlari va bunday holatlarni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston sport maktablari misolida olib borilib, yosh sportchilarning stressga qarshi psixologik moslashuvi, motivatsiya darajasi va emotsional barqarorlik omillari chuqur o'rganilgan. Maqolada shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, psixoprofilaktik usullar va trener-psixolog hamkorligining samarali modeli ilgari suriladi.

MAQSAD: Yosh sportchilarda musobaqa oldidan yuzaga keladigan stress holatlarini aniqlash, uning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda ushbu stressni kamaytirishga qaratilgan samarali psixologik strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot 2025-yilning yanvar–iyun oylarida Buxoro, Toshkent va Samarqanddagi 6 ta sport maktabida olib borildi. Tadqiqotda 13–17 yoshdagi 120 nafar sportchi ishtirok etdi. Sport turlari: dzyudo, kurash, boks, gimnastika, futbol.

So'rovnoma, "Competitive State Anxiety Inventory-2" (CSAI-2), "Emotsional barqarorlik testi" (Bek shkalasi) kabi metod va metodikalardan foydalanildi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh sportchilarda musobaqa oldidan yuzaga keladigan stress holatlari ularning psixologik barqarorligi, musobaqaviy

tajribasi va emotsional boshqaruv darajasiga bevosita bog'liq. Stress darajasining yuqoriligi sport natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, motivatsiyani susaytiradi va o'ziga ishonchni pasaytiradi. O'zbekiston sport maktablarida psixologik tayyorgarlik jismoniy tayyorgarlikka nisbatan yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Shuning uchun musobaqa oldi stressini kamaytirishga qaratilgan maxsus psixoprofilaktik mashg'ulotlar, trener-psixolog hamkorligi va ota-onalar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO'ZLAR: Sport psixologiyasi, musobaqa oldi stressi, yosh sportchilar, psixoregulyatsiya, emotsional barqarorlik, sport maktabi, O'zbekiston.

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ. Спортивная деятельность, наряду с положительным влиянием на психику человека, может вызвать сильное эмоциональное напряжение, особенно в предсоревновательный период, стрессовые ситуации у спортсменов. Особенно у подрастающих спортсменов - подростков и молодых людей это состояние протекает еще более остро из-за уровня психологической устойчивости, уверенности в себе и недостаточной эмоциональной регуляции.

Предсоревновательный стресс (pre-competition stress) - это комплекс физиологических, эмоциональных и когнитивных реакций, которые испытывают спортсмены перед соревнованиями. Если этот стресс не контролируется вовремя, он нарушает техническое, тактическое и мотивационное состояние спортсмена (Мартенс, 1990). Несмотря на то, что в спортивных школах Узбекистана хорошо налажена физическая подготовка юных спортсменов, психологическая подготовка во многих случаях остается на втором плане.

В данной статье анализируются стрессовые ситуации, возникающие у юных спортсменов перед соревнованиями, их психологические причины, особенности течения и стратегии преодоления таких ситуаций. Исследование проводилось на примере спортивных школ Узбекистана, где глубоко изучались факторы психологической адаптации молодых спортсменов к стрессу, уровень мотивации и эмоциональная устойчивость. В статье также предлагаются практические занятия, психопрофилактические методы и эффективная модель сотрудничества тренера-психолога.

ЦЕЛЬ: Выявить стрессовые ситуации, возникающие у юных спортсменов перед соревнованиями, глубоко изучить их психологические особенности, а также разработать и рекомендовать на практике эффективные психологические стратегии, направленные на снижение этого стресса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Исследование проводилось в 6 спортивных школах Бухары, Ташкента и Самарканда в январе-июне 2025 года. В исследовании приняли участие 120 спортсменов в возрасте 13-17 лет. Виды спорта: дзюдо, борьба, бокс, гимнастика, футбол.

Использовались такие методы и методики, как опрос, "Competitive State Anxiety Inventory-2" (CSAI-2), "Тест эмоциональной устойчивости" (шкала Бека).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты исследования показали, что стрессовые ситуации, возникающие у юных спортсменов перед соревнованиями, напрямую связаны с их психологической устойчивостью, соревновательным опытом и уровнем эмоционального контроля. Высокий уровень стресса негативно влияет на спортивные результаты, снижает мотивацию и самоуверенность. Психологическая подготовка в спортивных школах Узбекистана недостаточно развита по сравнению с физической подготовкой. Поэтому важное значение имеют специальные психопрофилактические занятия, направленные на снижение предсоревновательного стресса, сотрудничество тренера-психолога и работа с родителями.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Спортивная психология, предсоревновательный стресс, юные спортсмены, психорегуляция, эмоциональная устойчивость, спортивная школа, Узбекистан.

Abstract.

INTRODUCTION. Along with the fact that sports activity has a positive impact on the human psyche, strong emotional intensity can cause stressful situations in athletes, especially in the pre-competition period. Especially in adolescent athletes - adolescents and young people, this condition is even more acute due to the level of psychological stability, self-confidence, and insufficient emotional regulation.

Pre-competition stress is a complex of physiological, emotional, and cognitive reactions experienced by athletes before competitions. If this stress is not controlled in time, it disrupts the athlete's technical, tactical, and motivational state (Martens, 1990). Although the physical training of young athletes is well-established in Uzbekistan's sports schools, in many cases, their psychological preparedness remains secondary.

This article analyzes the stressful situations that occur in young athletes before competitions, their psychological causes, characteristics of the course, and strategies for overcoming such situations. The study was conducted using the example of sports schools in Uzbekistan, where the factors of psychological adaptation of young athletes to stress, the level of motivation, and emotional stability were studied in depth. The article also offers practical exercises, psycho-preventive methods, and an effective model of coach-psychologist collaboration.

OBJECTIVE: To identify the stressful situations that arise in young athletes before competitions, to deeply study their psychological characteristics, and to develop and recommend effective psychological strategies aimed at reducing this stress in practice.

MATERIALS AND METHODS: The study was conducted in 6 sports schools in Bukhara, Tashkent, and Samarkand in January-June 2025. The study involved 120 athletes aged 13-17. Sports: judo, wrestling, boxing, gymnastics, football.

Methods and techniques such as questionnaires, "Competitive State Anxiety Inventory-2" (CSAI-2), "Emotional stability test" (Bek scale) were used.

CONCLUSION: The research results showed that the stressful situations that occur in young athletes before competitions are directly related to their psychological stability, competitive experience, and the level of emotional control. High levels of stress negatively

affect sports results, reduce motivation and self-confidence. Psychological preparation in Uzbekistan's sports schools is not sufficiently developed compared to physical preparation. Therefore, special psychoprophylactic sessions aimed at reducing pre-competition stress, coach-psychologist collaboration, and working with parents are of great importance.

Keywords: Sports psychology, pre-competition stress, young athletes, psychoregulation, emotional stability, sports school, Uzbekistan.

*M*usobaqa oldi stressi sport psixologiyasida sportchining musobaqadan avvalgi holatida paydo bo'ladigan emotsional, fiziologik va kognitiv o'zgarishlarning majmui sifatida talqin qilinadi. Martens (1990) tomonidan ishlab chiqilgan CSAI-2 modeli stressni uch asosiy komponent orqali tushuntiradi: kognitiv tashvish (fikrlar orqali kechadigan xavotir), somatik tashvish (jismoniy belgilar), va o'ziga ishonch darajasi.

Yosh sportchilarda bu uch komponent orasida ayniqsa somatik belgilar — yurak urishining tezlashuvi, terlash, titroq, nafas qisishi kabi belgilar yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki o'smirlik davrida nerv tizimi hali to'liq yetilmagan, emotsiyalarni boshqarish mexanizmlari esa rivojlanish jarayonida bo'ladi. O'zini ommaga ko'rsatish istagi, ota-ona, murabbiy, jamoadoshlar oldidagi kutishlar natijasi yosh sportchida kuchli ichki bosim hosil qiladi.

Musobaqa oldi stressining sabablari quyidagilarga borib taqaladi:

sportchining musobaqani haddan ortiq dramatizatsiya qilishi; tayyorgarlikning yetarli emasligi yoki o'ziga ishonch pastligi; murabbiy va ota-onaning haddan tashqari bosimi; avvalgi muvaffaqiyatsizliklar yoki jarohatlardan qolgan salbiy taassurotlar; musobaqaning ijtimoiy va professional qiymati.

O'zbekiston sport tizimida musobaqalarga tayyorgarlik ko'proq jismoniy va texnik mashg'ulotlarga qaratilgan bo'lib, psixologik tayyorgarlik ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Bu esa musobaqa oldi stressining yuksak darajada namoyon bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Yosh sportchilar, ayniqsa o'smirlar, emotsional barqarorlik darajasining pastligi bilan ajralib turadi. Bu yoshda shaxsda o'ziga ishonch shakllanishi davom etmoqda, identitet izlanmoqda, va atrofdagi baholarga sezgirlik kuchli bo'ladi. Shuning uchun ular tashqi bosimni kuchliroq qabul qiladilar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 13–15 yosh oralig'idagi sportchilarda musobaqa oldi stressi darajasi 16–17 yoshdagi sportchilarga nisbatan yuqoriroq. Bu yosh farqi tajriba va emotsional nazorat ko'nikmasi bilan bog'liq. Tajribali yosh sportchilar stress holatlarini anglash va u bilan kurasha olish qobiliyatiga ko'proq ega bo'ladi.

Shuningdek, sport turining o'zi ham stress darajasiga ta'sir qiladi. Yakkakurash turlari — kurash, dzyudo, boksda stress kuchliroq namoyon bo'ladi, chunki sportchi muvaffaqiyat uchun to'liq o'zi javobgar. Jamoaviy sportlarda esa javobgarlik taqsimlanadi, bu esa emotsional bosimni yumshatadi.

Alohida qayd etish lozimki, qizlar o'g'il bolalarga nisbatan musobaqa oldidan ko'proq tashvishlanadi. Bu biologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Qizlar tashqi bahoga

sezgirroq, o'zini namoyon qilish ehtiyoji yuqoriroq, va stressni ichki holat sifatida chuqurroq his qilishadi.

Musobaqa oldi stressi sportchining jismoniy, psixologik va ijtimoiy holatiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Eng asosiy oqibatlari quyidagilardir:

Motorik harakatlarning buzilishi - stress vaqtida mushaklar haddan tashqari zo'rayadi, harakatlar notekis va noaniq bo'ladi.

Kognitiv funksiyalarning susayishi - diqqat tarqoq bo'ladi, strategik fikrlash sustlashadi, tez qaror qabul qilish qobiliyati pasayadi.

O'ziga ishonchning pasayishi - sportchi o'z kuchiga shubha qilishi, avvalgi muvaffaqiyatsizliklarni eslashi mumkin.

Motivatsiya yetishmovchiligi - muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish sportchining ishtiyoqini kamaytiradi.

Ijtimoiy chekinish - sportchi o'z muammosi haqida gapirmaydi, yolg'izlikka intiladi.

Bularning barchasi sportchining musobaqa natijasini bevosita yomonlashtiradi va uzoq muddatli psixologik oqibatlarga ham olib kelishi mumkin (masalan, sportdan voz kechish, depressiya, o'zini qadrlamaslik).

Yosh sportchilarda musobaqa oldi stressini boshqarish uchun kompleks, ilmiy asoslangan psixologik yondashuv zarur. Quyida eng samarali strategiyalar yoritiladi:

Sport mashg'ulotlariga emotsional tayyorgarlikni kiritish lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

Vizualizatsiya - sportchi musobaqa vaziyatini tasavvur qiladi va ijobiy natijani "ko'radi".

Nafas olish texnikasi - chuqur va ritmik nafas olish orqali tinchlanish.

Muskul relaksatsiyasi - progressiv mushak bo'shashtirish usullari.

Avtosug'estsiya - o'ziga ijobiy gaplar aytish, mental affirmatsiyalar.

Trener sportchining faqat texnik emas, balki emotsional holatini ham kuzatishi, unga psixologik yengillik yaratishga ko'maklashishi zarur. Psixolog esa individual suhbatlar, guruh treninglari orqali stress belgilarini aniqlaydi va yo'naltiradi.

Ota-onalarning yuqori kutishlari ko'pincha stressni kuchaytiradi. Ular sportchini emas, uning natijasini qadrlashadi. Shu bois:

ota-onalar uchun seminarlar tashkil etish; muvaffaqiyat va mag'lubiyatga sog'lom yondashuvni shakllantirish; bolani tinglash va ruhiy qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish zarur.

Sportchiga o'z stressiga o'zi tahliliy baho bera olish, uni boshqarish, o'zini ijobiy rag'batlantirish, xavotir sabablarini yozish va muqobil fikrlashni o'rgatish foydalidir. Bu orqali shaxsiy refleksiya shakllanadi.

O'zbekiston sport tizimida musobaqaviy stressni kamaytirishga qaratilgan quyidagi amaliy chora-tadbirlar taklif etiladi:

Har bir sport maktabida sport psixologi shartini joriy etish.

Psixologik treninglarni haftalik mashg'ulot jadvaliga kiritish.

Trenerlar uchun “psixologik liderlik” bo’yicha maxsus kurslar tashkil etish.

Stressni baholash testlarini (masalan CSAI-2) muntazam o’tkazib borish.

Ota-onalar ishtirokida “sog’lom musobaqaviy muhit” bo’yicha seminarlar o’tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Martens, R. (1990). *Competitive Anxiety in Sport*. Champaign, IL: Human Kinetics.
2. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2018). *Foundations of Sport and Exercise Psychology* (7th ed.). Human Kinetics.
3. Lazarus, R. S. (2000). How emotions influence performance in competitive sports. *The Sport Psychologist*, 14(3), 229–252.
4. Hanin, Y. L. (2000). Emotions in sport. *Human Kinetics*.
5. Humoyunov, A. (2021). *Sportchilar psixologiyasi: O’zbekiston tajribasi*. – Toshkent: O’zDJTI nashriyoti.
6. Karimova, N. (2019). Yosh sportchilar ruhiyatining asosiy xususiyatlari. – “Ilm va Taraqqiyot” jurnali, 4(2), 87–94.
7. Bek, A. T. (1988). *Anxiety Disorders and Phobias: A Cognitive Perspective*. Basic Books.
8. Ortiqov, B. (2020). Sport maktablarida psixologik muhitni shakllantirish yo’llari. – “Pedagogika va psixologiya” jurnali, 2(1), 55–61.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ ПЕРВОГО КУРСА К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ



Саидов Голибжон Комилович
преподаватель кафедры «Теория
и методика физической
культуры» Бухарского
государственного
педагогического института.



Е.Н. Тулайкина Студентка группы 4JM-24
факультета физической культуры
Бухарского государственного
педагогического института

Аннотация

Введение: Переход от средней школы к университету – критический этап, характеризующийся новыми академическими требованиями и изменившимися социальными условиями. Первокурсники сталкиваются с повышенным уровнем ответственности, необходимостью налаживать новые социальные связи и высокой учебной нагрузкой, что может вызывать психологический дискомфорт и снижать успеваемость.

Цель: Определить основные психологические барьеры адаптации студентов первого курса к высшему образованию и оценить их распространенность.

Материалы и методы: В исследовании приняли участие 200 студентов первого курса различных факультетов узбекских вузов. Использовались опросники, измеряющие уровни стресса и тревожности, а также полуструктурированные интервью с 20 добровольцами. Данные анализировались с помощью описательной статистики и тематического контент-анализа интервью.

Заключение: Стресс, тревожность, дефицит социальной поддержки и низкая самоэффективность выступают главными барьерами для успешной адаптации первокурсников. Рекомендовано внедрение систем психологического сопровождения, программ тьюторства и расширение ориентирующих мероприятий.

Ключевые слова: Психологические барьеры; адаптация; студенты первого курса; высшее образование; Узбекистан.

PSYCHOLOGICAL BARRIERS TO ADAPTATION OF FIRST-YEAR STUDENTS TO HIGHER EDUCATION

Abstract

Introduction: The move from secondary school to university marks a critical developmental period with new academic demands and altered social environments. First-year students face pressure to perform academically, build new social networks, and manage increased autonomy, which can lead to psychological distress and impede academic success.

Aim: To identify the main psychological barriers to adaptation among first-year students in higher education and assess their prevalence.

Materials and Methods: A total of 200 first-year students from various faculties of Uzbek universities completed standardized questionnaires measuring stress and anxiety levels. Additionally, 20 volunteers participated in semi-structured interviews. Quantitative data were analyzed descriptively, and qualitative data underwent thematic content analysis.

Conclusion: Stress, anxiety, insufficient social support, and low self-efficacy are the primary obstacles to successful adaptation of freshmen. It is recommended to introduce structured psychological support systems, peer-mentoring schemes, and expanded orientation activities.

Keywords: Psychological barriers; adaptation; first-year students; higher education; Uzbekistan.

BIRINCHI KURS TALABALARINING OLIY TA'LIMGA MOSLASHISHIDAGI PSIXOLOGIK TO'SIQLARI

Annotatsiya

Kirish: O'rta ta'limdan oliy ta'limga o'tish davri talabalarda yangi akademik talablar va ijtimoiy muhitga moslashishni talab qiladi. Birinchi kurs talabalari o'quv yuklamasi, ijtimoiy integratsiya va mustaqillik bosimlarini boshdan kechiradi, bu esa psixologik noqulaylik va o'qishda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Maqsad: Birinchi kurs talabalari moslashuviga to'sqinlik qiluvchi asosiy psixologik to'siqlarni aniqlash va ularning tarqalishini baholash.

Materiallar va metodlar: Tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining birinchi kurs talabalari orasidan tanlangan 50 nafar respondent so'rovnoma to'ldirdi va 20 nafar ishtirokchi bilan yarim strukturalangan intervyu o'tkazildi. Ma'lumotlar tavsifiy statistik usullar va mazmuniy tahlil yordamida tahlil qilindi.

Xulosa: Stress, xavotir, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi va o'z-o'ziga ishonchning pasayishi birinchi kurs talabalari moslashuviga asosiy to'siqlar ekanligi aniqlangan. Psixologik maslahat, mentorlik va orientatsiya dasturlari moslashuv jarayonini yengillashtirishi mumkin.

Kalit so'zlar:

Psixologik to'siqlar; moslashuv; birinchi kurs talabalari; oliy ta'lim; O'zbekiston.

Переход от среднего к высшему образованию является одним из ключевых этапов в жизни каждого молодого человека, поскольку он сопровождается фундаментальными изменениями в учебной, социальной и личностной сферах. В условиях динамично изменяющейся образовательной среды первокурсники сталкиваются с высокими академическими требованиями, расширенными самостоятельными обязанностями и необходимостью адаптации к новым социальным группам. В совокупности эти факторы порождают у студентов определённые психологические барьеры, препятствующие быстрому вхождению в университетскую среду и эффективному усвоению учебного материала. Выявление и анализ подобных барьеров имеет важное значение для разработки программ поддержки, направленных на снижение уровня тревожности, повышения мотивации и формирования у первокурсников устойчивых механизмов преодоления стрессовых ситуаций.

Одной из наиболее распространённых трудностей является академический стресс, возникающий вследствие роста объёма и сложности учебных нагрузок. Если в школе педагог в значительной степени курировал процесс обучения, то в вузе студент должен самостоятельно планировать своё время, распределять приоритеты и проявлять высокую степень самодисциплины. Недостаток навыков тайм-менеджмента и неопределённость в отношении учебной траектории приводят к возникновению чувства неуверенности и беспокойства, что нередко выливается в прокрастинацию или даже когнитивную блокировку при выполнении заданий. Помимо этого, новые требования к письменным работам, научным проектам и экзаменационным ответам заставляют первокурсников переосмысливать привычные стратегии учёбы, что само по себе является источником дополнительного психоэмоционального напряжения.

В социальной сфере первокурсники сталкиваются с необходимостью выстраивать новые межличностные связи и находить своё место в студенческих коллективах. Зачастую студенты приезжают из разных регионов, где существовали устойчивые дружеские и семейные связи, и впервые оказываются в ситуации, когда требуется быстро адаптироваться к инновационным группам по интересам и формальным студенческим объединениям. Отсутствие опыта активного взаимодействия в многокультурной среде, боязнь быть отвергнутым или непонятым, а также низкий уровень коммуникативной компетенции способствуют формированию чувства социальной изоляции или одиночества, что, в свою очередь, усугубляет академические трудности и препятствует нормальному эмоциональному состоянию.

Психологические барьеры в адаптации первокурсников к высшему образованию проявляются не только как реакция на внешние обстоятельства, но и как результат внутренних личностных характеристик. К числу таких барьеров относятся низкая самоэффективность – уверенность в собственной неспособности справиться с учебными задачами – и преобладающий у некоторых студентов контекст внешней локализации контроля, когда они объясняют успехи и неудачи внешними факторами (например, сложностью преподавателя или неблагоприятными условиями), а не своими усилиями. Оба эти феномена ведут к снижению мотивации, ускоренному выгоранию и, в конечном счёте, повышенному риску академической неуспеваемости или преждевременного отчисления.

В последние десятилетия проблема первичной адаптации к вузу стала объектом многочисленных международных исследований. Так, в работах зарубежных учёных подчёркивается важность ориентационных курсов, групповых тренингов по развитию навыков самоорганизации и программ наставничества как средств сокращения академического стресса и социального беспокойства у студентов первого курса. Эмпирические данные свидетельствуют о том, что вовлечение студентов в интерактивные семинары и коучинг существенно повышает уровень их уверенности и способствует формированию здоровых стратегий совладания со сложностями. Однако большая часть этих исследований проводится в западном контексте, что ставит вопрос о переносимости их выводов на условия отечественных вузов.

В узбекской научной литературе проблема психологической адаптации первокурсников рассматривается менее подробно, несмотря на растущее количество студентов, поступающих в высшие учебные заведения. Из отечественных изданий можно выделить исследования, посвящённые социальным аспектам студенческой жизни и общему уровню удовлетворённости учёбой, однако комплексные работы, фокусирующиеся на психологических барьерах, включающих академический стресс, тревожность и самооценку, встречаются относительно редко. Между тем образовательная система Узбекистана претерпевает масштабные реформы, ориентированные на повышение качества и доступности высшего образования, что делает актуальным вопрос создания адаптационных механизмов, учитывающих национально-культурные особенности студентов.

Среди существующих теоретических подходов ключевое место занимают когнитивно-поведенческие модели стресса Лазаруса и Фолкмана, которые рассматривают оценку ситуационных факторов как катализатор возникшей напряжённости. Согласно этой концепции, реакция студента на академические и социальные вызовы определяется не столько объективной сложностью задач, сколько субъективным восприятием угрозы и собственной способности с ней справиться.

Вторая важная парадигма – теория самоэффективности Альберта Бандуры, подчёркивающая, что уверенность в собственных возможностях прямо связана с качеством постановки целей и настойчивостью при их достижении. В контексте исследования адаптации первокурсников данные теории позволяют выстраивать модель взаимосвязи между внешними стимулами, когнитивной оценкой и типами поведенческих реакций.

Помимо этого, в последние годы появляется всё больше публикаций о роли социальных факторов – например, поддержки со стороны сверстников, семьи и преподавателей – как буфера против стрессовых состояний. Различные исследования демонстрируют, что активная социальная интеграция способствует снижению уровня тревожности и формированию чувства принадлежности, что, в свою очередь, повышает академическую успеваемость и психологическое благополучие. Тем не менее механизмы оказания эффективной социальной поддержки остаются предметом дискуссий: одни учёные акцентируют внимание на формальных институтах наставничества, другие – на неформальных студенческих сообществах.

